

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAKIMOV RASHID

AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYOTI

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy
o'quv yurtlarining 5400100 – “Iqtisodiyot” (qishloq xo'jaligi) ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan**

Toshkent – 2006

Xakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti (Darslik). – T.: TDIU, 2006 – 386 b.

Ushbu darslikda agrosanoat integratsiyasining chuqurlashuvi, rivojlanishi natijasida ob'yektiv ravishda shakllanadigan agrosanoat majmuasining mohiyati, uning tarkibi, iqtisodiyotda tutgan o'rni, majmuaga kiruvchi sohalarning hozirgi holati, rivojlanish yo'nalishlari, ularning iqtisodiy resurslari va ulardan foydalanish darajasi hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Darslikda agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini hisoblanadigan qishloq xo'jaligi tarmog'ining yer-suv, mehnat, moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish masalalari, tarmoqda ishlab chiqarishni tashkil etishning shakllariga oid mavzular batafsil yoritilgan. Darslikda agrosanoat majmuasi tarmoqlari mahsulotlariga narxning shakllanishi, mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi hamda majmua tarmoqlarida moliya-kredit tizimlarining amal qilish mexanizmiga bag'ishlangan mavzular berilgan. Alohida e'tibor agromarketingni tashkil etish va uning samaradorligiga hamda yevropa hamjamiyatining yagona agrar siyosatiga oid mavzularga qaratilgan.

Darslikning 14, 15 va 16 mavzularini tayyorlashda yaqindan yordam ko'rsatgan dotsent Otaqulov M.K. va katta o'qituvchi YUsupov M.S.ga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Darslik 5340100 – “Iqtisodiyot” (qishloq xo'jaligi) ta'lim yo'nalishi hamda o'quv rejasiga kiritilgan bakalavriat yo'nalishdagi talabalar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Hayitov A.B. – TDIU “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, i.f.n., dots.

Taqrizchilar:

1. **Salimov B.T.** – TDIU “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedراسi mudiri, i.f.d., prof.
2. **Xakimov N.X.** - G.V.plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot akademiyasi Toshkent filiali prorektori, prof.

Ekspertlar:

1. **Usmanov B.B.**, TDIU o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, i.f.n., dots.;
2. **O'roqov N.I.**, TDIU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası katta o'qituvchisi.

Хакимов Р. Экономика агропромышленного комплекса (Учебник). – Т.: ТГЭУ, 2006. – 386 с.

Данный учебник подготовлен с учётом требований концепции нового поколения учебников и в соответствии с утвержденный МВиССОРУз учебной программой курса «Экономика агропрмышленного комплекса».

В нем рассмотрены вопросы углубления и развития агропромышленной интеграции, показаны роль и место агропрмышленного комплекса в экономике странў. Дана структура агропромышленного комплекса, изучены современное состояние развития отраслей АПК. В учубнике особое внимание уделено производственным ресурсам агропромышленного комплекса, показаны пути повышения эффективности использования этих ресурсов. В учебнике отдельно рассмотрены вопросы формирования и методика определения себестоимости продукции АПК.

В ученике особое внимание уделено вопросам ценообразования и маркетинга АПК. Последняя глава учебника посвящена вопросам изучения уединой аграрной политики стран Европейского Союза.

Автор выражает свою благодарность доценту Отакулову М.К. и старшему преподавателю Юсупову М.С. за оказенную большую помощь в подготовке глав 14, 15 и 16 данного учебника.

Учебник предназначен для студентов экономических вузов и факультетов. Он может быть использован аспирантами, слушателями курсов повышения квалификации, научными и практическими работниками предприятий и организаций.

Ответственный редактор:

Бекмуродов А.Ш. – проректор по учебной работе ТГЭУ, д.э.н., проф.

Рецензенты:

1. Салимов Б.Т. – заведующий кафедрой «Экономика отраслей» ТГЭУ, проф.
2. Хакимов Н.Х. – проректор Ташкентского филиала Российской Экономической Академии им. В.Г.Плеханова, проф.

Эксперты:

1. Усманов Б.Б.- начальник учебно-методической части ТЭГУ, доц.
2. Юсупов М.С. – ст. преподаватель кафедры «Экономика отраслей» ТГЭУ.

Hakimov R. Agraindustrial complex yeconomy. T.: TSUE, 2006. – 386 p.

Significance agroindustrial complex formed under forms of agroindustrial integretion yextention and development, its structure and yeconomic importance, the state of agroindustrial complex fields, their development directions, yeconomic resources, and their utilization yextent and assisgnments on their yeconomic productivity imporement are described in this text-book. In the textbook topics concerned yeffective utilization of land, water, labour, material and technical resources of agroindustrial complex organization of production as well. The themes on agroindustrial production price formation, prime cost of labour and services, mechanizm of financial-credit operations in the complex are performtd.

particularle topics on agromarketing organization, its productivity and single agrarian policy of yeuropean Commonwealth are lightened author thanks docent Otaqulov M.K and senior teacher Yusupov M.S. for their assistance in prepariny topics 14, 15, 16.

The textbook in desighed for bachelor students of 5400200 – yeconomy speciality and oter specialities in accordance with curraculum.

Editor-in-chief: Bekmurodov A. SH.– vaic rector TSUE, professor.

Reviewers:

1. Hakimov N.H. – professor,
2. Salimov B.T. – chief of : “Agrarian yeconomy” department of TSUE, professor

Experts:

1. Usmanov B.B. – chief of training-methods department of TSUE, bachelor of yeconomy, docent.
2. Ysupov M.C. – senior teacher of “Agrarian yeconomy” department of TSUE.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarasi ko'p jihatdan agrosanoat majmuasi tarmoqlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda agrosanoat majmuasining ahamiyati va o'рни katta. Agrosanoat majmuasi faoliyatining asosiy maqsadi, bosh funktsiyasi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish bilan o'zaro bog'langan tizimning maqsadga muvofiq, bir me'yorda barqaror ishlashini ta'minlash, provardida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishdan iborat. Majmuada bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, mahsulotlar miqdori va sifatini oshirish, ishlab chiqarishning eng samarali va maqbul shakllarini vujudga keltirish, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy quvvatini, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. SHu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda. Bu e'tiborning natijasi o'laroq, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasi tarmoq hamda korxonalari faoliyatini yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilib borilmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida mamlakat iqtisodiyotida katta sifat o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, mulkiy munosabatlar takomillashdi va bu holat agrar sohada nodavlat sektorning tez rivojlanishiga olib keldi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 99,0 foizidan ortiqrog'i nodavlat sektorda ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosan fermer, dehqon va shirkat xo'jaliklari shaklida tashkil etildi, bozor talablari va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqirishning tarkibi o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida

malakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi, Aholining don mahsulotlariga bo'lgan talabini hisobga olib g'allachilik tarmog'i keskin kengaytirildi. Natijada g'allachilik bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan maxsus tizim (tarmoq) vujudga keldi. G'alla urug'chiligi keng yo'lga qo'yildi, g'allachilikning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan zarur moddiy – texnika bazasi yaratildi. Respublikada chorvachilik tarmog'i deyarli xususiylashtirildi. Mamlakatda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi va ularni eksport qilish masalalari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ijobiy hal qilinmoqda. Bu o'zgarishlar iqtisodiy fanlar, jumladan, “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Chunonchi agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni imkon darajasida bir-biriga mutanosib rivojlantirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish masalalari yanada kuchaymoqda. Bozor munosabatlarining rivojlantirilishi biz uchun nisbatan yangi hisoblangan marketing, menejment, iqtisodiy havfsizlik, moliya va soliq, inflyatsiya, monopoliyaga qarshi kurash va raqobatni rivojlantirish, bankrotlik, birja, shartnomaviy munosabatlar kabi ko'plab iqtisodiy masalalarni chuqur o'rganishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasida asosiy vositalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishiga e'tibor juda katta. Respublika agrosanoat majmuasi tarmoqlari, ayniqsa, qishloq xo'jaligi fan yutuqlari, yangi texnikalar, ish qurollari, texnologiyalarsiz jadal rivojlana olmaydi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda.*

Ushbu tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini kimyolashtirish, elektrlashtirish, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. O'zbekistonda agrosanoat majmuasining birinchi (agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi) sohasining rivojlanishiga e'tiborning yanada

* Xalq so'zi // 2006 yil 11 iyul

kuchayishi talab qilinadi. Birinchi soha tarmoqlarini rivojlantirilishi agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlarning fond bilan ta'minlanishi va mehnatning fond bilan qurollanishini yaxshilashga, provardda ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlari rivojlanishiga va aholining turmush sharoitlarini yuksalishiga olib keladi. Ushbu sohani rivojlantirish mamlakat agrosanoat majmuasi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ta'minotining importga bog'lanib qolishini oldini oladi. Mamlakat iqtisodiyoti sanoatlashadi, qo'shimcha ish joylari tashkil etiladi.

Mamlakat agrosanoat majmuasining xalqaro aloqlarini rivojlantirish, dunyo mamlakatlari tarjibalari va ilg'or texnologiyalaridan oqilona foydalanish katta ijobiy amaliy ahamiyatga ega. Bugungi kun dunyo davlatlari taraqqiyoti shu darajaga yetdiki ularning o'zaro bog'liqligi alohida olingan davlat iqtisodiyotining natijalarida tobora ko'proq salmoqqa ega bo'lmoqda. Mamlakatlararo, dunyo iqtisodiyotida integratsiyalashuv jarayoni kuchayib ketdi. Bu o'z navbatida dunyoda mavjud ilg'or texnika va texnologiyalardan, moliyaviy resurslardan kengroq foydalanishni talab qiladi. Shuningdek, O'zbekiston xalqlari iqtisodiyotning tarmoqlarini jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida ko'p asrlik katta tajribaga ega. Bugungi kun talabi ushba bilim, tajriba va texnologiyalarni targ'ib qilish va dunyoga tarqatish zarurati ham mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni ilmiy hal etish uchun zaruriy nazariy bilimlarni o'zlashtirishda ushbu darslik asos bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining asosiy maqsadi talabalarda mamlakat agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi, uni barqaror va jadal rivojlantirish muammolari, majmuaning resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari to'g'risida hamda sohani boshqarish, tartibga solib turish maqsadida zarur boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun yetarli darajada nazariy va amaliy bilimlar majmuasini shakllantirish hisoblanadi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani bo'yicha o'quv adabiyotlarning qiyosiy tahlili.

O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib "Kadrlar tayyorlash Milliy Davlat dasturi" amal qilmoqda. Dasturning ikkinchi bosqichining asosiy vazifasi qilib sifat masalasi qo'yilgan. Tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilimli, har tomonlama kuchli, raqobatbardosh bo'lishi ko'p jihatdan o'qitilayotgan fanlar, ularning sifati, hajmi, ketma-ketligi kabi omillarga bog'liq. Iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh omillaridan biri zamon talablariga javob beradigan, har qanday qiyin muammolarni yecha oladigan kadrlarning mavjudligidir. Bunday kadrlarni tayyorlashda o'quv adabiyotlarning o'ri va ahamiyati beqiyos. Yuqori darajada bilim va malakaga ega kadrlarni tayyorlashda boshqa ko'plab omillar qatorida sifatli o'quv adabiyotlari ham talab qilinadi. Yuqorida aytganimizdek alohida olingan davlatning o'z qobig'ida jadal va barqaror rivojlanish imkoniyatlari cheklangan. Bu borada juda yaqindan fan, texnika va texnologiyalar almashinuvi yuz bermoqda. Shu bilan birgalikda biror narsaning, fanning, hodisaning qay darajada samarali yuz berayotganini bilishning eng maqbul yo'llaridan biri taqqoslashdir. Taqqoslash usuli orqali har bir narsaning nafiligi, samarasi qanday ekanligiga baho berish mumkin. Shu maqsadda "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanining bizning oliy o'quv yurtlarida qancha miqdorda va qanday tarkibda o'tilayotganini boshqa davlatlardagi holat bilan taqqoslashni maqsadga muvofiq deb topdik va Rossiya Federatsiyasi oliy o'quv yurtlarida ushbu fan qanday miqdorda va tarkibda o'tilayotgani bilan taqqosladik.

TDIUda bakalavrlar uchun "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani bo'yicha mavjud ta'lim dasturlarini Rossiya Federatsiyasi oliy o'quv yurtlarida ushbu fanni o'qitish holati bilan qiyosiy tahlil qilganimizda quyidagi natijalarga ega bo'ldik.

TDIUda bakalavrlar uchun "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanidan jami bo'lib 140 soat dars o'tiladi. Shundan 60 soat ma'ruza, 60 soat amaliy va 20 soat mustaqil ta'lim. Mavzular soni 17 ta. 6, 8, 10 va 12 –mavzularga 2 soatdan, qolgan mavzularga 4 soatdan vaqt ajratilgan. Seminar va amaliyot darslari uchun ham 17 ta mavzu ajratilgan.

Rossiya Federatsiyasining Voronej Davlat Qishloq Xo'jaligi Universiteti (VDQXU)da "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" (Экономика АПК) fani 216 soat o'qitiladi. Shundan 76 soat ma'ruza va 76 soat amaliyot va 64 soat mustaqil ta'limga ajratilgan. Bu fan ikki semestrda o'qitiladi va undan kurs ishi loyihasi 8-semestrda bajariladi.

Fan 16 mavzuga bo'lib o'rganiladi. 7-semestrda 10 ta mavzu o'tiladi va buning uchun 38 soat ma'ruza va 42 soat amaliyot darsi ajratilgan. 8-semestrda 6 ta mavzu o'tiladi. Ular uchun 38 soat ma'ruza va 34 soat amaliyot ajratilgan.

VDQXU va TDIUda "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanining mavzular bo'yicha taqsimlanishida qiyosiy tahlilini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval

VDQXU va TDIUda "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanining mavzular bo'yicha taqsimlanishida qiyosiy tahlili

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti				Voronej Davlat Qishloq xo'jaligi Universiteti		
№	Mavzular nomi	Auditoriya soatlari		Mavzular nomi	Auditoriya soatlari	
		Ma'ruza	Amaliyot		Ma'ruza	Amaliyot
1	"Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari	4	2	Предмет, методы и задачи науки	4	4
2	Agrosanoat majmuasining mahiyati va tarkibi	4	2	Сельское хозяйство как отрасль	4	2
3	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha	4	2	Предложение сельскохозяйственной продукции	4	4
4	Agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi	4	2	Спрос на сельскохозяйствен-	4	4

	mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib beruvchi soha			ную и продовольственную продукции		
5	Agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi	4	2	Аграрная структура	4	4
6	Agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasi	2	2	Агробизнес	6	4
7	Qishloq xo'jaligi – agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini	4	2	Сельскохозяйственной меркетинг	6	4
8	Qishloq xo'jaligi yer fondi va undan foydalanish	2	4	Сельскохозяйственный кредит	4	4
9	Agrosanoat majmuasining mehnat resurslari va ulardan foydalanish	4	4	Земельные отношения	4	4
10	Agrosanoat majmuasining moddiy-texnika resurslari va ulardan foydalanish	2	4	Агропродовольственная политика	4	4
11	Agrosanoat majmuasi tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxi	4	4	Экономика государственного регулирования агропродовольственного сектора	2	2
12	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari mahsulotlari narxлари	2	4	Агропродовольственная политика США	4	4
13	Agrosanoat majmuasida fan, texnika tarqqiyoti va intensivlashtirish	4	6	Единая аграрная политика Европейского сообщества	4	4
14	Agrosanoat majmuasi	4	6	Агропродовольст -	6	6

	marketingi va uni samaradorligi			венная политика некоторых других стран мира		
15	Agrosanoat majmuasini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash	4	6	Проблемы реформирования агропромышленного комплекса в постсоциалистических странах	6	6
16	Agrosanoat majmuasida moliya-kredit tizimining amal qilish mexanizmi	4	4	Современная аграрная реформа в России	10	16
17	Evropa Hamjamiyatining yagona agrar siyosati	4	4	-		
	Jami	60	60	Всего	76	76

Ushbu fan K.A.Temiryazov nomidagi Moskva Qishloq Xo'jalik Akademiyasi iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalari uchun 110 soat ma'ruza va 110 soat amaliyot darslari hajmida o'tiladi. Fan bo'yicha umumiy auditoriya darslari 220 soatni tashkil etadi. Asosiy o'quv adabiyoti sifatida professor I.A. Minakov boshchiligida nashrdan chiqarilgan "Экономика отраслей АПК" darsligi qabul qilingan. Ushbu darslik 464 betdan va 32 ta bobdan iborat. Bu darslikda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi tarmog'i va uning ishlab chiqarish resurslariga berilgan. Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligi tarmog'ida salmoqli o'rinni egallagan ekin turlari iqtisodiyoti ham chuqur o'rganilgan. Biz qishloq xo'jaligini agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini sifatida qaraganmiz. TDIU da "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanidan boshqa "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" va "Fermar xo'jaliklari iqtisodiyoti" fani o'tiladi. Ushbu fanlarda qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari iqtisodiyoti chuqur o'rganishini hisobga olib, fanlarda asoslanmagan takrorlanishga yo'l qo'ymaslik uchun qishloq xo'jaligi ekin turlari va chorvachilik yo'nalishlari iqtisodiyoti ushbu fanda alohida bob sifatida o'rganilmaydi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining barcha boblarini o’tishda pedagogik texnologiyalarning “blits-so’rov”, “insert”, “aqliy hujum”, “pinbord”, “delfi”, “klaster”, “koop-koop” kabi usul va texnikalaridan keng foydalaniladi.

1-BOB. “AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYOTI” FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA O’RGANISH USULLARI

1.1. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmeti, boshqa fanlar bilan bog’liqligi va o’rni

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani iqtisodiy fanlar tarkibiga kiradi. Har qanday davlatning iqtisodiyoti ma’lum tarmoq, soha va xizmatlar yig’indisidan iboratdir. Ushbu tarmoq, soha va xizmatlar ichida agrosanoat majmuasi eng asosiy sohalardan biri bo’lib, insoniyatning hayoti, turmush darajasi ko’p jihatdan uning rivojlanishi bilan belgilanadi. Agrosanoat majmuasida insonlar uchun hayot manbai hisoblangan oziq-ovqat, kiyim kechak, sanoatning ko’plab tarmoqlari uchun xomashyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Boshqacha qilib aytganda, insonlarning hayoti bilan bevosita bog’langan soha hisoblanadi. Ushbu sohaning insonlar hayoti bilan bevosita bog’liqligi uni rivojlantirish bilan bog’liq qator zarurlarni keltirib chiqaradi. SHu tufayli agrosanoat majmuasini rivojlanishini ta’minlaydigan bilimlarni o’rganish zarurati tug’iladi. Natijada boshqa iqtisodiy fanlar qatorida agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti fani ham shakllanib, rivojlanib kelmoqda.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani o’z o’rganish ob’yektlari va predmetiga ega. Fanning predmeti ob’yektiv iqtisodiy qonunlarning agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarida amal qilishining o’ziga xos tomonlarini o’rganish hisoblanadi. Doimiy rivojlanishda bo’lgan ushbu fan agrosanoat majmuasi tarmoqlari iqtisodiyotida yuz berayotgan o’zgarishlar, ulardagi ishlab chiqarish omillari: mehnat resurslari, yer va suv fondi, asosiy ishlab chiqarish vositalari va tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo’llarini o’rganadi. Fan agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarning o’ziga xos xususiyatlarini, ularda ishlab chiqarishni samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar va ularning ta’sirini ham o’rganadi. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani agrosanoat majmuasi tarmoqlari taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy tendentsiyalarni o’rganadi va mutaxassislarga ularni yaxshilash yo’nalishlari to’g’risida zarur bilimlarni beradi. Mamlakatda olib

borilayotgan iqtisodiy siyosatning agrosanoat majmuasi tarmoqlarida amalga oshirish jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni o'rganadi hamda ularning yechimlari to'g'risidagi bilimlarni o'zida mujassam etadi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani o'z predmetini quyidagi tartibda o'rganadi: dastlab agrosanoat integratsiyasi, majmuaning shakllanish qonuniyatlarini, agrosanoat majmuasining mohiyati, uning tarkibini o'rganadi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlariga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning tarkibi, hozirgi holati, ularni rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan muammolar va ularni yechish yo'nalishlarini belgilovchi iqtisodiy bilimlar bilan mutaxassislarni (talabalarni) tanishtiradi.

Agrosanoat majmuasi tarkibida muhim o'rinni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar egallaydi. Agrosanoat majmuasining 3-sohasini tashkil etuvchi bu tarmoqlarning tarkibini, hozirgi rivojlanish darajasini, ulardagi kamchilik va muammolarni tartibga solib ko'rsatadi va ularni yechish yo'llarini o'rganadi.

Agrosanoat majmuasi tarkibida infratuzilmaning ahamiyati katta. Infratuzilma agrosanoat majmuasining 4-sohasi hisoblanadi. Bu fan infratuzilmani ikkiga bo'lib o'rganadi. Birinchi qismga agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi, ikkinchi qismga majmuaning ijtimoiy infratuzilmasi kiradi. Infratuzilmaning (ishlab chiqarish va ijtimoiy) mohiyatini, ahamiyatini, vazifalarini, tarkibini, uning rivojlanish tendentsiyalarini tartibga solib o'rganadi. Keyingi mavzuda agrosanoat majmuasining 2-sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'ining tarkibi, hozirgi holati, tarmoqda mavjud bo'lgan yutuq va kamchiliklar va sohani rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganadi. Agrar sohaning ishlab chiqarish omillaridan foydalanish darajasi va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llarini tartibga solib o'rganadi. Qishloq xo'jaligi marketingi alohida bir mavzu sifatida yoritiladi. Mamlakatimiz moliya va kredit siyosatining agrosanoat majmuasi tarmoqlari iqtisodiyotidagi o'rni beqiyosligini hisob olib, ularni alohida mavzu sifatida o'rganadi. O'zbekiston

Respublikasining dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonining tezlashib borayotgani o'z navbatida xorijiy davlatlarning agrar siyosatini o'rganish katta ahamiyatga egaligini e'tiborda tutib, yevropa hamjamiyati davlatlarining yagona agrar siyosati to'g'risida ham qisqacha ma'lumotlar beradi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini iqtisodiyotini o'rganishda asosiy e'tiborni agrosanoat majmuasi manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'rganadi. SHu sababli qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining resurslaridan foydalanishning darajasi va samaradorligini aniqlash usullariga katta e'tibor bermaydi. Balki tarmoq iqtisodiyotini o'rganuvchi fanlarning yutuqlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish dinamikasini o'rganadi va tegishli xulosalar chiqaradi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani moddiy ishlab chiqarishning iqtisodiy masalalari bilan bog'liq bo'lganligi sababli boshqa iqtisodiy fanlar kabi quyidagi amaliy masalalarga javob izlaydi va ularni mo''tadil yechimini topadi.

1. Mamlakat agrasanoat majmuasi nima ishlab chiqarishi kerakligini aniqlashi va uning eng mo''tadil tarkibini topishi lozim. Respublika tabiiy-iqlim, mehnat va ishlab chiqarishning moddiy resurslari hamda bozor talablarini hisobga olgan holda nima yetishtirish kerakligini belgilashi kerak. Bu juda muhim va qiyin masala bo'lib, ushbu fan nima ishlab chiqarish lozim degan masalaning yechimini topish ustida fikrlar yuritadi. Bu masalani hal etishda mamlakatning mahsulotlarga bo'lgan talabi aniqlaniladi. Ushbu talabni qondirish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligi o'rganiladi. Respublika uchun qaysi mahsulotlarni yetishtirishning absolyut va nisbiy ustunlik jihatlari o'rganiladi. SHundan so'ng nima yetishtirish kerak degan savolga javob beradi. Bu doimiy rivojlanishda bo'lib, davrlar o'tishi bilan ishlab chiqarishning tarkibi o'zgarib boradi.

2. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani ne'matlardan qancha va qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga ham javob izlaydi. Bu masala juda muhim bo'lib, qancha ishlab chiqarish kerak degan savolga javob berish uchun mamlakatning ushbu ne'matlarga bo'lgan talabi va uni ishlab chiqarish uchun

imkoniyatlari aniqlanadi. Qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga javob berish uchun yetishtirilayotgan mahsulotlar qanaqa texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi belgilanadi. Bu savolga javob topish uchun mamlakat o'z resurslarining qancha qismini ushbu ne'matlarni yaratishga ajrata olishini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun mos keladigan ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish katta amaliy ahamiyatga ega.

3. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani majmua mahsulotlari kim uchun ishlab chiqariladi degan savolga javob topishi lozim. Bu bir ko'rinishda oddiy masaladek ko'rinsa-da, aslida juda murakkab masala hisoblanadi. Bu masala qanchalik murakkab, tez o'zgaruvchan bo'lmasin unga doimo javob topib turish zarurati mavjud.

"Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani har bir tarmoq iqtisodiyotini alohida-alohida emas, balki ulardan har biriga tegishli ma'lumotlar asosida oxirgi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, uning tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulotlar sifatini yaxshilashni ta'minlovchi mexanizmni yaratish nuqtai nazardan o'rganadi.

"Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani "Iqtisodiy nazariya", "Mikroiqtisodiyot", "Makroiqtisodiyot", "Marketing", "Menejment", "Iqtisodiy statistika", Iqtisodiy geografiya", "Mintaqa iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi huquqi" , "Korxona iqtisodiyoti", "Mehnat iqtisodiyoti" kabi qator fanlar bilan uzviy bog'liq. SHu bois u o'z predmetini ko'plab fanlar yutuqlaridan foydalangan holda o'rganadi. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani juda ko'plab iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi va ularda erishilgan yutuqlar bilan boyib boradi, o'z navbatida, boshqa iqtisodiy fanlarning rivojiga ham salmoqli hissa qo'shadi.

Bu fanning rivojiga bizning mamlakatimizda akademiklar, Jalilov X.M., Usmanov S.N., Kim V.V., Xusanov R.X., G'ulomov S.S., Lapkin K.I., i.f.d., professorlar Qayumov F.Q., Abdug'aniev A.A., Xasanjanov Q.S., Jo'raev A., Xusanov M., Shokirov A., Yusupov E., Xushmatov N., Hamdamov Q.S., Zokirov O.,

dotsentlar Maxmadiev U., Gavriyuk L., Ogureeva G.A., Ziyavutdinov SH., Ismailova F., Xolbotirova U., Galiev B., Kim V.M., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Raximov B.R., Raximov S.B., Abdullaev B.M., Mirzajonov M.Q., Murtozaev O., Mamatvaliev T., Aripov M., Aripov I.M., O'roqov N.I., Xudoyberdiev O'., kabi ko'plab agrar iqtisodchilar katta hissa qo'shdilar.

1.2. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmetini o'rganish usullari

Barcha fanlar o'z o'rganish predmetiga ega. Ular o'z predmetlarini o'rganishda turli tuman usullardan foydalanadilar. Jumladan, iqtisodiy fanlar ham o'z predmetini o'rganishda o'ziga mos usullar tizimidan foydalanadi. Iqtisodiy fanlar o'z predmetlarini o'rganish maqsadida qanday usullardan foydalansa, “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani ham shu usullaridan foydalanadi. Faqatgina o'z xususiyatlaridan kelib chiqib ayrim usullardan ko'proq, ayrimlaridan kamroq foydalanadi.

Uslubiyat bu ilmiy bilishning tamoyillari, shakl va uslublari to'g'risidagi qarashlardir. Uslubiyat qator usullar yig'indisini o'z ichiga oladi. Har bir o'z uslubiyatidan kelib chiqib usullar guruhini tanlaydi. Usul deganda biror qonuniyatni, hodisa yoki jarayonni nazariy tekshirish va amaliy yechishning vositasi, yo'li tushuniladi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani agrosanoat majmuasida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi, majmuaga kirgan tarmoqlar, korxonalarni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar, bilimlar beradi. Fanning bergan tavsiyalari asosida majmuani boshqarish, undagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani iqtisodiyotda yuz berayotgan voqealarni, jarayonlarni tasvirlaydi. Ushbu jarayonlar chuqur tahlil qilinadi va ob'yektiv, ilmiy asoslangan xulosalar olinadi. Tahlil oqibatida olingan natijalarning xususiyatlari aniqlanib ularni takomillashtirish, rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani o‘z predmetini o‘rganishda quyidagi muayyan usullardan ko‘proq foydalanadi. Fan o‘z predmetini o‘rganishda foydalanadigan usullarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga o‘rganishning umumfan usullari kiradi. Bu usullarga: ilmiy abstraktsiya, induksiya, deduktsiya, qiyosiy tahlil, tarjiba, faraz, kabilar kiradi. Ikkinchi guruhga maxsus usullar kiradi. Bularga: monografik tadqiqotlar, iqtisodiy–matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil va sintez, iqtisodiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik, balans, hisob konstruktorlik kabi usullar kiradi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani tarixiy fandır. U o‘z shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Fanning muammolarini o‘rganish juda qadim davrlarga borib qadaladi. Lekin alohida fan sifatida shakllanganiga uncha katta vaqt bo‘lgan emas. Adabiyotlarda “agrosanoat integratsiyasi”, “agrobiznes”, “agrosanoat majmuasi” tushunchalarining paydo bo‘lishi 1950 yillar oxiriga to‘g‘ri keladi. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” alohida fan sifatida 1960 yillardan boshlab o‘rganila boshlandi. Bizning mamlakatimizda bu fan 1970 yillarning o‘rtalarida shakllandi va mutaxassislar tomonidan o‘rganilib, rivojlantirilmoqda. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani dinamik rivojlanib boryotgan fanlar qatoriga kiradi. SHu sababli dunyo iqtisodiyotida va mamlakat iqtisodiy siyosatida yuz berayotgan hodisalar “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi. Shunday ekan, fan o‘z predmetini o‘rganishda tarixiy–dealektik rivojlanish usulidan ham keng foydalanadi. Bunda majmuaga kirgan bir tarmoqda yuz bergan o‘zgarish uning boshqa tarmoqlari foliyatida o‘z aksini topishi doimiy hisobga olinib turiladi. Demak, “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani boshqa iqtisodiy fanlar kabi iqtisodiyotda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarni bir-biriga bog‘liq holda o‘rganadi.

1.3. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining vazifalari

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining asosiy maqsadi o‘quvchilarni majmuaning iqtisodiy masalalari bo‘yicha davlat standartlari darajasida barcha

zaruriy bilimlar majmuasi bilan qurollantirishdir. Mutaxassislarga majmuada yuzaga keladigan ko'plab iqtisodiy muammolar va masalalarning mo''tadil yechimini topishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining asosiy vazifasi o'quvchilarni agrosanoat majmuasi tarmoqlarida iqtisodiyotning dolzarb masalalari bilan tanishtirish, ularni yechish bo'yicha mutaxassislarga yetarli darajada bilim berishdir. Ushbu masalalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- agrosanoat integratsiyasi;
- agrosanoat majmuasi tarmoq tarkibi;
- agrosanoat majmuasi tarmoqlari rivojlanishining hozirgi holati;
- majmua tarmoqlaridagi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo'llari;
- agromarketing;
- agrosanoat majmuasi menejmenti;
- majmuaning moliya va kredit, soliq siyosati;
- agrosanoat majmuasi tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishlari.

Ushbu masalalarni to'g'ri tushunish va ularning yechimlari to'g'risidagi bilimlar bilan talabalarni, mutaxassislarni qurollantirish agrosanoat majmuasining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Fanni o'rganish tufayli o'quvchi agrosanoat majmuasi to'g'risida, uning iqtisodiy masalalari, muammolari haqida minimal bilimlar majmuasiga ega bo'ladi. Turli tarmoqlar iqtisodiyotini alohida-alohida o'rgangan mutaxassislarni agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlar iqtisodiy manfaatlarini bir –biriga moslashtirishning, ta'bir joiz bo'lsa, bo'ysundirishning zarurligi to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani talabalarning iqtisodiy bilimlari yanada mukammal bo'lishini ta'minlaydi, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida to'g'ri xulosalar chiqarish va mo''tadil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Mamlakat hukumatining iqtisodiy siyosatini o'rganish va uning tegishli qismini mutaxassislarga yetkazish ushbu fanning asosiy vazifalaridan biridir. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani talabalarga bir-biri bilan texnologik jihatidan bog'langan ko'plab tarmoqlar mutanosib rivojlanishi zarurligi to'g'risidagi bilimlarni o'rgatadi, aholining turmush darajasi, eng avvalo, ushbu majmua tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga va ularning mutanosib rivojlanishiga bog'liq ekanligini isbotlaydi.

Agrosanoat majmuasi resurslaridan foydalanishning eng maqbul yo'llari va yo'nalishlarini ko'rsatish ham ushbu fanning vazifasiga kiradi. U mutaxassislarga agrosanoat majmuasi korxonalari mahsulotlariga bo'lgan talab uzoq va qisqa davrlarda shakllanishining umumiy qoidalarini o'rgatadi, ularni majmua mahsulotlariga narx shakllanishining o'ziga xos tomonlari va xususiyatlari to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish juda muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayonda agrosanoat majmuasining o'рни beqiyos hisoblanadi. Majmuaning rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini belgilab beradi. Majmuaning rivojlanishi uning tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarning rivojlanishiga bog'liq. Biror tarmoqda mavjud kamchilik, oqsoqlik majmuaning boshqa barcha tarmoqlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHu sababli agrosanoat majmuasiga kirgan tarmoq va sohalarni bir biriga mutanosib rivojlantirish zarurati mavjud. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani o'z predmetini o'rganishda yuqoridagi holatni hisobga olgan holda talabalarga zarur bilimlar olishda imkoniyat yaratishi uning vazifalaridan biri hisoblanadi.

"Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanida belgilangan mavzularning mohiyatini ochishda xorijiy davlatlarda ushbu sohada erishilgan fan va ishlab chiqarish yutuqlaridan keng foydalanadi. Xorijiy davlatlarda erishilgan fan va ishlab chiqarish yutuqlaridan O'zbekiston Respublikasida foydalanishning imkoniyatlari to'g'risida mutaxassislarga bilimlar berish uning asosiy vazifalaridan sanaladi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani o‘z mohiyatini ochishda O‘zbekiston Respublikasining agrar, iqtisodiy siyosatini asos qilib oladi va ularning mohiyati bilan mutaxassislarni yaqindan tanishtiradi.

Qisqacha xulosalar

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmeti – ob‘yektiv iqtisodiy qonun va qonuniyatlarning majmua tarmoqlarida amal qilishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdir. Fan o‘z predmetini o‘rganishda agrosanoat majmuasi tarmoqlarining rivojlanish dinamikasini alohida–alohida emas balki bir-biriga bog‘liq holda o‘rganadi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining asosiy vazifalari: mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasi tarmoqlarining iqtisodiy muammolari, ularning hozirgi holati va yechimlari to‘g‘risidagi kompleks bilimlar bilan qurollantirish; mutaxassislarga agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mavjud muammolar va ularning yechimi borasida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlari uchun zarur ma’lumotlar berish; agrosanoat majmuasini rivojlantirish borasida davlat siyosatini o‘zida mujassamlashtirish va ularning mohiyati bilan mutaxassislarni qurollantirish hisoblanadi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani “Iqtisodiy nazariya”, “Makroiqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot”, “O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti”, “Iqtisodiy geografiya”, “Iqtisodiy statistika”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Fermer xo‘jaliklari iqtisodiyoti” “Korxona iqtisodiyoti” kabi ko‘plab iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani tarixiy fan bo‘lib mustaqil yo‘nalish sifatida 1960 yillarda shakllandi. Uning rivojiga ko‘plab agrar iqtisodchi olimlar hissa qo‘shdi. Bu fanning rivojiga bizning mamlakatimizda akademiklar, Jalilov X.M., Usmanov S.N., Kim V.V., Xusanov R.X., G‘ulomov S.S., Lapkin K.I., i.f.d., professorlar Qayumov F.Q., Abdug‘aniev A.A., Xasanjanov Q., Jo‘raev A., Xusanov M., Shokirov A., Yusupov E., Xushmatov N., Hamdamov Q.S., Zokirov O.,

dotsentlar Maxmadiev U., Gavriyuk L., Ogureeva G.A., Ziyavutdinov SH., Ismailova F., Xolbotirova U., Galiev B., Kim V.M., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Raximov B.R., Raximov S.B., Abdullaev B.M., Mirzajonov M.Q., Aripov M., Murtozaev O., Aripov M., Aripov I.M., O'roqov N.I., Xudoyberdiev O', kabi ko'plab agrar iqtisodchilar katta hissa qo'shdilar va hozirda bu boroda ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Tayanch iboralar

Agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, fanning predmeti, usullari, vazifalari, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, mintaqa iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, avtomatlashtirish, mehnatni qurollanish darajasi, fond bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fani nimani o'rganadi?
2. Fanning tarkibi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Fanning o'z predmetini o'rganish usuluri.
4. Fanning o'rganish ob'yektlari.
5. Fanning o'zga fanlar orasidagi o'rni va bog'liqligi.
6. Fanni shakllanish va rivojlanish tarixi.
7. Fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan agrar iqtisodchi olimlardan kimlarni bilasiz?
8. Agrar siyosat deganda nimani tushunasiz?

9. Agrasanoat majmuasini barqaror rivojlantirish.
10. “Agrasanoat majmuasi iqtisodiyoti” fani o‘z predmetini qanday ketma- ketlikda o‘rganadi?

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I. A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O‘zbekiston, 1999.
2. Karimov I. A. Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti – to‘kin hayot manbai. – T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Қаюмов Ф. Қ. Эффективность АПК в условиях перехода к рынку: Общие и региональные проблемы. – М.: ИПО «Полигран», 1992.
4. Серова Е. В. Аграрная экономика: Учебник для студентов экономических вузов, факультетов и специальностей. – М.: ГУ ВШЭ, 1999.
5. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M.S. Agrasanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O‘quv qo‘llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Hakimov R., Yusupov M.S., Oripov M.A., O‘roqov N.I. - Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi – (O‘quv qo‘llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
7. Abdug‘aniev A., Abdug‘aniev A.A. – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
8. Экономика отраслей АПК / И.А.Минаков, Н.И.Куликов, О.В.Соколов и др.; Под ред. И.А.Минакова. – М.: КолосС, 2004. – 464с.- (Учебники и учеб. пособия для студентов высш. учун. заведений).

Internet saytlari:

1. petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>

3. N.A. popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic935&page1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page4&book88899>
6. www.bearingpoint.uz- Ekonomika Uzbekistana

2-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINING MOHIYATI VA TARKIBI

2.1. Agrosanoat integratsiyasi. “Agrosanoat majmuasi” tushunchasi, uning mohiyati

Agrosanoat integratsiyasi – sanoat va qishloq xo'jaligining bir-biriga singib ketishi, bir butun tizimga aylanishidir. Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasini rivojlanishining natijasidir. Tarmoqlarning bir-biridan ajralib ketishi ularning ishlab chiqargan mahsulotlarini ayriboshlashni kuchayishini talab qildi. Bir tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotga talab asosan boshqa tarmoqda vujudga keladi. Natijada bir tarmoq ikkinchisiz mo'tadil rivojlana olmaydi. Bu ularni integratsiyalashuvi zaruratini keltirib chiqaradi. Sanoat va qishloq xo'jaligining rivoji ular o'rtasida aloqalarning murakkablashuviga olib keldi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanish uchun qayta ishlash sanoatiga tushadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi sanoat uchun xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqqa aylana boradi. Qishloq xo'jaligining oxirgi iste'molchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi kamayib boradi. O'z navbatida iste'molchilarga tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar (qayta ishlash sanoati) yaqinlashib boradi. Bu esa o'z navbatida tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiradi.

Keyingi yillarda ishlab chiqarish shu darajada yuksalib bormoqdaki, iqtisodiyotning turli tarmoqlari bir-biri bilan juda chambarchas bog'lanib qolmoqda. Ularning bog'lanishi, ayniqsa, texnologik jihatidan bir – birini to'ldiruvchi tarmoqlarda kuchli. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarda bu jarayon juda yorqin namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, uni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi, qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohalar iqtisodiyotini bir – biridan ajri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu tarmoqlar yagona bir tizimni tashkil etadi va ularning birgalikda mutanosib ishlashi provard natijaning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Hozirda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan sanoatning bir butun ko'rinish

olayotgani to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, "O'zmevasabzavotuzumsanoat- xolding" kompaniyasiga qarashli shirkat-zavodlar, sutni qayta ishlovchi ayrim korxonalar, shuningdek, issiqxonalar, parandachilik fabrikalari bunga misol bo'la oladi. Bu sohalarda bir yuridik maqomga ega korxonada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqariladi va shu korxonaning o'zida u daslabki qayta ishlash jarayonidan o'tadi, ba'zan, to'la qayta ishlanadi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi darajasidan yuqorilashib, ma'lum ma'noda sanoatlashib ketgan.

Agrosanoat integratsiyasining yanada chuqurlashib borishi ob'yektiv jarayondir. Bu, albatta, qishloq xo'jaligining va umuman, agrosanoat majmuasining, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keluvchi jarayondir.

Agrosanoat integratsiyasining va kooperatsiyasining mahsuli sifatida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatimizda agrosanoat majmuasi yagona tizim sifatida shakllana boshladi.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo'ysundirilgan, texnologik jihatdan ustun darajada bir biri bilan bog'langan tarmoq va xizmatlar yig'indisidir. Iqtisodiy fan mamlakat, hudud va mahsulot turlari bo'yicha "agrosanoat majmuasi" tushunchalarini farqlaydi. SHunga ko'ra agrosanoat majmuasi:

- Mamlakat agrosanoat majmuasi;
- Hudud agrosanoat majmuasi;
- Ixtisoslashgan (go'sht, sut, don, sabzavot va poliz kabi mahsulot turlarini yetishtirish bilan shug'illanuvchi) agrosanoat majmualaridan iborat.

Ixtisoslashgan agrosanoat majmualari ikkiga bo'linadi. Birinchisi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Ikkinchisi nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Bu agrosanoat majmualarining har ikkalasi ham alohida olingan tovarlar (mahsulotlar) bo'yicha agrosanoat majmualarini tashkil etadi.

Mamlakat agrosanoat majmuasiga qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, omuhta yem zavodlari, mineral o'g'itlar tayyorlovchi zavodlar va x.z.), qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi (paxta zavodlari, donni qayta ishlovchi elevatorlar, go'sht, sut kombinatlari, jun zavodlari, pillani qayta ishlovchi zavodlar va boshqalar), qayta ishlovchi va tayyor, oxirgi mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar va xizmatlar kiradi. Bundan tashqari ushbu jarayonlarga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ham uning tarkibiga kiradi.

Hudud agrosanoat majmuasi esa ma'lum, bir hudud (iqtisodiy hududlar, viloyatlar, vohalar, ba'zan tumanlar) doirasida amal qiladi. Ularning tarkibiga ayrim korxona va tarmoqlar (respublika maqomiga ega bshlgan, mamlakatning barcha hududlari uchun xizmat ko'rsatadigan) kirmasligi mumkin. Masalan, agarda traktor yoki kombayn ishlab chiqaruvchi zavod o'sha hududda joylashmagan bo'lsa, region agrosanoat majmuasi tarkibga kirmaydi.

2.2. Agrosanoat majmuasining tarkibi (tuzilmasi)

Mamlakat agrosanoat majmuasi murakkab tarkibiy tuzilmaga ega bo'lib, uning tarkibi 4 ta sohadan tashkil tapadi. Iqtisodchi olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi bo'yicha bir xil fikrga ega emaslar. Agrosanoat majmuasining tashkiliy-iqtisodiy masalalariga bag'ishlangan yuzlab ilmiy maqolalar, monografiyalar e'lon qilingan va dissertatsiyalar yozilgan. Ayrim olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi 6 ta, ayrimlari esa 5 ta, bir guruhi 4 ta va boshqa birovleri 3 ta sohadan iborat deyishgan. Ularning har biri agrosanoat majmuasini tarkibini ilmiy izlanishning maqsadi bo'yicha izohlagan. Agrosanoat majmuasining tarkibini ilmiy asarlarda belgilangan tasnifini birortasini inkor qilmagan holda uning tarkibini 4 ta sohaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu sohalar quyidagilardir.


Birinchi soha. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari (tizimi) uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina,

traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik, ma'danli o'g'it va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, chorvachilik uchun omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori-darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar kabilar kiradi.

Ikkinchi soha. Qishloq xo'jaligining o'zi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etadi va majmuaning boshqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar asosan shu tarmoq mahsulotlari asosida faoliyat yurtadilar yoki xizmat ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi o'z navbatida o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlariga bo'linadi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga, pillachilik, asalarichilik, qisman o'rmonchilik (tabiiy oziq-ovqat va dorivor o'simliklar yetishtirish) hamda baliqchilik kiradi.

Uchinchi soha. Bu soha - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig'indisidan iborat. Oziq-ovqat sanoati, paxta zavodlari, go'sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, Yog'-moy zavodlari, junni, kanopni, pillani qayta ishlash zavodlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni saqlaydigan korxonalar, ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibini tashkil etadi.

To'rtinchi soha. Bu soha - agrosanoat majmuasi infratuzilmasidan iborat. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi juda murakkab tarkibga ega. Su bilan birgalikda ularning ayrimlari o'z xizmat xususiyatiga ko'ra ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma tarkibigi kirishi mumkin. SHunga qaramasdan iqtisodiy tahlil qilishning, qarorlar qabul qilish uchun zurur sifatli ma'lumotlarni olish uchun uni tasniflash maqsadga muvofiq. Infratuzilmaning o'zi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir. Mamlakat agrosanoat majmuasining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:



1-chizma. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining tarkibi

Ana shu 4 ta sohaga kiruvchi tarmoqlar birlashib, mamlakatning yagona agrosanoat majmuasini tashkil etadi. Agrosanoat majmuasining tarkibi juda murakkab bo'lib, u turli omillar ta'sirida davrlar o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib boradi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida talab va taklif asosida ayrim tarmoqlar, sohalar yo'q bo'lib boshqalari shakllanadi va rivojlanadi. Agrosanoat majmuasining tarkibini o'zgarishiga qishloq xo'jaligi faol ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat qishloq xo'jaligi tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar agrosanoat majmuasi tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibiga jahon

bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan kon'yukturaning o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan hududlarda turli sabablarga ko'ra tarkibiy o'zgarishlar yuz berib turadi. Chunki bozor qonuniyatlariga ko'ra har bir davlat ishlab chiqarish tarkibini shakllantirayotganda o'zining absolyut va nisbiy ustunligini aniqlab olishi lozim. Aks holda raqobatda yengiladi va bu ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga chiqaradi. SHu sababli qishloq xo'jaligida doimiy ravishda ixtisoslashish jarayoni takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida mamlakat yoki hudud agrosanoat majmuasi tarkibini takomillashishiga olib keladi. Agrosanoat majmuasining tarkibining o'zgarishiga olib keladigan sabablardan yana biri tabiiy-iqlim sharoitlarida yuz beradigan o'zgarishlardir. Tabiiy-iqlim sharoitlarning o'zgarishi qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish tarkibida o'zgarishlar yuz berishini talab qiladi. CHunki mintaqadagi tabiiy-iqlim sharoiti ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni umuman yoki qisman cheklab qo'yadi. Tabiiy-iqlim sharoit qishloq xo'jaligining ayrim mahsulotlarini yetishtirish uchun noqulay bo'lsa bu muammoni issiqxonalar yordamida hal etish mumkin. Lekin bu mahsulotlarning tannarxi nisbatan yuqori bo'ladi va buning iqtisodiy natijalarga ta'siri odatda salbiy bo'ladi. Agrosanoat majmuasining tarkibiga fan, texnika va texnologiyaning ta'siri ham katta. Fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi odatda mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida agrosanoat majmuasining tarkibi takomillashib boradi. O'zbekiston Respublikasida asosiy e'tibor agrosanoat majmuasining birinchi sohasining imkon darajasida rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiq. Chunki O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi texnikalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan, saqlaydigan sohalarga texnikalariga talab katta. Hozirgi kunda respublika agrosanoat majmuasi ushbu texnikalarning salmoqli bir qismini xorijdan keltirishga majbur bo'lmoqda. Ushbu texnikalarga bo'lgan talabning importga qaramligi mamlakat agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Respublika agrosanoat majmuasida alohida e'tibor uning infratuzilmasiga qaratilishi majmuaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Agrosanoat majumasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni

Mamlakat iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining ahamiyati va o'rni juda katta. Uning o'rni eng avvalo mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ko'prog'i agrosanoat majmuasida ishlab chiqariladi. Majmuaning ahamiyati eng avvalo uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning qimmati bilan belgilanadi. Gap shundaki, agrosanoat majmuasining oxirgi mahsuloti insonlar kundalik iste'moliga qaratilgan oziq-ovqat va insonlarning shaxsiy kiyim-kechaklari, uy-ro'zg'or buyumlari hisoblanadi. Mamlakat agrosanoat majmuasida oziq-ovqatning 99 foizidan ko'prog'i yetishtiriladi. Majmua mamlakatning oziq-ovqat havfsizligini ta'minlaydi.

Respublika agrosanoat majmuasi eksportbop mahsulotlar yetishtiradi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qattiq valyuta tushumini ta'minlashda faol qatnashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga tushayotgan qattiq valyuta iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilishga, yurt havfsizligini ta'minlashga, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish maqsadlariga sarflanadi. Hozirda qattiq valyutaning 60 foizdan ko'prog'i shu majmua mahsulotlarini sotishdan tushadi. 2005 yil natijalariga ko'ra mamlakatning tashqi savdosidan tushgan qattiq valyutaning 19 foizidan ko'prog'i paxta tolasini sotishdan olindi.

Agrosanoat majmuasi mamlakatda mavjud ijtimoiy muammolarni yumshatishda asosiy rolni o'ynaydi. Majmua aholi uchun ish joylari beradi. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadiga to'xtalib O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov – "Sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kichik va xususiy biznes vakillariga keng yo'l ochib berish,

ularning oldidagi to'siq-g'ovlarni olib tashlash, ijtimoiy muammolar, ayniqsa, ishsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz zarur" * degan edi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 2005 yilning 1 sentyabr holatiga 26 mln. kishini tashkil etdi. Mamlakat aholisining o'rtacha yoshi nisbatan yosh hisoblanadi. Aholining 60 foizidan ko'prog'i o'smir va yoshlarni tashkil etadi. Bu holat mamlakat iqtisodiyoti oldida yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki nisbatan yosh aholiga ega bo'lish aholining tabiiy o'siga nisbatan mehnat resurslarining tez o'sishiga olib keladi. Masalan, respublika aholisining tabiiy o'sishi 2000-2004 yillarda yiliga o'rtacha 1,27 foizni tashkil etgan holda mehnat resurslari shu yillari ichida 2,3 foizga oshgan. Natijada aholining mehnat yoshiga to'lganlarini ish bilan ta'minlashni yaxshilash zarurati tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining iqtisodiyotda band bo'lganlarining 75 foiziga yaqini agrasanoat majmuasida ishlaydi.


Mamlakat iqtisodiyotidagi asosiy tarmoqlar shu majmuaga kirganligi sababli asosiy fondlarning (aktivlarning) katta qismi agrosanoat majmuasida faloiyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining juda katta resurslari agrosanoat majmuasi tarmoqlarida joylashganligi uning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu resurslarni takror ishlab chiqarish, mamlakat agrosanoat majmumasining rivojlanishi, aholining turmush darajasini oshirish to'g'ridan-to'g'ri shu majmuaning faoliyati bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining faoliyati samarali bo'lsa, halqning turmush darajasi yuqori bo'ladi yoki aksincha. SHu sababli agrosanoat majmuasini rivojlantirish respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Respublika agrosanoat majmuasi mustaqillik yillarida chuqur tarkibiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni boshdan kechirdi. Olib borilgan islohotlar natijasida bozor munosabatlari rivojlana boshladi.

* Karimov Islom. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukulmas irodasiga bog'liq. -T.: "O'zbekiston", 2004.-32 b.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bozorning tarkibini belgilaydi. Bzorning tarkibining shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq. Jamladan, mulk shakli va xo'jalik yuritish usullari, tovar ishlab chiqaruvchilar va ularni iste'mol qiluvchilar soni, baholarni nazorat qilish darajasi, tarmoqqa kirish va chiqishda qo'yiladigan to'siqlar, munosabatlarning rivojlanganlik darajasi, davlat siyosati va boshqalar bozorning tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Agrosanoat majmuasi bozori tarkibi quyidagicha ifodalanadi.




2-chizma. Agrosanoat majmuasi bozori tarkibi

Iqtisodiy adabiyotlarda bozorning amal qilish mexanizmlari, unga davlatning aralashuvi darajasiga qarab uch turdagi bozor tipi farqlangan. Bularga: rivojlanmagan

bozor; erkin bozor va tartibga solinib turiladigan bozorlar kiradi. Rivojlanmagan bozor – bu bozorda oldi-sotdi jarayonlari kuchli rivojlanmagan, odatda oddiy tovar ayriboshlash jarayoni yuz beradi. Bu bozorda tovarlarning natural ayriboshlanishi (barter) ko'proq amalga oshiriladi. Bu bozor to'yinmagan hisoblanadi. Erkin bozor – bu raqobatli bozor hisoblanadi. Bu bozorda juda ko'plab kichik va katta tovar ishlab chiqaruvchilar ishtirok etadi va ularning birortasi ushbu tovar narxini o'zgartirishga sezilarli ta'sir eta olmaydi. Tovarlar erkin sotiladi. Amaliyotda bunday bozorlar kam uchraydi. Tartibga solib turiladigan bozor – bu bozorning faoliyatiga huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar bilan davlat aralashib (tartibga solib) turadi.

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida davlat asosiy tashabbuskor tamoyiliga amal qilmoqda. Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori tez rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyosi va oziq – ovqat bozorini tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin (3-chizma).



3-chizma. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyosi va oziq – ovqat bozorini tarkibi

2.4. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish har qanday davlatning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning nisbatan yaxshi rivojlangan sohasi hisoblanadi. Uning mamlakat hayoti uchun iqtisodiy va ijtimoiy

ahamiyati juda katta. Chunki bu soha katta moliyaviy resurslar talab qilmasdan katta samara bera oladigan sohadir. Boshqa tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, o'z navbatida, katta moliyaviy va yangi sohada ixtisoslashgan asosiy vositalar, mehnat resurslarining bo'lishini talab qiladi. Agrosanot majmuasi esa, O'zbekiston Respublikasining tarixan mavjud bo'lgan va rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisi juda qadim davrlardan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib keladi. Mamlakat aholisi qishloq xo'jaligini yuritishda juda katta malakaga ega. Tabiiy-iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligi uchun qulay mintaqalardan hisoblanadi. Shu sababli ham agrosanoat majmuasini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi uchun eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri qilib belgilangan.

1991-2006 yillar ichida mamlakatimiz iqtisodiyotida chuqur sifat o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakat kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidan bormoqda. Shu yillar ichida mamlakat agrosanoat majmuasini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirishni ta'minlaydigan huquqiy baza yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. Agrosanoat majmuasida davlatning ulushi minimallashtirildi va novdavlat sektor hal qiluvchi asosiy kuchga aylandi. Hozirda mamlakat qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 99 fozidan ko'prog'i nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligida xususiy mulkka (erdan tashqari) asoslangan fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil topdi va ular jadal rivojlanib bormoqdalar. 2003 yilning 1 yanvariga kelib mamlakat qishloq xo'jaligida jami bo'lib 77 mingta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatib turgan bo'lsa 2006 yilning 1 yanvar holatiga fermer xo'jaliklari soni 125,7 ming, 1 iyuniga kelib 189,6 mingtani tashkil etdi. Olib borilgan chuqur islohotlar natijasida mamlakatda don yetishtirish hajmi keskin ko'paydi. Agarda 1992 yilda jami bo'lib 2,2 mln. tonna don yetishtirilgan bo'lsa, 2002 yilga kelib bu ko'rsatkich 5,4 mln. tonnani, 2005 yilda 6008,8 ming, 2006 yilda 6,1 mln. tonnani tashkil etdi. Shu yillar ichida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida oldin ko'p miqdorda yetishtirilmagan moyli o'simliklar mahsulotlari, qand lavlagi ishlab chiqarish ko'paytirildi. Meva, savzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish ham keskin ko'paymoqda. Chorvachilik tarmog'i

rivojlanishi esa, aksincha, qoniqarli holatda emas. Sut, go'sht, yetishtirish 2000 yilda 1990 yil darajasida bo'ldi, tuxum yetishtirish esa hajman 3 martadan ortiqroqqa kamayib ketdi. 2005 yilga kelib 1991 yilga nisbatan qoramollar bosh soni 16,4 foizga, yetishtirilayotgan go'sht 17,4 foizga, sut 14,6 foizga va tuxum ishlab chiqarish 9,6 foizga ko'paydi.

Respublikada 1991-1996 yillarda chorva mollari bosh soni 12-17 foizga kamayib ketdi. Respublikada bu holatga o'z vaqtida to'g'ri baho berildi va chorva mollari bosh sonini ko'paytirish choralari ko'rildi. Natijada 1998 yildan boshlab chorva mollari bosh soni o'sa boshladi. Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalarning barchasida mustaqillikka erishgandan keyin chorva mollari bosh soni keskin kamayib ketdi.

Respublika prezidenti, hukumati chorvachilik tarmog'ining keskin kamayishi eng avvalo aholining turmush darajasiga ta'sir qilishini hisobga olib, sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirdi. Bu tadbirlar natijasida respublikada chorva mollarining bosh soni keskin kamayib ketishga yo'l qo'yilmadi. Shunga qarmasdan ularning bosh sonini yanada ko'paytirish zarurati bor.

Respublika qishloq xo'jaligida mavjud chorva mollarning zoti keyingi yillarda yaxshilangan emas. Bu borada juda katta ishlar qilinishi lozim. Mamlakatda chorva mollarining bosh sonini ko'paytirish, ularning yangi, sermahsul zotlarini yaratish yoki sotib olish, chorvachilikning yem – xashak bazasini mustahkamlash zarurati bor. Chorvachilikning moddiy-texnika bazasini mustakamlash va yangi texnologiyalar joriy etish bugungi kun talabidir.

Keyingi 2000-2006 yillarda umuman, mamlakat qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini ishlab chiqarish yiliga 4,5 -6 foizdan ko'proq o'smoqda. 2004-2005 yillarda bu ko'rsatkich mos ravishda 10,1 va 7,0 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlari oldida quydagi asosiy maqsadli vazifalar turibdi.

- Mahsulotlar miqdorini ko'paytirish va assortimentini yaxshilash. Bu borada katta ishlar amalga oshirilishi lozim. Chunki mamlakat aholisini oziq-ovqat

mahsulotlari bilan tibbiyot me'yoriga mos ravishda ta'minlanish darajasi hali ancha past. Ayniqsa, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni keskin ko'paytirish talab qilinadi. Mamlakatda don yetishtirishni 10-12 mln. tannaga yetkazish, go'sht, sut yetishtirishni eng kamida ikki, tuxum yetishtirishni 3 marta ko'paytirish talab qilinadi. Albatta fiziologik me'yor (energiya olish) nuqtai nazaridan oziq-ovqat muammosi mamlakatda to'liq hal etilgan. Ammo oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ijtimoiy – iqtisodiy tomondan baholanganda katta muammo bo'lib turibdi. Gap shundaki, fiziologik me'yor bo'yicha olinayotgan energiya qaysi mahsulotlarni iste'mol qilish evaziga hosil bo'lmoqda, degan savol tug'iladi. Hozirda mamlakat aholisi oziq – ovqatdan olinayotgan energiyaning asosiy qismi non va non mahsulotlari, kartoshka, uglevodlar va mevalarni iste'mol qilishdan olinmoqda. Inson organizmi talab darajasida mo'tadil faoliyat ko'rsatishi uchun esa balanslashgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish talab etiladi. Respublikada bu mahsulotlardan jon boshiga qanchadan iste'mol qilinishini ko'rsatuvchi maxsus me'yor ham ishlab chiqilgan. Bu borada, ya'ni balanslashgan oziq-ovqat iste'mol qilishda, hali jiddiy kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, chorvachilik, asalarichilik, baliq mahsulotlariga bo'lgan talab katta bo'lishiga qaramasdan shu mahsulotlar bilan aholi qoniqarsiz holda ta'minlangan. Shu jihatdan mamlakatda yer, suv, mehnat va boshqa resurslardan foydalanishning eng samarali yo'llarini topish, fan, texnika va texnologiyaning eng ilg'or yutuqlarini ishlab chiqarishga qo'llash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, assortimentini yaxshilash agrosanoat majmuasining bosh vazifalaridan biridir. Agarda yer yuzi aholisining 2 mlrd.ga yaqini ochlik, to'yib ovqat yemaslik va ichimlik suv tanqisligi sharoitda yashayotganini xisobga olsak, bu muammo nihoyatda muhimligi ayonlashadi. Bundan tashqari yer yuzi aholisi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi aholisi ham ko'payib bormoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, 2030 yilga borib Respublika aholisi 46-mln. kishini tashkil etar ekan.

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi past bo'lishini ta'minlash. Bu juda dolzarb muammolardan biri bo'lib, bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqadi.

Bozorda raqobatga bardosh berish uchun yetishtirilayotgan mahsulotlar ham sifatli, ham arzon bo'lishi kerak. Bozorda talab va taklif qonuni talablari natijasida shakllangan narxdan yetishtirilayotgan mahsulot tannarxi arzon bo'lishi talab qilinadi. Mahsulotlar tannarxining arzon bo'lishi ma'lum darajada ijtimoiy masalalarni ham to'g'ri hal etilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mahsulotlar tannarxining past bo'lishi ularning narxini pasayishiga olib kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu, aholining mahsulotlarni sotib olish imkoniyatlarini kengaytiradi, turmush darajasini oshiradi, ishlab chiqaruvchilarning esa foydasi ko'payishini ta'minlaydi. Natijada korxonalarning davlat byudjetiga to'lovlari va soliqlarning umumiy miqdori ko'p bo'lishiga olib keladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi va yanada tez rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Keyingi yillardagi mamlakatda olib borilgan narx siyosati natijasida qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlari ancha cheklanib qoldi. Sanoat mahsulotlariga erkin narxlar siyosati olib borildi va natijada qishloq xo'jaligi sotib olayotgan o'g'it, yoqilg'i-moylash materallari, texnika, ularni butlovchi qismlari narxlari 14 yil (1991-2005) ichida 1400 marta va undan ko'proqqa oshdi. Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari bo'lgan paxta va donga narxlar esa 24-50 marta oshdi, xolos. Narxlarning bunday holatda shakllanishi (narx paritetining buzilishi) qishloq xo'jaligi korxonalarning iqtisodiy imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo'ladi va bu holat, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi korxonalarida ko'plab boshqa muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalarining bu holati, o'z navbatida, umuman, mamlakat agrosanoat majmuasining jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli ham yetishtirilayotgan mahsulotlar birligi tannarxini imkon darajasida pasaytirish agrosanoat majmuasini asosiy vazifalarining ikkinchisi hisoblanadi.

- Mamlakat agrosanoat majmuasi tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida, mehnat unumdorligini oshirish. Ma'lumki mehnat unumdorligining yuqori bo'lishi juda katta ijobiy natijalarga olib keladi. Mehnat unumdorligining oshishi mahsulot tannarxi nisbatan past bo'lishini, katta miqdordagi resurslar tejalishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligidan mehnat resurslarining bo'shashiga olib keladi. Qishloq xo'jaligidan bo'shagan mehnat resurslari nisbatan ko'p malaka va bilim talab qiladigan sanoatning turli saholarida ishlashi uchun imkoniyatlar tug'iladi. Natijada mamlakat mehnat resurslarining sifat darajasi oshadi. Bu esa eng katta boylik hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tarjibalari shuni ko'rsatadiki, bizda mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari juda katta. Masalan: AQSH, Germaniya, Gollandiya kabi rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir xodim mamlakat aholisining 90-110 tasiga yetarli mahsulot ishlab chiqariladi. Bizda bu ko'rsatkich 9-12 tani tashkil etadi. Albatta, rivojlangan davlatlar agrosanoat majmuasi tarkibida asosiy mehnat resurslari agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sohalarda band. Agar umuman, agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligini hisobga olsak, yuqoridagi nisbatning farqi kamayadi. Shunga qarmasdan rivojlangan davlatlar va O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligining darajasi o'rtasidagi farq juda katta. Shu sabablarga ko'ra, mamlakat agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligini oshirish eng muhim vaziflardan biri bo'lib qoladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatda yutib chiqish va barqaror rivojlanish uchun mehnat unumdorligini oshirishga et'iborni kuchaytirish lozim.

- Majmua tarmoqlarining bir-biri bilan mutanosib holda rivojlanishni ta'minlash. Bu juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biridir. Hozirda mamlakat agrosanoat majmuasining birinchi sohasi - agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning mavjudligi va borlarining rivojlanish darajasi talabdagidan juda past. Natijada, respublika qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan traktorlarning katta qismi, kombaynlar, yuk avtomobillarining yuz foizi import evaziga qoplanadi. Mamlakatda traktor, paxta terish mashinasi va qator qishloq xo'jaligi uchun zarur ishchi mashinalar ishlab chiqarishga yetarlicha imkoniyat bor. Shu sababli ana shu tarmoqlarni rivojlantirishga eng ustuvor yo'nalishlardan bir sifatida qaralmoqda.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning nobud bo'lmasligi jihatidan ularni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqllovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoq va xizmatlarning mavjudligiga, ularning jihozlanishiga va bir me'yorda yetarli quvvat bilan ishlashiga bog'liq. Hozirda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan ayrim mahsulotning katta bir qismi ana shu tarmoqlaridagi kamchiliklar sababli nobud bo'lmoqda. Bu esa ishlab chiqarish resurlari, mahsulotlar taqchilligi sharoitida yo'l qo'yib bo'lmaydigan yo'qotishdir. Ayniqsa pomidor, uzum, olma kabi mahsulotlar pishgan paytda ularni tayyorlovchi, saqllovchi va qayta ishlovchi tashkilotlar quvvatining yetishmasligi bunga sabab bo'lmoqda. Ba'zi hollarda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasining pastligi ham iqtisodiyotga katta zarar keltiradi. Masalan, hozirda go'shtni qayta ishlash sanoati o'z quvvatidan yil davomida 5-18 foizga foydalanmoqda. Bu, o'z navbatidan ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga, mavjud resurslarning bekor turib qolishiga olib keladi.

Umuman olganda, agrosanoat majmuasi tarmoqlarini bir-biriga mutanosib rivojlantirish juda murakkab bo'lsada, bu masalaga e'tiborsiz bo'lish mumkin emas. Uni oqilona hal etish iqtisodiy siyosatning eng muhim vazifalaridan biridir.

- Bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, mahsulot eksportini ko'paytirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tarjibasini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish, kadrlar malakasini, bilimini oshirish mehnatkashlarning turmush sharoitlarini yuksaltirish masalalari ham majmuaning muhim vazifalari hisoblanadi.

- Aholining (majmuada banda bo'lganlarning) turmush darajasini ko'tarish, qishloq joylarda yashash sharoitlarini yaxshilash. Bu vazifani bajarishga mamlakat prezidenti, hukumati tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq qishloq aholisining turmush sharoitini ko'tarish, ularni ish bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida aholiga 650 ming gektardan ko'proq yer tarqatilib berildi. O'zbekiston Respublikasida 82 foiz uy xo'jaliklarining tomorqa yeri bor. Qishloq xo'jaligida 97 foiz uy xo'jaligining qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatishga yaroqli yerlari mavjud. Qishloq xo'jaligida uy xo'jaliklari uchun ajratilgan yerlarning 60 foizi qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ishlatilmoqda. Bu

ko'rsatkichni 90 foizdan oshirish qo'shimcha ravishda ko'plab miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradi. Uy xo'jaliklariga ajratilgan yerlardan to'liq va samarali foydalanish qishloq aholisining turmush darajasini ham ko'taradi.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining sanoat tarmoqlari bilan yagona bir tizimga aynalishi yoki qishloq xo'jaligi bilan sanoatning bir organizmga aynalishini anglatadi. Agrosanoat integratsiyasi rivojlanishi natijasida agrosanoat majmuasi vujudga keladi. Agrosanoat majmuasi-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, ularni qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar va majmua tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi sohalar yig'indisidir. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ham kiradi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari 4 ta sohaga bo'linadi. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasiga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, ikkinchi sohasiga qishloq xo'jaligi, uchinchi sohasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, to'rtinchi sohasiga infratuzilma kiradi. Infratuzilma o'zi ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga, ishlab chiqarish infratuzilmasi ikkinchi guruhga esa ijtimoiy infratuzilma kiradi.

Agrosanoat majmuasining rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Xalqning turmush darajasi asosan mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Mamlakat agrosanoat majmuasi tarmoqlari oldida quyidagi asosiy maqsadli vazifalar turibdi: Birinchidan, agrosanoat majmuasi mahsulotlarini ishlab chiqarishning miqdorini ko'paytirish; ikkinchidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va ularning assortimentini yaxshilash; uchinchidan, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshirish; to'rtinchidan, agrosanoat majmuasi mahsulotlarini tannarxini pasaytirish; beshinchidan, agrosanoat

majmuasiga kiruvchi tarmoqlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash; oltinchidan, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirishdir. Mahsulotlar va xizmatlar eksportini ko'paytirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tarjibasini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish, kadrlar malakasini, bilimini oshirish, mehnatkashlarning turmush sharoitlarni yuksaltirish masalalari ham agrosanoat majmuasining muhim vazifalari hisoblanadi.

Respublika agrosanoat majmuasining salohiyatli imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga erishish iqtisodiyotning ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutonosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, mintaqa iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, avtomatlashtirish, mehnatni qurollanish darajasi, fond bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agrosanoat inetgratsiyasi nima?
2. "Agrosanoat majmuasi" tushunchasiga ta'rif bering?
3. Agrosanoat majmuasining mohiyati va mamlakat iqtisodiyotdagi o'rni.
4. Agrosanoat majmuasi nechta sohalardan iborat?

5. ASMning birinchi sohasiga qaysi tarmoq va xizmatlar kiradi ?
6. ASMning ikkinchi sohasiga qaysi tarmoq va xizmatlar kiradi ?
7. ASMning uchinchi sohasiga qaysi tarmoq va xizmatlar kiradi?
8. ASMning to'rtinchi sohasiga qaysi tarmoq va xizmatlar kiradi?
9. ASMning ishlab chiqararish infratuzilmasini tarkibini ayting.
10. ASMning ijtimoiy infratuzilmasini tarkibini ayting.
11. Agrosanoat majmuasining maqsadli asosiy vazifalari nimalardan iborat?
12. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston 1999.- 32b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma), -T., TDIU, 2004.-160 b.
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma), –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
7. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
8. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

Internet saydlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic935&page1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page4&book88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika Uzbekistana.

3-BOB. AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI UCHUN ISHLAB CHIQUARISH VOSITALARI ISHLAB CHIQUARUVCHI SOHA

3.1. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning tarkibi

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan soha uning 1- sohasi hisoblanib, u murakkab tarkibga ega. Bu sohaga agrosanoat majmuasiga kiradigan barcha tarmoqlar uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi. Ma'lumki ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalarsiz tasavvur etish mumkin emas. Iqtisodiyotning qaysi sohasi bo'lmasin yuqori unumli, sifatli ishlaydigan va kam xarajat talab qiladigan texnikalar va boshqa ishlab chiqarish vositalariga zarurat sezadi. Agrosanoat majmuasining birinchi sohasi juda katta iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. Agrosanoat majmuasida asosiy masala qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish hisoblanadi. Demak bu borada asosiy e'tibor haqli ravishda qishloq xo'jaligiga berilishi zarur. Shu sababli qishloq xo'jaligi uchun traktorlar, don o'rish kombaynlari, ekinlarni ekish, ko'p yillik o'tlarni o'rishni amalga oshiradigan texnikalar, maxsus yuk avtomobillari, kuch beruvchi mashinalarga organ va ishchi mashinalar ishlab chiqaruvchi tarmoq korxonalari agrosanoat majmuasining 1-sohasi tarkibiga kiradi. O'zbekiston Respublikasida traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyoviy vositalar va ma'danli o'g'it ishlab chiqarish korxonalari, mikrobiologiya sanoati, ixtisoslashgan qurilish materiallari sanoati yetarli darajada yaxshi rivojlangan. SHu bilan birgalikda don o'rish kombaynlari, haydov traktorlari, yem-xashak o'ruvchi kombaynlar ishlab chiqarish deyarli importga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashiydigan yuk avtomobilsozligi tashkil etilmagan. Respublikada 5 mln. tonnadan ortiq meva va sabzavot, 3,5 mln. tonna paxta va 6 mln. tonnadan ortiq don, katta miqdorda sut, go'sht va boshqa mahsulotlari

yetishtirilishini hisobga olinsa ularni tashiydigan maxsus yuk transportlariga talabning katta ekanligini ko'rish mumkin.

Etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, saqllovchi, qayta ishlovchi va sotish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlarda foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalarini yaratadigan tarmoq va korxonalar ham 1-sohaning tarkibini tashkil etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar uchun texnikalar, asbob-uskunalar ishlab chiqarishning ahamiyati oshib bormoqda.

Respublika qishloq xo'jaligida chorvachiligi rivojlangan sohalardan biri bo'lib, u katta ahamiyatga ega. Respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida chorvachilikning ulushi 46-48 foizni tashkil etadi. Bu o'z navbatida ular uchun omuxta yem ishlab chiqarishni ko'paytirishni talab qiladi. Respublikada chorvachilik uchun omuxta yem ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan katta imkoniyatli korxonalar tizimi tashkil topgan. Ammo ularning ishlab chiqarish potentsialidan foydalanishda qator muammolar mavjud.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligi uchun ma'danli o'g'it va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ham 1-sohaga kiradi. Respublikada qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ma'danli o'g'it ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlangan bo'lib, ishlab chiqarilgan ma'danli o'g'itlarning bir qismi eksport ham qilinmoqda. SHu bilan birgalikda respublikada kaliyli ma'danli o'g'itlarni ishlab chiqarish korxonalari rivojlanmagan. Respublika qishloq xo'jaligi uchun zarur kaliyli o'g'itlar asosan import hisobiga qondiriladi. Albatta har bir davlat o'z talablarining 100 foizini o'z korxonalarida ishlab chiqarishi lozim degan fikrdan uzoq bo'lish kerak. Chunki turli sabablarga ko'ra buning imkoniyati yo'q, bor bo'lganda ham iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi. Chunki turli davlatlarning turli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari turlichadir. Bu borada har bir davlat agrosanoat majmuasi uchun zarur barcha ishlab chiqarish vositalarining eng samaralisini ishlab chiqarishi lozim. Qolgan qismini import hisobiga qondirishi o'z navbatida, boshqa davlatlarga o'zida ishlab chiqarilayotgan samarali texnikalarni va boshqa mahsulotlarni eksport qilishi maqsadga muvofiq.

3.2. Agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'рни

Agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Uning rivojlanganlik darajasini umuman agrosanoat majmuasining rivojlanishini belgilaydi. Agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishni rivojlantirish ob'yektiv zarurat hisoblanadi. Uni rivojlantirish mamlakatni sanoatlashgan davlatga aylantiradi. Aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilaydi va uning turmush darajasini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlaydi.

Rivojlangan davlatlarda YAIMda sanoatning ulushi o'rtacha 32-35% ni, qishloq xo'jaligi 2-4 foizni, xizmat ko'rsatish sohasi – 55-60 foizni tashkil etadi.

2000-2005 yillarda O'zbekiston Respublikasi jami yalpi ichki mahsulotining 15-16 foizi sanoat tarmoqlari ulushga to'g'ri keldi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich ijobiy o'sish tendentsiyasiga ega. 2004 yilda jami yalpi ichki mahsulotla sanoatning ulushi 17,5 foizni, 2005 yilda 20,7 foizni tashkil etdi. 2010 yilga kelib sanoatning ulushini 15 foizdan 25-26 foizga, xizmatlar ulushini 35% dan – 38-39 foizgacha, qurilishning ulushini 7,8% dan 10-11 foizga oshirish, qishloq xo'jaligining ulushini 36,4 foizdan 19 foizga tushirish belgilangan. Kelajakda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'paytirilgan holda uning ulushini mamlakat yalpi mahsulotida 10 foizdan kamaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mamlakat sanoatining asosiy qismi agrosanoat majmuasi bilan bog'liq. Agrosanoat majmuasi yaxshi, samarali ishlashi uning 1-sohasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Agarda mamlakatda agrosanoat majmuasining 1- sohasi yaxshi rivojlangan bo'lmasa, zarur ishlab chiqarish vositalarini, texnikalarni tashqaridan sotib olish zarurati tug'iladi. Bu esa har yili katta miqdordagi moliyaviy resurslarni sarflanishini talab qiladi. Eng yomoni, mamlakat agrosanoat majmuasining muvaffaqiyatli faoliyati boshqa davlatlardan kerakli ishlab chiqarish vositalarini olib kelishga bog'liq bo'lib qoladi. Bunday bog'liqlik, odatda, salbiy oqibatlariga olib keladi.

Albatta, har bir mamlakat o'z iqtisodiyoti uchun kerakli barcha ishlab chiqarish vositalarini o'zi ishlab chiqarishini tashkil eta olmaydi. Tashkil etganda ham samarasi past bo'lishi mumkin. Lekin imkon boricha mamlakatining imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng samarali tartibda ishlab chiqarish vositalarini mamlakatda yaratish yo'llarini izlab topish maqsadga muvofiq. Sifatli va bizda yaratilganiga nisbatan arzon ishlab chiqarilgan vositalarni chetdan sotib olish mumkin. Bu masala doimiy e'tiborni talab qiladi. Mamlakatda fan, texnika, texnologiya va mehnat resurslarining bilim, malaka darajasi oshib borgan sari talabga qarab ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishning tarkibi va hajmi ko'payib borishi maqsadga muvofiq.

Sohaga kiruvchi tarmoqlarning rivojlantirilishi iqtisodiyotni sanoatlashtiradi. Sanoatning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish imkonini kuchaytiradi. Ma'lumki qishloq xo'jaligining natijalari ko'pincha tabiiy sharoitlarga, Yog'ingarchilik darajasi, issiqlik, suvning yetarli bo'lishi, tabiiy kataklizmalarning oqibatlariga bog'liq. Sanoat esa bu omillarga bog'liqligi minimumlashgan sohadir. Agrosanoat majmuasining birinchi sohasiga kiruvchi tarmoq korxonalarining rivojlanishi mamlakat mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashni yaxshilaydi. Sanoatda ish bilan ta'minlangan mehnat resurslarining malakasi yuqori bo'ladi. Natijada mehnat resurslarning sifati yaxshilanadi va raqobatbardoshligi oshadi. Qolaversa, sanoatda yuqori malakali, intensiv mehnat bo'lganligi uchun unga to'lanadigan haq ham yuqori. Bu bir tomondan aholining turmush darajasini oshiradi, uning mahsulot va xizmatlarni sotib olish qobiliyatini yaxshilaydi. Ikkinchi tomondan esa davlat byudjetiga to'laydigan daromad soliqlari miqdori ham yuqori bo'ladi. Bu davlat byudjetining mustahkamlanishiga, iqtisodiy – ijtimoiy masalalar yechimining yaxshilanishiga olib keladi.

3.3. Agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlanish yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi 1- sohasining ayrim tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Jumladan, kimyo sanoati agrosanoat majmuasi 1-sohhsining

asosiy tarmoqlaridan bo'lib, unda jami sanoat mahsulotning 5,2 foizi ishlab chiqariladi. Ma'danli o'g'itlar va kimyoviy dorilar, pereperatlar ishlab chiqarish sohasi rivojlangan soha hisoblanadi. Mamlakatda azotli, fosforli ma'danli o'g'itlar qishloq xo'jaligining talabini to'la qondiradigan miqdorda ishlab chiqariladi. Bundan tashqari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan azotli va fosforli ma'danli o'g'itlarning bir qismi xorijiy davlatlarga eksport qilinadi. 2005 yilda respublika eksportida kimyo sanoatining ulushi 5,3 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi ma'danli o'g'itlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish borasida katta resurslarga egamiz. Mamlakatda mustaqillikning daslabki yillarida fosforli ma'danli o'g'itlar ishlab chiqarishda katta muammolar yuzaga keldi. Chunki fosforli ma'danli o'g'itning asosiy komponenti, xom ashyosi hisoblangan fosfor uni asosan qo'shni Qozoqiston Respublikasidan keltirilar edi. Sobiq ittifoq davrida o'rnatilgan iqtisodiy aloqalarning buzilishi oqibatida fosfor unini import qilish imkoni kamaydi. Natijada 1994-1998 yillarda fosforli o'g'itlar ishlab chiqaradigan qator zavodlar to'xtab qoldi. Bundan malakat katta iqtisodiy va ijtimoiy zarar ko'rdi. Respublikada ma'danli o'g'itlar ishlab chiqaradigan zavodlarni xom ashyo bilan uzuksiz ta'minlash choralari ko'rildi. Natijada Navoiy viloyatida fosfor unini boyituvchi zavod 2002 yilda ishga tushirildi va bu borada istiqbolli rivojlanishga asos yaratildi. 2005 yilda respublikada 100 foiz ta'sir qiluvchi modda hisobida 765 ming tonna azotli, 101,5 ming tonna fosforli ma'danli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Albatta ma'danli o'g'itlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning yanada samarali turlarini ishlab chiqarish ustida ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ma'danli o'g'itlar tarkibini boyitish (sof ta'sir qiluvchi modda salmog'ini ko'paytirish) katta iqtisodiy samara beradi. Ma'danli o'g'itlar tarkibida azot, fosfor va kaliyning miqdorini 1 foizga oshirish ming – ming tonnalab yukni ortiqcha tashishdan xolos etadi. Bu esa juda katta tejamkorlikka olib keladi.

Respublikamizda asosan azotli va fosforli ma'danli o'g'itlar ishlab chiqariladi. Kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish uchun maxsus zavodlarning yo'qligi tufayli bu turdagi o'g'itlarni asosan import qilamiz. Import qilinayotgan kaliyli o'g'itlarning

qimmatliligi uni talab darajasida yetarlicha olib kelishga imkon bermayapdi. Albatta bu qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda salbiy ta'sir etmoqda. Masalan, 2004 yilda paxta hosildorligi Xitoyda 33 sentner ga, Isroilda 38 sengtner gani tashkil etdi. Shu yili respublikada paxtadan gektariga o'rtacha 22 sentnerdan hosil olindi. Masala shundaki, qishloq xo'jaligi ekinlariga solinadigan ma'danli o'g'itlar turli omillarni hisobga olgan holda ma'lum nisbatlarda berilishi kerak. Azot, fosfor, kaliyni ilmiy belgilangan nisbatlarda ekinlarga bermaslik ularning hosildorligini pasayishiga sabab bo'ladi.

Respublikada mamlakat agrosanoat majmuasining 1- sohasiga kiruvchi traktorsozlik, paxta terish mashinalari ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan. O'zbekiston Respublikasi paxta terish mashinalarini kompleks holda ishlab chiqaradigan ikki davlatning biri hisoblanadi. paxta terish mashinalarini AQSH va O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqaradi. Albatta Isroil davlati ham AQSHning paxta terish mashinalari ishlab chiqaradigan korxonalari bilan birgalikda ushbu sohani tashkil etgan. Ammo u asosan o'zi uchun ishlab chiqaradi.

Respublikada qishloq xo'jaligi mashinasozligi mamlakat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda 300 dan ortiq qishloq xo'jaligi mashinalar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari bor. Ayniqsa, paxta terish mashinalari va agregatlari ishlab chiqarish tizimi yaxshi rivojlangan. paxta terish mashinalari bilan bog'liq barcha mexanizmlar O'zbekistonda ishlab chiqariladi. Mamlakatda ishchi mashinalar – pluglar, ekish agregatlari, chizellar, boronalar va ko'plab turdagi ish qurollari ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. Albatta, ularning sifatini yaxshilash talab qilinadi.

Respublikada don o'rish kambaynlari, maxsus avtomobillar kabi juda zarur vositalar ishlab chiqarish tarmoqlari hali tashkil etilmagan. Ular boshqa davlatlardan import qilinadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash sohasi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish ham respublikada yaxshi rivojlamagan. Bu mamlakat agrosanoati majmuasida yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash tarmoqlari texnik jihozlanishini importga bog'lab qo'ymoqda. Natijada,

mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli qayta ishlash jarayonida ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

2004 yil ma'lumotlariga ko'ra qishloq xo'jaligida 205 dona "Magnum-8930" va "MX-40" rusumli haydov traktorlari, 1728 dona "Keys", 608 ta "Klaas" va "Nyuxoland" rusumli g'alla o'rish kombaynlari hamda ko'plab MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan texnikalar ishlatilmoqda. "O'z Keys mash" qo'shma korxonasida "Keys-2022" rusumli paxta terish mashinasini yig'ish yo'lga qo'yildi. Keyingi 3 yil ichida Rossiyadan 1483 dona zanjirli traktorlar olib kelindi. Bular T-4A-01, VT-100, VT-150 haydov traktorlaridan iborat. Toshkent traktor zavodi va "BMKB-Agromash" konstruktorlik byurosi tajriba sexlarida yaratilgan va yig'ilgan 0,6 tortish sinfiga mansub "VU-30402" kichik traktor, pN-2-30 ikki korpusli osma plug, NO-3 osma chizel kultivator, NO-3,2 osma borona, NR-30-01 universal kultivator, NR-30-02 osma universal urug' ekish seyalkasi, MO'S-0,18 ma'danli o'g'it sepgichlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. 2005 yilda respublikada 57 ta yuk avtomobili, 1211 ta traktor pritseplari (yuk tashuvchi tirkamalari), 2868 ta traktorlar, 401 ta traktor pluglari, 1219 ta traktor kultivatorlari, 975 ta traktor seyalkalari (ekish agregatlari) ishlab chiqarildi.

Hozircha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash tarmoqlariga asosiy vositalar va texnologiyalar asosan chetdan olib kelinmoqda. Mamlakatda faqatgina yengil to'qmachilik tarmog'i uchun zarur ayrim texnikalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mavjud texnikalarga butlovchi qismlar ishlab chiqarish asta – sekinlik bilan yo'lga qo'yilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasining birinchi sohasini rivojlantirish juda murakkab bo'lib, bu katta mablag' va vaqtni talab qiladi. SHu sababli qisqa muddatdagi qishloq xo'jaligi texnikalariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida dunyoning yirik kompaniyalari bilan O'zbekiston Respublikasi turli shartnomalar imzoladi. "Keys-Nyu-Xolland" korporatsiyasi 1996 yildan o'z faoliyatini boshladi. O'tgan davrda 5000dan ortiq texnika respublikaga olib kelindi. "Keys-Nyu-Xolland" korporatsiyasi va "O'zqishloqxo'jalikmashxolding" kompaniyasi tomonidan bir

nechta model xo'jaliklari tashkil etildi. SHulardan biri paxta va g'allaga ixtisoslashgan Toshkent viloyati Quyichirchiq tumanida joylashgan bo'lib, ushbu texnikalardan ishlab chiqarishda foydalanish yuqori natijalar berishini ko'rsatdi. Jumladan, model xo'jalikda 2003-2004 yillarda paxta hosildorligi 60 sentnerni g'alla esa 80 sentnerni tashkil etdi.

Respublikada mavjud holatni chuqur o'rganib hamda agrosanoat majmuasi tarmoqlarining talablaridan kelib chiqib, asosiy vositalar lizingi rivojlantirilmoqda. Lizing yo'li bilan chetdan eng zarur asosiy vositalar keltirilmoqda. Masalaning bu tariqa hal etilishi ham malakat iqtisodiyoti ayniqsa, qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, respublikada agrosanoat majmuasi 1-sohasining rivojlanish darajasi yuqori emas. Shu sababli, bu sohani rivojlantirish mamlakat hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar yig'indisi agrosanoat majmuasining birinchi sohasi hisoblanadi. Bu sohaga kirgan sanoat tarmoqlari agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradi. Bu tarmoqlarga qishloq xo'jaligi uchun mashinasozlik tarmoqlari, traktor va kombaynlar, ishchi mashinalar, maxsus transport texnikalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, oziq-ovqat va yengil sanoat uchun ishlab chiqarish vositalari chiqariladigan korxonalar kiradi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi uchun ma'danli o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalar ishlab chiqaruvchi korxonalar, chorvachilik uchun omuxta yem ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi.

Bu tarmoqlarning asosiy qismi O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan va rivojlantirilmoqda. Shu bilan birgalikda respublikada don kombaynlari, maxsus transport vositalari, ishchi mashinalarning bir qismini ishlab chiqarish tashkil etilmagan. Umuman aytganda, agrosanoat majsuasi birinchi sohasini imkon darajada kuchli rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, mintaqa iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mehnatni qurollanish darajasi, fond bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasining tarkibi.
2. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati.
3. Qishloq xo'jaligiga ma'danli o'g'itlar va kimyoviy vositalar ishlab chiqaruvchi soha.
4. Qishloq xo'jaligiga texnikalar ishlab chiqarish.
5. Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi.
6. CHorvachilik uchun omuxta yem ishlab chiqaruvchi soha.
7. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasi tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning mintaqaviy muammolari.
8. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasiga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalarining rivojlanishi.
9. Agrosanoat majmuasining birinchi sohasiga kirgan tarmoqlarning O'zbekiston Respublikasida rivojlanganlik darajasi.

10. Agrosanoat majmumasi birinchi sohasiga kirgan tarmoqlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston 1999.-32b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma),- T., TDIU, 2004.-160 b.
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
7. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
8. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
9. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremensova. T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2001.
10. Raskin I.I, Raskin L. I. ApK: proizvodstvo i pervichnaya pererabotka xlopka. – T.: Mexnat, 1986.
11. papov N. A. ekonomika selskogo xozyaystva: uchebnik. -M.: Delo i Sersis, 2000.

Internet saydlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic935&page1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page4&book88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika RUz.

4-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINING QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI TAYYORLOVCHI, QAYTA ISHLOVCHI VA ISTE'MOLCHILARGA YETKAZIB BERUVCHI SOHASI

4.1. Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruchi sohasi tarkibi

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni tayyorlaydigan va tayyor mahsulotlarni istemolchilarga yetkazib beradigan (sotadigan) barcha tarmoq va korxonalar agrosanoat majmuasining 3-sohasini tashkil etadi. Bularga:

- paxta tozlash zavodlari;
- konserva zavodlari;
- pallani qayta ishlash fabrikalari;
- sut va go'shtni kayta ishlash korxonalari;
- Yog'-moy ishlab chiqarish korxonalari;
- mava sharbatlari, vino, kon'yak kabi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavodlar;
- junni, kanopni qayta ishlash korxonalari;
- shakar ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari;
- oziq-ovqat sanoati;
- terini qayta ishlash korxonalari;
- un va un mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari;
- muzxona (xolodilnik) va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi korxonalar (ulgurji va chakana savdo) va boshqalar kiradi.

Agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi soha murakkab tarkibga ega. Har bir mahsulot turi yoki bir-birini to'ldiruvchi mahsulotlar bo'yicha agrosanoat majmuasining o'z korxonalari mavjud. Albatta ayrim mahsulotlarni respublikada chuqur qayta ishlash darajasi yuqori emas. Masalan, respublika qishloq

xo'jaligining asosiy ekin turlaridan biri bo'lgan paxta xomashyosining 100 foizi dastlabki qayta ishlash (paxta tolasini chigitdan ajratish va toylash) dan o'tadi. Ammo uni chuqur qayta ishlashning darajasi katta emas. Mustaqillikning dastlabki yillarida jami qayta ishlangan paxta xomashyosining 6-8 foizi respublikada qayta ishlanar edi. 2002 yilga kelib bu ko'rsatkich 14-16 foizini 2004 yilda esa 24-25 foizni tashkil etdi. YAqin kelajakda bu ko'rsatkichni 45-50 foizga yetkazish ustida xarakatlar qilinmoqda. Respublikada paxta xomashyosini ikkilamchi va chuqur qayta ishlash katta iqtisodiy va ijtimoiy samara beradi. Hozirda, paxtadan juda kam miqdorda yarim tayyor va tayyor oxirgi tovarlar ishlab chiqarilmoqda. Respublikada bu borada qilinadigan ishlarning hajmi katta. 2004 yil ma'lumotlariga ko'ra mamlakatda yetishtirilayotgan paxta tolasining 26,1 foizi, mevaning 15 foizi, sabzavotlarning 10 foizi, poliz mahsulotlarning 9 foizi, uzumning 23 foizi, terining 26 foizi, junning 15 foizi, go'shtning 25 foizi va sutning 5 foizi qayta ishlangan. Sanoatda qayta ishlangan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish katta iqtisodiy samara va ijtimoiy masalani (ishsizlikni kamaytirish, aholining daromadini oshirish kabi) yechishda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohaga kiruvchi tarmoqlarni rivojlantirish respublika iqtisodiyoti uchun juda zarur. Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan qishloq joylardagi aholining mahsulotlarini sotib oladigan va ular uchun kerakli tavorlarni yetkazib beradigan tizim yetarli darajada rivojlanmagan. Bu masalaga to'xtalib O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov –“Haligacha qishloqda bir tomondan, fermerlar va dehqonlar yetishtiradigan mahsulatlarni shartnomaviy narxlarda sotib oladigan ikkinchi tomondan, qishloq aholisiga zarur tovarlar, asbob-uskuna va materiallar yetkazib beradigan infratuzilma tarmog'i yaratilmagan”*-degan edi. Qishloqda bunday tizimning yetishmasligi, mavjudlarining samarali ishlamasligi tarmoqning samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. yetishtirilgan

* I.A.Karimov “Erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz”// Xalq so'zi 2004 y. 10 fevral.

mahsulotlarning bir qismining nobud bo'lishiga olib keladi. Mahsulotning o'z vaqtida sotilmasdan qolgan ikkinchi bir qismi esa an'anaviy usullarda quritiladi, konservatsiya qilinadi. Bu mahsulotlar asosan oila maqsadlari uchun ishlatiladi va qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan oilalarning daromadining qisman kam bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bu borada ayniqsa, vino, sharbatlar, meva, sabzavot konservalari, go'sht va sut mahsulotlaridan sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirish asosiy yo'nalishlar sifatida qaralishi zarur. Bu borada qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kichik korxonalar qurish va ularni rivojlantirib borish katta samaralar beradi.

4.2. Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohasining ahamiyati va iqtisodiyotidagi o'rni

Agrosanoat majmuasi 3-sohasining ahamiyati har qanday davlat iqtisodiyoti uchun beqiyos. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bu sohaning salmog'i ayniqsa yuqori. Mamlakat mehnat resurslarining 22 foiziga yaqini shu sohada band. Yalpi ichki mahsulotning 23 foizga yaqini shu tarmoqlarda ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning nobud bo'lmasligi avvalo shu tarmoqlar rivojiga bog'liq. Agrosanoat majmuasi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish ham asosan shu tarmoqlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Ular aholini yuqori sifatli mahsulotlar, ish joylari bilan ta'minlashda ham alohida o'rin tutadi.

Mamlakat aholisining ish bilan ta'minlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlar sotuvchi tarmoqlar va xizmatlarning ahamiyati beqiyos. Bu tarmoqlarni rivojlantirish mamlakatda ishsizlik muammosini yumshatadi va unga barham berish imkoniyatlarini kengaytiradi, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari nobud bo'lishining oldini oladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda yetishtirilayotgan ba'zi turdagi qishloq

xo'jaligi mahsulotlarining 30 foizgachasi nobud bo'lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri agrosanoat majmuasi 3-sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligidadir. Yuqoridagilarni hisobga olib sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'rnini quyidagilar bilan belgilash mumkin:

- qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning nobud bo'lishini oldini oladi va natijada katta iqtisodiy samara beradi;
- aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilaydi, ijtimoiy masalalarni yechimini optimallashtiradi;
- qishloq xo'jaligini imkon darajasida bir me'yorda moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi;
- aholining turmush darajasini oshiradi;
- qishloq xo'jaligini unga xos bo'lmagan funktsiyalardan (mahsulotni saqlash, tashish va x.z.) ozod qiladi;
- mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi;
- aholini yilning turli fasllarida sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yaxshilaydi;
- qishloq aholisining mehnat malakasini oshiradi;
- mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini sifatli ta'minlaydi.

Agrosanoat majmuasining 3-sohasiga kiruvchi tarmoqlarni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy strategiyasining bosh yo'nalishlaridan bir hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilmoqda. Hozirgi paytda yengil sanoatni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e'tibor kuchaytirildi. Bu sohada vujudga kelayotgan yangi qo'shma korxonalar yangi texnika va texnologiyaning kirib kelishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari aholini ish bilan bandligi oshishiga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quyidagi hajmda bajarilmoqda:

Mevalar – 15%, sabzavot – 10%, poliz mahsulotlari – 5%, uzum – 23%, teri – 26%, jun – 15%, go'sht – 25%, sut – 5%, paxta xomashyosi – 25%.

Rivojlangan mamlakatlarda yalpi mahsulotni yetishtirishda kichik va o'rta korxonalar salmog'i 60-70% tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasida yalpi mahsulotni yetishtirishda kichik korxonalarni salmog'i 1991 yilda 1,5% tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib u 31% tashkil etgan. Respublikada kichik korxonalar soni 2000 yilga kelib – 190 mingni tashkil etgan, ularda 3 mln. ortiq ishchi hizmat qiladi. Ularga 72 mlrd. so'm kreditlar ajratilgan, qo'shimcha 178 ming yangi ish joylari tashkil etilgan. 2005 yilga kelib kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni 300 mingdan oshib ketdi.

Qishloq xo'jalig mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari uzoq yillik tajriba va bilimga ega. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash masalalari bo'yicha Markaziy Osiyoda 9-12 asrlarda bir qator asarlar paydo bo'lgan. Ibn Al Xaysam (965-1035), Ibn Xatib ar Roziy (1149-1209), Ibn Rashta (12-asr), Xazrad Mashhadiy Sayid Muhammad (12-asr) kabilarning asarlarida qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash haqida ma'lumotlar berilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash masalalari juda qadimdan o'rganilgan va yillar o'tishi bilan takomillashib rivojlanib borgan.

4.3. Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlantirish yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasida agrosanoat majmuasining 3-sohasi nisbatan yaxshi rivojlangan. Jumladan, agrosanoat majmuasining 3-sohasiga kiruvchi meva va savzavotlarni qayta ishlash sanoati yetarli darajada yaxshi rivojlangan. Respublikada "O'zmevasabzavotuzumsanoat xolding" kompaniyasining tashkil etilishi, uning tarkibiga meva, sabzavot, poliz hamda uzum yetishtirishga ixtisoslashgan 89 ta shirkat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi ko'plab zavodlarning kiritilishi bu sohaning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Respublikada yiliga 5 mln.

tonnadan ko'proq meva va sabzavot ishlab chiqariladi. Meva sharbatlari, konservalari, vino, kon'yak, likyor kabi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va sifati oshmoqda. Respublikada har yili 16 mln. dal vino materallari tayyorlanadi. Ulardan 30 xil vino ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar ko'p muqdorda chetellarga eksport qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan vinolar xalqaro ko'rgazmalarda 92 ta medal olgan. 2005 yilda respublikada 2442 ming dal uzum vinosi, 5938 ming dal aroq va likyor mahsulotlari, 30 ming dal konyak, 168 ming dal shampän vinosi, 3098 ming dal ichimlik spirti ishlab chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan tarmoqlar qatoriga kiradi. Respublika oziq-ovqat sanoati quyidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi:

- bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari. Bularga: un-krupa, Yog'-moy, kraxmal, sut, go'sht, choy, shakar, vinochilik uchun xomashyo mahsulotlarini tayyorlash sanoati kabi tarmoqlar kiradi;

- oziq-ovqat sanoati korxonalarining mahsulotlaridan keng foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar. Bularga: mevasabzavot sanoati korxonalari, sut va go'sht mahsulotlaridan konservalar ishlab chiqaruvchilar, pivo va vino ishlab chiqarish sanoati korxonalari kiradi;

- non va non mahsulotlari, makaron, salqin ichimliklar, qandolatchilik, kolbasa, rafinadlangan qand, oziq-ovqat konsentratlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;

- baliq va boshqa suv hayvonlari mahsulotlarini qayta ishlovchi statsionar korxonalar;

- Tuz ishlab chiqarish korxonalari.

O'zbekiston keyingi yillarda vaqtinchalik baliq va boshqa suv hayvonlari mahsulotlarini qayta ishlovchi statsionar korxonalar tugatilgan. Albatta keyinchalik bozor talabi va mavjud iqtisodiy sharoit ushbu korxonalarning istiqbolini belgilaydi.

2004 yilda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 13,2 foizi oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarilgan bo'lsa 2006 yilda bu ko'rsatkich 14,2 foizni tashkil etdi. 2005 yilda 1320,3 ming tonna un, 23,1 ming tonna krupa, 397,2

ming tonna omuxta yem, 4534 ming dal alkogolsiz ichimliklar, 16,9 ming tonna makaron mahsulotlari, 46,2 ming tonna non va non mahsulotlari, 253,9 ming tonna o'simlik moyi, 16108 tub meva sharbatlari, 147429 tub mevasabzavot konservalari va boshqa ko'plab mahsulotlar (shakar, margarin va x.z.) ishlab chiqarildi.

Mamlakatda juda katta Yog'-moy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan. Hozirda respublika aholisiga yetarli miqdorda sifatli Yog'-moy ishlab chiqarib bera oladigan imkoniyat mavjud. Bu boradagi asosiy masala Yog'-moy beruvchi xomashyo yetishtirishni ko'paytirishdir. Albatta keyingi yillarda soya, masxar, kunjut, zig'ir kabi moy beruvchi ekin turlari yetishtiriladigan maydonlar kengaytirilmoqda. Ammo ulardan olinayotgan xomashyo miqdori hozircha qayta ishlash sanoatining talablari darajasi uchun yetarli emas.

Respublikada, ayniqsa, go'shtni, sutni qayta ishlash sanoatining quvvati juda katta. Lekin keyingi yillarda chorvachilikning to'liq xususiylashtirilishi yirik chorva fermalarining tugatilishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, go'sht va sutni qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan yil davomida bir tekisda ta'minlanish imkoniyatini yo'qqa chiqardi. Natijada sutni va go'shtni qayta ishlaydigan yirik zavodlar yil davomida deyarli bekor qola boshladi. Bu, quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda:

- sohada ishlaydigan ishchi, xodimlarning asosiy qismi o'z ishlarini o'zgartirishlariga majbur bo'lishmoqda yoki ularning vaqtincha ishsiz qolishlariga sabab bo'lmoqda;
- davlat byudjetiga to'lanadigan soliq va boshqa to'lovlarning shu soha bo'yicha kamayishga olib kelmoqda;
- chova mollarini go'shtga so'yish natijasida olinadigan ayrim xomashyoning (ikkinchi darajali mahsulotlar: qon, ichki bezlar, birinchi qorin bo'shlig'ida bo'ladigan yem-xashak, suyak kabi mahsulotlar) nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda;

Hozirda mamlakat go'sht zavodlari quvvatidan foydalanish 4-18, sut zavodlari quvvatlaridan foydalanish darajasi 25-62 (turli viloyatlar va korxonalarda turlicha) foizdan oshmaydi. Demak, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p.

Respublikada mavjud qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq va samarali foydalanishning mo'tadil yechimlarini topish ustida ilmiy va amaliy ishlar olib borilishi zarur.

Respublikada go'sht va sutni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu borada yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Bunga Rossiyaning sut va sharbat ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Vimm-Bill-Donn" ochiq aktsionarlik jamiyati "Toshkentsut" OAJ bilan birgalikda tashkil etgan korxonasi misol bo'la oladi. Rossiyaning sut va sharbat ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Vimm-Bill-Donn" ochiq aktsionarlik jamiyati 131,4 ming AQSH dollariga "Toshkentsut" ochiq aktsionerlik jamiyatining aksiyalarini sotib olish yo'li bilan sutni qayta ishlash sohasiga investitsiya kiritdi.

Respublikada texnika ekinlari xomashyosini daslabki qayta ishlash tizimi yetarli darajada rivojlangan. Lekin paxta, pilla va kanop tolasini ikkilamchi va chuqur qayta ishlash darajasi yuqori emas. Bu boradagi asosiy yo'nalish paxta, pilla tolasini chuqur qayta ishlash tizimini rivojlantirishdir. Bunga erishilsa, tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishni tubdan rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Bu, o'z navbatida, ko'pgina mehnat resurslari ish joylariga ega bo'lishini, mamlakat ichki mahsuloti hajmi keskin ko'payishini, mamlakat eksport salohiyati oshishini ta'minlaydi. Ayrim hisoblarga qaraganda paxta tolasini chqur qayta ishlash va ulardan tayyor iste'mol buyumlari ishlab chiqarish yalpi mahsulot hajmini 7 martagacha oshrish imkonini beradi. Bir so'mlik homashyo o'rniga 7 so'mlik tayyor mahsulot ishlab chiqarish mamlakatdagi ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yaxshilash imkoni beradi. Bu O'zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlardan bo'lib, hozirda ushbu masalaga ustivorlik statusi berilgan.

2005 yilda 564,4 tonna ipak ipi, 247 mln. kv.m. paxta matolari, 3226 ming kv.m. ipak matolari, 6414 ming kv.m. gilam va gilam mahsulotlari, 32154 ming dona trikotaj mahsulotlari, 17589 ming poy paypoq, 1187,6 ming tonna paxta tolasini va 1835,4 ming tonna paxta chigiti ishlab chiqarildi.

Mamlakat agrosanoat majmuasining 3-sohasida oziq-ovqat sanoatining o'rnida katta. 2002 yilda mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida oziq – ovqat sanoatining salmog'i 14,2 foizni, 2004 yilda 9,4 va 2005 yilda 8,4 foizini tashkil etdi.

Engil sanoat O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining eng salmoqli tarmoqlaridan biridir. 2002 yilda jami sanoat mahsulotlarning 18,1 foizi, 2004 yilda 19,2 va 2005 yilda 16,9 foizi yengil sanoatda ishlab chiqarildi va tarmoq keyingi yillarda tez o'sib borish tendentsiyasiga ega. Mustaqillikkacha respublikada 7 ta yirik to'qimachilik korxonasi bo'lgan bo'lsa 2004 yilga kelib ularning soni 62 taga etdi. 1995 yilda 152 ming tonna paxta tolasi soha korxonalari tomonidan ishlatilgan bo'lsa 2004 yilda bu ko'rsatkich 255 ming tonnani tashkil etdi. 1995 yildan 2005 yilgacha tarmoqqa 900 mln. AQSH dollaridan ko'proq miqdordagi chet el investitsiyasi jalb qilindi. Natijada 1995 yilda tarmoq mahsulotlarining 17 foizi qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan bo'lsa 2005 yilga kelib bu ko'rsatkich 85 foizni tashkil etdi.

Respublika yengil sanoatining asosiy qismi "O'zbekengilsanoat" davlat aksionerlik kompaniyasi tarkibiga kiradi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksionerlik kompaniyasi mamlakatning tekstil, trikataj, to'qimachilik, chinni sanoatiga qarashli 130 ta korxonadan ibarat. Ularning 50 tasi qo'shma va chet el korxonalaridir.

Respublikada yengil sanoatga ustivorlik statusi berilgan. Uni rivojlantirish katta istiqbolga ega. Bu jarayonda qo'shma korxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarmoqni rivojlantirish maqsadida qo'shma korxonalarga davlat tomonidan qator yengilliklar yaratilgan. Chet el investitsiyalari faoliyati qonun bilan to'liq kafolatlangan. Jumladan, yangidan qabul qilingan qonun, me'yoriy hujjatlar sohada tashkil etilgan qo'shma korxonalarning faoliyatiga salbiy ta'sir etadigan bo'lsa, ular tashkil etilgan kundan boshlab 10 yil eski belgilangan qoidalar amal qilishi O'zbekiston Respublikasining "Xorijiy investitsiyalarni huquqlarini kafolatlari va himoyalash choralari to'g'risi"dagi qonunda belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Xorijiy investitsiyalarni to'g'risi"dagi qonunda xorijiy investitsiyalar uchun huquqiy muhit O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari uchun o'rnatilganidan yomon bo'lishi mumkin emasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari xorijiy inverstlar uchun ma'lum miqdorda yengilliklar yaratilgan. Masalan, 2009 yilning 1 yanvariga qadar chet el investitsiyalari mavjud korxonalar byudjedga barcha to'lovlardan (qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari) ozod qilingan. Davlat dasturiga kiritilgan xorijiy investitsiyalari mavjud korxonalar texnik qayta ta'minlanish maqsadida xorijdan olib kelayotgan texnika, texnologik uskunalar, ehtiyot qismlar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona hujjatlarini qilish xarajatlaridan tashqari) ozod qilingan. Bundan tashqari "O'zengilsanoat" davlat aksionarlik kompaniyasi korxonalari 4 yilga tashqaridan olib kelinayotgan buyoq, kimyoviy vositalar va boshqa zururiy mollar uchun import to'lovlaridan ozod qilingan. Qo'shma korxonalar uchun paxta xomashyosini qattiq valyutaga sotib olishda Liverpool birjasida yuzaga kelgan narxdan 15 foiz chegirma qilinadi. Agarda ular tomonidan olingan xomashyoni to'liq va chuqur qayta ishlab tayyor mahsulotlar chiqarsa va ushbu mahsulotlarning 80 foizini xorijga eksport qilsa paxta tolasining narxidan yana 5 foiz chegirma qilinadi. Shunday qilib ular paxta xomashyosini 20 foiz arzoga olish imkoniyatlari mavjud. Respublika tijorat banklariga yengil sanoat korxonalari uchun 180 kunlik qisqa muddatli kreditlar ajratish tavsiyasi berilgan. Bu ham davlat tomonidan yengil sanoatni rivojlantirish uchun berilgan katta yordam hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan va qayta ishlash sanoati chiqarayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga, iste'molchilarga yetkazib berishda birjalarning ahamiyati va o'рни oshib bormoqda. Respublikada agrosanoat majmuasi mahsulotlarini sotishni takomillashtirish, bu boradagi ishlarni bozor talablariga moslashtirish maqsadida Respublika Agrosanoat Birjasi (RASB) tashkil etilgan.

Respublika Agrosanoat Birjasi (RASB) quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ASM mahsulotlari va ularni qayta ishlash natijalarini sotish, jumladan, tashqi bozorga chiqarish;
- ASM korxonalari ta'minoti bilan shug'ullanish;
- Bojxona, omborxona, reklama va tashish xizmatlarini amalga oshirish;
- Marketing faoliyatini yuritish va boshqalar.

Respublika qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning muhim bir yo'nalishi ilg'or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishdir. Bu omil juda katta iqtisodiy samara beradi. Masalan, birgina paxtachilikni olaylik. Hozirgi mavjud texnika va texnologiyada bir birlik paxta xomashyosidan 32,7 foiz paxta tolasi olinishi me'yor qilinib belgilangan. Amalda ham bir birlik paxta xomashyosidan paxta tolasining chiqishi 30-33 foizni tashkil etmoqda. Ko'plab paxta yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchi mamlakatlarda paxta xomashyosidan tola chiqishi 38 foizni tashkil etadi. Birgina shu omilning o'zi mamlakatda qo'shimcha yer, suv resurslarini jalb etmasdan 16 foizga paxta tolasining ko'payishini ta'minlagan bo'lar edi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki ishlab chiqarishga ilg'or texnika va texnologiyani jalb etish qo'shimcha tabiiy resurslar jalb etmasdan ishlab chiqarishning hajmini oshiradi. Uzoq yillik ishlab chiqarish (iqtisod) nuqtai nazaridan qaralganda iqtisodiy samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Ishlab chiqarishga yangi nav va chorva mollarning yangi zotini kiritish ham qayta ishlash tarmoqlarini barqaror rivojlanishiga olib keladi. Masalan, tomat ishlab chiqarishda pomidorning quruq modasi ko'p navlarini yetishtirish, Yog'-moy sanoati uchun Yog'lilik darajasi yuqori navlarni ekish, paxtaning tola ko'p beradigan navlarini ishlab chiqarishga joriy etish bunga misol bo'la oladi.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat majmuasining samaradorligi va o'z vazifasini to'liq bajarishi ko'p jihatdan uning uchinchi sohasi rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Agrosanoat majmuasining uchinchi sohasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, dastlabki va chuqur qayta ishlovchi, tayyor, oxirgi mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish bilan shug'ullanuvchi tarmoq va xizmatlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotda agrosanoat majmuasi uchinchi sohasining o'rnini va ahamiyati beqiyos. Ularning yil davomida bir me'yorda ishlash qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar nobud bo'lishining oldini oladi va ularning sifatini yanada yaxshilaydi. Mehnatga layoqatli kishilarning katta bir qismini ish joylari bilan ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi nisbatan yaxshi rivojlangan qayta ishlash sanoatiga ega. Ayniqsa, oziq- ovqat va yengil sanoat kuchli rivoj topgan. SHu bilan birgalikda agrosanoat majmuasining uchinchi sohasida ko'pgina yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Ularning eng asosiysi sohaga kiruvchi tarmoqlarda vujudga keltirilgan mavjud quvvatlardan to'liq foydalanishdir. Ma'lumki, ayrim tarmoqlarda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi 5-20 foizni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida, juda katta muammolarni vujudga ketiradi. Agrosanoat majmuasining uchinchi sohasini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada juda katta ishlar amalga oshirilayapti. Asosiy mahsulotlardan biri - paxtani chuqur qayta ishlashni tashkil etish, ayniqsa, katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Tayanch iboralar

Yog'-moy, oziq-ovqat, yengil sanoat, ishlab chiqarish imkoniyatlari, mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutonosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutonosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mehnatni qurollanish darajasi, fond bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agrosanoat majmuasi uchinchi sohasining tarkibiga qanday tarmoqlar kiradi?
2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi tarmoqlar.
3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi soha.
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlovchi soha.
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashuvchi soha.
6. ASMning uchinchi sohasida tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar.
7. Agrosanoat majmuasi uchinchi sohasining hozirgi rivojlanish darajasi qanday?
8. O'zbekiston Respublikasida qaysi qayta ishlash tarmoqlari yaxshi rivojlangan?
9. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi uchinchi sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
10. Qayta ishlash korxonalarini joylashtirish tamoyillari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
2. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinki: Obuzie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
3. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
4. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.

7. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
8. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremntsova. T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2001.
9. Raskin I.I, Raskin L. I. ApK: proizvodstvo i pervichnaya pererabotka xlopka. –T.: Mexnat, 1986

Internet saydlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topicq935&pageq1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?pageq4&bookq88899>
6. www.bearingpoint.uz

5-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINI ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASI

5.1. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, tarkibi

Agrosanoat majmuasining katta bir qismi uning infratuzilmasidan iborat. Uning rivojlanishiga Respublika prezidenti va hukumati katta ahamiyat berib kelmoqda. Bu boradagi fikrlarini bildirib, O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi. "Fermerlarga xizmat ko'rsatish, ularni zarur moddiy resurslar va texnika bilan ta'minlash bo'yicha bozor infratuzilmasini shakllantirish jarayonini tezlashtirish zarur." Ushbu fikrlarni rivojlantirib, "Fermerlarga mexanizatsiya xizmatlari bo'yicha ko'rsatilayotgan yordamni kengaytirish, ularni ma'danli o'g'it, sifatli urug'lik va kichik texnologiyalar bilan ta'minlash, tegishli axborot xizmati ko'rsatishni yaxshilash, lizing xizmati bilan bog'liq masalalarni xal qilish zarur"* deb ta'kidlagan edi.

Infratuzilma – lotincha so'z bo'lib, quyida joylashgan, xizmat ko'rsatuvchi degan ma'noni beradi. Infratuzilma – ishlab chiqarish jarayoni samarali amal qilishi uchun zarur xizmatlarni ko'rsatuvchi yo'nalishlar (sohalar)ni o'z ichiga oladi. Ma'lumki ishlab chiqaruvchi sub'yektlar o'z ishlab chiqarishi uchun juda ko'plab sharoitlarning, omillarning bo'lishini talab qiladi. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayoni shu darajada tezlashib, murakkablashib ketdiki, iqtisodiy jihatdan juda katta imkoniyatga ega bo'lgan korxona va firmalar ham o'z ishlab chiqarishi uchun zarur barcha xizmat turlarini o'z hisobidan tashkil qila olmay qoldilar. Bu xizmatlar ixtisoslashgan holda tashkil etilgandagina samarali hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi o'ziga xos bo'lmagan xizmat turlarini o'z tarkibida tashkil etmasdan ularni ixtisoslashgan xizmat ko'rsatuvchilardan sotib olgani iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Albatta ayrim xizmat turlarini yirik ishlab chiqaruvchilar o'zlari tashkil etishlari mumkin.

* I.A. Karimov Iqtisodiyetni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz/ Toshkent. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2002 yil 16 fevral

Infratuzilmaning asosiy vazifasi ishlab chiqarishning samarali ishlashi uchun xizmat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarining uzliksiz, bir me'yorda ishlashi uchun sharoit yaratishdan iborat.

Infratuzilma qishloq xo'jaligi korxonalari bajaradigan ko'plab funktsiyalarni o'z zimmasiga oladi. Bu qishloq xo'jaligi korxonalariga resurslarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirish imkoniyatini beradi.


Ma'lumki, agrosanoat majmuasining infratuzilmasi uning 4-sohasini tashkil etadi. Infratuzilma juda katta va murakkab tarkibga ega. Shu sababli agrosanoat infratuzilmasi iqtisodiy fan tomonidan asosan ikki qismga bo'lib o'rganiladi. Birinchi qismga agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi kiradi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi agrosanoat majmuasining eng zarur qismi bo'lib, ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan uning mavjudligi va bir me'yorda faoliyat ko'rsatishiga bog'liq. Agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- transport tizimi va yo'llar;
- aloqa tizimining ishlab chiqarish bilan bevosita bog'langan qismi;
- bank va moliya bozorining tegishli qismi;
- qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash tizimi;
- qishloq joylarda elektr energiyasini uzatish liniyalari;
- ilmiy – ishlab chiqarish laboratoriyalari;
- zooveterinariya xizmatlari;
- irrigatsiya va melioratsiya xizmatlari;
- yoqilg'i va moylash materiallari ta'minoti tashkilotlari;
- ma'danli o'g'itlar, kimyo va qishloq xo'jaligini zarur kimyoviy vositalar bilan ta'minlash tizimlari;
- biologik xizmat ko'rsatish tizimlari korxonalari;
- konsalting xizmatlari va boshqalar.

Infratuzilmaning o'ziga xosligi shundaki, bir xizmat turining o'zi bir paytda ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda ijtimoiy infratuzilma bo'lishi mumkin. Masalan, yo'llar ishlab chiqarishga xizmat qilish paytida ishlab chiqarish infratuzilmasi hisoblanadi. Lekin ular aholining ehtiyojlari uchun barchaga beminnat bir xilda xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy xizmat turi hamdir. SHu sababdan yo'llar ijtimoiy infratuzilmaga ham kiradi. Shungdek, aloqa va transport tizimlari ham ishlab chiqarish yoki ijtimoiy infratuzilma bo'lishi mumkin. Infratuzilmaning bu xususiyatini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bu holatni hisobga olmaslik iqtisodiy qarorlar qabul qilishda aqrim qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Keyingi yillarda umumiy taraqqiyot natijasida agrosanoat majmuasi infratuzilmasi ham rivojlanib, kengayib bormoqda. Bu, o'z navbatida, agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtiradi, majmuaning samarali ishlashi uchun sharoitlarni yaxshilashga olib keladi.

Bizning fikrimizcha agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi (fermer shirkatlar va dehqon xo'jaliklari)ga korxonalariga bozor infratuzilmasi xizmatlari ko'rsatish bo'g'inlari tarkibini quyidagi tartibda tasniflash ma'qul bo'lar edi (4-chizma).*

* Agrosanoat majmuasida bozor infratuzilmasi xizmatlarining dolzarbligi Markaziy bank Buxoro viloyat Bosh boshqarmasi boshlig'i M.R.Abdullaev, BuxDU K.B.Dilmonov/ Mintaqaviy agrosanoat majmui xizmat bozorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari 18-19 aprel, 2005 y. 117-121 (118 betda)



4-chizma. Agrosanoat majmuasi bozor infratuzilmasining xizmatlar ko'rsatish bo'g'inlari tarkibi

Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- agrosanoat majmui xizmatlar bozori ko'p qirrali murakkab universal tabiatlidir;
- unga ma'lum darajada mavsumiylik xosdir;
- ayrim sohalarda monopollik darajasi yuqori. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar asosan monopol holdadirlar;
- fermerlar va dehqonlarning mavqei ushbu bozorda pastdir;

- xizmatning barcha turlari ham yaxshi shakllangan va rivojlangan emas.

5.2. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasining ahamiyati, iqtisodiyotdagi o'рни va hozirgi holati

2004 yilda Respublika qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida 34% g'alla-don o'rishga, 25,2% shudgorlashga, 16,3 qishloq xo'jaligi texnikalariga ehtiyot qismlari yetkazib berishga, 7,6 % yuk tashish avtomobillarini hamda qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlashga, 2,2% transport xizmatlarga, 1% ma'danli o'g'itlarni kiritish va o'simliklarni zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurashiga, 0,2% chorvachilik fermalariga texnik xizmat ko'rsatishga va 13,5% boshqa turdagi xizmatlar ulushiga mos kelgan.*

Mamlakat agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ishlab chiqarish infratuzilmasisiz agrosanoat majmuasida mo''tadil faoliyat yuritishi mumkin emas. Ishlab chiqarish infratuzilmasi agrosanoat majmuasida ishlab chiqarishning uzliksiz tashkil etilishini ta'minlaydi. Agarda har bir korxona barcha ish va xizmatlarni o'zi bajarishga harakat qilsa, bu juda qimmatga tushadi. Ko'p holatlarda buni amalga oshirish mumkin ham emas. Masalan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun urug'lik, yoqilgi – moylash materallari, ma'danli o'g'itlar, turi kimyo mahsulotlari, dori-dormonlar, elektr, suv ta'minoti, kadrlar yetishtirish, aloqa xizmatlari ko'rsatish, xo'jalikda mavjud texnikalarni ta'mirlash ishlari va boshqalarni olaylik. Bu ish va xizmat turlarini bir xo'jalik bajarishi uchun qanchadan qancha mutaxassis, transport, texnikalar va boshqa resurslar kerak bo'ladi. Bu xizmatlarni tashkil etish uchun xo'jalikda na mutaxassislar, na moliyaviy resurslar yetarli. Chunki, ayrim xizmat turlari ta'minoti bir xo'jalik uchun emas, balki o'n, yuzlab va minglab tashkilotlarga xizmat ko'rsatadi. Masalan, elektr bilan ta'minlash va h.k. Ularni har bir xo'jalik o'zi aholida

* Xalq so'zi 2005 yil 25 mart, 2 bet

tashkil eta olmaydi. Shu sababli ham bu ish va xizmat turlari aholida mustaqil tizimlarni tashkil etadi.

Agrosanot majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyotda katta o'rinni egallaydi. Eng avvalo, bu ish va xizmatlar ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keladi. Iqtisodiyot rivojlangan sari esa, infratuzilma xizmatlariga talab ortadi. Natijada, ishlab chiqarishning samaradorligi oshadi. Mehnatga layoqatli aholining katta qismi infratuzilmaga ish joylashadi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda jami ishlayotganlarning 60-70 foizi xizmat ko'rsatish tizimida ishlaydi. Bizda esa bu ko'rsatkich 14 foizdan kamroq. Natijada qishloq xo'jaligi korxonalari o'ziga xos bo'lmagan ko'pgina xizmat turlarini o'zlari bajaradilar. Bu yoqilg'i – moylash materiallari, ma'danli o'g'itlarni xo'jalikka olib kelish va boshqa faoliyatlardir. Qishloq xo'jaligi korxonalari o'ziga xos bo'lmagan faoliyatlar bilan shug'illanganliklari ishlab chiqarishning samardorligi kutulgan darajada ijobiy bo'lmasligiga olib kelishi mumkin.

Agrosanoat majmuasi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishiga ko'plab omillar va mavjud sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlari, yerning reliefi, suv bilan ta'minlanishi, yo'llarning mavjudligi, holati va magistral yo'llarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish ob'yektlarining (korxonalar, firmalar) joylashishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashishi, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologiyalar va boshqalar. Ushbu omillar ta'sirida qishloq xo'jaligi infratuzilmasi shakllanadi va rivojlanadi.

Infratuzilma qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadal rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini asta - sekin ayrim xizmat ko'rsatish funktsiyalaridan ozod qiladi. Bu xizmatlar infratuzilmaning ixtisoslashgan korxona va tashkilotlari tomonidan bajariladi. Bu iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligi ham asosan, ishlab chiqarish jarayoni bilan shug'ullanadi. Natijada, barcha ishlarning o'z agrotexnik muddatlarida sifatli bajarilishi ta'minlanadi. Lekin hozirda infratuzilma bajarishi kerak bo'lgan juda ko'plab ish va

xizmatlar qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan bajarilmoqda. Bu, o'z navbatida, ayrim ishlarning sifatsiz va katta xarajatlar evaziga bajarilishiga olib kelmoqda. Ikkinchi tomondan, mavjud infratuzilma ham samarali va sifatli faoliyat ko'rsatadi. SHulardan biri ko'rsatilayotgan xizmatlar bazorida raqobat muhitining pastligi, ko'pgina hollarda umuman yo'qligi, xizmatlar sifatining juda pastligidir. SHu sababi bu borada ham qilinadigan ishlar juda ko'p.

Respublikada agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi ma'lum darajada rivojlangan. Ayniqsa, paxta va bug'doy yetishtirish uchun xizmat ko'rsatadigan infratuzilma yaxshi rivojlangan. Bu yo'nalishdagi ishlar davlatning qattiq nazorati ostida rivojlantirilmoqda. Respublikada paxta tolasini eksport qilish bilan shug'illanadigan 20 ta ixtisoslashgan paxta terminallari tashkil etildi. Hozirda ularning bir paytda tola saqlash imkoniyati 352 ming tonnani tashkil etadi. Bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish belgilangan. Respublikada paxta tolasini eksport qilish ushbu terminallardan tashqari Respublika tovar-xomashyo birjasi yordamida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi 120 ta filialga va 70 mingdan ortiq mijozlarga ega. Uning mijozlari 44 davlatning iqtisodiy sub'yektlari hisoblanadi. paxtachilikda ishlab chiqarish infratuzilmasida transportning ahamiyati katta. 1991 yilda paxta tolasini eksport qilishga xizmat ko'rsatadigan "O'ztashqitrans" DAK tashkil etildi. U FIATA ning a'zosi xisoblanadi. Kompaniyaning 9 ta sho'ba korxonalari bo'li., ular bir yilda 1,5 mln tonna yukni eksport va import qiladi. paxta tolasini eksport qilishda davlat tashqi savdo aksionarlik kompaniyasi "O'zmarkazimpeks" 1998 yilda tashkil etildi. Uning yillik paxta tolasini sotish hajmi 25 ming tonnani tashkil etadi. 1991 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiladigan va yangi texnika va texnologiyalarni importi bilan shug'illanuvchi "O'zprommashimpeks" DAK tashkil etildi. Ushbu kompaniya yiliga 300 ming tonna paxta tolasini 35 ta davlatga eksport qiladi. Respublikada "O'zinterimpeks" davlat tashqi savdo aksionarlik kompaniyasi tashkil etilgan va uning sho'ba korxonalari yiliga 300 ming tonna tola eksport qiladi. Kompaniyaning yillik pul aylanmasi 350 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. 1992

yilda “O’rta Osiyo Trans” DAK paxtachilik tarmog’i ishlab chiqarish infratuzilmasining asoslaridan biri hisoblanadi.

Respublikada chorvachilik tarmoqlari uchun xizmat ko’rsatadigan infratuzilma mavjud ammo ular yetarli darajada rivojlanmagan.

5.3. Respublika agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish yo’nalishlari

Agrosanoat majmuasi infratuzilmasini tashkil etish va rivojlantirishda quyidagilarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq:

1. majmua tarmoqlari, korxonalarining ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo’lgan real talablarini hisobga olish;
2. infratuzilma xizmatlari narxlarining ishlab chiqaruvchilar uchun ma’qul bo’lishiga erishish (lozim bo’lganda davlatning iqtisodiy dastaklar orqali aralashuvini joriy etish va raqobatni rivojlantirish orqali);
3. infratuzilma sub’yektlari faoliyatini tartibga sotib turish yo’llarini topish;
4. infratuzilma xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish, monopoliyaga yo’l qo’ymaslik;

Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini keskin rivojlantirish bugungi kun zaruratidir. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi quydagi yo’nalishlarda rivojlantirilishi maqsadga muvofiq:

- Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarga xizmat ko’rsatadigan tarmoq va xizmatlarning turlarini ko’paytirish. Hozirda mamlakat qishloq xo’jaligi o’ziga zarur bir qancha xizmatlarni to’liqligicha va sifatli darajada olmayapdi. Masalan, ularga zarur bank, moliya bozoridagi o’zgarishlar, turli sharoitlarda kerakli qonuniy va iqtisodiy maslahatlar bilan ta’minlanish darajasi past holatda. Bu misollar qishloq xo’jaligi uchun zarur xizmatlarning bir kichik qismidir. SHu sababli ishlab chiqarish infratuzilmasining xizmat turlarini ko’paytirish lozim;
- Xizmat bozorida raqobat muhitini rivojlantirish agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning boshqa bir yo’nalishidir. Bu eng katta

ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. Raqobatning bo'lmasligi ko'rsatilyotgan xizmatlar narxning yuqori bo'lishini ta'minmoqda. Ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatining pastligi ham raqobat yo'qligidan yoki uning deyarli yo'qligadandir. Masalan, hozirda yurtimizda 112 ta muqobil mashina – traktor parklari mavjud. Lekin ularning texnik imkoniyatlari juda past bo'lganligi sababli, qishloq xo'jaligi korxonalari asosan, davlat aktsiyadorlik jamiyatlari maqomida tashkil etilgan 180 ta mashina-traktor parki xizmatlaridan foydalanishga majburlar;

- Xizmat ko'rsatish sohasida katta imkoniyatlar xo'jaliklarning o'zlari tomonidan birgalikda tashkil etiladigan “ittifoq”lardadir. Masalan, texnikadan birgalikda foydalanish ittifoqlarini tashkil etish masalasi natijalar berishi mumkinligiga qarmasdan bu soha rivojlangan emas. Bunga asosiy sabab xo'jaliklarni boshqarayotgan rahbarlarda bunday ishlarga tajriba, bilim yo'qligidir. Agarda ittifoq tuzilgan holda ham uni tashkil etgan barcha xo'jaliklar uchun undagi texnikadan samarali foydalanish bo'yicha manfaatli tartib – qoidalar ishlab chiqilmagan. Demak, bu boradagi ishlarni rivojlantirish zarur.

Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining shakllanishi, uning tarkibi, rivojlanganlik darajasi juda ko'p omillarga bog'liq. Jumladan, ishlab chiqarish korxonalarining ixtisoslashganligi, yerlarning reliefi, shaharlardan uzoq yoki yaqin joylashganligi, yirik transport uzellariga yaqinligi yoki uzoqligi va boshqalar infratuzilmaning nimalardan tashkil topishi, uning rivojlanganlik darajasi qanday bo'lishi lozimligini belgilaydi. Masalan, paxtachilikka zarur ayrim xizmatlar yoki ish turi g'allachilikda kerak emas yoki juda kam miqdorda kerak. Bunday hollarda paxtachilik bilan g'allaga ixtisoslashgan xo'jaliklarga har xil infratuzilma kerak bo'ladi. Qorako'lchilik xo'jaliklari infratuzilmasi paxtachilik xo'jaliklaridagidan tubdan farq qiladi va h.k. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda qishloq xo'jaligining o'zga xos xususiyatlarini (erning asosiy ishlab chiqarish vositaligini, unumdorligi, tuproq sifatining har xilligi, ishlab chiqarishning mavsumiyliги, ish vaqti bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi kabi) e'tiborga olish zarur bu ham infratuzilmani rivojlantirishni zarur yo'nalishlaridandir.

Respublikada qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan iqtisodiy nochor va norentabelli, istiqbolsiz shirkatlarni fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrda "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qishloq xo'jaligi korxonalari uchun infratuzilmani rivojlantirishning yo'nalishlarini belgilab berdi.

2-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalari uchun infratuzilma xizmatlari ob'yektlarini tashkil etish*

№	Infratuzilma ob'yektlari	1998-2003 yillarda tuzilgan	2004-2006 yillarda tuziladi
1.	Mini banklar	246	701
2.	YOqilg'i moylash materiallari sotish shahobchalari	278	889
3.	Ma'danli o'g'it va o'smliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini sotish shahobchalari	266	848
4.	Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi	312	925
5.	Muqobil mashina traktor parklari	294	954
6.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimi korxonalari	110	249
7.	Zotli mollar sotish va zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish korxonalari	108	216
8.	Ma'lumotlar ta'minoti va konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi sub'yektlar	84	160

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrda "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu infratuzilma korxonalari xizmatidan shirkatlar, fermer xo'jaliklari bilan bir qatorda aholi ham foydalanishi ko'zda tutilgan.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat majmuasining muhim bir sohasi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lib, u ishlab chiqarishning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan tarmoq va xizmatlar yig'indisidir. Infratuzilmaning asosiy qismi ishlab chiqarish infratuzilmasidir. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga transport, yo'llar, muzxona va omborxonalar, aloqa tizimi, irrigatsiya va melioratsiya tizimi va boshqalar kiradi.

Agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi majmua barcha tarmoqlarining mo'tadil ishlashi uchun zarur sharoitni tug'diradi, ularga xizmat ko'rsatadi. Ularning rivojlanganlik darajasi juda ko'plab muammolarni yechadi. Ishlab chiqarishda band bo'lganlarni o'ziga xos bo'lmagan ish va xizmatlardan ozod qiladi. Natijada, agrosanoat majmuasida mehnatning sifati va unumdorligi oshadi. Bu esa katta iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka olib keladi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi nisbatan rivojlangan. SHu bilan birga unda muayyan kamchiliklar ham mavjud. Ulardan eng asosiylari bozor munosabatlariga to'liq javob beradigan yangidan yangi ishlab chiqarish infratuzilmasi ayrim turlarining mavjud emasligidir. Respublika agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi korxona va tashkilotlarini moddiy-texnik bazasi zaif. Qolaversa, mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasining xizmat sifati, madaniyati hali unchalik baland emas. Bu muammolar agrosanoat majmuasining natijaviy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Asosiy e'tibor bu borada tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilmoqda.

Tayanch iboralar

Infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, Yog'moy, oziq-ovqat, yengil sanoat, ishlab chiqarish imkoniyatlari, mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati, mehnat unumdorligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Agrosanoat majmuasining infratuzilmasi" tushunchasi.
2. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining tarkibi.
3. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining mohiyati.
4. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati.
5. Sohaning asosiy maqsad va vazifalari.
6. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish zarurati.
7. Qishloq xo'jaligiga texnikaviy xizmat ko'rsatuvchi sohalarning hozirgi holati.
8. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibi va bu tuzilma rivojlanishining hozirgi holati.
9. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish yo'nalishlari.
10. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etishning o'zga xos xususiyatlari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston 1999.-32b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obuzie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
5. Serova ye. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.
6. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
7. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
8. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
9. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
10. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
11. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
12. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Krementsova. T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediya», 2001.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R.Uz.


6-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINING IJTIMOIIY INFRATUZILMASI

6.1. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining mohiyati, tarkibi

Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi juda keng tarkibga ega. Bugungi kunda inson hayotini yengillashtirishga, uning vaqtini tejashga ijtimoiy infratuzilmaning ta'siri katta. Infratuzilma aholini ish bilan ta'minlashda ham nisbatan juda katta imkoniyatlarga ega. Ijtimoiy infratuzilma halqning turmush darajasini keskin oshiradigan sohalardan biridir. Agrosanoat majmuasini rivojlanishini ijtimoiy infratuzilmasiz tasavvur etish qiyin. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasiga quydagi sohalar kiradi:

- aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi;
- yo'lovchi tashish tizimi;
- aloqa xizmati;
- uy – joy xo'jaligi;
- maktabgacha ta'lim tizimi;
- ta'lim tizimi;
- sog'liqni saqlash tizimi;
- aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi va elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimlari;
- sport-sog'lomlashtirish tizimi;
- kommunal xizmatlar;
- madaniy –maishiy xizmatlar tizimi va boshqalar.

Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi juda murakkab tarkibga ega. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasi ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, hududiy joylashuvi, ishlab chiqarishda ishtirok etish xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi. Ijtimoiy infratuzilmani xizmat ko'rsatish ob'yektlariga ko'ra ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasini quyidagicha ifodalash mumkin. (5-chizma)



5- chizma. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining tarkibi

Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi o'z mohiyatiga ko'ra, insonlarning turmushini yengillashtiradigan sohadir. Ularning asosiy maqsadi – insonni jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini, kuchilarini qayta tiklash va ularning yanada rivojlanishini ta'minlashga xizmat ko'rsatishdir.

Mamlakatimizda, uning hududlarida agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanish darajasi turlicha. Yirik shaharlar va yirik transport

uzellariga yaqin joylashgan hududlarda agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi nisbatan yaxshi rivojlangan. Bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib, yangidan yangi ijtimoiy infratuzilma xizmat turlari vujudga kelmoqda. Ayrim turlar esa yo'qolib bormoqda. Bu, umuman olganda, to'g'ri qonuniyatdir.

6.2. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining ahamiyati, iqtisodiyotdagi o'rni va hozirgi holati

Mamlakat agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasi katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy infratuzilmasisiz agrosanoat majmuasi mo'tadil faoliyat yuritishi mumkin emas. Ijtimoiy infratuzilmasi agrosanoat majmuasida ishlab chiqarishning uzluksiz tashkil etilishiga, uning barqaror ishlashi uchun sharoit yaratadi. Agarda har bir korxona barcha ish va xizmatlarini o'zi bajarishga harakat qilsa, bu juda qimmatga tushadi. Ko'p holatlarda buni amalga oshirish mumkin ham emas. Bu ish va xizmat turlarini bir xo'jalik bajarishi uchun qanchadan qancha mutaxassis, transport, texnikalar va boshqa resurslar kerak. Bu xizmatlarni tashkil etish uchun xo'jalikda mutaxassislar, moliyaviy resurslar yetarli emas. Chunki ayrim xizmat turlari ta'minoti bir xo'jalik uchun emas, balki yuzlab, minglab tashkilotlarga xizmat ko'rsatadi. Masalan, elektr bilan ta'minlash va h.k. Ularni har bir xo'jalik o'zi aholida tashkil eta olmaydi. SHu sababli ham bu ish va xizmat turlari aholida mustaqil tizimlarni tashkil etadi.

Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi iqtisodiyotda katta o'rinni egallaydi. Eng avvalo, bu ish va xizmatlar ishlab chiqarishning rivojlanishga olib keladi. Iqtisodiyot rivojlangan sari esa, infratuzilma xizmatlariga talab ortadi. Natijada, ishlab chiqarishning samaradorligi oshadi. Mehnatga layoqatli aholining katta qismi infratuzilmaga ishga joylashadi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda jami ishlayotganlarning 60-70 foizi xizmat ko'rsatish tizimida ishlaydi. Bizda esa bu ko'rsatkich 14 foizdan kamroq. Natijada qishloq xo'jaligi korxonalari o'ziga xos bo'lmagan ko'pgina xizmat turlarini o'zlari bajaradilar. SHu bois ishlab chiqarishning samaradorligi kutulgan darajada ijobiy emas.

Infratuzilma qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensiv rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini asta-sekin ayrim xizmat ko'rsatish funksiyalaridan ozod qiladi. Bu xizmatlar ixtisoslashgan infratuzilma korxona va tashkilotlari tomonidan bajariladi. Albatta, bu iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligi ham asosan ishlab chiqarish jarayoni bilan shug'ullanadi. Natijada barcha ishlarning o'z agrotexnik muddatlarida sifatli bajarilishi ta'minlanadi. Lekin hozirda infratuzilma bajarishi kerak bo'lgan juda ko'plab ish va xizmatlar qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan bajarilmoqda. Bu, o'z navbatida, ayrim ishlarning sifatsiz va katta xarajatlar evaziga bajarilishiga olib kelmoqda. Ikkinchi tomondan, mavjud infratuzilma ham samarali va sifatli faoliyat ko'rsatadi. Shulardan biri ko'rsatilayotgan xizmatlar bazorida raqobat muhitining pastligi, ko'pgina hollarda umuman yo'qligi, xizmatlar sifatining juda pastligidir. SHu sababli bu borada ham qilinadigan ishlar juda ko'p.

Respublikada agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasi ma'lum darajada rivojlangan. Ayniqsa bu masalalarga mustaqillik yillarida katta e'tibor berildi. Natijada aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 83 foiz, tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 81 foizga yetdi. Bu yo'nalishdagi ishlar davlatning qattiq nazorati ostida rivojlantirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda bozor iqtisodiyotining darajasi faqat ishlab chiqarish sohalarining rivojlanish ko'rsatkichlari bilan emas, balki ayni vaqtda xalqning xizmat turlaridan qay darajada foydalanayotganligi bilan ham baholanadi. Chunki aholining turmush darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xizmatlar ko'rsatish darajasidir.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq muammoning yechiishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bu soha mehnati unumsiz deb qaralib, moddiy ishlab chiqarishga sohasiga ko'proq e'tibor berish siyosati;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan jami milliy mahsulot hajmining yuqori emasligi. Agar rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30-40 ming AQSH

dollarni tashkil etsa, Respublikamizda 90-yillarning boshiga kelib, 1,5 ming so'mni tashkil etgan, 2005 yilga kelib 381,8 ming so'mni tashkil etdi;

- mehnat taqsimotining ma'lum hudud manfaatlarining ustunligi asosida tashkil etilganligi;
- aholining real daromadi talabning pastligini ta'minlaydi;
- davlatning iqtisodiy monopolistik xukmronligi bu sohaning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi prezidenti, hukumati ushbu salbiy omillarning ta'sirini keskin kamaytirish va iqtisodiy rivojlanish jarayonida ularni butunlay ijobiy yechish siyosatini olib bormoqda.

Respublika aholisining uy-joy fondi bilan ta'minlanish darajasi yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi aholisi uy-joy fondi bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Birgina 2005 yilda aholining uy-joy fondi 6,0 mln. kv.m ga ko'paydi va 2006 yilning 1 yanvar holatiga 379,6 mln.kv.m.ni tashkil etdi. Respublika aholisining uy-joy fondi bilan ta'minlanish darajasi aholi jon boshiga o'rtacha 14,5 kv.m.ni tashkil etdi. Qishloq joylarda bu ko'rsatkich 14,2 kv.m.ni tashkil etmoqda. Aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasi tibbiyot tashkilotlari belgilagan me'yor darajasida. Bu holat aholining mehnatdan keyin o'z kuchlarini tez va sifatli tiklashiga zamin hisoblanadi.

Respublikada aholiga pullik xizmat ko'rsatish tizimi ham jadal rivojlanib bormoqda. 2005 yilda aholiga pullik xizmat ko'rsatish 2004 yilga nisbatan 15 foizga o'sdi. 2005 yilda aholiga jami bo'lib 1609,7 mlrd. so'mlik pullik xizmat ko'rsatildi. Aholiga pullik xizmat ko'rsatish tizimi bozor talablariga tabora yaxshi moslashib bormoqda. Uning tarkibida nodavlat sektorning ulushi o'sib bormoqda. 2004 yilda aholiga jami ko'rsatilgan pullik xizmatlarning 28,3 foizi davlat mulkiga asoslangan pullik xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan, 71,7 foizi nodavlat sektor korxonalari tomonidan ko'rsatildi. 2005 yilda aholiga ko'rsatilgan jami pullik xizmatlarning 74,3 foizi nodavlat va 25,7 foizi davlat mulkiga asoslangan korxonalar tomonidan ko'rsatildi. 2005 yilda aholi jon boshiga pullik xizmat ko'rsatish o'rtacha

61,3 ming so'mni tashkil etdi va bu 2004 yildagi ko'rsatkichdan 13,6 foizga ko'p bo'ldi.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida aholining turmush darajasi o'sib borishi kuzatilmoqda. 2005 yilda 2004 yilga nisbatan aholining nominal pul daromadlari 29,7 foizga o'sdi va 9989,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining real pul daromadlari 2005 yilda 2004 yildagiga nisbatan 22 foizga o'sdi. Aholi pul daromadlarining shakllanishida ish haqidan tashqari manbalarning o'ri katta bo'lmoqda. Masalan, 2005 yilda aholining jami pul daromadlari va xarajatlari tarkibida ish haqi 29,4 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlar 26,0 foizni, ijtimoiy transfertlar 14,6 foizni, ishbilarmonlik va mulkdan olinadigan daromadlar 30 foizni tashkil etgan. Bu jarayonning ijobiy tomoni aholi pul daromadlarining uchdan bir qismi xususiy mulklardan foydalanish va tadbirkorlik faoliyatidan olinayotganligidadir.

6.3. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari

Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi bozor iqtisodiyoti talablari asosida ob'yektiv ravishda doimo rivojlanib boradi. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning zarurati qishloq joylarda yangidan-yangi xizmat turlarini vujudga kelishini rag'batlantiradi va aksincha.

Aholining ish bilan ta'minlanish darajasini maqsadida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish lozim. Bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi punktlarning asosiy qismi gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda, deyarli barchasida qishloq ambulatoriyalari tashkil etildi. Bu esa, yangi ish o'rinlarini paydo etmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (teri, jun, quruq mevalar va h.k.) tayyorlaydigan xususiy tadbirkorlar guruhi shakllanmoqda.

Aholining mahsulot va xizmatlarni xarid qilish quvvatini oshirish ijtimoiy infratuzilma rivojlanishini ta'minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Bu borada katta ishlar qilinishi lozim. Bu muammo ijobiy hal etilmaguncha ijtimoiy infratuzilma ham mo'tadil rivojlanmaydi. Albatta, aholining xarid qobiliyatini

oshirish ishlab chiqarishni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangidan – yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish kabi iqtisodiy ahamiyati katta faloliyatlar asosida olib borishi kerakligini unitmaslik lozim. Malakatda iqtisodiyotning yuksalishi darajasini hisobga olgan holda aholining xarid qobiliyatini o'stirish talab qilinadi. Aks holda inflyatsiya darajasi keskin oshishi va juda katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Demak, agrosanoat majmuasi ishlab chiqarishining samardorligini oshirish, umuman, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga olib keladi. Infratuzilmaning rivoji ko'p jihatidan u davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishiga bog'liq. Chunki ijtimoiy infratuzilmaning shunday yo'nalishlari mavjudki, ularni birorta ishbilarmon o'z faoliyat turiga aynaltira olmaydi. Masalan, qishloq joylaridagi asosiy ko'chalarni kechasi yoritadigan chiroqlar, aholi dam oladigan park (bog'lar), o't o'chiruvchilar tashkilotini yuritish xarajatlari kabilar ishbilarmon faoliyati bo'yicha hech qachon o'zini oqlamaydi. SHunday ekan, bu xarajatlarni davlat tomonidan qoplash zaruriyati bor. Hamma foydalanadigan bu turdagi ijtimoiy xarajatlarga davlat tomonidan qilinadigan sarflar miqdori ham ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning bir yo'nalishidir.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat majmuasining muhim bir sohasi ishlab chiqarish infratuzilmasi hisoblanadi. Infratuzilma – ishlab chiqarishning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlarni ko'rsatuvchi va bevosita ishlab chiqarish jarayoni davomida uzviy ishtirok etuvchi tarmoq va xizmatlar yig'indisidir. Infratuzilmaning asosiy qismi ijtimoiy infratuzilmadan tashkil topadi. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasiga taransport (aholini tashish bilan shug'ullanuvchi), yo'llar, sog'liqni saqlash va aholining sog'ligini tiklashga xizmat qiluvchi tizimlar, bolalar va mutaxassislarga ta'lim beruvchi sohalar, uy – joy, ichimlik suv, gaz bilan ta'minlash tizimi va boshqalar kiradi. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasi agrosanoat majmuasi barcha tarmoqlarining normal ishlashi uchun zarur sharoit

tug'diradi, ularda ishlayotganlarga xizmat ko'rsatadi. Ularning rivojlanganlik darajasi juda ko'plab ijtimoiy muammolarni yechadi. Natijada, agrosanoat majmuasida mehnatning sifati va unumdorligi oshadi. Bu esa katta samardorlikka olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasi nisbatan yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga muayyan kamchiliklar ham mavjud. Ulardan eng asosiylari ijtimoiy infratuzilmasining bozor munosabatlariga to'liq javob beradigan yangidan-yangi ayrim turlari mavjud emasligidir. Qolaversa, mavjud ijtimoiy infratuzilmaning xizmat sifati, madaniyati hali unchalik baland emas. Bu muammolar agrosanoat majmuasining natijaviy ko'rsatichlariga salbiy ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Infratuzilma, ijtimoiy infratuzilmasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Agrosanoat majmuasining infratuzilmasi" tushunchasi.
2. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining tarkibi.
3. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining mohiyati.
4. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining iqtisodiyotdagi o'рни va ahamiyati.

5. Sohaning asosiy maqsad va vazifalari.
6. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish zarurati.
7. Qishloq xo'jaligi aholisiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning hozirgi holati.
8. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi tarkibi va bu tuzilma rivojlanishining hozirgi holati.
9. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish yo'nalishlari.
10. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasini tashkil etishning o'zga xos xususiyatlari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston 1999.-32b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obhie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
5. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
7. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
8. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremenstova. –T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediya», 2001.

9. Raskin I.I, Raskin L. I. ApK: proizvodstvo i pervichnaya pererabotka xlopka. –T.: Mexnat, 1986

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

7-BOB. QISHLOQ XO'JALIGI - AGROSANOAT MAJMUASINING ASOSIY BO'G'INI

7.1. Qishloq xo'jaligi - agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini, uning o'ziga xos xususiyatlari

Agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlar aynan qishloq xo'jaligi bilan bog'langan. Ularning ayrimlari qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarib, yetkazib bersa, boshqalari qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni tayyorlaydi, ularni qayta ishlaydi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beradi. Ko'plab sohalar esa shu tarmoqlarning bir me'yorda ishlashi uchun xizmatlar ko'rsatadilar.

“Respublika sanoatining ko'pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to'qimachilik, yengil sanoatni, oziq-ovqat, kimyo sanoatini, qishloq xo'jaligi mashinasozligini va boshqalarni (bular butun sanoat potentsialining yarmiga yaqinini tashkil etadi) rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o'tish davridagi iqtisodiy moliyaviy ahvoli bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqdir. Shu sababli agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”^{*}.

Agrosanoat majmuasining asosini tashkil etadigan qishloq xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar boshqa tarmoqlardan qishloq xo'jaligini farqlab turadi va ishlab chiqarishni tashkil etishda o'z talablarini qo'yadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligi tabiiy omillarning ta'siri katta. Ob-havoning keragidan issiq yoki sovuq kelishi, Yog'ingarchilikning me'yoridan ko'p yoki kam bo'lishi qishloq xo'jaligida qilinayotgan mehnatning natijasi turlicha bo'lishiga olib keladi. Tibiiy

^{*} I. Karimov, «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», –T.: «O'zbekiston», 1995, 59-b.

omillar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning mavsumiyligini keltirib chiqaradi. Bu esa, ishlab chiqarishni tashkil etishda mavjud resurslardan yil davomida samarali foydalanishda hisobga olishni talab etadi. Qish oylarida aholining vaqtinchalik bekor qolishi ayrim ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu masalalar olimlar, mutaxassis va ishbilarmonlar oldiga qator vazifalarni qo'yadi.

2. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari sifatida tirik organizmlar qatnashadi. Bu, o'z navbatida, mutaxassislardan faqatgina iqtisodiy qonuniyatlarnigina emas, balki biologik qonunlarni ham bilishni va ishlab chiqarishni tashkil etishda ularni hisobga olishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mehnatning samarasi ko'p jixatdan o'simlik va chorva mollarining biologik imkoniyatlariga ham bog'liq.

3. Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularni inkor etish yoki yetarlicha hisobga olmaslik katta salbiy oqibatlariga olib keladi. Qishloq xo'jaligida yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyatlari kelgusi bobda chuqur o'rganiladi.

4. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan moddiy xarajatlar davri bilan faoliyat natijasida olinayotgan daromadlarning olinish davri o'rtasida farq katta. Boshqacha qilib aytganda, yil davomida faqat xarajatlar qilinadi. Chunki yerni ekishga tayyorlash, urug'lik, o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari xarid qilish va sarflash, mehnatga haq to'lab borish kabi xarajatlar har oyda qilinadi. Ekin turlari hosili esa ma'lum davrlarda pishadi. yetishtirilgan hosil sotiladi va undan keyin pul darmodlari kelib tushadi. Albatta, amaliyatda shartnomalar asosida qishloq xo'jalik korxonalariga bo'naklar (avans) berish, kreditlardan foydalanish yoki ayrim xizmatlarni tashkil etish natijasida ma'lum miqdoridagi pul tushumlari bo'lishi mumkin. Lekin, umuman olganda, yil davomida xarajat sarflanishi, daromadlarning esa ayrim davrlardagina tushishi o'ziga xos ob'yektiv talablarni keltirib chiqaradi. Agrar siyosat bu xususiyatni hisobga olgan holda yuritilishi zarur.

5. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish juda katta maydonlarda olib boriladi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarishni, aholi punktlarini joylashtirishda ma'lum talablarni keltirib chiqaradi, qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasini shakllantirishda hisobga olishni talab qiladi.

6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismini o'zi urug'lik, yem – xashak, oziq – ovqat sifatida imte'mol qiladi. Odatda ko'pchilik tarmoqlar ishlab chiqargan mahsulotlarini o'zlari iste'mol qilmayda yoki iste'mol qilsa uning ulushi juda kichik. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning natijasi o'zi uchun tayyorlangan mahsulotlarni sifatiga juda ham uzviy bog'liq. Masalan, kelgusi yil uchun tayyorlangan urug'likning sifati ishlab chiqarishning natijalari qanday bo'lishini belgilab beradi va x.k.

7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'p turlarini uzoq saqlash mumkin emas. Bu muammo qishloq xo'jaligi mahsulotlarining deyarli bir davrda pishib yetilishi oqibatida yanada chuqurlashadi. Bu, o'z navbatida, yetishtirilgan mahsulotni tayrlovchi, qayta ishlovchi tashkilotlarning bir me'yorda tinmasdan ishlashini, bu esa ayrim davrlarda juda katta quvvatlarning bo'lishini talab qiladi. Yilning qolgan davrlarida esa bu quvvatlarning nisbatan bo'sh qolishi kuzatiladi. Bu holat qayta ishlash tarmoqlarining katta omborxonalari bo'lishini talab etadi. Yirik omborxonalarda mahsulotlarni saqlash katta xarajatlar bilan bog'liq. Bu o'z navbatida, mahsulotning tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

8. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari noelastik hisoblanadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab ham noelastik bo'ladi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxga nisbatan elastiklik koeffitsienti 0,2-0,25 ni tashkil etadi. Bu degani qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni 10 foiz oshirish (qishloq xo'jaligi mahsulotlari xaridini 10 foizga ko'paytirish) uchun ularni narxini 40-50 foizga tushirish kerak degani.*

* Minakov I.A i dr. *Ekonomika otrasley APK. Uchebnik.* –M.: KolosS, 2004.-464. (17s.)

9. Ishlab chiqarishning fond bilan ta'minlanish darajasining yuqoriligi. Mablag'larning aylanishi tezligi juda sekin yuz beradi. Bu qishloq xo'jaligini investorlar uchun jozibadorligini pasaytiradi.

10. Qishloq xo'jaligida juda ko'plab bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarining mavjudligi. Bu xususiyat natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida erkin raqobat muhiti yuzaga keladi.

Bu kabi o'ziga xosliklarni, albatta, chuqur o'rganish va doimo hisobga olgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish qishloq xo'jaligining samarali ishlashini ta'minlaydi. SHubhasiz, fan, texnika taraqqiyoti o'sib borgan sari qishloq xo'jaligining bu xususiyatlari ta'siri nisbatan kamayib boradi, lekin butunlay yo'q bo'lib ketmaydi.

Agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi asosiy bo'g'ini bo'lib, uning rivojlanishi agrosanoat majmuasining jadal va barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi quyidagi sabablarga ko'ra agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini, yadrosi hisoblanadi:

- qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasiga kiruvchi sanoat tarmoqlari chiqarayotgan ishlab chiqarish vositalarini asosiy iste'molchisi. Sanoatning bu tarmoqlari oldigan qanday mahsulotlar chiqarishi lozimligi to'g'risida talablarni qo'yadi;
- hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi qayta ishlash tarmoqlari korxonalarining joylashishiga va rivojlanishiga asos bo'ladi;
- sanoatda ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish vositalarining samaradorligi qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi;
- qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi oxir oqibatda agrosanoat majmuasida mehnatning unumdorligi darajasini belgilaydi;
- qishloq xo'jaligida mahsulot va ishlar tannarxi agrosanoat majmuasi mahsulotlari tannarxining darajasini belgilaydi;
- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarining sanoatlashishi uni qayta ishlash tarmoqlari bilan integratsiyalashuvining asosi hisoblanadi.

7.2. Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jaligi eng avvalo, aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi juda katta yutuqlarga erishdi. Respublika qishloq xo'jaligi oziq –ovqat mahsulotlarining deyarli asosiy qismini aholimiz uchun yetarli miqdorda yetishtiradi. Qishloq xo'jaligi qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan ta'minlaydi. Bugungi kunda mamlakat yengil va to'qimachilik sanoatida ishlatilayotgan tolaning 60 foizidan ortiqrog'i o'zimizda ishlab chiqarilgan paxta tolasidir. Qolgan qismi jun, kanop, pilla va kimyoviy tolalarga to'g'ri keladi.

Respublikaning meva, sabzavot va poliz mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat to'liq mahalliy xomashyo mahsulotlari evaziga ishlaydi. Sut va go'shtni qayta ishlash sanoati ham mamlakatda yetishtirilgan mahsulotlar hisobiga faoliyat ko'rsatadi. Yog' – moy sanoatining xomashyolari asosan o'zimizda yetishtiriladi. Faqatgina o'simlik moyining ayrim turlarini xorijdan keltirilgan xomashyodan ishlab chiqariladi. Masalan, mamlakat aholisi iste'mol qilayotgan Yog' – moylarning sifati, assortimenti boy bo'lishi uchun chetdan soya keltirmoqda. Albatta, bu jami yetishtirilayotgan Yog'-moyning juda kam qismini tashkil etadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotdagi o'rni juda katta. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 26-30 foizi shu tarmoqning ulishiga to'g'ri keladi. 2004 yilda mamlakat jami yalpi ichki mahsulotining 26,8 foizi shu tarmoqda yaratilgan bo'lsa, 2005 yilda 25,0 foizni tashkil etdi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan erkin harakatdagi qattiq valyuta tushumining yarimidan ko'prog'i shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Jumladan, 2005 yilda jami eksportda paxta tolasining ulushi 19,1 foizni, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 3,8 foizni tashkil etdi. Mamlakatda yetishtiriladigan oziq-ovqatning 96 foizidan ko'prog'i qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladi. Aholining 60 foizidan ortiqrog'i qishloq joylarda yashaydi. Halqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta bir qismining ish bilan ta'minlanishi

qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan mehnat resurslarining 28 foizdan ko'prog'i qishloq va o'rmon xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. SHu boisdan ham qishloq xo'jaligiga e'tibor, ayniqsa keyingi mustaqillik yillarida, xaqli ravishda katta bo'lmoqda.

3-jadval

Respublika qishloq xo'jaligining malakat iqtisodiyotidagi o'rni

№	Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	2004	2005
1.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i, %	30,4	30	30,6	28,6	26,8	25,0
2.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'sish sur'ati, %	103,2	104,5	106,1	107,3	110,1	106,2
3.	paxta tolasi va oziq-ovqat mahsulotlarining yalpi eksportdagi salmog'i, %	32,9	25,9	25,9	22,5	21,9	19,1
4.	Qishloq xo'jaligi mehnat resurslarining salmog'i, %	29,7	29,6	29,1	28,3	28,4	29,1*

- Qishloq xo'jaligi o'rmon xo'jaligi bilan birgalikda.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i hisoblanib, yildan yilga uning ulushi kamayib bormoqda. Bu borada shuni ta'kidlash lozimki 2000-2005 yillarda qishloq xo'jaligida barqaror o'sish yuz berdi. Mamlakat iqtisodiyotida sanoatning, xizmat ko'rsatish tizimining nisbatan tez rivojlanib borishi tufayli qishloq xo'jaligining ulushi kamaygan. Bu juda ijobiy jarayon hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti jadal o'sib borgan sari unda qishloq xo'jaligining ulushi kamayib boradi. Natijada, rivojlangan sanoatlashgan, xizmat ko'rsatish sohalari taraqqiy topgan mamlakatga aylanishimiz ta'minlanadi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bog'liq. Chunki qishloq


ho'jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan soha bo'lib, u quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatimizni oziq-ovqat fondini shakllantiradi;
- yurtimizning oziq-ovqat sohadagi mustaqilligini, xavfsizligini ta'minlaydi;
- qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun homashyo yetkazib beradi;
- aholini ish joylari bilan ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq ho'jaligi o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlaridan iborat. O'simlikchilik tarmog'ida paxta, donli ekinlar (asosan bug'doy), kartoshka, sabzavot, poliz, tamaki, yem-xashak ekinlari, o'simlik Yog'i beradigan ekinlar (masxar, kungaboqar), bog'dorchilik va uzumchilikdan iborat. CHorvachilikda qoramolchilik, qo'y va echkichilik, parrandachilik, otchilik (yilqichilik), kuyonchilik, tuyachilik, cho'chqachilik tarmoqlari shakllangan va rivojlangan. Bundan tashqari respublika qishloq xo'jaligida pillachilik, asalarichilik va baliqchilik sohalari ham yaxshi rivojlanib kelmoqda. Respublikada hozirda 6,2 mln. bosh qoramol, 11,1 mln. bosh qo'y va echkilar bor.

1-grafik

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibi, (% da)



O'ganilayotgan davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida katta o'zgarishlar yuz bermagan. 2000 yilda o'simlikchilik tarmog'ining ulushi 52,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2004 yilga kelib 53,7 foizni tashkil etgan yoki 1,1 punktga oshgan. SHu yillarda chorvachilik mahsulotlarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotdagi ulushi 47,4 foizdan 46,3 foizga tushib qolgan. Buning asosiy sababi 2004 yil qishloq xo'jaligi uchun juda qulay kelishi sababli o'simlikchilik tarmog'i yalpi mahsulotining chorvachilik yalpi mahsulotining o'sishidan tez sur'atlarda o'sganligidir. 2005 yilga kelib, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibida o'simlikchilik 56,6 foizni (3052,2 mlrd. so'mni), chorvachilik esa 43,4 foizni (2343,3 mlrd. so'mni) tashkil etdi. 2005 yilda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 2004 yilga nisbatan 6,2 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yer-suv, asosiy aktivlar (asosiy fondlar), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish uchun zarur resurslarga ega.

O'zbekiston Respublikasining yer fondi va uning foydalanuvchilar bo'yicha
taqsimlanishi

№	Erdan foydalanuvchilar	1996 yil		2000 yil		2004 yil	
		ming, ga	%	ming, ga	%	ming, ga	%
	Jami yer fondi SHundan	44405,0	100,0	44405,0	100,0	44410,3	100,0
1.	Qishloq xo'jaligi korxonalari foydalanayotgan yerlar	25317,8	57,0	25112,6	56,6	24819,4	55,8
2.	O'rmon xo'jalik korxonalari yerlari	8695,5	19,7	8446,3	19,1	8402,6	18,9
3.	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa tashkilotlar yerlari	1868,9	4,2	1926,3	4,4	2264,3	5,2
4.	Aholi yashash joylari	226,4	0,5	231,2	0,5	238,7	0,5
5.	Zahiradagi yerlar	7492,1	16,8	7472,5	16,8	7432,8	16,7
6.	Gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi tashkilotlari yerlari	793,8	1,7	804,6	1,8	822,4	1,8
7.	Tabiat muhofazasi, sog'lomlashtirish va madaniy ahamiyatga ega yerlar	10,5	0,02	70,8	0,1	74,3	0,1
8.	Boshqa yerlar	-	-	340,7	0,7	430,1	0,9

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2004 yil ma'lumotlariga qaraganda Respublika yer fondining asosiy qismi, 55,8 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'iga berilgan. Agarda o'rmon xo'jaligi, qisman gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi tashkilotlari (oz miqdorda bo'lsada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaradi) va mudofaa vazirligiga qarashli ayrim xo'jaliklarda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishini hisobga olsak yuqoridagi raqam yanada kattaroq ulushni egallashini anglash mumkin.

Respublikada 2004 yilning yanvariga bo'lgan ma'lumotga ko'ra 3691,0 ming gektardan ko'proq sug'orilib haydaladigan yer, 230 ming gadan ortiqroq bog' va uzumzorlar mavjud.

Respublika qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish tarkibida mustaqillik yillarida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jalb etilgan yer resurslari bugungi kun talabidan kelib chiqib asosan paxta va g'alla ekinlari uchun ajratilmoqda.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasida ekin maydonlari tarkibining o'zgarishi (barcha turdagi xo'jaliklar bo'yicha ming gektar)

	2003 yil				2004 yil			
	Barcha turdagi xo'jaliklarda	SHirkatlar da	Fermer xo'jaliklarida	Dehqon xo'jaliklarida	Barcha turdagi xo'jaliklarda	SHirkatlar da	Fermer xo'jaliklarida	Dehqon xo'jaliklarida
Jami ekin maydoni	3790,1	1967,0	1401,9	421,2	3691,5	1497,1	1761,6	432,8
Donli ekinlar SHundan:	1790,9	912,1	680,3	198,5	1666,5	661,4	805,2	199,9
Bug'doy	1507,56	766,6	581,3	159,7	1469,7	593,5	715,1	161,1

Sholi (guruch)	121,0	67,3	47,8	5,9	65,9	22,7	40,0	3,2
Makka don uchun	34,7	7,3	7,8	19,6	34,5	5,4	8,5	20,6
Texnika ekinlari SHundan:	1445	847,2	590,0	7,8	1516,8	690,8	815,6	10,4
paxta	1393	820	573	-	1455,7	662,9	792,8	-
Kartoshka, sabzavot va poliz	237,7	47,4	36,7	153,5	226,9	31,2	37,5	158,2
Kartoshka	49,2	3,4	2,2	43,6	52,4	3,8	3,3	45,3
Sabzavot	145,6	34,1	17,5	94	137,6	21,3	19,1	97,2
poliz	41,3	8,5	17	15,8	35	5,3	14,6	15,1
Mevali bog'lar	201,5	108,7	27,3	65,6	198,9	97,1	37,8	64
Uzumzorlar	118,2	76,5	10,6	31,1	116,1	67,7	16,3	32,1
Em-xashak ekinlari	316,5	160,2	94,9	61,4	281,3	113,7	103,3	64,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Respublika ekin maydonlari yildan yilga qisqarib bormoqda va bu kamayish 2004 yilda 2003 yilga nisbatan 98,6 ming gektarga yoki 2,7 foizga kamaygan. Ushbu kamayish asosan yem-xashak ekinlari, sabzavot, poliz, mevali bog'lar va uzumzorlar hamda g'alla ekinlari hisobiga yuz bergan. SHu bilan birgalikda aholining, mamlakat iqtisodiyotining manfaatlaridan (xalqaro bozorda paxta xomashyosi konyukturasining o'zgarishini hisobga olib) kelib chiqib paxta ekin maydoni 2004 yilda 2003 yildagidan 62,7 ming gektarga yoki 4,5 foizga oshgan.

Respublika qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'i ham jadal rivojlanish uchun katta resurslarga ega.

6-jadval

O'zbekiston Respublikasida chorva mollari va parrandalar bosh soni (barcha mulk shakllari bo'yicha, ming bosh)

CHorva molar va parrandalar	2000	2001	2002	2003	2004	O'sish(q) kamayish (-)
Qoramollar	5353,4	5416,1	5477,6	5878,8	6232,6	879,2
SHundan: sigirlar	2343,4	2361,8	2393,2	2549,9	2708,8	365,4
Sigirlarning salmog'i, %	43,7	43,6	43,7	43,3	43,4	x
Qo'y va echkilar	8932,5	9022,6	9233,9	9928,6	11181,9	2249,4
CHo'chqalar	85,8	81,6	75,4	89,9	83,8	-2,0
parrandalar	14510	14828,7	15354,9	17675,7	18822,6	4216,9
Otlar	146,3	144,7	143,4	147,3	149,4	3,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Respublikada deyarli barcha turdagi chorva mollari (cho'chqalardan tashqari) va parandalar bosh soni ko'payib bormoqda. 2004 yilda 2003 yilga qaraganda qoramollar bosh soni 879,2 ming, sigirlar 365,4 ming, qo'y va echkilar 2249,4 ming, parrandalar bosh soni 4216,9 ming boshga oshdi. O'rganilgan davrda faqatgina cho'chqalar bosh soni 2 mingga kamayib ketgan.

Qoramolchilikning tarkibi ham ijobiy tomonga o'zgargan. Agarda mustaqillikkacha (1990 yilda) jami qoramollar tarkibida sigirlarning salmog'i 32,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yildan boshlab bu ko'rsatkich 43 foizdan oshib ketdi va shu holat saqlanib qolmoqda. Bu Respublika prezidenti I.Karimovning va hukumatining olib borgan oqilona siyosatining natijasida yuz berdi. "Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 martida qabul qilingan 137-sonli qarori bilan Respublikamizdagi 1499 ta jamoa chorvachilik fermalari yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirilib, 489,1 ming bosh qoramollar, shu jumladan 96,3 ming bosh sigirlar chorvadorlarga xususiylashtirilib berildi. Keyinchalik ushbu qarorda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida aholiga 600 ming bosh zotli buzoqlar sotildi. Natijada chorvachilikning asosiy qismi aholi qo'liga o'tdi. Qoramollarning katta qismining aholi qo'liga o'tishi uning tarkibini yaxshilanishiga (jami qoramollar sonida sigirlarning ulushining ortishiga), ijobiy tabiiy tanlanishning yuzaga kelishiga, yem-xashak ekin maydonlari yildan yilga qisqarib borishiga qaramasdan yem-xashak muammosini qisman hal etilishiga olib keldi.

Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi dinamik holda rivojlanib borayotgan murakkab iqtisodiy tizimga ega bo'ldi. Qishloq xo'jaligi Respublika iqtisodiyotining yirik va muhim tarmog'i sifatida saqlanib qoldi.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston xalqlarining eng qadimdan shug'illangan asosiy sohalardan biri bo'lib, bir necha ming yilliklardan asta-sekin rivoj topib kelmoqda. Respublika hududida avvalo chorvachilik keyinchalik dehqonchilik madaniyati tarkib topdi. Chorvachilikning asosan qo'ychilik, qoramolchilik, otchilik (yilqichilik), asalarichilik, tuyachilik va ipakchilik, dehqonchilikning donchilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va paxtachilik tarmoqlari yaxshi rivojlandi. Qishloq xo'jaligi Respublikamiz hududida yashaydigan xalqlarning asosiy turmush tarziga aylangan. Uning rivoji yurtimiz hududida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq mehnat qurollari ishlab chiqarishning o'sishiga sabab bo'ldi. Natijada asta-sekin bo'lsada madaniyat, ilm-fan, kasibchilik rivoj topdi.

XX asrda dunyo mamlakatlari taraqqiyotining tez rivojlanishi yurtimizning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Respublikaning qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti 1913 yildan 1990 yilga (mustaqillikkacha) qadar bo'lgan davrda 188 marta o'sdi. 1913 yildan 1940 yilgacha qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 1,8 marta, 1960 yilda 51 marta, 1970 yilda 100 marta va 1980 yilda 170 martani

tashkil etdi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'sish sur'atlari 1960-1980 yillar ichida tez bo'lgan. SHu davrda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'sishining asosiy sabablari narxdagi o'zgarishlar, yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga, nisbatan ekstensiv yo'l bilan amalga oshirilgan. Ushbu davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini natural holda ishlab chiqarishning o'sishi bunga isbot bo'ladi. 1913 yilda 89 ming tonna go'sht (so'yilgan vaznda) ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1990 yilda 419,9 ming tonna ishlab chiqarilgan yoki 4,7 martaga oshgan. Sut ishlab chiqarish shu davrda 11,4 marta, tuxum yetishtirish 30,1 marta, sabzavot 21,1 marta, don ishlab chiqarish 1,9 marta, paxta yetishtirish esa 11,1 marta, o'simlik Yog'i yetishtirish 8,4 martaga o'sdi. Raqamlarga e'tibor berilsa, ushbu davrda qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotining o'sishi mahsulotlarning natural miqdordagi o'sishidan solishtirib bo'lmaydigan darajada yuqori sur'atlarda o'sganligini ko'rish mumkin. O'sish mahsulotlar narxining o'sishi hisobiga yuz berganini aslida esa salkam 1 asrda o'sish 15-20 martadan yuqori bo'lmagini ko'ramiz.

Sobiq sho'rolar davrida O'zbekistonda bir tomonlama bo'lsada qishloq xo'jaligida katta o'zgarishlar yuz berdi. SHo'rolar davlatining asosiy siyosati O'zbekistonning boy tabiiy iqlim sharoitidan umumdavlat manfaatlari uchun foydalanishga qaratildi. Natijada Respublika va uning xalqining manfaatlari umumdavlat manfaatlariga bo'ysindirildi. Bunday siyosat respublika iqtisodiyotida juda katta muammolarni keltirib chiqardi. Olib borilgan siyosatning natijasida qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'lgan respublika aholisining katta qismi past malakali mehnat resurslariga aylandi. Umummamlakat manfaatlaridan kelib chiqib O'zbekiston asosan paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. Uning natijasida xalqimiz asrlar mobaynida shug'ullanib kelgan qishloq xo'jaligining ko'plab sohalariga e'tibor kamaydi, ularning ayrimlari mutloq yo'qolib ketdi. Jumladan, XX asrning 80-yillariga kelib respublikada yetishtirish uchun tarvuz urug'lari Rossiyaning Astraxan o'lkasidan keltirildi. paxta ishlab chiqarishni ko'paytirish respublikada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni keskin kamayishiga olib keldi. Birgina misol o'tgan asrning 70-80-yillarida, mustaqillikka erishgan dastlabki

yillarda respublika uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarining 80 foizidan ko'prog'i import qilinar edi. Dunyoning rivojlangan katta bir qismida oziq-ovqat keragidan ortiqcha bo'lib uni sotish muammo bo'lgan bir paytda 80-yillarning oxiriga kelib respublikada barcha oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish talon yoki me'yor tizimiga o'tkazildi. Aholi jon boshiga bir oyga 2 kgdan un, 1kg dan shakar, go'sht, Yog' va boshqa mahsulotlar sotiladigan bo'ldi. paxta ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida respublika qishloq xo'jaligiga katta kapital qo'yilmalar sarflandi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy texnik ta'minoti yaxshilandi, qishloq infratuzilmasi rivojlantirildi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida katta cho'l massivlari o'zlashtirildi. Ushbu jarayonlar aholini qisman ish bilan ta'minlashni yaxshilash, turmush darajasini nisbatan o'stirish imkonini berdi. SHu bilan birgalikda katta iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni ham yuzaga keltirdi. YAngi cho'l massivlarini o'zlashtirishda yo'l qo'yilgan xatolar hamda qanday bo'lmasin paxta yetishtirishni ko'paytirish xohishi yerlarning unumdorligining pasayishiga, ularning meliorativ holatining asta-sekin yomonlashuviga, yer osti suvlarining ko'tarilishi, katta ekin maydonlarini sho'rlanishining ortishiga olib keldi. Respublika qishloq xo'jaligi rivoji asosan paxtachilik bilan bog'lab qo'yildi. Respublikada tarkib topgan va rivojlantirilgan sanoat ham ustun darajada paxtachilikka qaratildi. Bir so'z bilan aytganda, sobiq sho'rolar davridan bir tomonlama rivojlangan, asosan xomashyo yetishtirishga moslashtirilgan, paxtachilikka chuqur ixtisoslashtirilgan, katta iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik kasallik va muammolarga ega qishloq xo'jaligi meros bo'lib qoldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq juda ko'plab kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni yechish hayotiy zarurat, vazifa sifatida davlat oldida turar edi. Ulardan ayrimlarini eslash foydadan holi emas. Eng avvalo aholi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat masalani ijobiy hal etish kerak bo'ldi. Xalq manfaatini uchun zarurat bo'lgan bu muammoni amalga oshirish oson kechmadi. Mustaqil Respublika qishloq xo'jaligi davlat mulkchiligiga asoslangan, asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashgan yirik xo'jaliklardan (sovxoz va kolxozlardan) hamda aholining yordamchi xo'jaliklaridan

iborat edi. 1940 yilda 81 ta sovxozlar bo'lgan bo'lsa, 1990 yilga ulaning soni 1034 taga yetdi. SHu yillarda kolxozlar mos ravishda 1106 ta va 855 tani tashkil etdi. Yirik xo'jaliklar yuqori organlar tomonidan tasdiqlangan reja asosida faoliyat yuritir, ularni moddiy resurslar bilan ta'minlash markazlashgan holda olib borilar edi. Yirik xo'jaliklarni boshqarish xarajatlari ham katta bo'lib, ularning eng asosiy kamchiligi o'z ishlab chiqarish yo'nalishini tezda o'zgartira olmas edi. Masalan, paxta ishlab chiqarish uchun ixtisoslashgan xo'jalikning barcha texnikalari asosan paxtachilik uchun mo'ljallangan bo'lib, don yoki sabzavotchilik uchun deyarli mos kelmas, qolaversa urug'lik, ma'danli o'g'it, yoqilg'i moylash materiallari bilan ta'minlashni bir mavsumda o'zgaritish imkoni yo'q edi. Yirik xo'jaliklarni texnika va moddiy resurslar bilan ta'minlaydigan ko'plab sohalar boshqa respublikalarda joylashgan edi. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishi yagona bir tizimga aylangan iqtisodning barbod bo'lishiga olib keldi. Respublika hududida joylashgan zavod va fabrikalarning ham aksariyat qismining to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Shunday holda sho'rolar davrida maxsus sharoit va tamoyillar asosida tashkil topgan yirik xo'jaliklarni saqlab qolish va ularning faoliyatini davom ettirish imkoniyatlari keskin pasaydi, keyinchalik esa deyarli mumkin bo'lmay qoldi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib priezidentimiz I.Karimov tomonidan mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini, jumladan qishloq xo'jaligini isloh qilishning kontseptsiyalari ishlab chiqildi. Mustaqilikning dastlabki kunlaridayoq oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash ustivor yo'nalish sifatida belgilandi va eng avvalo chuqur islohotlar qishloq xo'jaligida amalga oshirila boshlandi. Natijada paxta yakkaxokimligiga baham berilib, g'alla mustaqilligiga erishish maqsadida sayi xarakatlar qilindi va tarixan qisqa muddat ichida ushbu maqsadga erishildi. 1996 yilga kelib O'zbekiston Respublikasi g'alla mustaqilligiga erishdi. Ba'zan g'allaga nisatan paxtaning foydasi, iqtisodiy samarasi ko'proq, shu sababli paxta ishlab chiqarishga asosiy e'tiborni berish kerak degan fikrlarni uchratamiz. Bu fikr umuman olganda to'g'ri ekanligini inkor etmoqchi emasmiz. Lekin sovetlar davlatining parchalanishi eski aloqalarning deyarli izdan chiqishiga olib kelgan, traditsion g'alla

ishlab chiqarishga ixtisoslashgan respublikalar Rossiya, Ukraina, Qozoqistonlarning o'zlari o'z xalqini g'alla bilan ta'minlashi murakkab bo'lib qolgan sharoitda oziq-ovqatsiz, uning asosi bo'lgan g'allasiz taraqqiyotni, umuman hayotni tasavvur qilish qiyin. SHu sababli o'tish davrining dastlabki kunlaridanoq g'alla mustaqilligiga intilish, O'zbekiston Respublikasi prezidenti, uning hukumati o'ta salohiyatli ekanligini va to'g'ri yo'l tanlaganligini hayotning o'zi isbotlamoqda.

Bizga meros bo'lib qolgan iqtisodiyotning, jumladan qishloq xo'jaligining oldida hal etilishi lozim juda ko'plab og'ir maqsadli vazifalar turar edi. Bu vazifalarni shartli ravishda quyidagicha ifodalash mumkin.

Birinchidan, xalq faravonligi, mamlakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni miqdor jihatdan ko'paytirish. Bu borada ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur edi va bu vazifa hozir va kelajakda ham dolzarb bo'lib qoladi. Hozirda aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan don ishlab chiqarishga yerishildi. Ammo chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish borasida katta muammolar mavjud. 2000-2004 yillarda aholi jon boshiga o'rtacha go'sht ishlab chiqarish 34 kg, sut ishlab chiqarish 164 kgni tashkil etdi. U tibbiy me'yordagidan ikki martaga yaqin kam. SHu sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini miqdor jihatdan ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish asosiy maqsadli vazifalardan biri hisoblanadi va bu muammo Respublika prezidenti va hukumatining diqqat e'tiborida turibdi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar sifati va assortimentini yaxshilab borish zarur. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi paxta ishlab chiqarishda dunyoda beshinchi o'rinda, paxta tolasini sotish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi. paxta tolasini sotish mamlakat eksportning 18-19 foizini tashkil etmoqda. Mamlakatda yetishtirilayotgan paxta tolasining sifatini keskin yaxshilash iqtisodiyotga juda katta iqtisodiy samara keltiradi. Dunyo davlatlari va Respublikamiz to'qimachilik sanoati talab qiladigan tipdagi tolalar yetishtirishni ko'paytirish zarur. Sifatni va qishloq xo'jaligi mahsulotlari assortimentini yaxshilash

zarurati respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish doimiy zarurat hisoblanadi. Mehnat unumdorligini oshirish mamlakat qishloq xo'jaligini raqobatbardoshligini kuchaytiradi, aholining turmush sharoitini yaxshilaydi, mahsulot ishlab chiqarishni ko'payishiga va uning sifatining talab darajasiga yetishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni nisbatan arzonlashishiga erishish lozim. Albatta bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi o'ziga kerakli texnika, yoqilg'i, ma'danli o'g'it, boshqa tovar va xizmatlarni bozor bahosida sotib oladi. O'z mahsulotini esa o'zi uchun foydali narxlarda hamisha ham sota olmaydi. Aholining daromadlarining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishidan kattaroq bo'lishini ta'minlash kerak. Hozirda respublika aholisi o'z daromadlarinig 51-52 foizini oziq-ovqat uchun sarflayotgan bo'lsa, kelajakda bu ko'rsatkich kamayib borishi (aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishi yaxshilanib borishi asosida) kerak.

Beshinchidan, qishloq joylarni, hududlarni imkon darajasida bir me'yorda rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish vazifasi ham juda dolzarb hisoblanadi. Qishloq hududlarini ijtimoiy taraqqiyot darajasini yanada yuksaltirish, ish joylarini tashkil etish ko'plab salbiy holatlarning oldini oladi. prezidentimizning qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlash to'g'risidagi farmon va qarorlarining qabul qilinishi, maxsus dasturlar ishlab chiqarilishi qishloqni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga e'tiborning kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligida chuqur tarkibiy, ijtimoiy va mulkiy munosabatlar o'zgarishi yuz berdi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotni jumladan, qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilishning nazariy asoslari prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. prezidentimiz asarlarida iqtisodiy rivojlanishning turli xil kontseptsiyalari tahlil etildi.

Birinchi kontsepsiya – Asosiy ehtiyojlar kontsepsiyasiya – aholi eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammosini hal etishga qaratilgan;

Ikkinchi kontsepsiya – Maqbul yoki tegishli texnologiya kontsepsiyasi – aholining mehnatga layoqatli qismining bandligini ta'minlaydigan va mahalliy xomashyoni, avvalo qishloq xo'jaligi xomashyosini birlamchi va chuqur qayta ishlashga qaratilgan. Bu kontsepsiya eng ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

Uchinchi kontsepsiya – O'z kuchiga jamoa bo'lib ishonish kontsepsiyasi – mavjud zahiralaridan to'liqroq foydalanishga va mamlakat iqtisodiyotini boshqa davlatlarga qaramligiga barham berishga qaratilgan;

To'rtinchi kontsepsiya – Yangi xalqaro iqtisodiy tartib kontsepsiyasi – rivojlanayotgan yurtimizning iqtisodiy qoloqligini tugatish va boshqa davlatlar bilan teng huquqli sheriklar sifatida faoliyat yuritishiga qaratilgan.

Olib borilgan rejali ishlar natijasida tarmoqda ma'lum ijobiy yutuqlarga erishildi.

Birinchidan, mamlakat iqtisodiyoti, jumladan qishloq xo'jaligi bozor iqtisodiyoti talablari sharoitida faoliyat ko'rsatishlari uchun kerakli huquqiy asos yaratildi. Tarixan qisqa davrda umuman iqtisodiyotga tegishli 100 dan ortiq qonunlar ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Ular qatoriga O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi, Fermer xo'jaligi to'g'risida, Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida, Dehqon xo'jaligi to'g'risida kabi qishloq xo'jaligi tarmog'iga oid qator qonunlarni kiritish mumkin. Mustaqillik yillarida bevosita qishloq xo'jaligiga oid 140 dan ortiq prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi hamda turli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bu qonun va me'yoriy hujjatlar qishloq xo'jaligi korxonalarining xatti – xarakatlarini belgilab beradi. Natijada qonun doirasida iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptirish imkoni yaratildi. Qishloq xo'jaligida boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik, iqtisodiy va

sotsial psixologik usullaridan foydalanilganda qonunga asoslanish imkoniyati yaratildi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida ham amalda ko'p ukkladli iqtisod tarkib topdi. Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talabiga ko'ra olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasida, turli mulkchilikga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar vujudga keldi. Natijada qishloq xo'jaligi korxonalarining asosiy qismi nodavlat mulkga asoslangan bo'lib, bu davlat mulkiga asoslangan korxonalarning kamayishiga sabab bo'ldi. 1991 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarining deyarli asosiy qismi (kolxoz kooperativ mulkga asoslangan bo'lganligi bilan amalda davlat mulkiga asoslangan sovxozlardan deyarli farqi yo'q bo'lib qolgan edi) davlat mulkiga asoslangan xo'jaliklar edi.

Bugungi kunga kelib qishloq xo'jaligida 406 ta shirkatlar, 55 ta davlat, 190 mingdan ko'proq fermer xo'jaliklari, 564 ta xususiy chorvachilik fermalari va 4481,7 mingta dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib turibdi. 2000 yilda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan maxsulotning 98,4% foizi nodavlat mulk shakliga asoslangan xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keldi. 2004 yil ma'lumotlariga ko'ra qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 59,7 foizi aholining dehqon, 20,4 foizi fermer va 19,9 foizi yirik shirkat hamda davlat xo'jaliklarida yaratildi. Xususiy mulkchilikka asoslangan fermer xo'jaliklari mustahkamlanib, kuchayib bormoqda. Agarda 1995 yilda bir fermer xo'jaligiga 10,4 gektar yer to'g'ri kelgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatgich 28,2 gektarni tashkil etdi yoki 2,7 marotaba kattalashgan. Fermer va dehqon xo'jaliklarining ko'payib borishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyotining uchta ustunidan biri hisoblangan xususiy mulkchilik ham qishloq xo'jaligida qaror topayotganidan va rivojlanayotganidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi uchun ham fermer xo'jaligi tarixan qisqa muddat ichida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakli ekanligini amalda isbot qildi. Fermer xo'jaliklari o'z mohiyatiga ko'ra resurslarni tejashni ta'minlaydi. Bu xo'jaliklarda moddiy manfaatdorlik yuqori. Natijada mehnatning samaradorligi yuqori bo'lib, barcha faoliyat asosan foyda olishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda fermerlikni

rivojlantirishda hali juda ko'plab muammolar mavjud. Jumladan, fermer xo'jaliklari iqtisodiy samarali mo'tadil hajmi (katta, kichikligi) aniqlanmaganligi, iqtisodiyotining zaifligi, ularga xizmat ko'rsatish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, mini texnikalarning yetishmasligi, yetishtirgan mahsulotlarini sotish kanallarining takomillashmaganligi bunga misol bo'lishi mumkin. Bular yechsa bo'ladigan muammolar bo'lganligi sababli hamda fermerlik ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakli ekanligini hisobga olib, fermerlik qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi deb haqli hisoblanmoqda. Hozirda yurtimizda fermer xo'jaliklarini 2004-2006 yillarga mo'ljallangan rivojlantiish kontseptsiyasi qabul qilingan va u muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Zarar ko'rib ishlayotgan, istiqboli bo'lmagan shirkatlar tugatilib ularning hududida konkurs asosida fermer xo'jaliklari tashkil etilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida Respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida fermer xo'jaliklarining ulushi ortib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, qishloq xo'jaligida bugungi kun talabidan kelib chiqib ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari vujudga kelmoqda va ular takomillashib bormoqda

7-jadval

Respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarida turli mulk shakllarining va tarmoqlarining ulushi, (% da)

№	Ko'rsatkichlar	2001	2002	2003	2004	2005
1.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida shirkatlarning salmog'i, %	28,6	27,9	28,1	22,2	19,9
2.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida fermer xo'jaliklarining salmog'i, %	10,3	11,4	12,1	14,8	20,4
3.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida dehqon xo'jaliklarining salmog'i, %	61,1	60,7	59,8	63,0	59,7

4.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, % SHundan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
5.	O'simlikchilik tarmoqlari salmog'i, %	52,6	51,6	50,6	51,6	53,7
6.	CHorvachilik mahsulotlari salmog'i, %	47,4	48,4	49,4	48,4	46,3

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotida rivojlanishni ta'minlovchi to'rt omildan biri, ishbilarmonlik shakllanib, rivojlana boshladi. Qishloq xo'jaligida 135 mingdan ko'proq fermer, 4481,7 ming dehqon xo'jaliklarining va 564 ta xususiy chorvachilik fermalari hamda minglab qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan va uning mahsulotlarini qayta ishlaydigan xususiy kichik korxonalarining mavjudligi hozircha ko'p bo'lmasada mulkdorlar, ishbilarmonlar guruhi vujudga kelganligini ko'rsatadi. Bu omil bozor iqtisodiyotida hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ishbilarmonlik rivojlanib, u bilan shug'illanuvchilar soni va sifati oshib borgan sari bozor iqtisodiyoti kuchayadi va xalqning turmush sharoiti yaxshilana boradi.

Qishloq xo'jaligida olib borilgan islohotlarning natijasida qishloqda kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni ortib, ularning iqtisoddagi ulushi ko'payib bormoqda. Agarda 2000 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik tadbirkorlikning ulushi 71,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2003 yilda bu ko'rsatkich 78,1 foizga 2004 yilda esa 80,9 foizga yetgan.

To'rtinchidan, bugungi kun hayot talabidan kelib chiqqan holda xo'jalik yuritishning yangi mexanizmi ishlab chiqildi va tadbqiq qilindi. Mustaqillikning dastlabki davrlarida xo'jalikning mineral o'g'itlarga, yoqilg'i-moylash materiallariga, elektr energiyasiga hamda ish haqiga bo'lgan talabini qondirish uchun olinadigan qismi uchun hisob – kitoblar maxsus schet orqali amalga oshiriladigan qilindi. Natijada qishloq xo'jaligi korxonalarini texnika, yoqilg'i –moylash materiallari, elektr energiyasi, miniral o'g'itlar bilan yil davomida uzluksiz ta'minlab turish

imkoniyati yaratildi. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari baho paritetining o'zgarishi o'zgacha yo'l tutish imkonini bermaydigan bir paytda amaldagi mexanizm o'zining ijobiy rolini o'ynadi. Bu mexanizm bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, barcha qishloq xo'jalik korxonalarini ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun kerakli bo'lgan moddiy resurslar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligiga mineral o'g'it, yoqilg'i – moylash materiallari, elektr energiyasi ishlab chiqaradigan va yetkazib beradigan tarmoqlarni kafolatlangan holda o'z mahsulotlari uchun haq olishini ta'minldi. Uchunchidan, inflyatsiyani kuchayishiga yo'l qo'ymaydigan katta makroiqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki bu mexanizm bo'yicha moliyaviy resurslarni turli yo'llar bilan naqd pulga aylantirish imkoniyati yo'qqa chiqarildi. Albatta bu mexanizm ma'lum kamchiliklarga ham ega. Eng asosiy kamchiligi xo'jaliklarning moddiy manfaatdorlik va javobgarligini qisman susaytirdi. Sog'lom raqobatni kuchini kamaytirdi, ayrim hollarda yo'qqa chiqaradi. Bu mexanizm iqtisodiy kamquvvat yoki zarar bilan ishlaydigan korxonalar uchun foydali, yaxshi ishlayotgan va katta samara olayotgan xo'jaliklar uchun esa aksincha. Umuman qishloq xo'jaligi tarmog'ining manfaati uchun yaxshi bo'lgan bu mexanizm bo'yicha iqtisodiy baquvvat, katta foyda oladigan xo'jaliklarning o'zi ishlab topgan mablag'laridan samarali foydalanish imkonini susaytiradi. Natijada yaxshi va yomon faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari ma'lum darajada bir xil sharoitga (holatga) qo'yilmoqda. Bu o'z navbatida yaxshi ishlayotgan qishloq xo'jalik korxonalarida samaradorlikni yanada oshirish uchun manfaatdorlikni susaytiradi. Resurslarni tejashga qaratilgan mexanizmni yaratish bu sxemada o'z ifodasini topmadi. SHu sababli respublika hukumati bu kamchiliklarni vaqtinchalik yumshatish imkoniyatini qidirib topdi. Ma'danli o'g'it, yoqilg'i – moylash materiallari, elektr energiyasi yetkazib beruvchi sohalardan hamda ish haqidan qarzi bo'lmagan iqtisodiy baquvvat qishloq xo'jaligi korxonalarini mavjud sxemadan chiqarib ularning mablag'larini o'zlarining hisob raqamlariga tushirib berish maqsadga muvofiq deb topildi. 2005 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalari o'z joriy harajatlari uchun zarur mablag'ni banklardan kredit tariqasida

oladigan bo'ldi. Bu samarali ishlashga qiziqishni kuchayishiga, ishlab chiqarishni foyda bilan yakunlashga intiluvchi korxonalarning ko'payishiga olib keladi.

Beshinchidan, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish keskin ko'paydi. Tarixan qisqa davrda g'alla mustaqilchiligiga erishildi. Agarda 1990 yilda 1808,2 ming tonna don ishlab chiqarilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2000 yilga kelib 4,1 mln. tonnani tashkil etdi. 1990 yilda jami donda bug'doyning salmog'i 32,7 foizni yoki 592,2 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos holda 82,9 foizni va 3,4 mln. tonnani tashkil etdi. 2004 yilda 6017,1 ming tonna don, shundan 5502,5 ming tonna bug'doy ishlab chiqarildi. 2006 yili jami bo'lib 6,1 mln. Tonna don yetishtirildi. paxta ishlab chiqarish 2000 yildan keyin birinchi bor 3,5 mln. tonnadan oshib ketdi.

Aholiga tomorqa yerlarining berilishi ularning turmush sharoitini yomonlashib ketishiga yo'l qo'ymadi. Mustaqillik yillarida aholiga 682,5 ming gektardan ortiqroq yer uy – joy qurish va tomorqa uchun berildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulot turlarining 60-85 foiziga yaqini dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilmoqda.

Oltinchidan, qishloq aholisining ichimlik suv va gaz bilan ta'minlanish darajasi keskin oshib bormoqda. 2000 yilda qishloq aholisining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 67,8 foizga, gaz bilan ta'minlanishi 56,7 foizga yetdi. 2004 yilga kelib aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanishi 76,2 foizga, tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 86,5 foizga yetdi. Mustaqillik yillarida qishloq joylarda maktab va maktabgacha bo'lgan muassasalar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli poliklinika, shifoxonalar va ko'plab sport inshootlari qurildi. Albatta bu sohada hali qilinadigan ishlar juda ko'p. yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Bu to'xtovsiz jarayon bo'lib, doimiy rivojlantirilib borladi. Ijtimoiy sohaning rivojlanishi aholining turmush darajasini yaxshilashga olib kelmoqda.

Ettinchidan, qishloq xo'jaligi ichki va tashqi bozor talablariga tez moslashadigan bo'ldi. Bir yilning o'zida paxta maydoni ko'payib, boshqa ekin

maydonlari qisqarishi yuz bermoqda. Mustaqillikkacha bu jarayonlarni orzu qilish mumkin emas edi.

Sakkizinchidan, bizning fikrimizcha, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarning eng muhimi aholining dunyoqarashi iqtisodiy qonuniyatlar talabida o'zgarib borayotganligidadir. Aholining, jumladan, qishloq aholisining asosiy qismi qiyinchilik bilan bo'lsa-da boqimandachilik kayfiyatidan xalos bo'lmoqda.

To'qqizinchidan, qishloq xo'jaligi ichki va tashqi bozor talablariga tez moslashadigan bo'ldi. Bir yilning o'zida paxta maydoni ko'payib, boshqa ekin maydonlari qisqarishi yuz bermoqda. Oldinga davrlarda buni orzu qilish mumkin emas edi.

Mamlakat qishloq xo'jaligini izchil rivojlantirish maqsadida ko'rilgan chora – tadbirlar bugun o'z samarasini bermoqda. Eng muhimi qishloq xo'jaligiga e'tiborning kuchayganligidir. Qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston suv va qishloq xo'jalik vazirligi, “O'zmevasabzavotuzumsanoat – xolding” xolding kompaniyasi, O'zbekiston fermer xo'jaliklari uyushmasi, “O'zbek ipagi” pillachilik uyushmasi tuzildi. Respublikada qorako'lchilikni rivojlantirish maqsadlarida hukumat hujjatlari tayyorlandi.

Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatadigan infratizilmani rivojlantirmasdan islohotlardan ko'zda tutilgan natijalarga erishish mumkin emasligini anglab, bu soha imkon darajasida rivojlantirilmoqda. Natijada “O'zagrolizing” lizing kompaniyasi “O'zdavpaxtasanoatsotish” uyushmasi, O'zbekiston qishloq xo'jalik ilmiy ishlab chiqarish markazi, “O'zqishloqxo'jalikmash–xolding” xolding kompaniyasi, “O'zagrokimyota'minot” birlashmasi, “O'zagrosug'urta” kompaniyasi, ixtisoslashgan tijorat banklari kabi xizmat ko'rsatuvchi tizim tashkil etildi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ko'rsatilgan amaliy yordamning biri, iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolgan xo'jaliklar xukumat tomonidan sanatsiya qilindi. Bu korxonalarning barchasida tashqi boshqaruvchi tayinlandi. Yilning 1 yanvar holatiga ko'ra byudjetga to'lanmagan to'lovlar va ular bo'yicha penyalari, pensiya jamg'armasi, Ish bilan ta'minlash jamg'armasi, Ijtimoiy

sug'urta jamg'armasi va yo'l jamg'armasidan penya qo'shilgan holdagi qarzlarini to'lash ma'lum yilgacha kechiktirildi. Ularning debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belglandi. Albatta hozirda qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'tatildi. Lekin 1998-2002 yillarda ushbu tadbir o'z samarasini berdi. Masalaning muhim tomoni shundaki bugungi kunda iqtisodiyotimizda bozor instrumentlari ishlamoqda. Davlat iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolgan, ammo iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan xo'jaliklarni davolovchi funktsiyasini bajardi.

Amalga oshirilayotgan muhim ishlardan yana biri urug'chilikni yaxshilashga juda katta e'tibor berilayotganidir. Ayniqsa, paxtachilikda urug'chilikni rivojlantirish maqsadida xorijiy mutaxassislar va hamkorlar bilan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qoshida paxta loyihalari bo'yicha maxsus agentlik faoliyat ko'rsatmoqda. Bug'doyning yangi serhosil "Karlik 85", "Dobraya" navlari sinovdan o'tmoqda. Daslabki 3 yillik sinov natijalariga ko'ra ular hosildorligi, sifati jihatidan hozirgi rayonlashtirilgan bug'doy navlariga qaraganda 15-20 foizga yuqori. pillaning YAponiya, Janubiy Quriyadan sermahsul urug'lari olib kelinib ko'paytirilmoqda. yer resurslarning cheklanganligi, turli sabablarga ko'ra aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining kamayib borishi sohani intensiv rivojlantirishni talab etadi. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish uning moddiy texnika ta'minotini, ekinlarning serhosil navlari va sermahsul zotli chorva mollarining bo'lishini, ma'danli o'g'itlar va kimyoviy vositalar bilan ta'minlanishini yaxshi bo'lishni talab qiladi. Shu maqsadda mamlakatimizga, o'z sohasi bo'yicha, dunyoning eng nufuzli kompaniya va korporatsiyalarining universal va maxsus qishloq xo'jaligi texnikalari kirib kelmoqda.

Bir so'z bilan aytganda qishloq xo'jaligida katta iqtisodiy salohiyat (imkoniyatlar) vujudga keltirilmoqda. Endigi vazifa qishloq xo'jaligining iqtisodiy quvvatini yanada oshira borgan holda uning mavjud quvvatlaridan maksimal foydalanishdir.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda bizning nazarimizda quyidagilarga e'tiborni kuchaytirish ko'proq samara bergan bo'lar edi.

Jamiyatni rivojlantiradigan asosiy kuch manfaatdir. Shu sababli barcha qilinayotgan ishlar mumkin qadar manfaatdorlikga asoslanishi kerak. Shu o'rinda iqtisodiy manfaatni ustun qo'yish zarur. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishni o'ziga xos yo'li prezidentimiz I.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Uning asosini 5 tamoyil tashkil qilib ularning birinchisi iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligidir. Aynan shu tamoyil iqtisodiy manfaatni, iqtisodiy rivojlanishning birinchi darajali omili ekanligini ifodalaydi. Shu borada bugungi kunda tarkib topgan o'zaro hisob-kitob (o'g'it, yoqilg'i, elektr energiyasi va texnika uchun) larni asta-sekinlik bilan o'zgartirish lozim bo'ladi. Har bir xo'jalik o'zi sarflagan xarajatlarini olgan tushim bilan qoplab, foyda olishi ham zarur. Bu tamoyil xo'jalikning eng birlamchi bo'g'inlarigacha yetib borish kerak. Bugungi kunda xo'jalikda mavjud oila, zveno, brigada pudratlarida ishlayotganlarning 90 foizi belgilangan vazifani uddalagan holda, qolgan 10 foiz pudratchilarning o'z ko'rsatkichlarini bajarmasligi natijasida xo'jalik bo'yicha topshiriq 1 foizga bajrilmay qolsa ham, topshiriqni bajargan 90 foiz pudratchilar moddiy manfaatdorlikdan yetarli darajada to'liq foydalana olmaydilar. Bu o'z navbatida moddiy manfaatdorlik tamoyilining buzilishiga, samaradorlikni pasayishiga olib keladi. Shu sababli ham, birining yomon ishlashi hisobiga ikkinchisi manfaatdorlikdan mahrum bo'lmasligi kerak.

Asosiy e'tiborni sifat ko'rsatgichlarga qaratish lozim bo'ladi. Iqtisodiyotni ko'plab resurslar sarflash evaziga emas balki cheklangan resurslardan unimli foydalanib samaradorlikni oshirishga qaratish maqsadga muvofiq. Intensiv rivojlanishgina mamlakatni orzu qilgan darajaga olib chiqa oladi halos. Masalan, 1,5 mln. gektarga boshqoli don ekilgan bir paytda hosildorlikni 40 sentnerga yetkazsak 6,0 mln. tonna don bo'ladi. Andijon viloyati 1 ga yerdan 67 sentnerdan olgan holda respublika bo'yicha 40-50 sentnerdan don yetishtirish mumkin emasmi? Xuddi shunday paxta ham 1,5 mln. ga yerga ekilmoqda. Hosildorlikni 30 sentnerga yetkazish 4,5 mln. tonna paxta demakdir. Hosildorlikni oshmasa bu hajmdagi

mahsulotni yetishtirish uchun bugungi kunda qo'shimcha 1,8-2,0 million gektar qo'shimcha yer talab qiladi. yerning cheklanganligi, aholi sonini ko'payib borishi, sanoatning rivojlanishi, qurilishning ko'payishi bir jon boshiga to'g'ri keladigan yer birligini kamayishiga olib keladi. Shu sababli ham qishloq xo'jaligini intensivlashtirish ob'yektiv zarurat bo'lib, bundan boshqa yo'l yo'q.

Xo'jalik rahbarlari xo'jalikda mavjud bo'lgan mulkni saqlash, uni ko'paytirish uchun javobgarlikni aniq his qilishlari kerak. Hissadorlik, paychilikga asoslangan xo'jaliklarda hissadorlar rahbarlardan o'zlariga tegishli mulkni saqlashni va ko'paytirishni talab qilishlari kerak. Hissadorlarning shunday darajaga ko'tarilishi iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish talab qilinadi. Qishloq xo'jaligining kelajagi aynan shu turdagi xo'jaliklar bilan bog'liq. Chunki yuqorida qayd etilgan iqtisodiy manfaatdorlik dehqon va fermer xo'jaliklarda boshqa turdagi ishlab chiqarish korxonalaridagidan yuqori. Joylardagi rahbar mumaxassislar buni qancha tez anglab yetsa shuncha rivojlanish yaxshi bo'ladi.

Dehqonga faqatgina yer, mulk bergan bilan yetarli natijaga yerishib bo'lmaydi. Uzoq muddatga yerni ijaraga berish bilan bir qatorda yetishtirilgan mahsulotni tasarruf qilish imkonini ham berish kerak. yetishtirilgan mahsulot faqat ixtiyoriy shartnomalar asosida sotilishi kerak. Albatta davlat manfaati, buyurtmalar asosida amalga oshirilib boradi. Chunki yerga egalik (ijara shartnomasi asosida) masalaning yarim yechimi. yetishtirilgan mahsulotga ega bo'lish huquqi ikkinchi yarim yechimidir. Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning moliyaviy imkoniyatlarining shakllanishi o'zgachadir. Ya'ni yil davomida asosan faqat xarajat, daromad esa yil oxirida shakllanadi. Demak qishloq xo'jaligining yaxshi ishlashidan manfaatdor tarmoqlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar) yil davomida qishloq xo'jaligini moddiy qo'llab turish imkoniyatlari ustida ishlashlari kerak. Buning yo'llaridan biri fyuchers shartnomalari asosida ishlashdir. Bu qayta ishlovchi tarmoq uchun ham yaxshi. Chunki qaysi turdagi mahsulot qancha va qanday sifatda kerakligiga qarab shartnomalar tuzadi. Bozor sharoitida zarar bilan

ishlaydigan har bir korxona alohida tahlil qilinishi va bir to'xtamga kelinishi ma'qul. Bonkrot holatiga kelgan, shu shaklda tiklanishi mumkin bo'lmagan korxonalar tugatilish va yeri aholiga ijara shartnomasi asosida taqsimlanib berilishi maqsadga muvofiqligini prezidentimiz juda to'g'ri belgilab berdi.

Ba'zan, barcha rivojlangan davlatlar qishloq xo'jaligiga dotatsiya beradi bizda ham buni tezroq joriy qilish lozim degan fikrlar uchraydi. Albatta bu fikr ijobiy bo'lib, qishloq xo'jaligini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ammo biz endigina mustaqil bo'lganimizni, iqtisodiyotimizning bir tomonlama rivojlangan bo'lganligini, eski iqtisodiy aloqalar uzilib qolganligi natijasida yuzaga kelgan qator masalalarni va shunga o'xshash ko'plab muammolarni hal qilishga duch kelayotganimizni unutmasligimiz kerak. Iqtisodiy rivojlangan, qishloq xo'jaligiga dotatsiya berayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulishi 1-5 foizdan oshmasligini e'tiborga olsak masalaning ayrim tomonlari oydinlashadi. Masalan, 1996-2001 yillari Germaniya va AQSHning yalpi ichki mahsulotida qishloq va o'rmon xo'jaligi hamda baliqchilik tarmoqlarining salmog'i atigi 1,1-2,36 foiz atrofida bo'lgan. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda davlat byudjeti sanoat va boshqa xizmat ko'rsatadigan tarmoqlardan tushadigan mablag' hisobiga shakllanadi. Natijada, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan dotatsiyalab turish imkoniyatlari katta. Bizning mamlakatimiz mustaqillikga erishgan 1991 yilda jami yalpi ichki mahsulotning 36,8 foizi qishloq xo'jaligida yetishtirilgan edi. 2000 yilda bu ko'rsatkich 30,4 foizni tashkil qildi. 2004 yilga kelib 26,8 foizni tashkil etdi, 2005 yilda esa 25,0 foizni darajasida bo'ldi. Demak, qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulishi kamayib, sanoat va boshqa tarmoqlarning hissasi oshib bormoqda. Bugungi kunda sanoatni, xizmat ko'rsatish tarmoqlarni rivojlantirishda qishloq xo'jaligining ahamiyati katta. Mamlakat sanoatlashib borgan sari qishloq xo'jaligiga amaliy iqtisodiy yordam qilish imkoniyatlarimiz ortib boradi. Bu o'zgarishlar mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat uzoqni o'ylab qilinayotganidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi ijtimoiy masalalar chuqurlashib ketishga yo'l qo'ymaydigan tarmoqlarning asosiylaridan biridir. Chunki aholini ish bilan ta'minlashda uning o'rni beqiyos. Aholining iqtisodiy faol qismining 44 foizidan ko'prog'i qishloq xo'jligida band. Kelgusida sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi uchun zaur mehnat resuslarini yetkazib berishda qishloq xo'jaligi eng katta imkoniyatlarga ega. Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, aholi turmushi darajasining ortishi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi, qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi nisbatan ko'p moliyaviy resurslarni talab qilmasdan katta samara berishi mumkin bo'lgan tarmoqlardan biriga kiradi. Bu esa o'tish davri iqtisodiyoti uchun juda katta muhim omillardan biridir.

Hozirda O'zbekiston qishloq xo'jaligi nisbatan rivojlangan tarmoq hisoblanadi va unda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. 2002 yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 3257,2 mlrd. so'mlikni tashkil etdi. Barcha turdagi xo'jaliklar tomonidan 5792,5 ming tonna don, 3,16 mln. tonna paxta, tirik vaznda 864,7 ming tonna go'sht, shungdek 1367,1 mln. dona tuxum yetishtirildi, 3719,4 ming tonna sut sog'ib olindi.


Respublikada mulkiy munosabatlar rivojlantirilmoqda. Mulkiy munosabatlarning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 52, 53 va 54- moddalarida belgilab qo'yilgan. Jumladan konstitutsiyaning 54-moddasida "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart"* deb ta'kidlangan.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkiy munosabatlarni rivojlantirish borasida ham katta ishlar qilindi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti erkin xususiy mulksiz rivojlanishi mumkin emasligiga e'tibor kuchaytirildi. Bu borada qilinayotgan katta ishlardan biri qishloq joylarda mulkdorlar sinfini shakllantirishdir.

* O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 1999.-32b. (13 bet).

Asta-sekinlik bilan bo'lsada, xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlar sinfi shakllantirilyapti. Qishloq joylarda shakllanayotgan tadbirkorlar sinfi qishloq xo'jaligida mehnatni tashkil etishning barcha shakllari bilan bevosita birgalikda rivojlanmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlar sinfi shirkatlarda, asosan fermer va dehqon xo'jaligi shaklida vujudga kelmoqda. SHu bilan birgalikda qishloq joylarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda ham tadbirkorlik rivojlanmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik xususiy tadbirkorlik tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bundan tashqari hunarmandchilik, kosiblik, novvoylik va boshqalar bunga misol bo'ladi. Ularning rivojlanishi qishloq xo'jaligining, qolaversa, mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq joylarda mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini 6-chizmada ko'rish mumkin.



6-chizma. O'zbekiston Respublikasi qishloq joylarida mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi" ning 39-moddasiga muvofiq: "O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va

javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi".* Yuridik shaxslarning foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan turlari tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan yakka tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan ko'pchilik qismi jismoniy shaxs maqomida faoliyat olib boradi. Davlat ro'yxatidan o'tgan dehqon, fermer shirkat xo'jaliklari yuridik shaxs maqomida faoliyat olib boradi. Jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan iqtisodiy sub'yektlar mo''tadil faoliyat olib borishlari uchun huquqiy baza yaratilgan va takomillashtirilib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligi yaqin va uzoq kelajakda oziq – ovqat mahsulotlari yetishtirishning asosiy manbasi bo'lganligi uchungina emas, balki quyidagi holatlar uchun ham agrosanoat majmuasining asosini tashkil etadi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi sanoatining ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari mahsulotlariga talabning asosini belgilaydi. Sanoatning bu tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishlarni, shuningdek, sanoat mahsulotlarining sifati, xossalari qanday bo'lishini belgilab beradi, ba'zan esa sanoat korxonalarining joylashuviga ham katta ta'sir o'tkazadi;

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibi va joylashuvi ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalarining rivojlanishini belgilaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turlarga qarab, ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalar o'zlarining quvvatini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlari joylashuviga ham ta'sir ko'rsatadi;

Uchinchidan, sanoatda yaratilayotgan ishlab chiqarish vositalarining samaradorligi qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi.

Jahon davlatlari o'rtasida yuz beradigan keskin raqobat sharoitida mamlakat iqtisodiyotining bardoshli bo'lishi va yanada rivojlanishi ma'lum darajada ushbu

* O'zbekiston Respublikasi "Fuqoralik kodeksi".-T.: O'zbekiston, 2002. – 34b.

tarmoqqa bog'liq bo'ladi. Qishloq xo'jaligi o'ziga aloqador barcha sanoat tarmoqlariga rivojlanish uchun qaysidir ma'noda kompas rolini o'ynaydi;

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi butun agrosanoat majmuasi tarmoqlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Agarda qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, agrosanoat majmuasi oxirgi mahsulotining arzon bo'lishi ta'minlanadi. Bu mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi, aholining turmush darajasini oshiradi. Chunki aholi daromadining katta bir qismini o'z komilligini oshirish yo'lida sarflash imkoniyati ko'payadi;

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi agrosanoat majmuasining oxirgi mahsulotlari tannarxining darajasini belgilaydi. YA'ni sotish uchun bozorga chiqarilgan tayyor mahsulotlar narxning past bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Binobarin, kuchli raqobat sharoitida arzon mahsulot ishlab chiqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega omil hisoblanadi;

Oltinchidan, agrosanoat majmuasi oxirgi tayyor mahsulotining sifati qanday bo'lishi qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot sifati bilan belgilanadi, desak xato bo'lmaydi. Albatta, tayyorlash va qayta ishlash jarayonida sifatli mahsulotning sifatini buzush mumkin, lekin o'zi sifatsiz bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotidan sifatli sanoat mahsuloti ishlab chiqarish amrimahol. To'g'ri, tayyorlash va qayta ishlash jarayonida ayrim biologik ishlovlar berish, turli vitamin va mineral tuzlar qo'shish evaziga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dastlabki sifatini yaxshilash mumkin. Lekin bu yaxshilanish hal qiluvchi kuchga ega emas. Axir, faqatgina sifatli materialdan sifatli mahsulot olish mumkin.

Ettinchidan, aynan qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish (indusrlash) jarayoni agrosanoat integratsiyasini kuchaytiradi. Bunda qishloq xo'jaligi va sanoat yanada yaqinlashadi. Bu esa fan, texnika taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosan shirkatlar, fermer va dehqon xo'jaliklari shakllarida tashkil etilgan.

7.3. Shirkat xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi doimiy ravishda rivojlanib, chuqur islohotlar sharoitida yashab kelayotgan tarmoqlardan biridir. Islohotlarning bir yo'nalishi tarmoqni boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridan eng maqbullarini joriy etishdir. Respublika qishloq xo'jaligini 1997 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi boshqardi. Bu davrga kelib qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining natijalari ko'p jihatidan suv resurslari va ulardan foydalanishga bog'liq bo'lganligi, suv resurslardan foydalanish esa boshqa vazirlik ixtiyorida ekanligi ma'lum muammolarni vujudga keltirdi. Natijada 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi vujudga keldi. 2001 yilning 1 yanvariga kelib uning tarkibida 2018 ta qishloq xo'jaligi korxonasi faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshida 125 ta qorako'lchilik xo'jaliklarini birlashtirgan "O'zbekqorako'l" kompaniyasi, 51 ta parrandachilik fabrikasi bor "O'zparrandasanoat" uyushmasi, tarkibida 18 ta xo'jaligi bor "O'zsabzavoturug'i" birlashmasi, 46 ta xo'jalikdan iborat "Asal" asalarichilik uyushmasi, 84 ta xo'jaligi bor Qishloq xo'jaligi ilmiy – ishlab chiqarish birlashmasi va Irrigatsiya O'rtaosiyo ilmiy – tekshirish instituti faoliyat ko'rsatmoqda. 2002 yilda yirik qishloq xo'jaligi korxonalari, ya'ni shirkatlar jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 32 foizga yaqinini yetishtirmoqdilar. Bu ko'rsatkich yildan yilga kamayib bormoqda. 2004 yilda shirkatlar qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 19,3 foizini, 2005 yilda 15,3 foizini ishlab chiqardilar. YAqin kelajakda shirkat xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi yanada kamayishi kutilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash bilan "O'zmevasabzavotuzumsanoat xolding" kompaniyasi ham shug'ullanadi. Uning tarkibiga meva, uzum, sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan 89 ta qishloq xo'jaligi korxonasi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi ko'plab sanoat korxonalari kiritilgan.

“O’zgo’shtsutsanoat” aktsiyadorlik kompaniyasi tarkibiga chorva mollarini boqishga ixtisoslashgan 110 ta korxonalar kiritildi.


O’zbekiston Respublikasida qishloq xo’jaligi mahsulotlari davlat va asosan, nodavlat sektorida yetishtiriladi. Mustaqillik yillarida yetishtirilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlar miqdorida davlat ulushi kamayib, nodavlat sektorning hissasi oshdi. Hozirda davlat sektorida faqatgina urug’chilik bilan shug’ullanadigan 47 ta korxona qolgan. Ularning ishlab chiqarishdagi ulushi 2002 yilda 0,9 foizni tashkil etdi. Qolgan 99,1 foiz mahsulot nodavlat sektorda ishlab chiqarilmoqda.

1998 yildan boshlab eski kolxoz va davlat xo’jaliklari shirkat xo’jaliklari shaklda tashkil etila boshlandi. SHirkatlar yirik qishloq xo’jaligi korxonalari bo’lib, 2001 yilda ularning o’rtacha ekin maydoni 1233 gektarni tashkil etdi. Ular o’rtacha 94 gektardan bog’ va 64 gektardan uzumzorlarga ega, mamlakatda yetishtirilgan paxtaning 60, tamakining 66, qand lavlagining 88, boshqli donning 49, mevaning 26, va uzumning 43 foizini berdi.

Shirkatlar aktsiyadorlik jamiyatlarining o’ziga xos bir ko’rinishi sifatida vujudga keltirildi. Ularda xo’jalikning mol – mulklari unga a’zo bo’lganlarga mulkiy pay ulushi ko’rinishida taqsimlanib berilgan. Bu ulushning egasi xo’jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan daromaddan (foydadan) bir qismini oladi.

Shirkat xo’jaliklarining faoliyati “Qishloq xo’jalik kooperativi (shirkat xo’jaligi) to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni bilan hamda shirkat Nizomi asosida yuritiladi. Shirkat xo’jaliklarida mehnatni tashkil etish oila pudrati shaklida, amalga oshiriladi. Uning asosida shirkat bilan oila o’rtasida tuziladigan oila pudrati shartnomasi yotadi. Shirkat xo’jaliklari ustav jamg’armalariga ega bo’ladilar. Ularning ustav jamg’armasi, pay jamg’armasi va bo’linmas jamg’armadan iborat bo’ladi. (7-chizma).

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tuman "Sohibqiron" shirkat xo'jaligi ustav jamg'armasi



7-chizma. Shirkat xo'jaligining ustav jamg'armasi

Shirkatlarga O'zbekiston Respublikasi "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonunining 1-bob, 1-moddasida - "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) – tovar qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish uchun pay usulga va asosan oila (jamo) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga, boshqarishning umumiylikiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga asoslangan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yektdir.* deb ta'rif berilgan.

* O'zbekiston Respublikasi "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonun. T.: O'zbekiston, 1998. 4 b.

Shirkat xo'jaligiga a'zolik ixtiyoriydir. 16 yoshga kirgan fuqaro ixtiyoriy ravishda unga a'zolikka kirishi mumkin. Shirkat xo'jaligining yuqori boshqaruv organi umumiy majlis bo'lib, u shirkatni boshqaruvini va taftish komissiyasini saylaydi va shirkatni joriy boshqarish bo'yicha o'z vakolatini ularga beradi.

Qishloq xo'jaligida yirik ishlab chiqarish korxonalari hisoblangan shirkatlar quyidagi ijobiy tomonlarga ega:

- Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi sharoitida shirkatlar faoliyati tavakkalchilikdan nisbatan kuchli himoyalangan;
- Yirik hajmdagi xo'jalik va dalalarda ilg'or texnologiyalar va texnikalarni qo'llash, mavjud texnika va jihozlardan esa samarali foydalanish imkoniyatlari katta;
- Yirik dalalarda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, o'g'itlash, kimyoviy vositalardan foydalanish, yer haydash, unga ishlov berish, sug'orish, hosilni yig'ib olish kabi ishlarni tashkil etishni mo''tadil amalga oshirish nisbatan samarali;
- Mavjud texnikalarni ta'mirlash, mahsulotlarni saqlash, tashish va ko'plab xizmat ko'rsatish tizimlarini tashkil etishda nisbatan kuchliroq imkoniyatlarga egaligi;
- Qishloq infratuzilmasini vujudga keltirish va uni rivojlantirishda katta imkoniyatga egaligi.

Shu bilan birgalikla, yirik xo'jaliklarning ayrim kamchiliklari yoki zaif tomonlari ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Moslashuvchanlik qobiliyatining pastligi ya'ni bozor talablariga tezda moslasha olmasligi. O'z ishlab chiqarish yo'nalishini qisqa davrda o'zgartirishi uchun imkoniyatlarining cheklanganligi;
- Mulkiy munosabatlar natijasida tejamkorlikka, mahsulotlarning yo'qolishiga (nobud bo'lishiga) e'tiborning nisbatan pastligi. Shirkat a'zolarida xo'jayinlik hissining yuqori emasligi;
- Bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarning ko'payib ketishi;
- Xo'jalikka bevosita mos bo'lmagan funktsiyalarning ko'payib borishi;

- Mavjud resurslardan to'liq va iqtisodiy samarali foydalanishda katta zahiralarining mavjudligi. Turli sababalarga ko'ra xo'jalikda mavjud resurslardan to'liq foydalanilmaydi;
- Yuqori tashkilotlarning ishlab chiqarishga aralashuvi darajasining kuchliligi.

Yuqoridagi holatlar shirkatlarning nisbatan kamayib, ularning o'rniga ishlab chiqarishning progressiv shakli hisoblangan, fermer xo'jaliklarining tashkil etilishiga olib kelmoqda.

7.4. Fermer xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 avgustda qabul qilingan "Fermer xo'jaliklari to'g'risida" gi qonunining 1-bandida "Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yuritish sub'yektidir", - deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvaridagi "Qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 8-sonli qarori asosida respublikada fermer xo'jaliklari tez rivojlana boshladi. Ushbu siyosat rivojlantirilib 2004 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yangi "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 607-sonli qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 dekabrda "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 607-sonli qaroriga ko'ra past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari negizida tanlov asosida fermer xo'jaliklarini tashkil etish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasida "...fermerchilik qishloqda xo'jalik

yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida yetakchi o'rinni egallamoqda" - deb ta'kidladi.*

Shirkat xo'jaliklarini tugatib, fermer xo'jaliklariga aylantirish jarayonida asosan oldin tarmoq rivojlanishida to'siq bo'lib kelayotgan ayrim omillarning salbiy ta'sirlarining oldi olindi. Natijada quyidagilarga erishishga muvofiq bo'lindi:

1. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishga keraksiz yoki yaroqsiz bo'lgan mol-mulklar sotildi va ularni sotishdan tushgan mablag'lar birinchi galda aylanma mablag'lar zahiralarini to'ldirishga yo'naltirildi;
2. Fermerlar tender asosida tanlab olindi; (malakali, moddiy-texnika resurslariga ega, ishchi kuchlari yetarli, ishlab chiqarish imkoniyatlari kattalari tanlab olindi)
3. Qishloq dehqonining mulkka, yerga va o'zi yetishtirgan mahsulotlarga egalik qilish ko'lamlari kengaydi;
4. O'z mahsulotlarini bozorda (shartnomadan ortiqchasini) erkin sotish imkoniyatlari ko'paydi;
5. Me'yordan ortiqcha ishchi kuchlarining qisqarib, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish sohalariga o'tib ishlashlariga va shu bilan birga qo'shimcha mahsulot xizmatlarni bozorga taklif etish uchun keng imkoniyat yuzaga kelishiga asos solindi;
6. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, tovar-moddiy resurslari yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'yektlarini ishlab chiqaruvchilarga yanada yaqinroq joylarda joylashtirish orqali fermer va dehqonlarning bevosita ishlab chiqarishdan ajralmasdan samarali mehnat qilishi uchun qulay imkoniyat yaratildi.

Fermer xo'jaliklari qishloq joylardagi kichik tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish shakli sifatida quyidagi afzalliklarga ega:

- xo'jalik yuritishning mahalliy sharoitlariga tobora tezroq moslasha oladi;
- kichik tadbirkorlik sub'yekti sifatida katta erkinliklarga egaligi;

* Karimov I. Bizning maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005, 70b.

- qarorlarni qabul qilish va ularni bajarishning o'zgaruvchanligi va darhol ishga tushirilishi;
- faoliyatni amalga oshirishning, ayniqsa boshqaruv sarf-harajatlarini nisbatan kamligi;
- fermerlarning o'z g'oyalarini amalga oshirishlarida o'z qobiliyatlarini namoyon qilishda katta imkoniyatlarga ega bo'lishi;
- dastlabki kapitalning kamligi va mahalliy bozorning talablariga mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlariga tez o'zgartirishlar kiritish orqali javob berish;
- o'z kapitalining nisbatan yuqoriroq sur'atlarda aylanib turushi;
- tejamkorlikning yuqoriligi;
- o'ziga ishonish darajasining yuqoriligi;
- sinib ketsa ham mamlakat iqtisodiyoti katta zarar ko'rmasligi.

Fermer (kichik) xo'jaliklari ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum kamchiliklarga ham ega:

- tavakkalchilik havf-xatarining yuqoriligi va shu sababdan bozordagi o'rinning ham yuqori darajadagi beqarorligi;
- yirik korxonalarga bog'liq bo'lishlik;
- boshqaruv ishidagi kamchiliklar;
- rahbarlik bilimlarining yetarli emasligi;
- xo'jalik yuritish sharoitlari o'zgarishiga ortiqcha sezuvchanlik;
- qo'shimcha moliyaviy mablag'lar va kredit olishning qiyinligi;
- shartnomalar (kontraktlar) tuzishda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishonchsizligi va ehtiyotkorligi va boshqalar.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlik sub'yektlariga kiradi. Fermer xo'jaliklari mamlakat yalpi ichki mahsulotida kichik biznesni ulushining ortishiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2004 yilda kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotida ulushi 36,1 foizni, 2005 yilda 38,6 foizni tashkil etdi. Rivojlangan

mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesda ish bilan band bo'lgan aholining 70-80 foizi mehnat qiladi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznesning ulushini yaqin yillar ichida 45-47 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi korxonalari orasida fermer xo'jaliklari ham salmoqli o'rinni egallaydi. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq fermer xo'jaliklariga istiqbolli yo'nalish sifatida e'tibor berildi. Rahbarlar, mutaxassislar va olimlar bu xo'jaliklarning rivojlanishga tabiiy sharoit yaratib berdilar. Natijada fermer xo'jaliklari tarixan qisqa davrda qishloq xo'jaligida o'z faoliyatini olib borishga haqli ishlab chiqarish shakllaridan biri ekanligini isbot qildi. 2001 yilning 1 yanvariga 52228 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, ularga 1038,1 ming gektar yer biriktirilgandi. Fermer xo'jaliklarida 366,7 ming kishi mehnat qildi. 2003 yilning 1 yanvariga kelib ularning soni 72406 tani tashkil etdi. Shundan 63497 tasi dehqonchilik, 6150 tasi chorvachilik, 2759 tasi bog'dorchilik va boshqa sohalarda tashkil etilgan. Ularning umumiy yer maydoni 1591,7 ming gektar, o'rtacha bir fermer xo'jaligining yer maydoni 22 gektar. Fermer xo'jaliklarida 1477,2 ming tonna don, 937 ming tonna paxta, 28,4 ming tonna kartoshka, 213,1 ming tonna sabzavot, 76,3 ming tonna poliz, 56,1 ming tonna meva, 31,5 ming tonna uzum, 81,7 ming tonna sut, 272,4 ming tonna go'sht (tirik vaznda), 265,6 ming dona tuxum va 9,0 tonna jun mahsulotlari yetishtirildi. 2002 yilda fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi 9,9 foizni tashkil etdi. 2004 yilda fermerlar qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 18,6 foizini, 2005 yilda 24,5 foizini ishlab chiqardi. Yaqin kelajakda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida fermer xo'jaliklarining ulushi keskin ko'payishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida navbatdagi muhim bosqichni boshlab berdi. Ushbu qarorga ko'ra, 2004-2006 yillar mobaynida

zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz 1020 ta shirkat xo'jaligini tugatib, bosqichma-bosqich fermer xo'jaliklariga aylantirish ko'zda tutilgan.

Respublikada fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Kontseptsiyasida quyidagi yo'nalishlar belgilangan:

- fermer xo'jaliklarining to'liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan va fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantiradigan huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratish;

- fermer xo'jaliklarining boshqa korxona va tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarini tenglik asosida rioya etilishini nazorat qilish;

- fermerlarning tadbirkorlik erkinligi va huquqlarini har tomonlama muhofaza etish, qonunda ko'rsatilgan xuquqlari buzilishiga va ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyalashtirishning bozor tamoyillariga javob beradigan uslub va shakllarini shakllantirish;

- moliyaviy mablag'lardan foydalanishda fermer xo'jaliklarining mustaqilligini, barcha xarajatlarni o'z daromadlari hisobiga qoplashni ta'minlaydigan ishonchli tizimni shakllantirish;

- tijorat banklari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning fermerlikni rivojlantirishga yo'naltirayotgan kredit resurslarini ko'paytirishni har tomonlama rag'batlantirish;

- kredit tavakkalchiligini sug'urtalovchi institutsional tuzilmalarni keng rivojlantirish;

- bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish;

- qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab, barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini jadal rivojlantirish;

- fermerlarning barqaror daromad olishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi mutanosiblik, ya'ni "baholar pariteti"ni saqlab borish;

- ilg'or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;

- fermer mahsulotlarini sotishning eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish.

Fermer xo'jaliklari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi qonuni va o'z nizomi hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchiligi asosida yuritadi. Dastlab, fermer xo'jaliklari ustun darajada ularni tashkil etish imkoni katta zonalarda ko'proq rivojlantirildi. Ya'ni yer maydonlari yetarli, mehnat resurslari juda ko'p bo'lmagan yerlarda, zahira yerlarda ko'proq tashkil etildi. Keyingi yillarda iqtisodiy zaif, istiqbolsiz bo'lgan shirkatlar ham fermer xo'jaliklariga aylantirilmoqda. Fermer xo'jaliklari davlat yerlarida faoliyat ko'rsatadilar. Fermer xo'jaliklariga yer 50 yilgacha, ammo 30 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Fermerlar quyidagi sifat ko'rsatkichlarga javob berishi lozim:

- mehnatsevar bo'lishi lozim. Fermer na faqat mehnat qilishga yaroqli bo'lishi darkor, balki mehnat uning hayotiy ehtiyojiga aylanishi zarur. Faqat mehnatsevarlik fazilati tufayli fermer ishchi xizmatchilarining unumli mehnat faoliyatini tashkil qila oladi (demak u tashkilotchi ham bo'lishi kerak);
- dehqonchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak;
- agronomlik, tuproqshunoslik va agromuxandislikdan ogohlik;
- tashabbuskorlik;
- fermer menejerlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bozor sharoitida jamoani boshqarish mahorati va san'atiga ega bo'lish, yangi ish o'rinlarini yaratish, fermer xo'jaligini boshqarish strategiyalarini aniqlash qobiliyati rivojlangan bo'lishi lozim;

- yangilikka intiluvchanlik, navtorchilik. Yangi texnika va texnologiyalar, yangi agrobiznes g'oyalar, yangi turdagi mahsulot va xizmatlarni yaratish va amalda qo'llash;
- tavakkalchilikka baho berish qobiliyati rivojlangan bo'lishi kerak. Fermerlik bilan shug'ullanish jarayonida vujudga keladigan xavf-xatarlarni oldindan sezib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;
- marketing qoidalarini, bozorshunoslikni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Marketing tamoyillari, funktsiyalari, qoidalari, usul va uslublarini fermerlik faoliyatida qo'llash;
- mas'uliyatni o'z zimmasigi olish. Kompyuter savodxonligi;
- ma'naviy komillik;
- agoroiqtisodiy bilimdonlik.

Dunyo mamlakatlarida korxonalar hajmi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari, yer va geografik, inson omilini hisobga olgan holda iqtisodiy oqibat natijalariga ko'ra shakllanadi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Kanadada bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 215 gektar, AQSHda 145 gektar, Germaniyada 19,5 gektar, Belgiya va Gollandiyada 17,0 gektar, Italiyada 8,5 gektar yer to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklarini hajmini aniqlash maslasida bir traktorning yillik ish bajarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq deb tavsiya qilingan. Albatta fermer xo'jaliklarining hajmi uning iqtisodiy samarali ishlashini ta'minlashni inobatga olishi lozim. Ularni tashkil etishda barcha omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini shakllantirish va rivojlantirishning ob'yektiv zarurati bir qator siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'siri bilan belgilanadi. Siyosiy omil – qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotganlarning siyosiy erkinligini ro'yobga chiqarish. Siyosiy erkinlikni ro'yobga chiqarish fermerlarning o'z mulkiga ega bo'lishlari, o'z ishining xo'jayini bo'lishi, o'z qarashlarini erkin ifodalashi bilan belgilanadi. O'z qarashlarini erkin bildiradigan,

erkin ishbilarmon esa samarali faoliyat yurita oladi va mamlakatning iqtisodiy qudratini oshira oladi. Fermer xo'jaliklarini shakllantirish va rivojlantirishning iqtisodiy omillariga eng avvalo, mamlakatning oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash zarurati, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini iqtisodiy samarali shaklda tashkil etish kiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bozor talablariga moslashtirish, ularning iqtisodiy erkinliklarini kuchaytirish zarurati ham fermerchilikni rivojlantirishni ob'yektiv talab qiladi. Ijtimoiy omillarga qishloq xo'jaligida ishlayotganlarning iqtisodiy manfaatlarining yuzaga chiqishi, ularni o'zi xoxlagan ish bilan bandligini ta'minlashni yaxshilash kabilar fermerchilikni rivojlantirishga ob'yektiv ta'sir ko'rsatuvchi omillarga kiradi.

7.5. Dehqon xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi korxonalarining yana bir shakli dehqon xo'jaliklaridir. Dehqon xo'jaliklari aholining mustaqillikka qadar mavjud bo'lgan shaxsiy tomarqa xo'jaliklari rivojlanishi natijasida ularning o'rniga vujudga keldi. Ular 1990 – 2000 yillar davomida 2,3 mln.tadan 3,3 mln.taga yetdi. 2006 yilga kelib dehqon xo'jaliklarining soni 4,6 mln. tadan oshib ketdi. Yangi vujudga kelgan dehqon xo'jaliklari ixtiyoridagi sug'oriladigan o'rtacha yer miqdori 0,35 gektarni tashkil etdi. Oldin aholining shaxsiy tomorqa uchastkalari aksariyat holda 0,08 gektardan oshmas edi. 2001 yilning 1 yanvariga bo'lgan ma'lumotga qaraganda, mamlakatda 3322606 ta dehqon xo'jaligi bo'lib, ular 522592 gektar yerga ega. SHulardan, 1798401 tasi dehqon xo'jaligi sifatida qayta ro'yxatdan o'tdi, 800 mingdan ziyodi yuridik shaxs sifatida shakllandi.

Dehqon xo'jaligi oila mehnatiga asoslangan, asosan xonadon iste'moli uchun va mayda tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklardir. “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan qonunining 1-moddasida dehqon xo'jaligiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib

qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi"*.

Dehqon xo'jaliklari 2002 yilda 1973,4 ming tonna sabzavot (respublikada yetishtirilgan jami sabzavotning 74,8 foizi), 583,9 ming tonna kartoshka (80%), 292,7 ming tonna poliz (64%), 498,8 ming tonna meva (62,6%), 219 ming tonna uzum (35%), 766,4 ming tonna go'sht (91,1%), 3402,7 ming tonna sut (90,2%) va 751,8 mln. dona tuxum (60%) yetishtirdi. SHu yili dehqon xo'jaliklari mamlakatda yaratilgan qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 66 foizini, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlarining 43,4 chorvachilik mahsulotlarining 89 foizini ishlab chiqardi. 2004 yilda dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 62,1 foizini, 2005 yilda 60,2 foizini ishlab chiqardi. Yaqin kelajakda respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida dehqon xo'jaliklarining ulushi keskin kamayishi kutilmayapdi. Albatta fan-texnika taraqqiyoti, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining o'sishi, fermer xo'jaliklarining kuchayishi oqibatida dehqon xo'jaliklarining respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Lekin bu kamayish nisbatan sekinlik bilan uzoq yillar davomida amalga oshadi. Bu jarayonning tezlashiga tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Dehqon xo'jaliklarining faoliyati 1998 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni asosida olib borilmoqda. Dehqon xo'jaliklari qonunda belgilangan tartibda yuridik shaxs maqomini olishi mumkin. Yuridik shaxs maqomini olgan dehqon xo'jaligida ishlayotganlar ixtiyoriy ravishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi pensiya jamg'armasiga badallar to'lab borishlari mumkin. Shunday hollarda pensiya jamg'armasining tuman bo'limlarida ularga mehnat daftarchasi belgilangan tartibda yuritiladi.

Dehqon xo'jaliklari qishloq aholisini ijtimoiy foydali mehnatga va tadbirkorlikka jalb etish yordamida qishloq joylardagi (aholi uy xo'jaligidagi)

* O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. –T.: O'zbekiston, 1998. 3b.

resurslardan samarali foydalanish maqsadida tashkil etilmoqda. Dehqon xo'jaliklari aholining ish bilan bandligini oshiradi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'payishiga olib keladi. Natijada, mamlakatning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshiradi va oziq-ovqat xavfsizlini ta'minlashda ijobiy rol o'ynaydi.

Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida bir qator afzalliklarga ega. Bu afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. ishlab chiqarish hajmining kichikligi tufayli bozordagi talab va taklifning o'zgarishiga nisbatan tez moslashadi hamda ko'p mablag' sarflamay, o'z faoliyati yo'nalishlarini qayta tashkil eta oladi;
2. xalqimizda qadimdan shakllanish kelayotgan dehqonchilik madaniyatini avloddan-avlodga o'tkazish imkonini beradi;
3. oila a'zolari mehnatiga tayanish uy bekalari, qariyalar va bolalar mehnatidan ham unumli foydalanish imkonini yaratadi;
4. xususiy mulk egaligi hamda yerning meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi mulkdan (erdan) samarali foydalanish uchun imkon beradi;
5. yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi rolini o'ynaydi.

Dehqon xo'jaligini davlat ruyxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357- qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida NIZOM"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari tuman hokimligida davlat ro'yxatidan o'tadilar. Buning uchun ular tuman hokimligi qoshidagi Inspeksiya quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

1. Ariza.

2. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yig'ilishining yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi oliy boshqaruv organi yoki ish beruvchisi (ma'muriyati)ning dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.

3. Notarial tasdiqlangan Nizomning ikkita asl nusxasi.

4. Vakolatli shahar (tuman) hokimiyati organlari tomonidan berilgan xo'jalik nomini tasdiqlovchi hujjat.

5. Hokimiyat qarori bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining yer uchastkasi berish haqidagi qarori.

6. Muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun beriladigan arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yig'ilishining yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi boshqaruv organi yoki ish beruvchisi (ma'muriyati)ning dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.

2. pasport nusxasi.

Dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur hujjatlar bo'lajak dehqonning o'zi yoki shartnoma asosida tuman hokimligining dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori ariza beruvchi ariza bergan kundan boshlab 7 (etti) ish kunida, tuman hokimligining dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi.

Shundan so'ng tuman hokimligi yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaligiga «Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida»gi guvohnoma va tuman hokimiyati muhri bilan tasdiqlangan «ro'yxatga olingan» belgisiga esa ta'sis xujjatlarini hamda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi. Ushbu tartib huquqiy shaxs maqomida tashkil etiladigan dehqon xo'jaliklariga taalluqlidir. Dehqon xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ruyxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo'jaligining tarkibi, xo'jalik boshlig'i yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek, xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan) to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib qo'yadi.

Dehqon xo'jaligining faoliyati xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo'jaligidagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin. Qonunga muvofiq tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun dehqon xo'jaligida sarflangan ish vaqti O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari nafaqa jamg'armasi badallari to'lab borilgan taqdirda mehnat stajiga kiritiladi. Dehqon xo'jaligi a'zolari dehqon xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatida shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi shart.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi.

Dehqon xo'jaliklari ixtiyoriylik asosida, shu jumladan, ulushli (pay) asosda mahsulot yegishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'sinidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha kooperativlarga (shirkatlarga), jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega.

Agarda shirkatlar va fermer xo'jaliklari asosan tovar ishlab chiqaruvchi yirik qishloq xo'jaligi korxonalari hisoblansa, dehqon xo'jaliklari oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanib, mayda tovar ishlab chiqaruvchi sub'yekt sanaladi. Dehqon xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot eng avvalo oilaning o'z ehtiyojlari uchun ishlatiladi, oiladan ortgan qismigina sotilishi mumkin. Yirik xo'jaliklar foydalana olmaydigan imkoniyatlardan, resurslardan dehqon xo'jaligi samarali foydalanadi. Uning yashovchanligi ham shunda. Lekin, dehqon xo'jaligi yirik xo'jaliklar erishgan

yutuqlar asosidagina rivojlana oladi. Bunga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, chorva mollarining sermahsul zotlari yoki o'simlik turlarining yangi, serhosil navlari fan va texnika taraqqiyoti natijasida yirik korxonalarda vujudga keladi. Demak, qishloq xo'jaligining kelajagi shirkatlar va fermer xo'jaliklari, yirik davlat xo'jaliklari rivojlanishi bilan (dehqon xo'jaligining yutuq va imkoniyatlarini kamsitmagan holda) belgilanadi.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat majmuasining asosini – yadrosini qishloq xo'jaligi tarmog'i tashkil etadi. Agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlari qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining bir qismi qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaradi va yetkazib beradi, ikkinchi qismi uning mahsulotlarni tayyorlaydi va qayta ishlaydi, uchinchi esa, tayyor mahsulotlarni sotadi yoki iste'molchilarga yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi umuman mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Agrosanoat majmuasi oxirgi mahsuloti miqdori, sifati, tannarxi va narxi darajasi asosan qishloq xo'jaligining natijalari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining eng katta tarmog'i hisoblanib, u juda yaxshi rivojlangan. Mamlakat qishloq xo'jaligi o'z oldida turgan asosiy vazifalarni bajarib kelmoqda. Endilikda, uni yanada rivojlantirish zarurati va imkoniyatlari mavjud. Ishlab chiqarishning texnik ta'minoti, yangi texnologiyalar, yangi ekin turlari va navlari bilan ta'minlashni kuchaytirish zarur. Tarmoqda mehnatning unumdorligini oshirish, u bozor talablari asosida rivojlanishi uchun sohada iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish asosan shirkatlar, fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari shaklida vujudga keltirildi. Ularning huquqiy asoslari yaratildi. Mustaqillik yillarida mamlakat qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmog'i tarkibi o'zgartirildi. Natijada g'alla

mustaqilliga erishildi. Mamlakat qishloq xo'jaligida dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Tayanch iboralar

Mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mehnatni qurollanish darajasi, fond bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, yer va suv fondi, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Tarmoq" deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy, qo'shimcha va yordamchi tarmoqlar.
3. Qishloq xo'jaligining ahamiyati, tarkibi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Qishloq xo'jaligining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi o'rni.
5. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
6. SHirkat xo'jaliklari, mohiyati va ularni rivojlanishi.
7. SHirkat xo'jaliklarining tashkiliy – iqtisodiy asoslari.
8. Fermer xo'jaliklari, mohiyati va ularni rivojlanishi.
9. Fermer xo'jaliklarining tashkiliy – iqtisodiy asoslari.

10. Dehqon xo'jaliklari, mohiyati va ularni rivojlanishi.
11. Dehqon xo'jaliklarining tashkiliy – iqtisodiy asoslari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
2. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinki: Obhie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
3. Serova ye. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.
4. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) –T., TDIU, 2004.-160 b.
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
7. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
8. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
9. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremntsova. T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2001.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004,
<http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>

2. Petraneva G.A., *Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve*, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A. Popov. *Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy*, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA. Kovalenko, *Ekonomika selskogo xozyaystva*, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – *Ekonomika R. Uz.*

8-BOB. QISHLOQ XO'JALIGI YER FONDI VA UNDAN FOYDALANISH

8.1.Qishloq xo'jaligi yer fondining tarkibi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Yer barcha ishlab chiqarilayotgan boyliklarning manbasi ekanligi ko'p martalab e'tirof etilgan. Sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari uchun yer imoratlar turadigan oddiy baza, qishloq xo'jaligida esa asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Ya'ni kishilar yerga ishlov berish yo'li bilan ishlab chiqarishga ta'sir etadi. Yer bir paytda mehnat predmeti (mehnat yo'naltiriladigan ob'yekt sifatida) va mehnat quroli (erda zarur biologik sharoitlarni tug'dirish natijasida o'simliklar rivojlanadi) sifatida qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi. Yer har bir xalqning asosiy boyligidir.

BMT ning Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning ma'lumotlariga ko'ra yer yuzining muzliklardan holi bo'lgan qismining 25 foiziga ishlov berish imkoniyati mavjud. Ushbu tashkilotning mutaxassislarining h'isoblariga ko'ra qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatish mumkin bo'lgan maydon 3,4 mlrd. gektarni tashkil etadi. Hozirda yer yuzida jami bshlib 1,57 mlrd. gektar yerga ishlov berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 447,4 mln. gektar yer maydoniga ega. Respublika qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonilarining 81 foizi yoki 26,6 mln. gektarini yaylov va pichanzorlar tashkil etadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 16 foizi haydaladigan yerlardir. Mamlakatning lalmikor yerlari 6,6 mln. gektar. Shundan 3,0-3,2 mln. gektari haydaladi va ularda lalimi dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Qolgan qismidan namlikning juda kam bo'lganligi sababli foydalanilmaydi. Yuqoridagilardan hulosa shuki Respublikada mavjud yer maydonlaridan maksimal foydalanishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Respublika yerining bir qismi shaharlar va aholi punktlari, bir qismi transport va kommunikatsiyalar, daryo va suv havzalar bilan band yerlar, o'rmon xo'jaligi yerlari, harbiy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar va davlat zahira fondidan iborat. Biz uchun

eng muhimi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisoblanadi. Respublikaning yer manbalari cheklangan va u qishloq xo'jaligi tarmog'ida foydalanadigan resurs sifatida kamayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 8-moddasida yer fondi toifalari belgilab qo'yilgan. "O'zbekiston Respublikasining yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayin etilgan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dovdarxtnlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;
2. aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;
3. sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;
4. tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, realizatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalanadigan yerlar;
5. tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;
6. o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyoji uchun berilgan yerlar;
7. suv fondi yerlari – suv ob'yektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv ob'yektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;
8. zahira yerlar.”*

* O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari. –T.: "Adolat", 1999.-448 b. (11bet).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayin etilgan yerlarga haydaladigan yerlar, yaylovlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar kiradi.

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1). Yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlaguncha ko'paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to'g'ri yo'l – mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir. Bundan tashqari sanoatning, kommunikatsiyaning o'sishi aholining ko'payishi tabiiy holda bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydoni qisqarishiga olib keladi. Qolaversa, insoniyat yerdan to'g'ri foydalanmasligi oqibatda ularning qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketish xollari ham yuz bermoqda. Taraqiyotning tuproq eroziyasi, sho'r bosish, kasalliklarga chalinish kabi salbiy oqibatlarini kamaytirish har bir davlatning, yerdan foydalanuvchilarning birinchi galdagi vazifasidadir.

2). Yer – tabiat mahsuli. Bu ham bizning oldimizga qator vazifalarni qo'yadi. Uni yaratishda inson mehnati aralashmagan. Albatta bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib yerning bahosi shakllanadi. Lekin bu baho uning haqiqiy narxi qancha ekanligini aniq belgilay olmaydi. yerni oldi-sotdi jarayonlarida bu xususiyalarni hisobga olish lozim. Bozor munosabatlarining rivojlanishi yerni oldi-sotdi ob'yektiga aylantiradi. Bundan tashqari yerlarni iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish uchun qishloq xo'jaligidan ajratib beryotganda uning narxini bilish ijobiy ahamiyatga ega. Imkoni boricha qishloq xo'jaligidan yer boshqa sohalar uchun ajratilganda past unumli, qishloq xo'jaligi uchun qimmatli past yerlardan ajratish maqsadga muvofiq. Shu sababli yerning bozor narxini aniqlash tartibi mavjud. yerning narxi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yern = \frac{Yerr}{Sf} \times 100$$

Bunda: yer n – yerning narxi, so'm;

Yer r – yer rentasi, so'm;

Sf - ssuda foizi.

3). Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Bu degani yerdan o'z bilganimizcha abadiy foydalanish mumkin degani emas. Balki yerdan to'g'ri va oqilona foydalangandagina u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun abadiy bo'lishi mumkin. yerdan noto'g'ri foydalanish esa uning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqsiz holga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, 2005 yilning 1-avgusti ma'lumotlariga qaraganda birgina farg'ona vodiysida 2000 yilda mavjud bo'lgan 366 ming gektar sug'orilib dehqonchilik qiladigan yerlarning 9 ming gektari ekin ekish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan.

4). Turli joylarda mavjud yer maydonlari turli sifatga, ya'ni unumdorlikka ega. yerning tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorligi bir – biridan farqlanadi. Tabiiy unumdorlik – yerning inson aralashuvisiz tabiat tomonidan vujudga kelgan hosil bera olish qobiliyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sun'iy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublika yerlarining tabiiy unumdorligi pasayib bormoqda. Tuproqda mavjud bo'lgan gumus moddasining pasayishi kuzatilmoqda. Buning oldini olishning asosiy yo'llari yerga dam berish, yerlarning holatini hisobga olib qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish, yerga organik o'g'itlarni (har bir gektarga kamida 15 tonanadan) solish, sug'orishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish zarur. Tabiiy va sun'iy unumdorlik birgalikda (ularning yig'indisi) iqtisodiy unumdorlik tushunchasini beradi.

5). Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin emas. Demak qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni yaxshilash uchun har bir xo'jalik (shirkat, fermer va dehqon) hududida qanday sifatga ega yer bo'lsa shunga qarab ekin turlarini joylashtirish lozim. Bu xususiyat qishloq xo'jaligi korxonalariga faoliyat uchun o'rnatiladigan soliq tizimini ishlatishda ham hisobga olinishi talab qilinadi.

Bularning barchasi mavjud yerlarda qaysi ekin turlarini joylashtirish, texnikaning qanday turlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning hajmi qanday bo'lishi maqsadga muvofiqligi to'g'risida inkor etib bo'lmaydigan talablarni keltirib chiqaradi.

Er to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Davlat yer kadastrida mujassam etiladi. Davlat yer kadastri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

erdan foydalanuvchilarni davlat ro'yxatiga olish;
erni miqdor va sifat jihatdan uchetga (hisobga) olish;
erni baholash (tuproq bonitirovkasi va iqtisodiy baholash).

8.2. Qishloq xo'jaligida yer fondlaridan foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi ekan, undan qanday (samarali, samarasiz, yaxshi yoki yomon) foydalanayotganligimizni bilishimiz zarur. yerdan foydalanishning darajasi, samaradorligini aniqlashning usullari olimlar tomonidan yetarli darajada chuqur o'rganilgan. Iqtisodiy fan qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ikki guruhga bo'lib o'rganadi. Birinchi guruhga yerdan foydalanish darajasini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

1). Yer fondining tarkibi (strukturasi). Jami yer maydonida qishloq xo'jaligiga yaroqli (qishloq xo'jaligiga tayin etilgan) yerlarining salmog'i, (foizlarda ifodalanadi). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Qx.yer.sal. = \frac{Qx.te.yer}{J.yer.m} \times 100$$

Bunda: Qx yer sal. – qishloq xo'jaligiga yaroqli yer salmog'i, %

J. yer m. - jami yer maydoni, ga

Qx. Te. yer. - qishloq xo'jaligi uchun tayin etilgan yer maydoni, ga

Bu ko'rsatkich mavjud (mamlakatda, regionda, xo'jalikda) yer maydonlarining qancha qismi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli (yoki qishloq xo'jaligiga tayin

etilganligini) ekanligini bildiradi. Turli xo'jaliklarning, mamlakat va regionlarning umumiy yer maydonlari bir miqdorda bo'lishiga qaramasdan qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli bo'lgan maydonlari turlicha bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlari kam miqdorda bo'gan davlatlar, region va xo'jaliklar bu masalaga alohida qarashlari zarur. Ular har bir gektar yerni avaylab asrashi va qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlarga o'tib ketishini juda qattiq nazoratga olishlari zarur bo'ladi. Mamlakat, mintaq (hudud) va xo'jaliklarda yerlarni qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqqa o'tib ketishi faqatgina davlat zarurati, imkonsiz hollarda yoki juda katta samara keltirishi mumkin bo'lgan holatlardagina amalga oshirilishi kerak.

2). Qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini ko'rsatadi. Jumladan, jami qishloq xo'jaligi yerlarida haydaladigan yer salmog'i quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Qx.yer.tar. = \frac{Qx.yer.turlari}{JQx.yer.m.} \times 100$$

Bunda: Qx yer tarkibi – qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi, %

Qx yer turlari - qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni, ga

JQx. yer m. - jami qishloq xo'jaligi yer maydoni, ga

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibida haydaladigan yerlarning ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning salmog'iga qarab tegishli xulosalar chiqaramiz. Xo'jalikda haydaladigan, ayniqsa (tabiati issiq o'lkalar sharoitida) sug'orilib dehqonchilik qiladigan yerlarning ulushi qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi (samarali) hisoblaymiz. Olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki 1 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yer 5-7 gektar lalmi yerga teng mahsulot berar ekan. Boshqacha qilib aytganda 1 gektar sug'orilib dehqonchilik qilinadigan 6-7 gektar lalmi yerga teng. Agarda yer maydonlarining cheklanganligini, har bir ga yerni haydash, ekish, ishlov berish va hosilni yig'ib olish harajatlarini hisobga olsak

sug'oriladigan yerlarning naqadar qadr-qimmati yuqori ekanligini ko'ramiz. Demak, imkon darajasida sug'orilib dehqonchilik qilinadigan maydonlarini asrash zarurati kelib chiqadi. Bozor sharoitida u boshqa yerlarga nisbatan qimmat turadi. Demak, unga narx belgilashda, boshqa maqsadlar uchun ajratganda yoki soliq yukini belgilaganda bu omilni hisobga olib zarur bo'ladi.

3). Yerdan foydalanish koeffitsienti (martaliligi). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.k. = \frac{X_{em, ga}}{J.e.m., ga}$$

Bunda: yer f.k. – yerdan foydalanish koeffitsienti, marta

H e m. - haqiqatda ekilgan ekin maydoni, ga

J.e.m - jami ekin maydoni, ga

Ushbu ko'rsatkich har bir mamlakat, hudud va xo'jaliklarda bir biridan keskin farq qiladi. Uning darajasi mamlakatning rivojlanganlik darajasi, aholining va yer maydonlarining miqdori kabi ko'plab omillar ta'sir etadi.

Er fondidan foydalanish ko'rsatkichlarining ikkinchi guruhiga iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kirib ularning o'zi natural va qiymat ko'rsatkichlarga bo'linadi. Natural ko'rsatkichga qishloq xo'jaligi ekin turlarining hosildorligi kiradi. Hosildorlik quyidagicha aniqlanadi.

$$X = \frac{Y_{ax}}{E_{m., ga}}$$

Bunda: H – ekin turlarining (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) hosildorligi, s/ga

YAh - yalpi (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) hosil, s

Em - ekin (paxta, bug'doy, makka, uzum, meva...) maydoni, ga
Erda foydalanishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlash maqsadga muvofiq:

1). Yer maydoni birligi hisobiga olingan yalpi mahsulot, so'm. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.s. = \frac{Yam., so'm}{J.e.m., ga}$$

Bunda: yer f.s. – yerdan foydalanish samaradorligi, so'm

Ya.m. – yalpi mahsulot, so'm

Jem - jami ekin maydoni, ga

Bu ko'rsatkich doimo o'sib bora ijobiy rivojlanish hisoblanadi. Albatta uning darajasiga juda ko'plab omillar (iqtisodiyotning, texnologiya rivojlanganlik darajasi, inflyatsiya darajasi, ekin turlari va mahsulotlarga shakllanadigan narxlar darajasi....) ta'sir etadi.

2). Yer birligi hisobiga olingan foyda miqdori, so'm. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Yerf.s. = \frac{J.f., so'm}{J.e.m., ga}$$

Bunda: yer f.s. – yerdan foydalanish samaradorligi, so'm

J.f. –jami olingan foyda (yoki sof foyda), so'm

Jem - jami ekin maydoni, ga

Ushbu ko'rsatkich natijalari ham o'sib bora holdagina ijobiy sanaladi. yer birligi hisobiga olingan foyda miqdoriga ta'sir qiladigan omillar juda ko'p.

Albatta, yerdan ajratmagan holda suv resurslaridan foydalanishni ham o'rganish lozim. Ayniqsa, mamlakatimiz uchun suv resurslarining ahamiyati katta. SHu sababli 1 metr kub suv hisobiga olingan mahsulot miqdori undan foydalanishning samarasini bildiradi. Bu ko'rsatgichlarni natura va qiymat holida hisoblash mumkin.

8.3. Yerdan foydalanish darajasi va samaradorligini oshirish yo'llari

Yer va suv nafaqat iqtisodiy omil u bir paytning o'zida tabiiy resurs ham hisolanadi. O'zbekiston Respublikasida yer va suv resurslari umummilliy boylik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”^{*} deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi uchun yer va suv resurslaridan samarali foydalanish juda katta siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Tabiiy resurslarning, jumladan yer va suvdan foydalanishning muhimligi to'g'risida to'xtalib O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” asarida “... tabiiy resurslarni qayta tiklash yil sayin tabora qiyinlashib borayotgan paytda biz bu resurslarga ko'proq ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishimiz zarur. Buning uchun iqtisodiy omillardan kengroq foydalanishimiz, soliqlar orqali hammani tabiiy va xomashyo resurslaridan eng ko'p naf tegadigan tarzda foydalanishga o'rgatmog'imiz kerak”^{*}, - deb ta'kidlagan. yer va suvdan samarali, oqilona foydalanish kelajak talab qilayotgan zaruratdir. yer va suv resurslaridan foydalanish darajasi va samarasini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Eng avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yer va suv resurslarining talabi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda joylashtirish lozim. Masalan, suv resurslari cheklangan regionlarda sholi ishlab chiqarishni joylashtirish maqsadga muvofiq

^{*} O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1999,-32 b. (13 bet)

^{*} I.Karimov. “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida”.-T.: O'zbekiston, 1996.-172b.

emas. Katta miqdordagi suvni talab qiladigan ekinlarni sho'rlangan yerlarga joylashtirish ham samaradorlikni pasayishiga sabab bo'ladi. Albatta, mamlakat oziq – ovqat havfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda bozor talab qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va bunda aholining ehtiyojini unitmaslik talab qilinadi. SHunga qaramasdan yer va suv resurslarining holatini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni tashkil etish ma'lum salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, kuchli sho'rlangan yerlarga kuzgi don ekinlarini joylashtirish yerning unumdorligini pasaytiradi, sho'rlanishni yanada kuchayishiga olib keladi va yerdan foydalanish samradorligi pasayadi. Bu holatning uzoq davom etishi ushbu yer maydonlarining qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun mutloq yaroqsiz holga kelib qolishiga sababchi bo'lishi mumkin. CHunki kuzgi donli ekinlar ekilgan maydonlarda sho'r yuvish ishlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Ma'lumotlarga qaraganda 2004 yilda Respublikada mavjud qishloq xo'jaligi yerlarining 47,2 foizi sho'rlanmagan, 17,2 foizi o'rtacha sho'rlangan va 4,2 foizi kuchli sho'rlangan. O'zbekiston qishloq xo'jaligi yerlari meliorativ holatiga ko'ra, 38 foizi yaxshi, 53,4 foizi qoniqarli va 8,6 foizi qoniqarsiz, meliorativ holati yomon yerlardir. Bu holat yomonlashib ketishining oldini olish kerak.

- Erlarning bir sifat holatidan ikkinchi holatga o'tishi umumiy holda yer transformatsiyasi deyiladi. yer transformatsiyasi ijobiy (yomon yerlarning yaxshi yerlar safiga o'tishi) va salbiy (yaxshi yerlarning yomon yerlar safiga o'tishi) bo'ladi. Imkon boricha salbiy yer transformatsiyasiga yo'l qo'ymaslik lozim. yer islohotlarini to'g'ri o'tkazish ham yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi. yer duch kelgan kishiga emas, balki yerda ishlash tajribasi, bilimi bor kishilarga, xo'jaliklarga berilishi kerak. Bu borada yerdan olingan mahsulotga egalik qilish sharoitlarini to'g'ri hal etish talab qilinadi. Aks holda yer va suvdan samarali foydalanib bo'lmaydi.
- Eng zarur omillardan biri yer va suvdan foydalanuvchilarning samaradorlikni oshirganliklari uchun manfaatdorligini ta'minlashdir.

- Tanlangan ishlab chiqarish turini texnologiyalarini buzmasdan bajarish, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini o'z vaqtida samarali o'tkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, yerdan foydalanish samaradorligini oshiradigan muhim omillardan biri hisoblanadi.
- Yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ilg'or texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq. Masalan, suvdan foydalanish samaradorligi tomchilatib yoki yomg'ir usulida sug'orishda oddiy bostirib sug'orishdigi nisbatan ancha katta. Suv resurslari cheklangan holda bu texnologiyalarning ahamiyati keskin oshadi. O'zbekiston Respublikasi suv resurslari juda cheklangan bo'lib, hozirda foydalanilayotgan suvning 12-13 foizi mamlakat hududida vujudga keladi. Qolgan qismi Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari hududidan keladi. O'zbekistonda 50 daryo bo'lib, shulardan faqat 10 tasigina 150 km uzunlikda. Mamlakatda juda katta kanal va ariqlar tizimi yaratilgan. Ularning uzunligi 156 ming km.ni tashkil etadi. Ana shu irrigatsiya tizimidan samarali foydalanish mamlakatda yer resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshiradigan omillardan biridir.
- Fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ham yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarishga paxta va bug'doyning tepishar, suvga chidamli navlarini joriy etish bunga misol bo'la oladi.
- Ekologik muhit talablarini hisobga olgan holda kimyolashtirishni rivojlantirish ham yer va suv resurslarining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.
- Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni suv va shamol erroziyasidan asrash ham juda muhim tadbirlardan biridir. Masalan, ekin maydonlarining 2,1 mln. gektari shamol, 0,7 mln. gektari suv erroziyasiga, shuningdek, mavjud 22,1 mln. gektar yaylovning 6 mln. gektari shamol va 3 mln. gektari suv erroziyasiga uchragan. Bu holat agrosanoat majmuasi iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli yerlarni asrash asosiy vazifalardan biridir.
- Yer va suvdan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Hozirda yer banitetiga qarab o'rnatilgan soliq yuklamalarini

ta'sirini kuchaytirish choralarini ko'rish, uni doimiy ravishda takomillashtirib borish talab qilinadi. yerdan foydalanuvchi uning unumdorligini, banitetini oshirganligi uchun rag'batlantirilishini yanada ta'sirini kuchaytirish undan foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning ilg'or usullarini (tomchilatib, yomg'irlatib, qator oralab va x.x.) ishlab chiqarishga joriy etish.
- Yerdan samarali foydalanish uchun doimiy monitoring tashkil etish kerak. yer monitoringi yerning holatini nazorat qilib turish tizimidir. Monitoring orqali qimmatli ma'lumotlar olish va tegishli chora-tadbirlar ko'rish mumkin.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. U, ishlab chiqarish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni yuritish katta salbiy oqibatlariga olib keladi. yerlarning bir sifat ko'rinishidan ikkinchisiga o'tishi yer transformatsiyasi deb ataladi. yer transformatsiyasi ijobiy va salbiy bo'ladi. Imkon darajasida salbiy yer transformatsiyasiga yo'l qo'ymaslik kerak. Hozirda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlarining bir qismi sho'rlangan, yana bir qismi shamol va suv erroziyasiga uchragan. YOmon tomoni shundaki, bu holatlar keyingi yillarda ko'payish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

Yerdan foydalanishning ko'rsatkichlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga undan foydalanishning darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar, ikkinchi guruhga esa yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar kiradi. yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishda hisoblanadi.

Yerdan foydalanishning darajasiga va samaradorligiga ko'pgina omillar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Ularning eng asosiylaridan biri yerlarning tarkibini yaxshilashdir. Sug'oriladigan yerlarning salmog'ini oshirish, yerdan foydalanishning martaliligini ko'paytirish, ilg'or agrotexnologiyalarni qo'llash, tejamkorlik, yangi,

serunum texnikalardan foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, serhosil ekin navlarini ishlab chiqarishga joriy etish kabi omillardan to'g'ri foydalanish yerdan foydalanishning samaradorligini oshiradi.

Tayanch iboralar

Yer va suv fondi, mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, avtomatlashtirish, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, region iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mehnatni qurollanish darajasi, fond bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yer qishloq xo'jaligida nima uchun asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi?
2. Qishloq xo'jaligida yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Yer transformatsiyasi nima?
4. Yer transformatsiyasining qanday turlari bor?
5. Yerdan foydalanishning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
6. Yerdan foydalanishning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
7. Yerdan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llarini belgilang
8. Yerdan foydalanishning darajasini oshirish yo'llarini belgilang
9. O'zbekiston Respublikasi yer fondi va uning taqsimlanishi.
10. Yer munosabatlarini rivojlantirish yo'nalishlari

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi.-T.: Adolat, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonuni.-T.: Adolat, 1999.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni.-T.: Adolat, 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni.-T.: Adolat, 1999.
5. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.
6. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
7. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
8. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
9. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
- 10.Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
- 11.Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
- 12.Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
- 13.Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

14. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremntsova. –T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediya», 2001.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A. Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA. Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

9-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINING MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

9.1. Mehnat, mehnat resurslari tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi

Ishlab chiqarish jarayonining zaruriy qismi mehnatdir. Mehnat insonga xos xususiyat. Insonning jismoniy va aqliy faoliyati mehnat hisoblanadi. Ishni traktorlar, mashinalar, ishchi hayvonlar bajarishi mumkin. Mehnat esa faqat ongli faoliyat natijasidir. Ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan mehnatning holatiga bog'liq. Agarda mehnat ongli ravishda qilinayotgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Har bir mamlakat aholisining mehnat qilish qobiliyatiga ega qismi uning mehnat resurslarini tashkil etadi. O'zbekiston aholisining 55,2 foizidan ko'prog'i mehnat qilish qobiliyatiga ega. O'zbekistonda mehnat resurslarining soni 2002 yilda 12346 ming kishini, shundan iqtisodiy faol aholi 9333,2 ming kishini tashkil etdi. 2005 yilda mehnat resurslari 14434,4 ming kishini, shundan, iqtisodiy faol aholi 10224,0 ming kishini tashkil etdi. Respublikada band aholining 67,1 foizi moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat qiladi. 2005 yilda savdo, umumovqatlanish va tayyorlov tizimida 5,4 foiz, transport va aloqada 5,2 foiz, sanoat va qurulishda 5,0, nomoddiy sohada 16,7 foiz ishlamoqda.

Iqtisodiy fan "mehnati resurslari", "iqtisodiy faol aholi", "iqtisodiyotda band bo'lgan aholi" kabi tushunchalarni bir biridan farqlaydi. Bu tushunchalar mohiyati va o'lchami bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Mehnat resurslari miqdoriy jihatdan iqtisodiy faol va iqtisodiyotda band bo'lgan aholiga nisbatan katta. Iqtisodiy faol aholi esa iqtisodiyotda band bo'lgan aholidan miqdor jihatdan katta.

Nafaqa yoshidagilar va mehnat qilish qobiliyatiga ega o'smirlar ham aholining kattagana qismini tashkil etadi. Lekin jamiyat uchun faol mehnat resurslari 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar va 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar hisoblanadi. Iqtisodiy fan shu mehnat resurslaridan eng faoli bo'lganlarni, ya'ni 22 yoshdan 33 yoshgacha bo'lgan kishilarni alohida o'rganadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari mehnat resurslari asosiy va yordamchi guruhlariga bo'linadi. Asosiy mehnat resurslariga 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, yordamchi mehnat resurslarga 14-16 yoshdagi o'smirlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi. Ulardan asosan qishloq xo'jaligi yilining ayrim davrlarida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslaridan foydalanish shu tarmoqning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy xarakterga ega. Natijada ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, yilning ayrim davrlarida mehnat resurslarining bo'sh qolish holati yuz beradi. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos tushmasligi ham mehnat resurslarining vaqtinchalik bekor qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, paxta chigiti ekilgandan keyin to, u unib chiqquncha 15-20 kun o'tadi. Bu davrda ishchi xodimlar bekor qoladi.

Qishloq xo'jaligida yer asosiy vosita bo'lganligi uchun ishlab chiqarishni joylashtirish, ixtisoslashishni tanlashga ta'sir qiladi. Bu esa, o'sha ishlab chiqarish turi talab qiladigan mehnat resurslarini talab etadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish yirik maydonlarda tashkil etiladi. SHunga yarasha mehnatni tashkil etish ham ma'lum talablarga javob beradigan qilib tanlanadi. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari nisbatan past malakaga ega. Ularning bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib o'tish darajalari ham juda past. Bu muammo ham ular bor joyda ishlab chiqarishni, turli xizmat turlarini imkoni boricha maksimal darajada tashkil etishni talab qiladi.

Mamlakat band bo'lgan mehnat resurslarining 27 foizi davlat sektorida, 73 foizi esa nodavlat sektorida xizmat qilmoqdalar.

9.2. Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari

Mehnat resurslardan foydalanishning darajasi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini to'liq ko'rsata oladigan integral ko'rsatkich yo'q. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Ko'rsatkichlar tizimi birgalikda mehnat resurslaridan

foydalanishning darajasi va iqtisodiy samaradorligi to'g'risida mukammalroq ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Qishloq xo'jaligida resurslaridan foydalanishning darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

1). Har bir ishchi xodimning bir yilda ishlagan kunlari. Odatda, qishloq xo'jaligida erkaklar bir yilda 280 kun, ayollar 240 kun ishlasa normal hisoblanadi.

2). Yil davomida ishlashi lozim bo'lgan kundan foydalanish koeffitsienti. Bu haqiqatda ishlagan kunlarni me'yor bo'yicha ishlashi lozim bo'lgan yillik ish kunlari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. Xo'jalikning mehnat resurslari holatini o'rganish uchun mehnat resurslari balansi tuziladi. Balans ma'lumotlari xo'jalikning iqtisodiy rivojlantirilishida ishlatiladi.

3). Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yil davomida bir ishchi xodim hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni sarflangan kishi soatlariga nisbatan aniqlash mehnatning samaradorligini to'g'riroq aniqlash imkonini beradi.

4) Mehnat resurslarning qo'nimsizlik koeffitsienti

$$Kt = \frac{MR_{ab}}{MR_s}$$

Bunda: Kt – mehnat resurslarning qo'nimsizlik koeffitsienti;

MR_{ab} – o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MR_s – mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni.

5) Kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsienti

$$K_m = \left(1 - \frac{MR_{ab}}{MR_{sb}} + \frac{MR_{ya}}{MR_{sx}}\right) \times 100$$

Bunda: K_m - kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsienti

MRab - o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MRsb va MRsx – bazis va hisobot yillarda (davrda) korxonada ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni.

6) Mehnatni mavsumiylik koeffitsienti

$$MRmk = \frac{MXmaks}{MXo'r}$$

Bunda: MRmk – mehnatning mavsumiylik koeffitsienti;

MX maks – oylik mehnatning maksimal sarfi;

MX o' – mehnatning oylik o'rtacha sarfi.

7) Ishsizlik darajasi

$$Id = \frac{Is}{IFs(IK)} \times 100$$

Bunda: Id – ishsizlik darajasi, %

Is – ishsizlar soni, kishi

IFs (IK) – iqtisodiy faol aholi yoki ishchi kuchlari soni, kishi

8) Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi

$$MRt = \frac{MR}{Yer, ga}$$

Bunda: MRt – 100 gani mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi;

MR – Ishchi xodimlar soni, kishi;

yer – yer maydoni (jami, ekin, sug'oriladigan yer maydonlari), ga.

9) Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

$$MR_{tk} = \frac{M_{rm}}{MR_r}$$

Bunda: MR_{tk} - Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

M_{rm} – mavjud mehnat resurslari soni, kishi;

MR_r – rejalashtirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun talab qilinadigan mehnat resurslari, soni.

Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanib, ularni har biri mehnat resurslaridan foydalanishning ayrim tomonlarini ifoda etadi. Ularni birgalikda aniqlash va tahlil qilish to'g'ri xulasalar chiqarish va foydali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

9.3. Mehnat unumdorligi va uni hisoblash usullari

Mehnat unumdorligi iqtisodiy kategoriya bo'lib, konkret sarflangan mehnatning natijaviyligi yoki samaradorligidir. Ayrim iqtisodchilar mehnat unumdorligini vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, deb biladilar. Boshqalari esa mehnat unumdorligi deganda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdorini tushunadilar. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mehnat unumdorligi konkret sarflanayotgan mehnatning ma'lum vaqt ichida mahsulot yarata olish qobiliyatidir, degan tushunchalar ham berilgan.

Aniq sarflangan mehnatning natijaviyligi mehnat unumdorligidir degan tushuncha mehnat unumdorligining mazmunini boshqalariga nisbatan aniqroq ifoda etadi. Vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichini ifodalaydi. Mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdori ham mehnat unumdorligining ikkinchi ko'rsatkichini ifoda etadi. U iqtisodiy adabiyotlarda mehnatning intensivligi deb ham ataladi. Agarda aniq sarflangan mehnatning ma'lum vaqt ichida mahsulot yarata olish

qobiliyati mehnat unumdorligi bo'lsa, mehnat unumdorligi ko'rsatkichi har doim bir xil miqdorda bo'lgan bo'lar edi. Bu fikrni misol orqali ko'rib chiqsak, quyidagi holatga duch kelmiz: bir paxta teruvchi barcha jismoniy va aqliy qobiliyatini ishga solsa, bir kunda 65 kg paxta tera oladi. paxta maydonlari va boshqa omillar bir xil bo'lgan paytda o'sha terimchi har kuni 65 kg dan paxta tergan bo'lar edi. Lekin barcha sharoitlar bir xil bo'lishiga qaramasdan terimchi har kuni har xil miqdorda paxta teradi. YA'ni uning har kungi natijalari har xil bo'ladi. Juda kamdan-kam hollarda bir xil ko'rsatkichga ega bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Bunda natural va qiymat ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Natural ko'rsatkichlarga vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan yalpi hosil va bir birlik mahsulot (natura shaklidagi) ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdori kiradi. Albatta, mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari har bir mahsulot turi bo'yicha alohida hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar ma'lum kamchilikka ega. Qishloq xo'jaligida bir ishchi xodim yil davomida turli tarmoqlarda, ya'ni paxtachilikda, donchilikda, sabzovotchilik va boshqa tarmoqda faoliyat ko'rsatadi. Bazan bir kunning o'zida bir nechta turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Bu, o'z navbatida, ishchi xodimning ish vaqtlarini u ishlagan sohalarga taqsimlash muammosini tug'diradi. Albatta, iqtisodchilar tomonidan mehnat sarflarini mahsulotlarga taqsimlash usullari ishlab chiqilgan. SHunga qaramasdan mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari haqiqiy holatni juda aniq belgilay olmaydi. SHu sababli mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichlaridan kengroq foydalaniladi.

Bir ishchi xodim hisobiga bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu, yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ishchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich sarflangan mehnatga nisbatan ham hisoblanadi. Bunda yalpi mahsulot uni ishlab chiqarilgan vaqt, kishi-soatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Mehnat unumdorligi kishi-soatlari bo'yicha aniqroq va

to'g'riroq hisoblanadi. Chunki xodimlarning o'rtacha yillik soni haqiqatda sarflangan mehnatni kishi soatlaridek aniq belgilamaydi. Bir kishining 280 yoki 260 kun ishga chiqqani uning haqiqatda har kuni necha soat ishlaganini bildirmaydi.

Mehnat unumdorligining bu ko'rsatkichlarini hisoblaganda yalpi mahsulotni hisoblash usullari ham katta ahamiyatga ega. Amalda yalpi mahsulot joriy va solishtirma narxlarda hisoblanadi. Uzoq davrlarga mehnat unumdorligining dinamikasini ko'rganda solishtirma baholarda hisoblangan yalpi mahsulotni olish talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlarning yildan – yilga oshgani ijobiy hisoblanadi.

1 yoki 100 yoki 1000 so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt mehnat unumdorligining ikkinchi iqtisodiy ko'rsatkichidir. Sarflangan mehnat kishi-soatlarida o'lchanadi. Bu ko'rsatkich natijalari yildan – yilga kamayib borgani yaxshi. YA'ni bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan kishi-soatlari miqdori kamayib borishi zarur. Bu iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

9.4. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish yo'nalishlari

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mehnat bozori nisbatan rivojlanmagan bozorlardan biri bo'lib, uni rivojlantirish birinchi darajadagi iqtisodiy – ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakat qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning sonini mutloq va nisbiy kamaytirish bugungi kundagi va kelajakdagi asosiy vazifalardan biri. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari nisbatan past malakalidir. Bu, o'z navbatida, juda katta muammolarni yuzaga keltiradi. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslarining malakasini oshirish mamlakat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bu sanoat va boshqa xizmat turlariga mehnat resurslari bir qismining o'tishi uchun zarur sharoitlar tug'diradi. Chunki mehnat unumdorligi o'sishi natijasida mehnat resurslarining katta bir qismi qishloq xo'jaligidan ozod bo'ladi. Bu rivojlanishning umumiy ob'yektiv tendentsiyasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslarining malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash va tayyorlash tizimi ishlarini jonlantirish zarur. Bu

ishlarning jonlanishi ulardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Qishloq xo'jaligi aholisi, ishchi – xizmatchilari daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ishchi – xizmatchi daromadlaridan past bo'lmasligini ta'minlash ham ulardan foydalanish darajasini oshirgan bo'lar edi. Milliy mentalitet va mavjud mart –maroitlar natijasida qishloq aholisi, ishchi xodimlari nisbatan kam harakatlanadi. Nisbatan o'troq bo'lgan aholi va ishchi xodimlarni o'sha joyning o'zida ish bilan ta'minlash muammosini yechish bozor iqtisodiyoti talablariga zid bo'lmasligi kerak. SHunga qaramasdan sanoatni, xizmatlarni qishloq joylarda tashkil etish ishi doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim. Bunday siyosatsiz mamlakatda ijtimoiy masalalar ham chuqurlashib boraveradi.


Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari mehnatining fond, energetik quvvatlar bilan qurollanish darajasini oshirish ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llaridan biridir. Qishloq xo'jaligida mehnat har bir ekin turi yoki mahsulot turi bo'yicha texnologiyani hisobga olgan xolda zarur vositalar bilan ta'minlanishi kerak. SHu sababli, ayniqsa, kichik texnika ishlab chiqarishni yoki xorijdan sotib olishni yo'lga qo'yish, rivojlantirish talab qilinadi.

Qishloq xo'jaligida mulkiy munosabatlarni yanada rivojlantirish ham mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning bir yo'nalishidir. Fan-texnika taraqqiyotining qishloq xo'jaligi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilashdagi imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Bunda asosiy etibor yangi, serhosil ekin navlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etish, chorva mollarining sermahsul zotlarini ko'paytirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Moliya, kredit tizimi, soliq tizimi va boshqa ko'plab iqtisodiy dastaklarning rivojlanishi ham mehnat resurslaridan foydalanish darajasiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ishchi kuchlari bozori tarkibi va uni tartibga solish mexanizmini quyidagi chizmada ko'rish mumkin (8- chizma).*

* Minakov I.A. i dr. Eklnomika otrasley APK. Uchebnik.-M.: KolosS, 2004—464s. (100s).



8- chizma. Ishchi kuchlari bozori tarkibi va uni tartibga solish mexanizmi

Qisqacha xulosalar

Mehnat resurslari deganda aholining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi tushiniladi. Qishloq xo'jaligida ular asosiy va yordamchi mehnat resurslariga bo'linadi. Asosiy mehnat resurslariga mehnat qilish qobiliyatiga ega 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan, erkaklar, yordamchi mehnat resurslariga 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi.

Qishloq xo'jaligining mehnat resurslari yuqorida ta'kidlanganidek nisbatan katta bilimga ega emas. Bu borada katta ishlar qilish kerak va ularning bilimini oshirish talab etiladi. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari nisbatan bilimi yuqori mehnat resurslarini talab qiladi. Qishloq mehnat resurslarning yana bir xususiyati ularning kam harakatda bo'lishi yoki o'troqligidir. Bu, o'z navbatida, sanoat ishlab chiqarishini qishloq joylarda tashkil etishni talab qilmoqda. Bu masalalarni ilmiy hal etish borasida katta ishlar qilinishi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'pgina rivojlangan davlatlardagidan ancha past. Ammo uni ko'tarish imkoniyatlari katta. Demak, inson mehnat qilishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim. Mehnat resurslarini bilimini, malakasini oshirish, moddiy rag'batlantirish tizimini rivojlantirish zarur. Qishloq xo'jaligidan mehnat resurslarining bir qismi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga o'tishi ob'yektiv tendentsiyaga ega ekanligini hisobga olish zarur va bu borada ilmiy asoslangan siyosat yuritilmoqda.

Tayanch iboralar

Mehnat resurslari, mehnatni qurollanish darajasi, migratsiya, mehnat unumdorligi, ishbilarmonlik, yer va suv fondi, mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini fond, fonda qaytimi, bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, xususiy tadbirkorlik, import, eksport,

migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Mehnat resurslari" tushunchasi.
2. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari tarkibi.
3. Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari.
4. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
5. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
6. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.
7. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish darajasini oshirishning asosiy yo'nalishlari.
8. Mehnat bozori va uning hozirgi holati to'g'risida qisqacha tushuncha.
9. Fermer xo'jaliklari va mehnat resurslari.
10. Dehqon xo'jaliklari va mehnat resurslari.
11. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi va mehnat resurslari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston 1999
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.-T.: Adolat, 1999.
3. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.
4. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obhie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
5. Serova ye. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.

6. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
7. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
8. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
9. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
10. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
11. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

10-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINING MODDIY-TEXNIKA RESURLARI

“Agrosanoat majmuasi moddiy-texnika resurslari” tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati

Agrosanoat majmuasining moddiy – texnika resurslari deganda majmua tarmoqlarida, uning xo'jalik yurituvchi sub'yektlarida mavjud barcha asosiy fondlar, xo'jalik inventarlari yig'indisi tushuniladi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, ayniqsa, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, demak, qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi turgan gap. Birgina shu misolning o'zi ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun, asosiy fondlar, xomashyolar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatlari bo'lishi va ular birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga “Keys”, “Magnum” kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Oz bo'lsa-da, fermer va dehqon xo'jaliklarida kichik texnikalar paydo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi boshqa tarmoqlarnikidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining tarkibiga yer kiradi. yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etishi bizga

ma'lum. yerning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish zarur. yerning holatiga qarab o'g'it turlari, o'g'itning miqdori, texnikalarning turi va boshqalar tanlanadi. Agarda yerning meliorativ holatlarini qisobga olmasdan ekin turi, ma'danli o'g'itlar, unga ishlov beradigan texnikalar tanlansa, ishlab chiqarishning natijasi past bo'lishi turgan gap. Ba'zi hollarda yerga bunday munosabatda bo'lish uning ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tabiat qonunlariga boshqa tarmoqlarnikiga nisbatan ko'proq bog'liq. Buning natijasida turli mintaqalarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanish zarurati kelib chiqadi. Shimoliy zonalarda ekin turlari janubiy zonalaridagidan farq qiladi. SHimoliy zonalarda issiq kunlarning nisbatan kam bo'lishi, eng avvalo, qisqa muddatlarda pishib yetiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy hududlarda esa ekin turlarini tanlash imkoniyatlari kattaroq. Bunday holatlar esa moddiy-texnika resurslarining turli mintaqalarda turlicha bo'lishini talab qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi oqibatida ayrim texnika vositalari yilda bir necha kun yoki oy ishlatiladi, xolos. Masalan, don o'rish kombaynlari asosan o'rim – yig'im davrida 2 oy ishlatiladi. yer qazish ishlarida ishlatiladigan ekskavatorlar ham bunga misol bo'la oladi. Qishloq xo'jalik korxonalari qimmatbaho texnikani (kombaynlarni) yil davomida saqlashga majbur. Bu esa katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Natijada, asosiy fondlardan, texnikalardan foydalanish samaradorligi pasayadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar (chorva mollari, ko'p yillik mevali bog'lar, uzumzorlar va boshqalar) tashkil etadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni ham hisobga olishni talab etadi. Aks holda natija past bo'lishi mumkin. Bu

xususiyatni hisobga olmaslik xo'jaliklarda mavjud texnikada, fondlardan foydalanish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ishlab chiqarish keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi, yo'l va aloqa kommunikatsiyalari bo'lishini talab qiladi. Texnikalarni bir maydondan ikkinchisiga olib borish, ularni ta'mirlashni tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarini tashkil etishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu xususiyat katta qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi ko'p jihatdan sanoaning rivojlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga moddiy-texnika resurslarining (em-xashak, zotli chorva mollari, urug'liklar kabilar) bir qismi qishloq xo'jaligining o'zida ishlab chiqariladi. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning sotib olinayotgan va o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy-texnika resurslariga mos ravishda taqsimlanishini talab qiladi. Aks xolda ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatkichlari pasayishi mumkin.

Hozirda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashganlik darajasini oshirish, asta-sekinlik bilan uni sanoat asosiga o'tkazish borasida ishlar olib borilayapti. Bu qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ob'yektiv yo'nalishlaridan biridir.

10.2. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari

Ma'lumki, asosiy fondlarsiz hozirgi zamon ishlab chiqarishini tashkil etish mumkin emas. Ularning mavjudligi, sifati, unumdorligi ishlab chiqarishning samarasini hal qilishda asosiy o'rinni egallaydi. Xo'jaliklarda mavjud fondlar ikki katta guruhga bo'linadi. Bular asosiy va aylanma fondlardir.

Asosiy fondlar bir necha ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi, o'zining qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lib-bo'lib o'tkazadi. Bu eskirgan qiymat, amortizatsiya shaklida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etib, tamomam eskirib bo'lganda ham o'zining fizik shaklini o'zgartirmaydi.

Ana shu xususiyatlarga ega va talablarga javob beradigan fondlar asosiy fondlardir. Bularga imorat va inshootlar, mashinalar (kombaynlar, traktorlar va h.q.), transport vositalari, asbob – uskunalar, ko'p yillik daraxtzorlar, uzumzorlar, mahsuldor chorva mollari va ishchi hayvonlar kiradi. Asosiy fondlar asosiy vositalarning qiymat ko'rinishiga ega qismi bo'lganligi uchun ham asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer asosiy fondlar tarkibiga kiritilmaydi. Ishlab chiqarishda qatnashishiga qarab asosiy fondlar ikkiga, ya'ni ishlab chiqarishga tayin etilgan va ishlab chiqarishga tayin etilmagan asosiy fondlarga bo'linadi. Ishlab chiqarishga tayin etilmagan asosiy fondlarga ijtimoiy sohaning asosiy fondlari kiradi.

Xo'jaliklar o'z balanslarida mavjud asosiy fondlardan foydalanishning holatini ko'rsatkichlar tizimi bilan aniqlab boradi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining fond bilan ta'minlanish darajasi. Bu ko'rsatkich xo'jalikda mavjud asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini yer moydonlariga (qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar, haydaladigan yerlar, ekin maydonlari) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi fond qaytimi va fond sig'imi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Fond qaytimi yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotni yoki foydani asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Fond qaytimi xo'jalikda mavjud 1 so'mlik asosiy fondlar evaziga qancha so'mlik yoki tiyinlik yalpi mahsulot (foyda) ishlab chiqarilganini bildiradi. Bu ko'rsatkich natijasi qancha yuqori bo'lsa, fondlardan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Fond sig'imi fond qaytimining aksi bo'lib, asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini xo'jalikning yalpi mahsulotiga bo'lish natijasida aniqlanadi. Fond sig'imi xo'jalikda 1 so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha so'mlik asosiy fond ishlab chiqarish jarayonida qatnashganini ko'rsatadi. Fond sig'imi ko'rsatkichi qanchalik past bo'lsa, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori hisoblanadi. Fond qaytimi va sig'imini foydaga nisbatan ham aniqlash maqsadga muvofiq.

Xo'jaliklarning asosiy fondlari besh xil (dastlabki, qoldiq , tiklash, balans va tugatish baholarida) baholanadi. Asosiy fondlarning dastlabki qiymati ularni birinchi bor sotib olish bilan bog'liq xarajatlardir. Asosiy fondlarning sotishdagi qiymati, ularni tashib olib kelish va o'rnatish xarajatlari ham dastlabki bahosiga kiradi.

Asosiy fondlarning tiklash qiymati deganda ishlab turgan asosiy fondning hozirgi bozor narxida qanchaga baholanishi tushuniladi. Aks holda mavjud inflyatsiya tasirida amortizatsiya ajratmasi natijasida yig'ilgan mablag'ga huddi shunday texnika sotib olish mumkin emas. Chunki uning narxi oshib ketgan bo'lishi mumkin.

Asosiy fondlar ishlab chiqarishda qatnashadi va vaqt o'tishi bilan eskiradi. Asosiy fondlarning eskirishi ikki xil bo'ladi.

Birinchisi, ma'naviy eskirish. Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi quyidagi hollarda yuz beradi: birinchidan, mavjud asosiy fondan unumliroq bo'lgan yangisi yaratilganda. Fan, texnika taraqqiyoti texnikaning yangi, unumli turlarini ishlab chiqqan holda eski fondlar yangisiga nisbatan unumsizroq bo'lganligi uchun ma'naviy eskirgan hisoblanadi. Masalan, xo'jalikda ishlatilayotgan, sekundiga 12 kg. bug'doy o'radigan kombayn o'rniga sekundiga 16 kg. bug'doy o'ra oladigan yangi kombayn yaratildi, deylik. Bu holda sekundiga 12 kg. bug'doy o'radigan kombayn ma'naviy eskirgan hisoblanadi. Ikkinchidan, xo'jalikda mavjud tehnikadan narxi arzonroq yangi texnika chiqarilgan holda ham ma'naviy eskirish yuz beradi. Masalan, hozirda ishlayotgan don o'rish kombayni 30 mln. so'm turadi. Huddi shunday texnik imkoniyatlarga ega kombaynning yangi avlodi yaratildi, deylik va uning narxi 25 mln. so'm. Bu holda biz ishlatayotgan 30 mln. so'mlik kombayn yangi 25 mln. so'm turadigan kombaynga nisbatan ma'naviy eskirgan hisoblanadi. Iqtisodchilarning bunday vaziyatdagi asosiy vazifasi ma'naviy eskirgan texnikalardan yana qancha davr foydalanish zarurligini belgilashdir.

Asosiy fondlarning yangisi eskisiga nisbatan arzonga ishlab chiqarilganda ma'naviy eskirishni quyidagicha hisoblash qabul qilingan.

$$AFme1 = \frac{AFbq - AFtq}{AFbq} \times 100$$

Bunda: $AFme1$ – asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi (eskisiga nisbatan orzonroq bo'lgan yangisi yaratilganda)

$AF\ bq$ – asosiy fondlarning balans qiymati, so'm;

$AF\ tq$ – asosiy fondlarning tiklash qiymati, so'm.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ularni unumdorligi sababli yuz berganda uni quyidagicha aniqlash mumkin.

$$AFme2 = \frac{YaAFu - AFu}{YaAFu} \times 100$$

Bunda: $AFme2$ – asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi (eskisiga nisbatan unumlirog'i yaratilganda)

$YaAFu$ – yangidan yaratilgan asosiy fondlarning unumdorligi

AFu – ishlab turgan (amaldagi) asosiy fondlarning unumdorligi

Asosiy fondlarning yangilanish darajasi quyidagicha aniqlanadi.

$$Kya = \frac{AFya}{AFyoq}$$

Bunda: Kya – asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti

$AFya$ – yil davomida yangidan jalb etilgan asosiy fond qiymati, so'm

$AF\ yoq$ – asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati, so'm

Asosiy fondlar eskirishining ikkinchi turi ularning jismoniy eskirishidir. Vaqt o'tishi, faoliyat ko'rsatishi natijasida asosiy fondlar jismoniy eskiradilar. Bu eskirish "amortizatsiya" tushunchasi bilan belgilanadi. Odatda, zavodlarda ishlab chiqarilgan texnikalarning pasportida ularning xizmat ko'rsatish muddati, amortizatsiya ajratish

normasi belgilangan bo'ladi. Lekin ayrim asosiy fondlarda bu ma'lumotlar berilmagan taqdirda amortizatsiya normasini hisoblab topish mumkin. Bu holatda umumiy yillik amortizatsiya normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$An = \frac{B + K + D - L}{B \times N} \times 100$$

Bunda: An – umumiy yillik amortizatsiya normasi, %;

B – asosiy fondlarning dastlabki yoki balans qiymati, so'm;

K – asosiy fondlarni kapital ta'mirlash xarajatlari, so'm;

D – asosiy fondlarni tugatishdagi xarajatlar, so'm;

L – asosiy fondlarni tugatishdan olingan daromad, so'm;

N – asosiy fondlarning o'rtacha xizmat qilish muddati, yil.

Hozirda asosiy fondlarning eskirishini belgilashda tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmasi ajratish yo'lidan ham foydalanilmoqda. Bu inflyatsiya darajasi yuqori paytda uning salbiy ta'sirini kamaytiradi. Bundan tashqari fan, texnika taraqqiyoti tezlashgan paytda asosiy fondlarni tezlikda almashtirish imkonini beradi.

Asosiy fondlar qoldiq baholarda ham narxlanadi. Asosiy fondlarning dastlabki narxlaridan eskirish summasi o'rtasidagi farq ularning qoldiq bahosini bildiradi. Buxgalteriya balanslarida aks ettirilgan qiymati miqdor jihatdan asosiy fondlarning dastlabki qiymatiga mos tushadi. Asosiy fondlarning tugatilish qiymati deganda uni tugatish bilan bog'liq holat tushuniladi. Asosiy fondlar tugatilishi jarayonida qo'shimcha xarajatlar qilinadi. Ularni tugatishdan ma'lum material boyliklar olinadi. Asosiy fondlar xizmat muddatini to'la o'tamagan holda va boshqa sabablarga ko'ra, ularga to'liq amortizatsiya ajratilmagan bo'lishi mumkin. Amortizatsiya ajratilmay qolgan miqdorga uni tugatish uchun sarflangan xarajatlar qo'shiladi va tugatish natijasida olingan qiymatni ajratish yo'li bilan asosiy fondlarning tugatilish qiymati aniqlanadi.

10.3. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

1). Qishloq xo'jaligi ekin turlarining hosildorligini, chorva mollarining mahsuldorligini oshirish. Nimaiki hosildorlikni, chorva mollarining mahsuldorligini oshirishga ta'sir ko'rsatsa, o'sha narsa fondlardan foydalanishning samaradorligi oshishiga ijobiy ta'sir qiladi. Demak, fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi, serhosil ekin turlarini va mahsuldor chorva mollarini ishlab chiqarishga joriy etish fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biridir.

2). Asosiy fondlarning faol (aktiv) qismi bo'lgan texnika, asbob- uskunalaridan foydalanishning smenalik koeffitsientlarini ko'tarish ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

3). Asosiy fondlar tarkibini takomilashtirish ulardan foydalanishni iqtisodiy samaradorligini oshirishning juda muhim yo'llaridan biridir. Bugungi kunda ishlab chiqarishda mavjud kuch beruvchi texnikalar (traktor va h.q.) bilan ishchi mashinalar o'rtasidagi mo''tadil (optimal) nisbatni ta'minlamaslik asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Bugungi kunda ishlab chiqarishda foydalanilayotgan kuch beruvchi texnikalar (traktor va h.q.) katta quvvatga ega. Masalan, bitta "Magnum" rusmli traktordan yil davomida to'liqroq foydalanish uchun 35 va undan ko'proq ishchi mashinalar (pluglar, ekish agregatlari va h.q.) kerak ekan. Birorta ishchi mashinaning bo'lmasligi ushbu kuch beruvchi mashinadan foydalanish imkoniyatlari kamayishiga olib keladi.

4). Asosiy va oborot fondlar mutanosibligini ta'minlash ham ulardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarishda qatnashayotgan asosiy fondlar yetarli miqdorda aylanma fondlar bilan ta'minlanishi kerak. Masalan, chigit ekish davrida traktor va chigit ekish agregatidan faqat yetarli miqdorda chigit bo'lgandagina samarali foydalanish mumkin. Ekish uchun zarur chigit bo'lgandagina traktor va ekish agregatlaridan samarali foydalanish mumkin. Ekish uchun zarur chigitning yetishmasligi texnikalarning bekor turib qolishiga olib keladi va h.q.

5). Asosiy fondlardan foydalanishda jamoa a'zolarining moddiy manfaatdorligini ta'minlash, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi. Agarda mavjud qonun – qoidalar, asosiy fondlardan foydalanuvchilarni asosiy fondlardan yaxshi foydalanganligi uchun moddiy manfaatdor qilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin yoki aksincha.

6). Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy samardorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri unga xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanganlik darajasi hisoblanadi. Asosiy fondlarni vaqtida texnik qarovlardan o'tkazish, joriy va kapital ta'mir qilish ishlarni talab darajasida tashkil etish lozim.

7). Asosiy fondlardan foydalanish darajasiga kadrlarning bilim va malakasining ta'siri katta. Mexanizator, ishjener texnik xodimlarning o'z ishini yaxshi bilishi asosiy fondlardan foydalanishning samaradorligini oshiradi va aksincha.


10.4. Aylanma mablag'lar va ulardan foydalanish

Ishlab chiqarish jarayoni samarali olib borilishida asosiy fondlar bilan bir qatorda aylanma mablag'larning ahamiyati cheksizdir. Ular ishlab chiqarish jarayonining albatta bo'lishi lozim bo'lgan shartlaridan biridir. Aylanma fondlar bir ishlab chiqarish siklida (jarayonida) ishtirok etadi. O'zining qiymatini tayyor mahsulotga to'liqligicha bir ishlab chiqarish jarayonida o'tkazadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, o'z fizik ko'rinishini qisman, aksariyat holda esa butunlay o'zgartiradi. Ana shunday talablarga javob bergan fondlar aylanma fondlar deb yuritiladi. Aylanma fondlarga xo'jalikning hisob raqamlarida mavjud bo'lgan pullari, sotilgan, lekin hali puli kelib tushmagan mahsulot uchun mablag'larini qo'shib hisoblaganda, aylanma mablag'lar tushunchasi kelib chiqadi. Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotni sotish maqsadida zarur aylanma fondlarni va muomila fondini tashkil etish uchun avanslashtirilgan pul mablag'lari yig'indisidir. Biror bir ishlab chiqarish aylanma mablag'larsiz yuz berishi mumkin emas. Aylanma mablag'larning yetishmasligi korxonalar uchun katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ularning yetishmasligi tufayli korxona o'z oldiga

qo'ygan vazifalarini bajara olmaydi. Natijada shartnomaviy majburiyatlar to'liq bajarilmaslik holati yuz beradi. Korxonalarning boshqa iqtisodiy sub'yektlar bilan aloqasi yomonlashadi. Korxonada aylanma mablag'larning normativdan ko'payib ketishi ham maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Aylanma mablag'larning keragidan ortiqcha bo'lishi korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etadi. SHu sababli ushbu masalaga Respublika prezidenti, hukumati katta e'tibor berib kelmoqda. Aylanma mablag'larga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish maqsadida 1997 yilning 9 iyulida O'zbekiston Respublikasi prezidentining pF-1816 sonli "Aylanma mablag'larni saqlanishi va o'z vaqtida to'ldirilishi uchun javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 25 fevralidagi "Vazirliklar, idoralar va korxonalarning aylanma mablag'lari normativlari to'g'risida"gi 108-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan barcha vazirliklar, idoralar tizimi uchun aylanma mablag'larning normativlari belgilandi. Shunga ko'ra 1 so'mlik xarajat uchun aylanma mablag'larning normativlari belgilangan. Jumladan Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tizimi uchun 1 so'mlik xarajatga 13,90 tiyin muddati esa 50 kun belgilangan. "O'zmevasabzavotxolding" tizimi uchun 60 kun va 16,4 tiyin, "O'zqishloqxo'jalikmash-xolding" tizimi uchun 90 kun va 25,0 tiyin o'rnatilgan.*

Aylanma mablag'larning tarkibini quyidagi chizma orqali ko'rish mumkin. (9-chizma)

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Vazirliklar, idoralar va korxonalarning aylanma mablag'lari normativlari to'g'risida" 25.02.1997 y. N-108/



9 – chizma. Aylanma mablag'larning tarkibi.

Aylanma mablag'lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi quyidagicha aniqlanadi:

1). Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti:

$$O_{ak} = \frac{T - M_{ks}}{O}$$

Bunda: T – ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan va ko'rsatilgan xizmat evaziga olingan pul tushumi, so'm;

M – asosiy podaga o'tkazilgan yosh chorva mollarining qiymati, so'm;

S – asosiy podani sotishdan tushgan pul tushumi, so'm;

O – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i, so'm.

2) Aylanma mablag'larning o'rtacha bir aylanish muddati, yilning 360 kunini aylanma mablag'larning aylanish koeffitsientiga bo'lish orqali hisoblanadi.

$$T = \frac{360}{Oak}$$

Bunda: T – aylanma mablag'larning o'rtacha bir aylanish muddati, yil, oy, kun;

Oak – aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti.

3) 1 so'mlik pul tushumiga to'g'ri keladigan aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i.

4) 1 so'mlik aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'iga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulot hajmi.

Aylanma mablag'lar manbasiga ko'ra, o'z mablag'lari va chetdan jalb etilgan mablag'larga bo'linadi.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarish jarayonini moddiy xarajatlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishlatilayotgan asosiy vositalari, aylanma mablag'lari birgalikda ularning moddiy-texnika bazasi deb yuritiladi. Moddiy-texnika bazasining asosiy fondlar tashkil etadi. Bir necha ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan, o'zining qiymatini tayorlab mahsulotga bo'lib – bo'lib o'tkazadigan va fizik ko'rinishini saqlab qoladigan fondlar asosiy fondlar deb yuritiladi. Ularning tarkibi, miqdori qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy natijaviy ko'rsatkichlarini belgilaydi. Asosiy fondlarning eng muhim qismi asosiy ishlab chiqarish fondlaridir. Ulardan foydalanishning darajasini va samaradorligini aniqlash talab qilinadi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanadi.

Bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan, o'zining qiymatini tayyor mahsulotga to'liq o'tkazadigan va fizik ko'rinishini o'zgartiradigan fondlarga aylanma fondlar deyiladi. Ulardan foydalanishni yaxshilar zarur. Aylanma mablag'larning mavjudligi ishlab chiqarishning bir me'yorda samarali borishini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar

Fond qaytimi, fond sig'imi, fond bilan ta'minlanish va qurollanish, aylanma fondlar, aylanma mablag'lar, samaradorlik koeffitsienti, asosiy fondlarninig eskirishi, jismoniy eskirish, amortizatsiya, ma'naviy eskirish, mehnat resurslari, mehnatni qurollanish darajasi, migratsiya, mehnat unumdorligi, ishbilarmonlik, yer va suv fondi, mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, mahsulot sifati, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini fond, fonda qaytimi, bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati, moddiy rag'batlantirish, kasbiy malaka, hosildorlik, mahsuldorlik, natural ko'rsatkichlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi deganda nimani tushinasiz?
2. Qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasining mohiyati va ahamiyati
3. Qanday fondlarga asosiy fondlar deyiladi?
4. Aylanma mablag'lar nima va uning ahamiyati nimada?
5. Qishloq xo'jaligi asosiy fondlaridan foydalanishining o'ziga xos tomonlari.
6. Fondlardan foydalanishning samaradorligi qanday aniqlanadi?
7. Fond qaytimi va fond sig'imi ko'rsatkichi.
8. Fond bilan qurollanish va ta'minlanish darajasi.

9. Fondlardan foydalanish darajasiga qanday omillar ta'sir qiladi?
10. Fondlardan foydalanishning samaradorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obshchie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
2. Serova ye. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.
3. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
4. Hakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Hakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
7. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
8. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
9. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Krementsova. –T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2001.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

11-BOB. AGROSANOAT MAJMUASIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOTLAR TANNARXI

“Tannarx ” tushinchasi, uning mohiyati

Har qanday ishlab chiqarish ma'lum xarajatlar bo'lishini talab qiladi. Boshqacha aytganda, biror bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun resurslar sarf qilinadi. Jumladan, kishilar mehnat qiladi va o'z kuchini sarflaydi. Ularning qilgan mehnati uchun xaq to'lanadi. Mehnat uchun to'langan haq va uning qo'shimchalari ishlab chiqarish uchun xarajat hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish uchun urug'lik, yoqilgi – moylash materallari, o'g'itlar, yem-xashak, ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq xarajatlar va boshqa materiallar sarflanadi. Ular ham ma'lum bahoga (qiymatga) ega. Ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar ishtirok etadi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi, vaqt o'tishi natijasida jismonan eskiradi. Bu eskirishning miqdori amortizatsiya ajratmasi yordamida aniqlanadi. Amortizatsiya ajratmalari ham mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasidan “mahsulot tannarxi” tushunchasi kelib chiqadi. Mahsulot tannarxi deganda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning puldagi ifodasi tushuniladi. Mahsulot tannarxi shu mahsulot qiymatining bir qismi hisoblanadi. Mahsulot qiymati bilan tannarxi o'rtasidagi farq umumiy holda foyda miqdorini ifodalaydi.

Tannarx iqtisodiy kategoriya bo'lib iqtisodiy samaradorlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Tannarx ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, ko'rsatilayotgan xizmatning qanchaga tushganini bildiradi.

Iqtisodiy fan tannarxning ikki turini bir-biridan farqlaydi. Birinchisi, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidir. Bu mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir. Ikkinchisi, mahsulot birligining to'liq tannarxi. Mahsulot birligining to'liq tannarxi uni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlarning puldagi ifodasidir. Bundan tashqari texnologik tannarx

ham aniqlanadi. Texnologik tannarx deganda korxona ichidagi sexlar, oila pudratida mahsulot birligini ishlab chiqarish qilingan xarajatlarning puldagi ifodasiga tushuniladi. Texnologik tannarxga korxonani boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qo'shilganda ishlab chiqarish tannarxi kelib chiqadi.

Xo'jaliklar doirasida reja va hisobot tannarxi ham hisoblanadi. Reja tannarxi me'yor asosidagi xarajatlar bo'yicha hisoblanadi va olinishi kutilayotgan mahsulot miqdori asosida belgilanadi. Hisobot tannarxi esa xaqiqatdan qilingan xarajatlar va haqiqatda olingan mahsulot miqdori asosida aniqlanadi. Mahsulot tannarxi umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatning unumdorligi, ishlab chiqarishning ixtisoslashganlik va intensivlashganlik darajasi, tejamkorlik, ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi, texnikalardan va fan yutiqlaridan qay darajada foydalanilayotganligi ifodalanadi. Mahsulot tannarxining darajasi korxonaning, ishlab chiqarishning kelajagini belgilaydi. Agarda mahsulot birligi tannarxi shu mahsulot bozoridagi narxdan baland bo'lsa, bu mahsulotni ishlab chiqarish zarar keltiradi. Bu esa, o'z qonuniyati asosida shu mahsulotning tannarxini belgilaydi. Ya'ni uni ishlab chiqarayotgan korxonada aynan shu mahsulot asosiy mahsulot hisoblansa, korxona bankrot holatiga tushib qoladi. Agarda, mahsulot tannarxi shu mahsulot bozorida shakllangan narxdan past bo'lsa, uni ishlab chiqaruvchi foyda oladi. Bu esa, ushbu mahsulotni ishlab chiqarish bozor iqtisodiyoti talabiga javob beradi degan so'z. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishlab chiqarish, xizmat turi, korxona foyda olgan taqdirdagina o'z foliyatini davom ettirishi mumkin.

Individual va tarmoq tannarxi ham mavjud. Individual tannarx – bir mahsulotning bir korxona miqiyosida shakllangan tannarxidir. Tarmoq tannarxi esa, alohida ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari tannarxi asosida tarmoq bo'yicha o'rtacha hisoblangan ko'rsatkichdir.

Tannarx iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha xarajatlarni hisobini va ularni nazoratini olib boradi;

- mahsulotlar narxini belgilashning asosi bo'lib xizmat qiladi;
- foyda, rentabellikni hamda soliqlarni aniqlashga asos bo'ladi;
- qishloq xo'jaligiga investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini iqtisodiy baholashda asos bo'ladi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

11.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan resurslarning xarajatini (miqdorini) joriy narxlarda hisoblash asosida aniqlanadi. Qishloq xo'jaligida mahsulotlar tannarxini aniqlashda xarajatlarni ma'lum guruhlariga bo'lish zaruriyati bor va undan foydalanadi. Xarajatlarni guruhlariga bo'lish mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi deb ataladi. Kalkulyatsiya – qilinayotgan xarajatlarni guruhlariga, xarajat moddalariga bo'lishdir. Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxiga quyidagi xarajatlar kiradi (10-chizma).

№	Xarajat moddolari	O'simlikchilikda	Chorvachilikda
1.	Ish haqi qo'shimchalari bilan	+	+
2.	Urug'lik	+	-
3.	Em-xashak	-	+
4.	Yoqilg'i-moylash materiallari	+	+
5.	O'g'it	+	-
6.	Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash vositalari	+	+
7.	Asosiy ishlab chiqarish vositalarini saqlash	+	+
8.	Ish va xizmatlar	+	+

10-chizma. Qishloq xo'jaligida mahsulotlar tannarxini belgilovchi xarajatlar turlari

Tannarxning tarkibini yillar davomida tahlil qilib o'rganish iqtisodchilarga, xo'jalik rahbarlariga mavjud kamchilik va foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ko'rsatadi. Mahsulot tannarxiga kirgan xarajatlar tarkibi, miqdori va iqtisodiy mohiyati jihatidan bir – biridan farq qiladi. Shuning uchun ularni xarajat moddalariga to'g'ri bo'lish katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab xarajatlar to'g'ri yoki bevosita hamda egri yoki bilvosita xarajatlarga bo'linadi. Bevosita xarajatlar mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va tannaxga to'g'ridan-to'g'ri kiradi. Bularga o'g'itlar, urug'liklar, yem-xashak, shu mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etkanlarning ish haqi va boshqalar kiradi. Lekin qishloq xo'jaligining o'ziga xosligi shundaki, unda bir xodim yoki bir texnika vositasi bir yilda bir nechta mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Ularning xarajatlarini ana shu mahsulotlar o'rtasida taqsimlash ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, korxonani boshqarish bilan bog'liq xarajatlar bu borada alohida metodikani talab qiladi. Bu xarajatlar bir mahsulot turiga to'g'ridan-to'g'ri kirmaganligi sababli ularni bilvosita yoki egri xarajatlar deb yuritiladi.

Qishloq xo'jaligida barcha xarajatlar 1 gektar yoki bir bosh chorva hayvoniga hisoblanadi. Bir gektar yerdan olingan mahsulot miqdoriga shu bir gektar yerga ketgan xarajatlar miqdorini bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Chorvachilikda bir bosh chorva moliga qilingan xarajatlar miqdorini shu chorva molidan olingan mahsulotga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu bir qarashda ancha tushunarliga o'xshaydi. Aslida esa bunda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Gap shundaki, qishloq xo'jaligida bir ishlab chiqarish jarayonida asosiy, qo'shimcha va yondash mahsulotlar olinadi. Masalan, sut chorvachiligida olingan sut asosiy mahsulot, sigirdan olingan buzoq esa qo'shimcha mahsulot hisoblanadi. Shu sigirdan 5 – 6 tonna miqdorida organik o'g'it – go'ng olinadi. Bu mahsulot yondash mahsulot hisoblanadi. Barcha xarajatlar bir bosh sigirga qilingan. Ya'ni, sigir boqilgan va natijada 3 xil mahsulot olingan. Biz sutga, buzoqqa va go'ngga alohida xarajat qilgan emasmiz. Bunday holda mahsulot birligining tannarxini hisoblash o'ziga xos murakkablikni keltirib chiqaradi.

O'simlikchilikda esa barcha xarajatlar bir gektarga qilinadi. Masalan, bir gektar yerga don ekdik deylik. yerni tayyorladik, urug'lik sarfladik, o'g'it berdik, sug'ordik va hosilni yig'ishtirib oldik. Donchilikda asosiy mahsulot don olindi. Qo'shimcha mahsulot-don chiqindisi va yondash mahsulot – samon olindi. Ana shu mahsulotlarga xarajatlarni taqsimlash zarurati kelib chiqadi. paxta maydonidan paxta xomashyosi va g'o'zapoya olinadi va x.k. Bunday hollarda bir necha usul bilan mahsulotlar tannarxi aniqlanadi.

Birinchi usul, qo'shimcha va yondash mahsulot ilmiy asoslangan ma'lum koeffitsientlar orqali asosiy mahsulotga aylantirib olinadi. Yondash mahsulotning sotish narxi aniqlanadi va uning qiymati xarajatlardan chegirib tashlanadi. Natijada qolgan umumiy xarajatlar mahsulot hajmiga taqsimlanadi va bir birlik mahsulot tannarxi aniqlanadi. Keyin yana koeffitsientlar yordamida qo'shimcha va yondash mahsulot tannarxi aniqlanadi. Ikkinchi usulda mahsulotlarning narxi asosida qilingan xarajatlar taqsimlanadi. Uchinchi usulda yondash mahsulotning qiymati aniqlanadi va qilingan xarajatlardan chiqarib tashlanadi. Qolgan xarajatlar asosiy va qo'shimcha mahsulotlarga taqsimlanadi. Qishloq xo'jalilik korxonalarida mahsulotlar, ish va xizmatlar tannarxi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 - son qarori bilan tasdiqlangan "Maxsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM qoidolari asosida aniqlanadi.

Ushbu nizom quyidagi bo'limlardan iborat.

Umumiy qoidalar

A. Moliyaviy natijalarni shakllantirish

B. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ro'yxati

1. Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi
2. Davr xarajatlari
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar

4. Favqulodda zararlar

V. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarish-xo'jalik

faoliyati natijasida olinadigan daromadlar ro'yxati

G. Tovar-moddiy zaxiralarni, tugallanmagan ishlab chiqarishlarni,

shuningdek kelgusi davrlar xarajatlarini baxolash

D. Soliq solinadigan bazani aniqlash

Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom xo'jalik yurituvchi sub'yektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi.

Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi sub'yektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

Nizomda xarajatlarni guruhlash va moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy qoidalari mavjuddir.

1-ildovada hisobot davridagi sof foydani xisoblab chiqishda korxona daromadlaridan chiqarib tashlanadigan, biroq soliq haqidagi qonunlarga muvofiq daromad (foyda)dan olinadigan soliqni xisoblab chiqishda xo'jalik yurituvchi sub'yektning soliq solinadigan bazasiga kiritiladigan xarajatlar moddalari keltirilgan.

2-ilovada ular paydo bo'lgan paytda soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanmaydigan, biroq keyingi yoki ancha keyingi davrlarda (vaqtdagi tafovut) chiqarib tashlanadigan xarajatlar ro'yxati beriladi.

Mazkur Nizom asosida ayrim tarmoqlar xarajatlari tarkibi va ularni hisobga olish xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda tegishli vazirliklar va idoralar xo'jalik birlashmalari (korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar, kompaniyalari va boshqalar) tomonidan aniqlanadi. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.10.2003 yil 444-sonli qarori 1-ilovasi I.bo'limi 1.bandini a) bandchasiga asosan tahrirga so'zlar kiritildi)

A. Moliyaviy natijalarni shakllantirish

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to'g'ri va to'liq aks ettirishga, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniqlashga yo'naltirilgandir. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- maxsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

YAF=SST-IT.

bunda,

YAF - yalpi foyda;

SST- sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut, va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

AFF = YAF-DX+BD-BZ,

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF=AFF+MD-MX,}$$

bunda,

UF - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to'langungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{STF=UF+Fp-FZ,}$$

bunda,

STF - soliq to'langungacha olingan foyda;

Fp - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'yekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$\mathbf{SF= STF-DS-BS,}$$

bunda,

SF - sof foyda;

DS - daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to'lovlar.

**B. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliya-xo'jalik faoliyati bilan
bog'liq xarajatlar ro'yxati**

Mazkur Nizomga muvofiq mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro'yxati:

xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish davomida xo'jalik yurituvchi sub'yektda paydo bo'ladigan barcha xarajatlar to'g'risida buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va aniq axborot shakllantirilishi;

soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadida belgilanadi.

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruxlanadi: maxsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar; ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada xisobga olinadigan xamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar;

a) sotish xarajatlari;

b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

xo'jalik yurituvchi, sub'yektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni xisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari:

a) foizlar bo'yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;

v) qimmatli qog'ozlarga qyoo'yilgan mablag'larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar;
favqulodda zararlar, u daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda xisobga olinadi.

1. Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi

- 1.1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar
- 1.2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mexnatga xaq to'lash xarajatlari
- 1.3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
- 1.4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
- 1.5. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar

Maxsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruxlarga ajratiladi:

ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mexnatga haq to'lash xarajatlari;

ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

1.1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo'ladi:

1.1.1. Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, izmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism xisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar.

1.1.2. Normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, inventarlarning, xo'jalik buyumlarining va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining qiymati.

1.1.3 Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo'jalik yurituvchi sub'yektda montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

1.1.4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim o'qiratsiyalarni bajarish, xom ashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning

boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan sexga keltirish va tayyor maxsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli bo'ladi.

1.1.5. Tabiiy xom ashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga xaq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga xaq to'lash, korxonalar tomonidan suv xo'jaligi tizimlaridan beriladigan iste'mol qilinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun - Yog'och, taxta materallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga xuquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari.

1.1.6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarinn ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari.

1.1.7. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

1.1.8 Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

1.1.9. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari xam shu jumlag kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mexnatga xaq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

1.1.10. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar xam moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

1.1.11. Maxsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati va idish va o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

1.1.12. "Moddiy xarajatlar" elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'implardan, soliqlardan (korxona keyinchalik qarz surishish, masalan, qo'shilgan qiymat solig'i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari) transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga xaq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

1.2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mexnatga xaq to'lash xarajatlari

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mexnatga xaq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi.

1.2.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektda qabul qilingan mehnatga xaq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish xaqi, shu jumladan bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar.

1.2.2. Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar.

1.2.3. Ish hajmini va kompensatsiya tug'risidagi to'lovlar, shu jumladan.

1.2.3.1. Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

1.2.3.2. Ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

1.2.3.3. Hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

1.2.3.4. Aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va kata yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi sub'yekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytigacha to'lanadigan yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

1.2.3.5. Qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

1.2.3.6. Doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

1.2.3.7. Mehnatga xaq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar;

1.2.3.8. Xo'jalik yurituvchi- sub'yekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to'lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda).

1.2.4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash.

1.2.5. Ishlanmagan vaqt uchun xaq to'lash:

1.2.5.1. Amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (xar yilgi) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiy xodimlarga, asosiy ish haqini ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash.

1.2.5.2. Majburiy ta'tilda bo'lgan qisman saqlab qolgan xolda, xaq to'lash;

1.2.5.3. Donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

1.2.5.4. Davlat vazifalarini bajarganlik uchun (xarbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

1.2.5. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan xisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi xam shu jumlag kiradi.

1.2.7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

1.3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar

Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

1.3.1. Qonun xujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mexnatga haq to'lash fondiga shjtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar.

1.3.2. Nodavlat pensiya jamg'armalariga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

1.4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.4.1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi.

1.4.2. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari) eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib xisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyati muddatidan ortiq emas.(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

1.5. Ishlab chiqarish tug'risidagi boshqa xarajatlar

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni xisobga olishning navbatdagi kompleks moddalari 1.1, 1.2, 1.3, 1.4-bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1.5.1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

1.5.1.1. Ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mexnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari.

1.5.1.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat xaqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi

Zarurat bo'lganda, ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'yektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati Bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati xamda asosiy vositalar har bir ob'yektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan xolda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag'lari summasi ushbu ob'yektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak; agar xaqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi.

1.5.1.3. YOng'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

1.5.1.4. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar.

1.5.1.5. Tabiatni muxofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari, shu jumladan atrof tabiiy muxit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari.

1.5.1.6. Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari.

1.5.1.7. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni muxofaza qilish tadbirlari.

1.5.1.8. Tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi sub'yekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy xaqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

1.5.1.9. Amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar) (yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

1.5.1.10. Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, xisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

1.5.1.11. Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muaassasalarga haq to'lash.

1.5.2. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar.

1.5.3. Ishlab chiqarish xodimlarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

1.5.4. Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

1.5.5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

1.5.6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

1.5.7. Maxsulot (xizmatlar)ning majburiy sertifikatlash qilish xarajatlari.

1.5.8. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegshili vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

1.5.9. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

1.5.10. Ob'yektlarni davlat kapital qo'yilmalari hisobiga qurishda qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish bilan bog'liq xarajatlar.

1.5.11. Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarish maqsadida bo'lmagan mol-mulk yuzasidan belgilangan tartibda.

1.5.12. Qazib oluvchi tarmoqlarda tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlarga tegishli bo'lmasa (ya'ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmasa). Ushbu xarajatlar "Kelgusi davrlar xarajatlari" sifatida qaraladi va ularni qaytarishning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmi va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladi. Kelgusi davrlar xarajatlari xisobdan chiqarishning tanlangan metodi xo'jalik yurituvchi sub'yektning hisobga olish siyosatida aks ettirilishi kerak.

2. Davr xarajatlari

2.1. Sotish xarajatlari

2.2. Ma'muriy xarajatlar Ma'muriy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

2.3. Boshqa operatsiya xarajatlari

2.4. Hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan

chiqariladigan xarajatlari

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, maxsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Quyida 2-band bo'yicha sanab o'tilgan barcha xarajatlar xarajatlarning kompleks moddalari hisoblanadi va ularni hisobga olish mazkur Nizomning 1.5-bandi muqaddimasida ko'rsatilganidek xarajatlar elementlari bo'yicha tashkil etiladi.

"Davr xarajatlari"ga quyidagi moddalar kiradi:

2.1. Sotish xarajatlari

2.1.1. Tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari. Ushbu moddaga tashish xarajatlari xamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar kiritiladi.

2.1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sotish bo'yicha xarajatlar, shu jumladan:

2.1.2.1. Nizomning 1.2-bandida sanab o'tilgan, maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq mehnatga xaq to'lash xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari.

2.1.2.2. Nizomning 1.3-bandiga muvofiq, 2.1.2.1. bandga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga xarajatlar.

2.1.2.3. Savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari.

2.1.2.4. Nizomning 1.4-bandiga muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

2.1.2.5. Sanitariya kiyim-boshi, oshxona dasturxon va sochiqlari, arzonbaho, tez eskiradigan buyumlar, oshxona idish-tovog'i va anjomlari eskirishi.

2.1.2.6. Gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari.

2.1.2.7. Tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari.

2.1.2.8. Savdo reklamasi xarajatlari.

2.1.2.9. Tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi.

2.1.2.10. O'rash-joylash materiallari xarajatlari.

2.1.2.11. Mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

2.1.2.12. Mehnatni muxofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari.

2.1.2.13. Ventilyatorlar, mashinalar va ularning xarakatlanuvchi qismlarini o'rnatish va saqlash, tuynuklar, o'yiqlar va boshqalarning atrofini o'rash bo'yicha joriy (nomukammal tusdagi) xarajatlar.

2.1.2.14. Maxsus kiyim-bosh va maxsus poyabzalning eskirishi.

2.1.2.15. Maxsus kiyim-bosh va maxsus poyabzal va yakka tartibdagi ximoyaning boshqa vositalari yuvilganligi, tuzatilganligi va dezinfektsiya qilinganligi uchun kir yuvuvchilar, chuzatuvchilar va boshqa yuridik shaxslarga xaq to'lash.

2.1.2.16. Maxsus kiyim-bosh va poyabzalni yuvish va tuzatishga sarflangan materillar qiymati.

2.1.2.17. Umumiy ovqatlanish va savdo xodimlari tibbiy ko'rikdan o'tkazilganligi uchun tibbiyot muassasalariga haq to'lash.

2.1.2.18. Kassa xo'jaligini va tushum inkassatsiyasini yuritish chiqimlari.

2.1.2.19. Umumiy ovqatlanish korxonalarida qog'oz salfetkalar, qog'oz dasturxonlar, qog'oz stakanlar va tarelkalar, bir marta foydalaniladigan anjomlar qiymati.

2.1.3. Sotish bozorlarini o'rganish buyicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar).

2.1.4. Yuqorida sanab o'tilmagan sotish bo'yicha boshqa xarajatlar.

2.2. Ma'muriy xarajatlar Ma'muriy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

2.2.1. 1.2-bandda sanab o'tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga xaq to'lash xarajatlari.

2.2.2. 1.3-bandda sanab o'tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

2.2.3. Xizmat yengil avtotransportiga va xizmat mikroavtobus saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari.

2.2.4. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari.

2.2.5. Boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

2.2.6. Telekommunikatsiyalar xizmatlari, shu jumladan: maxalliy tarmoqlar; kanallarni ijaraga berish; ko'chma, yo'ldosh va peyjing aloqa; radiochastota spektridan foydalanish; ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, shu jumladan Internet uchun haq to'lash.

2.2.7. Shaxarlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun belgilangan normativlar doirasida va ulardan ortiqcha xaq to'lash.

2.2.8. Ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash.

2.2.9. Ma'muriy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vositalarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek eskirish (amortizatsiya) xarajatlari.

2.2.10. Yuqori tashkilotlar va yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar.

2.2.11. Xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

2.2.12. Boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar.

2.2.13. Belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha miqdordagi vakillik xarajatlari.

2.2.14. Umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to'lash xarajatlari.

2.2.15. Bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo'lgan jamg'armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, tabiiy atrof muxitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari.

2.2.16. Xizmatlar qiymatini to'lash hamda professional boshqaruvchi kompaniyalar, davlatning ishonchli vakillari va ishonchli boshqaruvchilarning mukofotlari bo'yicha xarajatlar.

2.3. Boshqa operatsiya xarajatlari

Boshqa operatsiya xarajatlari quyidagilar kiradi:

2.3.1. Kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, yangi tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektda ishlash uchun normalar doirasida va ulardan ortiqcha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno.

2.3.2. Loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek ob'yekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog'idagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqqan taftig xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar yetkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatalr chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lgan yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi.

2.3.3. Maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash.

2.3.4. Auditorlik xizmatlariga haq to'lash, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'yektning qatnashchilaridan (mulkdorlardan) birining tashabbusi bo'yicha o'tkaziladigan auditorlik xizmatlariga haq to'lash.

2.3.5. O'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'rilgan zararlar.

2.3.6. Salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari.

2.3.7. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam berish va boshqa xil ishlarni) bajarish xarajatlari.

2.3.8. Kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar.

2.3.8.1. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga ko'ra kompensatsiya to'lovlari.

2.3.8.2. Biryola to'lanadigan mukofotlar va taqdirlashlar, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'zining qaroriga ko'ra ko'p yillik xizmati uchun haq to'lash (naturadagi to'lovlar ham shu jumlagacha kiradi), shuningdek, ular bo'yicha ijtimoiy jamg'armalarga o'tkaziladigan summalar.

2.3.8.3. Qonun hujjatlariga yoki xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'zining qaroriga muvofiq majburiy progul vaqti yoki past haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash.

2.3.8.4. Vaqtincha mehnat layoqatini yo'qotgan taqdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan, haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo'shimcha haq.

2.3.8.5. Asosiy ish joyi bo'yicha ishchilarga, xo'jalik yurituvchi sub'yekt ishchi va mutaxassislariga ular ishdan ajragan holda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o'qigan vaqtda ish haqi to'lash.

2.3.8.6. Ikki va undan ko'p bolalari yoki o'n olti yoshgacha nogiron bolasi bo'lgan ayollarga qonunchilikka muvofiq qo'shimcha mehnat ta'tili haqini to'lash.

2.3.8.7. Xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa narsalarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish.

2.3.8.8. Xodimlarning (ovqatlanishi, yo'l kirasi, davolanish va dam olishga, ekskursiya va sayyohatlarga yo'llanmalar, sport seksiyalarida, to'garaklarda, klublardagi mashg'ulotlari, madaniy-ko'ngilochar va jismoniy tarbiya (sport)

tadbirlariga qatnashishi, xodimlarning shaxsiy obunasi va ist'moli hamda boshqa shunga o'xshash to'lovlari) xarajatlarini qoplash.

2.3.9. Ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar:

2.3.9.1. Qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to'langungacha parvarish qilish bo'yicha har oyilik nafaqani to'lash bo'yicha xarajatlar.

2.3.9.2. pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat fahriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar.

2.3.9.3. Amaldagi qonunchilikka muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan ularning qayta tashkil etilishi, xodimlar va shtatlar sonining qisqarishi munosabati bilan bo'shab qoladigan xodimlarga to'lovlar.

2.3.9.4. Xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam.

2.3.10. Sog'liqni saqlash ob'yektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob'yektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek uy-joy fonda ob'yektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta'mirlash ishlarini o'tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari

tomonidan belgilangan normativlar doirasidagi va ulardan ko'proq xarajatlar.

2.3.11. Vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'yektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanidigan xarajatlardan tashqari).

2.3.12. Bank va depozitariy xizmatlariga to'lovlar.

2.3.13. Ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar.

2.3.14. Amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi sub'yekt xarajatlariga kiritiladigan byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar,

shuningdek Hukumat qarorlariga binoan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash.

2.3.15. Zararlar, jarimalar, penyalar:

2.3.15.1. Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha yo'qotishlar.

2.3.15.2. Moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolishi normalari doirasidagi va normalardan ko'proq, bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan yo'qotishlar hamda kamomadlar.

2.3.15.3. Ishlab chiqarish zahiralarini va tayyor mahsulotni eng past baholash usuli yoki sotishning sof qiymati bo'yicha qayta baholash yoki bahosini pasaytirish natijasidagi zararlar.

2.3.15.4. Idishlarga doir ishlar bo'yicha zararlar.

2.3.15.5. Sud xarajatlari.

2.3.15.6. To'lanishi shubhali qarzlar bo'yicha zahiraga ajratmalar.

2.3.15.7. Qonunchilikka muvofiq da'vo bildirish muddati o'tgan va undirish noreal bo'lgan boshqa qarzlar bo'yicha debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha to'lanishi shubhali qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar.

2.3.5.8. Xisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar operatsiyalari bo'yicha ko'rilgan zararlar.

2.3.15.9. Tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zahirolari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo'lishi va buzilishi, ishlab chiqarishning to'xtashi va boshqalar tufayli yo'qotishlar) tufayli ko'rilgan qoplanmaydigan yo'qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarining oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar.

2.3.15.10. Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summani undirish mumkin bo'lmagan hollarda ko'rilgan zararlar.

2.3.15.11. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari)ning chiqib ketishi (balansdan chiqarish)dan ko'rilgan zararlar.

2.3.15.12. Xo'jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan mahsulotni yetkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan to'lovlar va boshqa xil sanksiyalar, shuningdek yetkazilgan zararlarni to'lash bo'yicha xarajatlar.

2.3.15.13. Soliq qonuni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar.

2.3.15.14. To'langan boshqa jarimalar.

2.3.15. Boshqa xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.10.2003 yil

444-sonli qarori 1-ilovasi I.bo'limi 2.bandini e) bandchasiga

asosan tahrirga kiritildi

2.3.16. Xodimlarga beriladigan yoki yordamchi xo'jaliklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektning umumiy ovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narx tafovutlari.

2.3.17. Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulk bo'yicha, belgilangan tartibda.

2.3.18. YAngi texnologiyalar yaratish va qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari olib borish, xom ashyo va materiallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jixozlash bilan bog'liq mahsulotlar sifatini oshirish xarajatlari.

2.3.19. Ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperiment ishlari olib borish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinash, ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlarni, sertifikatlashni hamda ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflar haqini to'lash xarajatlari va boshqa xarajatlar.

2.3.20. Ijaraga berilgan asosiy vositalarni ta'minlash xarajatlari.

2.4. Hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlari

Ushbu bo'limda sarmoya bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lmagan va sarmoya bilan ta'minlanadigan asosiy vositalar qiymatiga qo'shilmaydigan xarajatlar sanab o'tilgan.

2.4.1. Xo'jalik yurituvchi yangi sub'yektlar, ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni o'zlashtirishga xarajatlar:

2.4.1.1. Mashina va mexanizmlarning ayrim turlarini yakka tartibda sinab ko'rish hamda barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida (ishlatilmayotgan holatda) kompleks sinab ko'rish.

2.4.1.2. Asbob-uskunalarni ishlab chiqargan zavodlar yoki ularning topshirig'iga binoan ixtisoslashtirilgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan shefmontaj.

2.4.1.3. Qurilayotgan korxona direktsiyasining, direktsiya bo'lmagan taqdirda - texnik nazorat guruhining xarajatlari (ma'muriy xarajatlar), shuningdek xo'jalik yurituvchi yangi sub'yektlar va ob'yektlarni foydalanishga qabul qilib olish bilan bog'liq xarajatlar.

2.4.1.4. Yangi ishga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda ishlash uchun kadrlar tayyorlashga xarajatlar.

2.4.2. Yangi texnologiyalarni yaratish va qo'llanayotgan texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha, shuningdek ilmiy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazish, xom ashyo va materiallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar sifatini oshirish bo'yicha xarajatlar.

2.4.3. Boshqaruv tizimlari va vositalarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha xarajatlar.

2.4.4. Seriyali va keng ko'lamda chiqariladigan mahsulotlar Yangi turlarini ishlab chiqarishni hamda texnologik jarayonlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari.

2.4.5. Qonunchilikka muvofiq ishchi kuchlari qabul qilish Bilan bog'liq xarajatlar.

2.4.6. Ixtirochilik va ishlab chiqarish tusidagi ratsionalizatorlikka, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflar bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinab ko'rish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlar, sertifikatlashni hamda boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflik mukofotlarini to'lash xamda boshqa xarajatlar.

2.4.7. Qazilmalarni qazib olish sohalaridagi tayyorgarlik ishlari xarajatlari, agar ular kapital xarajatlarga taalluqli bo'lmasa (ya'ni asosiy fondlar sifatida sarmoya bilan ta'minlanmasa).

2.4.8. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni, ishlab chiqarish liniyalarini rivojlantirish (takomillashtirish) xarajatlari.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar

3.1. Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar (investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlardan tashqari), shu jumladan, muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar.

3.2. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari.

3.3. Chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar.

3.4. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar.

3.5. O'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar.

3.5. O'z xarajatlar.

3.6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

4. Favqulodda zararlar

Favqulodda zararlar - bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni xam xisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi sub'yekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u xolda – iqlim sharoitlariga bog'liq xoldagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda "bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak" mezoniga javob bermaydi.

5. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlar ro'yxati

1. Sotishdan olinadigan sof tushum
2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar
3. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar
4. Favqulodda foyda

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan ularning xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olinadigan daromadlari hisobotga quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha kiritiladi:

- Sotishdan olingan sof tushum.
- Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari).
- Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.
- Favqulodda daromadlar.

1.Sotishdan olinadigan sof tushum

1.1. Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan, undan qo'shilgan qiymat, aktsiz soliki va eksport boj poshlinasi, chegirilgan tushum sifatida aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

1.2. Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, daromad (foyda)ni amaldagi qonunchilikka muvofiq xisoblab chiqaradilar.

1.3. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushum buxgalteriya xisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromatlarga quyidagilar kiradi:

2.1. Undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlar va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzg'anlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar.

2.2. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda.

2.3. Ishlab chiqarish va maxsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan renta daromadi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar xuzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar.

2.4. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar.

2.5. Da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.

2.6. Tovar-moddiy boyliklarni puxta baholash. Tovar-moddiy boyliklarni to'liq baholash summasi mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishiga ko'ra soliq solinadigan daromadga kiritiladi).

2.7. Davlat subsidiyalaridan daromadlar (soliq solishda yalpi daromadga kiritilmaydi).

2.8. Xolisona moliyaviy yordam.

2.9. Boshqa operatsion daromadlar.

3. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromatlarga quyidagilar kiradi:

3.1. Olingan royaltlar va sarmoya transferti.

3.2. O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida ulush qo'shgan xolda qatnashishdan olingan daromad, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektga tegashli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar.

3.3. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish).

3.4. Valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari.

3.5. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar.

3.6. Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

4. Favqulodda foyda

Favqulodda foyda moddalari - bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, xodisa yoki xo'jalik yurituvchi sub'yektning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tUSDagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

G. Tovar-moddiy zaxiralarni, tugallanmagan ishlab chiqarishlarni, shuningdek kelgusi davrlar xarajatlarini baxolash

Ushbu Nizomga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari hisobot davri mobaynida ishlab chiqarish schyotlarida va tayyor mahsulot schyotida shakllanishi kerak. Biroq bir turdagi mahsulotni seriyali (keng ko'lamda) ishlab chiqarishda favqulodda holatlar tufayli kelib chiqqan favqulodda yoki bir galgi xarajatlar tayyor mahsulot tannarxiga kiritilmasligi, balki sotish xarajatlari sifatida to'g'ridan-to'g'ri xisobdan chiqarilishi kerak.

Tovar-moddiy boyliklar zahiralarini, tugallanmagan ishlab chiqarishni, shuningdek, kelgusi davrlar xarajatlarini baholash "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Kelgusi davrlar xarajatlari xarajatlarning alohida toifasini tashkil qiladi. Ular joriy davrda amalga oshiriladi, biroq keyingi hisobot davrlaridagi ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi. Biroq mazkur Nizomga muvofiq ushbu xarajatlardan 2-ildavda keltirilgan ro'yxatdagi xarajatlar chiqarib tashlanadi (ular Hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan xarajatlari sifatida aks ettiriladi).

D. Soliq solinadigan bazani aniqlash

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza quyidagicha hisoblab chiqariladi:

Daromad (foyda) solig'i to'langungacha bo'lgan daromad (foyda) yoki zarar (Nizomning A-G bo'limlariga muvofiq) plyus 1-ilovada keltirilgan buxgalteriyadagi foyda bilan soliq solinadigan foyda o'rtasidagi doimiy tafovutlar plyus yoki minus 2-ilovada keltirilgan sarflangan xarajatlarni soliq olinadigan bazadan chegirib tashlash vaqtidagi tafovutlar minus qonunchilikka muvofiq soliqlar bo'yicha imtiyozlar teng bo'ladi - daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza.

Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizomga 1-ILOVA

I. Soliq solinadigan bazaga* kiritiladigan xarajatlar moddalari (chegirilmaydigan xarajatlar yoki doimiy tafovutlar)

II. Banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar, videoko'rsatuv, video va audioga yozish punktlari, kimoshdi savdolari, puli yutuqlari bo'lgan kazino, o'yin avtomatlari, nodavlat organlari tomonidan o'tkaziladigan lotereya o'yinlari, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlari, shuningdek 1995 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan soliq solish tartibini saqlab qolgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini uchun soliq olinadigan bazadan chiqarilmaydigan xarajatlarning qo'shimcha moddalari

I. Soliq solinadigan bazaga* kiritiladigan xarajatlar moddalari (chegirilmaydigan xarajatlar yoki doimiy tafovutlar).

Ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha:

1.1. Korxonalar tomonidan suv xo'jaligi tizimlaridan belgilangan limitlardan ortiqcha ishlatiladigan suv uchun to'lov.

1.2. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy ishdan chiqish normalaridan ortiqcha nobudgarchiliklar, buzilishlar va kamomadlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ishlab chiqarish ishchilari va boshqa xodimlarni mehnatiga xarajatlar bo'yicha:

1.3. Ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan ovqatlar, maxsulotlar qiymati, xodimlarga bepul beriladigan uy-joy

haqini to'lash xarajatlari (bepul berilmagan o'y-joy, ko'rsatilmagan kommunal xizmatlar va shu kabilar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

1.4. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt xodimlariga "Ishlab chiqarish tannarxi" bo'limining 1.2.7 - bandida ko'rsatilgan qo'shimcha to'lovlarning boshqa turlari.

1.5. Moddiy yordam (shu jumladan kooperativ uy-joy qurilishiga boshlang'ich badal uchun, kooperativ va yakka tartibda uy-joy qurilishiga berilgan kreditni qisman to'lash uchun xodimlarga bepul moddiy yordam).

1.6. Jamoa shartnomasi bo'yicha xodimlarga qo'shimcha ravishda (qonunchilikda nazarda tutilgandan ortiqcha) berilgan ta'tillar, ular bo'yicha kompensatsiya to'lovlari.

1.7. Xodimlarga beriladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yoki xo'jalik yurituvchi sub'yektning umumiy ovqatlanish uchun yordamchi xo'jaliklar tayyorlaydigan mahsulotlar narxlari bo'yicha tafovutlar.

1.8. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt raxbari qaroriga ko'ra amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish xodimlarining qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha xizmat safarlari bilan bog'liq to'lovlar.

Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar bo'yicha:

1.9. Nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar.

Asosiy vositalar va moddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha

1.10. Sug'urtaning ixtiyoriy turlari bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha ajratmalar.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar bo'yicha:

1.11. Tabiiy atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari

1.12. Tegishli vakolatli organlar qarorlarisiz to'lanadigan, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar tufayli mehnat qilish layoqatini yo'qotishlar bilan bog'liq nafaqalar.

Davr xarajatlari bo'yicha

1.13. Reklama va marketing uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar.

1.14. Xizmat yengil transporti va xizmat mikroavtobusini saqlashga sarflanadigan xarajatlar, ularni yollash va ijaraga olish xarajatlari.

1.15. Telekommunikatsiyalar xizmatlari, shu jumladan: kanallarni ijaraga berish; ko'chma, yo'ldosh va peyjing aloqa; radiochastota spektridan foydalanish; ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari uchun haq to'lash, mahalliy tarmoqlar va Internet bundan mustasno, shuningde faqat bank xizmatlari ko'rsatishda foydalaniladiga telekommunikatsiyalar xizmati uchun haq to'lash (ko'chma va peyji aloqadan tashqari).

1.16. Shaxarlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlar uchun belgilangan normativlardan ortiqcha to'lov.

1.17. Yuqori organlar xamda yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlr va boshqalar xarajatlariga ajratmalar.

1.17-1. Boshqaruv xodimlariga tegishli nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar.

1.18. Boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar.

1.19. Qonunchilikda belgilangan normativ va normalardan ortiqcha vakillik xarajatlari.

1.20. Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun bepul binolar berish xarajatlari, ularga kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash va boshqalar.

1.21. Xodimlarni va mol-mulkni ixtiyoriy sug'urta qilishga hamda ixtiyoriy sug'urtaning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan boshqa turlariga qonun xujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar.

1.21-1. Ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik va unga chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kompensatsiya to'lovlari.

1.21-2. Xizmatlar qiymatini to'lash xamda professional boshqaruvchi kompaniyalar, davlatning ishonchli vakillari va ishonchli boshqaruvchilarning mukofotlari bo'yicha xarajatlar.

1.22. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt soxasiga to'g'ri kelmaydigan kasblar bo'yicha va normalardan ortiqcha kadrlar tayyorlash xarajatlari.

1.23. Loyixalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'yekt yonidagi omborga tashib keltirilgungacha sodir bo'lgan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, zanglashdan ximoya qilishdagi kamchiliklar oqibatida tekshirib ko'rish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) bo'yicha xarajatlar va shu kabi boshqa xarajatlar yetkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar xisobiga, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki nobudgarchiliklar uchun javobgar yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar xisobiga undirish mumkin bo'lmagan miqdorda, qoplanadi.

1.24. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt qatnashchilaridan (mulkdorlaridan) birining tashabbusi bo'yicha amalga oshirilgan auditorlik xizmatlari uchun to'lov.

1.25. O'z xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklariga sarflangan xarajatlardan ko'rilgan zararlar.

1.26. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lmagan salomatlikni muhofaza qilish va dam olishni tashkil qilish tadbirlari xarajatlari.

1.27. Maxsulot ishlab chiqarish (shaharlar va shaxarchalarni obodonlashtirish, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa ish turlari) bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan sarflangan xarajatlar.

1.28. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'z qaroriga ko'ra bir yo'la to'lanadigan mukofotlar va taqdirlashlar, uzoq yil ishlaganlik uchun to'lovlar, shu jumladan natura to'lovlari, shuningdek ular bo'yicha ijtimoiy jamg'armalarga o'tkazilgan summalar.

1.29. Xodimlarga tovarlar, maxsulotlar va boshqa qimmatbaxo buyumlarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish.

1.30. Xodimlar xarajatlarini to'lash (ovqatlanishga, yo'l haqiga, davolanish va dam olishga, ekskursiyalarga, sayohatlarga yo'llanmalarga, sport seksiyalarida, to'garaklarda, klublarda mashg'ulotlarga, madaniy-ko'ngilochar tomoshalarga, jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga, obunaga va xodimlarning shaxsiy iste'mol tovarlariga va boshqa shu kabilarga to'lovlar).

1.31. pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar.

1.32. Xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam, xodimning jaroxatlanishi yoki boshqa tarzda sog'lig'iga shikast yetkazilishi va xodim oila a'zolarining vafoti munosabati bilan beriladigan moddiy yordamdan tashqari.

1.33. Sog'liqni saqlash ob'yektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlar, madaniyat va sport ob'yektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek uy-joy fondi ob'yektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta'mirlashlarni o'tkazish uchun amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlardan ortiqcha xarajatlari.

1.34. Ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga (agar ular yuridik shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa), madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar.

1.35. Ishlab chiqarish jarayoniga bevosita tegishli bo'lmagan moddiy boyliklarning tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha nobudgarchiligi va kamomadi.

1.36. Sud xarajatlari.

1.37. To'lanishi shubhali qarzlari bo'yicha zahiraga ajratmalar.

1.38. Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summani undirish mumkin bo'lmagan hollarda ko'rilgan zararlar.

1.39. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari)ning chiqib ketishi (balansdan chiqarilishi)dan ko'rilgan zararlar, xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan uch yildan ortiq ishlatilgan asosiy vositalarni sotishdan ko'rilgan zarardan tashqari.

1.40. Xo'jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan maxsulot yetkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, neustoykalar va boshqa xil sanksiyalar, shuningdek yetkazilgan zararlarni to'lash bo'yicha xarajatlar.

1.41. Soliq xaqidagi qonunlarni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar.

1.42. To'langan boshqa jarimalar.

1.43. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning "Davr xarajatlari" bo'limining 2.3.21-bandida ko'rsatilgan boshqa operatsiya xarajatlari.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar

1.44. To'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar.

1.45. Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining uzoq muddatli kreditlari bo'yicha foizlar (investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiradigan investitsiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar, shuningdek lizing ob'yektini sotib olish uchun olingan kreditlar bo'yicha belgilangan boshqa to'lovlar foizlaridan tashqari).

1.46. Qimmatli qog'ozlar chiqarish bilan bog'liq xarajatlar.

1.47. Qimmatli qog'ozlar qiymatini muddatidan oldin to'lash munosabati bilan vujudga kelgan diskont, agar u byudjetdan qarzlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmasa.

Tovar-moddiy zaxiralarni qayta baxolash bilan bog'liq xarajatlar moddalari

1.48. Qayta baholashni o'tkazish chog'ida paydo bo'ladigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadida, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olish uchun tovar-moddiy zahiralar qiymatining ortishi qayta baholash zahira schyotiga kredit qilinadi va xo'jalik yurituvchi sub'yekt foydasi tarkibida ko'rsatilmaydi. Biroq

solliq solinadigan bazani baxolash maqsadida qiymatning bunday oshirilishi teskari tartibda ushbu ilovaga muvofiq balans foydaga qo'shiladi.

II. Banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar, videoko'rsatuv, video va audioga yozish punktlari, kimoshdi savdolari, pulli yutuqlari bo'lgan kazino, o'yin avtomatlari, nodavlat organlari tomonidan o'tkaziladigan lotereya o'yinlari, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlari, shuningdek 1995 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan solliq solish tartibini saqlab qolgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari uchun solliq olinadigan bazadan chiqarilmaydigan xarajatlarning qo'shimcha moddalari

2.1. Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha:

2.1.1. Amalda bajarilgan ishlar uchun xo'jalik yurituvchi sub'yektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga, shu jumladan mehnat unumdorligini hisobga olish bo'yicha boshlang'ich xujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlarga muvofiq ishbay baxolar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish tusidagi hisoblab yozilgan ish haqi.

2.1.2. Kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar.

2.1.3. Ish tartibi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar, shu jumladan:

2.1.3.1. Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan, tungi vaqtda, belgilangan vaqtdan tashqari, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustama va qo'shimcha haqlar.

2.1.3.2. Ko'p smenali tartibda ishlaganlik, kasblarni qo'shib bajarganlik va xizmat ko'rsatish tegrasini kengaytirganlik uchun ustamalar.

2.1.3.3. Hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mexnat sharoitlarida va tabiiy-iqlim

sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish xaqiga ustamalar.

2.1.3.4. Aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va tosh yo'llar xodimlari hamda doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusidabo'lgan boshqa xodimlar ish xaqiga, yo'lda o'tadigan xar bir sutka uchun, xo'jalik yurituvchi sub'yekt joylashgan joydan jo'nab ketgan vaqtidan u yerga qaytib kelgan vaqtigacha to'lanadigan ustamalar.

2.1.3.5. Qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va to'liq ta'mirlashda bevosita band bo'lgan xodimlar uchun, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan xollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda, ishlarning ko'chma va qatnov tusidaligi uchun ustamalar.

2.1.3.6. yer osti ishlari bilan doimiy band bo'lgan xodimlarga, ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq.

2.1.3.7. Mexnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsientlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar.

2.1.3.8. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt joylashgan joy (to'planish punkti)dan ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxta usulida ishlash jadvalida nazarda tutilgan yo'lda bo'lingan kunlar uchun, shuningdek xodimlarning meteorologiya sharoitlari bo'yicha va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to'lanadigan summalar (ishlar vaxta usulida bajarilganda).

2.1.4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlab hisobga olingan taqdirda va qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining normal davom etish muddatidan ortiqcha ishlaganlik munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (ish vaqtidan tashqari ishlaganlik uchun beriladigan dam olish kunlari) uchun xaq to'lash.

2.1.5. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

2.1.5.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq navbatdagi (xar yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, foydalanilmagan navbatdagi (xar yilgi) ta'tillar va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiya, o'smirlarning imtiyozli soatlari, onalarning chaqaloqni ovqatlantirish uchun ishdagi tanaffuslari, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun xaq to'lash.

2.1.5.2. Asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga to'lovlar.

2.1.6. Davlat vazifalarini (xarbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va xokazo) bajarganlik uchun mehnat xaqi to'lash.

2.1.7. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan xodimlar mehnatiga xaq to'lash jamg'armasiga belgilangan tartibga muvofiq kiritiladigan boshqa xil to'lovlar.

2.2. Davr xarajatlari bo'yicha:

2.2.1. Mazkur Nizomning 1.2-bandida sanab o'tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli xodimlar mehnatiga xaq to'lash xarajatlari.

2.2.2. Qonunchilikka muvofiq yoki xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'zining qaroriga ko'ra majburiy ishga chiqilmagan vaqt yoki past xaq to'lanadigan ish bajarilganligi uchun xaq to'lash.

2.2.3. Mehnat layoqati vaqtincha yo'qotilgan taqdirda qonunchilikda belgilangan amaldagi ish xaqigacha bo'lgan ustama.

2.2.4. Asosiy ish joyi bo'yicha ishchilarga, xo'jalik yurituvchi sub'yekt ishchilari va mutaxassislariga ular ishdan ajralgan xolda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o'qigan vaqt uchun xaq to'lash.,

2.2.5. Bolalarni tarbiyalayotgan ayollar ta'tiliga qonunchilikka muvofiq haq to'lash.

Izox. Ushbu ilovaning birinchi qismida (1.1, 1.2, 1.11, 1.12, 1.21, 1.35, 1.36, 1.37, 1.37, 1.38, 1.40, 1.41, 1.42, 1.47-bandlardan tashqari) nazarda tutilgan xarajatlar smetasi xo'jalik yurituvchi sub'yektning vakolatli boshqaruv organi

(qatnashchilar, muassislarning umumiy yig'ilishi, aktsiyadorlik jamiyatlarida esa kuzatuvchi kengash) tomonidan tasdiqlanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ustav jamg'armasidagi davlat ulushi 25 foiz va undan ortiq bo'lgan taqdirda xarajatlar smetasi Uzbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizomga 2-ILOVA

Ushbu davrning soliq solinadigan bazasidan chiqarilmaydigan, biroq keyingi davrlarning soliq solinadigan bazasidan chiqariladigan xarajatlar (vaqtlar bo'yicha tafovutlar)

Xarajatlarning ushbu moddalari xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy xisobotlarida davr xarajatlari sifatida hisobga olinadi. Biroq ular soliq olish maqsadlari uchun ularni soliq solinadigan bazaga kiritish uchun foydaga qaytadan hisobga olinadi, so'ngra esa ushbu xarajatlarning butun foydali muddati davomida yoki 10 yil mobaynida, ushbu muddatlardan qaysi birining (vaqtlar bo'yicha tafovutlarning) qisqa bo'lishiga qarab, keyinchalik chiqarib tashlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni davr xarajatlari sifatida hisobga olinadigan ikkita eng past tannarx: tannarx bo'yicha yoki sof bozor narxi bo'yicha baholash bilan bog'liq bo'lgan maxsus ajratmalar sriq solinadigan bazani hisoblashda foyda tarkibiga qaytadan kiritiladi, biroq tovar-moddiy zaxiralar xaqiqatan sotilgandan keyin chegirib tashlanadi.

Ushbu davrning soliq solinadigan bazasidan chiqarilmaydigan, biroq keyingi davrlarning soliq solinadigan bazasidan chiqariladigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Xo'jalik yurituvchi yangi sub'yektlar, ishlab chiqarishlar, sexlar va agregatlarni o'zlashtirish xarajatlari.
2. Mashina va mexanizmlarning ayrim turlarini yakka tartibda sinab ko'rish xamda barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish

sifatini tekshirib ko'rish maqsadida (ishlatilayotgan xolatda), kompleks sinab ko'rish xarajatlari.

3. Asbob-uskunalarni yetkazib bergan zavodlar yoki ularning topshirigaga binoan- ixtisoslashtirilgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan amalga oshiriladigan shefmontaj xarajatlari.

4. Qurilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt direktsiyasining, direktsiya bo'lmagan taqdirda - texnik nazorat guruhining xarajatlari (ma'muriy xarajatlar), shuningdek xo'jalik yurituvchi yangi sub'yektlar va ob'yektlarni foydalanishga qabul qilib olish bilan bog'liq xarajatlar.

5. YAngi ishga tushirilgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda ishlash uchun kadrlar tayyorlash xarajatlari.

6. YAngi texnologiyalarni yaratish va qo'llanayotgan texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha, shuningdek ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazish, xom ashyo va materiallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jixozlash bilan bog'liq bo'lgan maxsulotlar sifatini oshirish bo'yicha xarajatlar.

7. Boshqaruv tizimlari va vositalarini yaratish xamda takomillashtirish bo'yicha xarajatlar.

8. Seriyali va keng ko'lamda chiqariladigan maxsulotlarning YAngi turlarini ishlab chiqarish hamda texnologik jarayonlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'zlashtirish xarajatlari.

9. Qonunchilikka muvofiq ishchi kuchlari qabul qilish bilan bog'liq xarajatlar.

10. Ixtirochilik va ishlab chiqarish tusidagi ratsionalizatorlik, tajriba-sinov ishlari o'tkazish, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalar tayyorlash va sinab ko'rish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlar o'tkazish, sertifikatlash xamda boshqa tadbirlarni tashkil etish xarajatlari, mualliflik mukofotlari to'lash xamda boshqa xarajatlar.

11. Qazilmalarni qazib olish soxalaridagi tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlarga taalluqli bo'lmasa (ya'ni asosiy fondlar sifatida sarmoya bilan ta'minlanmasa).

12. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni, ishlab chiqarish liniyalarini rivojlantirish (takomillashtirish) xarajatlari.

13. Jadallashtirilgan metod bilan xisoblangan amortizatsiya summasi va belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq:

a) asosiy vositalar bo'yicha - soliq to'g'risidagi qonun xujjatlariga muvofiq;

b) nomoddiy aktivlar bo'yicha - boshlang'ich qiymatidan va foydali ishlatish muddatidan kelib chiqqan holda xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan hisoblab chiqilgan normalarga muvofiq".

11.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish yo'llari

Qishloq xo'jaligida mahsulot birligining tannarxini pasaytirish eng zarur masalalardan biridir. Mahsulot birligi tannarxini pasaytirish resurslar cheklangan sharoitda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahsulot tannarxi to'g'ridan-to'g'ri ikki omilga bog'liq. Birinchidan, yetishtirilayotgan mahsulotning miqdoriga bog'liq. yetishtirilayotgan mahsulot miqdorining oshishiga nimalar ijobiy ta'sir etsa, ular ustida ishlash lozim. Bularga dehqonchilikda quyidagilar kiradi:

- erlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali foydalanish. Bu, o'z navbatida, hosildorlikning o'sishiga olib keladi;
- mintaqalar sharoitiga mos bo'lgan, ilmiy asoslangan qishloq xo'jaligi yuritish tizimini joriy etish;
- almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish, talab va imkoniyatdan kelib chiqqan holda ekin turlarini joylashtirishni ratsional tashkil etish;
- urug'chilikni yaxshilash, selektsiya ishlarini jonlantirish;

- ma'danli va organik o'g'itlardan foydalanishni ilmiy asosga qo'yish, barcha kimyoviy vositalardan samarali foydalanish;

- ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish.

Dehqonchilik tarmoqlarida mahsulotlar tannarxining past bo'lishiga xarajatlarni tejash ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu boradagi omillarga quydagilar kiradi:

- ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish;
- ekinlarni parvarishlashda intensiv texnologiyalarni qo'llash;
- ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish;
- ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish;
- agrosanoat integratsiyasini chuqurlashtirish, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarning mutanosib rivojlantirilishi;
- boshqaruv tizimini rivojlantirish hisobiga u bilan bog'liq xarajatlarni tejash;
- qishloq joylarda ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash.

Chorvachilik tarmog'ida mahsulot birligi tannarxining pasayishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash, yem-xashakning sifatini oshirish va nisbatan arzon bo'lishini ta'minlash;
- chorva mollarining zotini, poda tarkibini yaxshilash;
- chorva mollarini saqlash, boqishning intensiv texnologiyalaridan foydalanish;
- chorvachilik mahsulotlari sifatini oshirish;
- chorvachilikda ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- fondlardan foydalanishning eng mo''tadil (optimal) yo'llaridan foydalanish;
- ishlab chiqarishning quyuglashuvi (kontsentratsiyalashuvi) va ixtisoslashuvining eng ma'qul hajmlarini tashkil etish;
- ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish;
- qishloqda ijtimoiy masalalarning yechimini topish;

- barcha xarajatlarni tejamkorlik bilan amalga oshirish, bu borada mavjud texnologiyalardan, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridan samarali foydalanish;
- mahsulot nobudgarchiligiga yo'l qo'ymaslik.

Ushbu omillarning barchasiga katta e'tibor berish zarurati mavjud. Albatta, bu masalalarni to'g'ri hal etish ishchi xodimlarning nafaqat manfaatdorligiga, balki bilim va tajribalariga ham bog'liq. SHu sababli qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlarning bilim va tajribasini tinmasdan oshirib borishni ta'minlash kerak.

Qisqacha xulosalar

Mahsulotlar tannarxi iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir. To'la tannarx deganda mahsulot birligini ishlab chiqarish va uni sotish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasiga tushuniladi.

Mahsulotlarning tannarxi shakllanishiga juda ko'plab omillar ta'sir etadi. Mahsulot tannarxini pasaytirish agrosanoat majmuasining samaradorligini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida mahsulot birligining tannarxini pasaytirish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud.

Tayanch iboralar

Ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, tejamkorlik, fond qaytimi, fond sig'imi, fond bilan ta'minlanish va qurollanish, aylanma fondlar, aylanma mablag'lar, samaradorlik koeffitsienti, asosiy fondlarninig eskirishi, jismoniy eskirish, amortizatsiya, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutonosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini fond, fonda qaytimi, yalpi ichki mahsulot, hosildorlik, mahsuldorlik, natural ko'rsatkichlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tannarx tushunchasi nimani anglatadi?
2. Tannarxning mohiyati va ahamiyati.
3. Tannarxning qanday turlari mavjud?
4. To'liq tannarx.
5. Ishlab chiqarish tannarxi.
6. Qishloq xo'jaligida mahsulotlar tannarxi qanday usullar orqali hisoblanadi?
7. Qishloq xo'jaligida mahsulot birligining tannarxini pasaytirishga qanday omillar ta'sir etadi?
8. Qishloq xo'jaligida ish birligining tannarxini pasaytirishga qanday omillar ta'sir etadi?
9. O'simlikchilikda mahsulotlar tannarxini aniqlash tartibi.
10. CHorvachilikda mahsulotlar tannarxini aniqlash tartibi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
2. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Hakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
3. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
4. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
5. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

12-BOB. AGROSANOAT MAJMUASI TARMOQLARI MAHSULOTLARINING NARXLARI

12.1. “Narx” tushinchasi, uning mohiyati va funksiyalari

Iqtisodiy kategoriyalar orasida eng murakkabi va o'zida barcha omillarni ifodalashi bo'yicha narxga teng keladigani kam. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda “narx”, ayrimlarida “baho” tushinchasi ishlatiladi. Biz bu so'zlarning mohiyatida bir narsani ko'ramiz. Iqtisodiy adabiyotlarda narxning bir necha tarifi mavjud.

Narx – mahsulot qiymatining pulda ifodalanishidir. Bu yerda qiymat qonuni amal qiladi. Narxning talab va taklif asosida qiymat atrofida o'zgarib turishi qiymat qonunining mazmunini ifodalaydi. Narxning qiymat qonuni asosida aniqlanishi faqatgina inson mehnatlari mevalariga nisbatan ishlatiladi. Inson mehnati sarflanmagan tabiiy resurslar yer, suvning narxini bu ta'rif bilan aniqlash mumkin emas. Qiymat nazariyasiga ko'ra yer va suv ayriboshlash qiymatiga ega emas va shuning natijasida uning bu nazariya asosida narxini aniqlash mumkin emas.

Bozor qonuniyatlari asosida narx – bu ayriboshlash jarayonida mahsulotlar (ne'matlar)ning qimmatini (nafliligini) aks ettirish shaklidir. Narxning bu tarifi nisbatan keng bo'lib, bozor munosabatlari talablariga to'liqroq javob beradi. Narxga berilgan bu tarifda ikki holatni ko'rish mumkin. Birinchidan tovarlar (ne'matlar) narxi uning biror ehtiyoj uchun qanchalik nafga, qimmatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan ne'matlar narxi faqatgina ayriboshlash jarayonida yuzaga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda narx faqatgina bozorda (oldi sotdi jarayonida shakllanadi) vujudga keladi va bozorsiz uni ifodalash mumkin emas. SHu sababli narxga quyidagicha tarif ham berish mumkin. Narx – bu biror ne'matning nafliligini hisobga olgan holda iste'molchi (xaridor) tomonidan to'lashga rozi bo'lgan summadir.

Bozorda mahsulotlar narxlarining qanday bo'lishi ko'plab omillarga bog'liq. SHulardan eng asosiysi talab va taklif miqdorining bir – biriga mos kelishidir. Albatta, bu umumiy qoida uzoq muddatga saqlanib turadi. Lekin ayrim hollarda, mahlum davrlarda talab va taklif bozor ishtirokchilarining ta'sirida mos kelmasligi,

ko'proq foyda olish maqsadida qonuniyat yuzasidan shakllangan narx o'zgartirilishi ham mumkin. Bunday holda shu tovarning o'rnini bosadigan boshqa tovarlarning mavjudligi, ularning narxlari katta omil bo'lib yuzaga chiqadi. Agarda biz iste'mol qilmoqchi bo'lgan tavarning narxi keskin yoki qisman oshirilsa, iste'molchi sifatida darhol uning o'rnini bosadigan boshqa tovar izlaymiz. O'rnini bosadigan yangi tovarning narxi pastroq bo'lgan holda biz shu yangi tovarni sotib olamiz. Natijada, bunday holat ma'lum vaqt o'tgandan keyin dastlabki tovar narxining ham pasayishga olib keladi.

Mahsulotlar narxiga ta'sir etuvchi eng kuchli omillardan biri iste'molchilar xarid qilish qobiliyatlarining yuqori yoki past bo'lishidir. Bu omilni ham hisobga olish zarurati katta. Bozorda shakllanayotgan narx ishlab chiqarishning, xizmat ko'rsatish sohasining nima bilan shug'ullanishini belgilaydi. Ishlab chiqarish resurslarining doimiy ravishda tarmoqlar o'rtasida taqsimlanib va qayta taqsimlanib turishiga olib keladi. SHu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyoti ma'lum darajada tartibga solinib turiladi va talab bor sohalarning rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy jihatdan asoslangan mahsulot qiymatidan past, lekin uni ishlab chiqarish va sotishga ketadigan xarajatlardan, boshqacha qilib aytganda, mahsulot tannarxidan yuqori bo'lishi kerak. Ana shu qonuniyat ta'minlangan holda mahsulot va xizmat turlarini ishlab chiqarish rivojlanib boradi. Bu zaruriyat qishloq xo'jaligida doimo ham ijobiy yuzaga chiqmaydi. Gap shundaki, qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishda yaxshi, o'rta va yomon imkoniyatlardan ham foydalaniladi. CHunonchi, xalqning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yomon sharoitga ega yerlardan ham foydalanish zarurligini keltirib chiqaradi. Natijada yaxshi, unumdor yerda dehqonchilik qiladiganlarning oladigan mahsuloti ko'p va xarajatlari kam bo'ladi. Yomon, unimsiz yerlarda dehqonchilik qilganlar esa ko'p xarajat qiladilar va kam mahsulot yetishtiradilar. Bozorda esa narx bu sharoitlarni hisobga olmaydi. SHu sababli qishloq xo'jaligida narx siyosatiga, ishlab chiqaruvchilar daromadlarining kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlatning aralashuvi zarurati kelib

chiqadi. Narxlar turli tarmoqlar o'rtasida yuzaga keladigan ayriboshlash jarayonida faol ishtirok etadi. Bu borada narxlar iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi ayriboshlashni mo''tadil bo'lishini ta'minlashi kerak.

Narxlar quyidagi funktsiyalarni bajaradilar:

- o'lchash funktsiyasi. Narxlar tovarlarning qiymatini aniqlashga yordam qilishi lozim;

- hisobga olish yoki hisoblash funktsiyasi. Narxlar har bir mahsulot va xizmat turi qanchaga tushayotganini bildiradi. Narxlar orqali barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Ularning yordamida mamlakatning yalpi ichki mahsuloti, ishlab chiqarish resurslardan foydalanishning samaradorligi va boshqalar aniqlanadi;

- talab va taklifni balanslashtirish funktsiyasi. Narxlar ishlab chiqaruvchi va mahsulotlarni sotib oluvchini hamda talab va taklifni bog'lab turadi, muvozanatlashtirishga xizmat qiladi va ularning ta'sirida o'zi muvozanatlashadi.

- tartibga solib turish funktsiyasi;

- rag'batlantiruvchilik funktsiyasi. Narxlar iqtisodiyotni tartibga olib turishda va zarur bo'linmalarni tezda rivojlantirishda katta dastak hisoblanadi. Narxlarning mahsulot tannarxidan yuqori bo'lishi ishlab chiqaruvchilar foyda qilishini ta'minlaydi. Narx qancha baland bo'lsa, xarajatlar o'zgarmagan holda korxona shuncha ko'p foyda oladi. Albatta, bu ishlab chiqarishni yanada kengaytirishni rag'batlantiradi. Aksincha, narx mahsulot tannarxidan past bo'lgan holda rivojlanish haqida gap borishi mumkin emas. Mahsulotlar sifatining oshishida ham narxning rag'batlantiruvchilik funktsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. YUqoridagilarni e'tiborga olib narxlar rag'batlantiruvchi funktsiyasini bajarishda quyidagilarni hisobga olish kerak: 1. rag'batlantiruvchi narx iqtisodiyot rivoji uchun zarur; 2. Mahsulot sifatini oshirish yangi ekin navlarin joriy etishga, yangi texnika va texnologiyani ishga tushirishga, urug'likning sifatini ortishi xarajatlarning ko'proq bo'lishini talab qiladi; 3. rag'batlantiruvchi narxning bir qismi ushbu xarajatlarni qoplashga ishlatilishi lozim; 4. rag'batlantiruvchi narxning ikkinchi qismi yuqorida qilingan ishlar evaziga qo'shimcha o'sgan sifatni rag'batlantirish zarur; 5. narxning oshishi ishlab

chiqaruvchini rag'batlantirishi va iste'molchining ham maqsadlariga mos bo'lishi kerak; 6. mahsulot tarkibiga kirgan foyda bilan va narxlardagi chegirmalar orqali ishlab chiqaruvchini rag'batlantirishi kerakligi e'tiborga olinib turiladi;

- taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi. Narx mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari o'rtasida yaratilgan daromadni taqsimlaydi va qayta taqsimlaydi. Bundan tashqari u mamlakatda yaratilgan daromadni iste'mol va jamg'arma fondlariga taqsimlanishini ta'minlaydi.

- Ishlab chiqarishni mo''tadil joylashtirish funktsiyasi.
- Ma'lumot berish funktsiyasi.

Iqtisodiy asoslangan narx ishlab chiqarishni mo''tadil rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan rentabellik darajasini hisobga olganda quyidagi ko'rinishni oladi.

$$N = I_x \times (1 + R_d / 100),$$

Bunda: N – narx; I_x – ishlab chiqarish xarajatlari; R_d – mo''tadil rentabellik darajasi.

12.2. Qishloq xo'jaligida narxlar tizimi

Iqtisodiyotning tarmoqlari, sohalari ko'p bo'lganligi sababli narxlarning ham turi ko'p. Bunday bo'lishining ob'yektiv sabablari mavjud. Narxlarning turininig ko'p bo'lishi quyidagi holatlar bilan bog'liq.

- narxlarning turli darajada (dunyo, mamlakat, tarmoq, hudud) shakllanishi va ishlatilishi;
- mahsulot, xomashyo va boshqa tovarlarni sotish kanallarining turlicha ekanligi;
- tovarni sotuvchidan iste'molchiga harakatlanish bosqichlarida turli narxda (ulgurji, chakana, topshirish) bo'lishi;
- tovarlarni sotish hajmining turlicha bo'lishi.

Qishloq xo'jaligida narxlarning quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilish narxlari. O'zbekiston Respublikasida hozirda asosan paxta va don mahsulotlari uchun xarid narxlari o'rnatilgan;

- dunyo narxlari.

- dehqon bozori narxlari. Dehqon bozorida qishloq xo'jalik mahsulotlariga asosan ulgurji va chakana narxlar ishlatiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yirik miqdorda xarid qiluvchilar ulgurji narxlardan foydalanadilar. Odatda, ulgurji narxlar chakana narxlardan ancha past bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari pishib yetilgan paytda ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini tezroq sotish maqsadida ulgurji narxlarda sotadilar. Chakana narxlarda asosan, oila ehtiyojlari uchun mahsulotlar sotib olinadi. Ixtisoslashgan do'konlarda ham asosan, chakana narxlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotiladi;

- qishloq xo'jaligida ichki hisob-kitoblarni olib borish uchun hisob narxlaridan keng foydalaniladi. Hisob narxlari ustun darajada shirkat bilan shartnoma asosida faoliyat ko'rsatayotgan oila pudrati o'rtasidagi hisob-kitoblarni olib borishda ishlatiladi;

- qishloq xo'jaligida xizmatlar uchun asosan, ta'rif narxlaridan foydalaniladi. Hozirda qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatadigan **MTP** xizmatlari ana shu narxlardan foydalanilgan holda olib boriladi;

- qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan qurilish-montaj ishlarida esa asosan smeta qiymati narxlari ishlatiladi;

- hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligida shartnoma narxlari ham keng qo'llanilmoqda.

- litsenziya narxlari.

- kafolatlangan narxlar.

Narxlar bozorda xarakat qilish sharoitlariga qarab erkin va monopol narxlarga bo'linadi. Erkin narxlar davlatning aralashuvisiz bozorlarda erkin shallanadi. Davlat tomonidan qat'iy qilib o'rnatilgan narxlardan erkin narxlarga o'tishga narxlarning

liberallasuvi (erkinlashuvi) deyiladi. Monopol narxlar bozorni to'liq nazarat qilib turgan iqtisodiyot sub'yektlari (kompaniyalar, firmalar va x.z.) tomonidan o'rnatiladi. Bu bozor munosabatlarida ijobiy hol hisoblanmaganligi sababli monopoliyaga qarshi kurash qoidalari ishlab chiqiladi. Bu davlatning narx siyosatidagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ilmiy izlanishlar, iqtisodiy o'sishni (pasayishni) tahlil qilish uchun taqqoslama (o'zgarmaydigan) narxlar keng qo'llaniladi. Narxning shakllanishida bozorning o'rnini katta. Bozorning turlariga qarab birja narxlari, auksion narxlar, komission narxlar shakllanadi.

Dunyo davlatlar o'rtasida doimiy iqtisodiy munosabatlar rivojlanib boradi. Ayniqsa, savdo aloqalar tez rivojlanib bormoqda. Davlatlar o'rtasida oldi-sotdi ishlari olib borilganda tovarlarning jahon (dunyo) narxiga murojaat qiladilar.

Malakatlar o'z iqtisodiyotini tartibga solish, ayrim tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida tartibga solib turuvchi narxlardan foydalanadilar. Tartibga solib turuvchi narxlar ayrim tarmoqlarni rivojlanishini sekinlashtirishi yoki aksincha tezlashtirishi mumkin. Tartibga solib turuvchi narxlarning bir turi maqsadli narxlardir.

Bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtacha narxi maxsus o'rnatilgan narxdan pastga tushib ketgan hollarda kafolatlangan narxlardan foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari kafolatlangan narxlardan past sotilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qishloq xo'jaligida narxlar mavsumiylik xarakteriga ega. Har bir davlat o'z narx siyosatini yuritadi. Narx siyosatida mamlakatga xos shart-sharoitlar hisobga olinadi. Bugungi kunda narxni davlat tomonidan ma'lum miqdorda tartibga solib turmaydigan davlat uchramaydi. Ayrim davlatlar narxning shakllanishiga juda kam miqdorda boshqalari esa sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Narxning davlat tomonidan tartibga solib turishining ob'yektiv sabablari quyidagilardan iborat:

1. agrosanoat majmuasi tovarlari chakana sovdoning asosiy qismini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti inson hayoti uchun birinchi darajali va kunda kerak bo'lganligi tufayli uning narxi imkon qadar stabil, o'zgarmas bo'lishi kerak;

2. qishloq xo'jaligi tabiiy omillar ta'siriga ko'proq tushadigan, natijada tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxi keskin o'zgarib turadi. Tabiiy omillar ta'sirini kamaytirish (kompensatsiya) qilish uchun davlat aralashuvi talab qilinadi;
3. qishloq xo'jaligining jadal va barqaror rivojlanishi agrasanoat majmuasining qolgan tarmoqlarining istiqbolini belgilab beradi. Qishloq xo'jaligi barqaror rivojlangan holda majmuaning boshqa tarmoqlari jadal rivojlanishi mumkin.
4. resurslar cheklangan sharoitda iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga o'sib borayotgan talablarini to'liq qondirishni faqat qishloq xo'jaligining o'ziga yuklash ijobiy samara bermaydi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga ma'lum investitsiyalar qilinishi, xarajatlarning bir qismini davlat o'z zimmasiga olishi kerak bo'ladi;
5. qishloq xo'jaligida talabning narx bo'yicha elastikligining pastligi;
6. qishloq xo'jaligi bilan boshqa tarmoqlar ayriboshlash jarayonida narxlar paritetini saqlash zararating mavjudligi;
7. qishloq xo'jaligida uzoq muddatli iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaraganda ishlab chiqarishning iqtisodiyotdagi o'rtacha daromad olishini ta'minlashning muhimligi;
8. qishloq joylarda ish joylarining saqlanishi va ijtimoiy masalalarni mo''tadil hal etishning zarurligi.

Davlat qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida shakllanadigan narxlarni tartibga solib turish borasida quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Narxlarni kuzatib turish imkoniyati.
2. Narxlarga egri ta'sir ko'rsatish. Bu holda davlat soliq, bojxona, pul emissiyasi kabi dastaklar orqali narxlarning darajasiga ta'sir ko'rsatadi.
3. Narxlarning shakllanishida davlatning bevosita ishtirok etishi. Odatda davlat biror mahsulot turiga nisbatan monopol imkoniyatni egallagan holda yuz beradi. Ayrim tarmoq mahsulotlari narxiga davlat aralashadi va monopol narx egasiga aylanadi;
4. Narxlarni o'rnatishda davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi. O'zbekistonda paxta va donning bir qismiga xarid narxlarini davlatning o'zi o'rnatadi.

Qisqacha xulosalar

Narx (baho) iqtisodiy kategoriya hisoblanib, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati beqiyos. Narx bozor iqtisodiyotining asosiy dastagidir. Mahsulot qiymatining pulda ifodalanishi, mahsulot bahosi, deb yuritiladi. Narx – bu biror ne'matning nafliligini hisobga olgan holda iste'molchi (xaridor) tomonidan to'lashga rozi bo'lgan summadir.

Uning darajasi har qanday mahsulotning raqobat sharoitida yashab qolishi yoki qolmasligini belgilaydi. Iqtisodiy asoslangan narxlar qilingan xarajatlarni to'liq qoplashi va mahsulotni ishlab chiqarib sotuvchi ma'lum miqdorda foyda olishini ta'minlashi lozim. Lekin mahsulot narxi uning qiymatidan katta bo'lmasligi talab qilinadi. Albatta, ba'zan talab va taklif ta'sirida mahsulotlarning narxlari ularning qiymatidan baland bo'lishi mumkin. Ammo bunday holat qisqa muddat davom etishi mumkin. Mahsulot narxi uning qiymatidan uzoq muddat baland bo'lishi mumkin emas.

Mahsulot va xizmatlar narxlari 5 ta funktsiyani bajaradi. Birinchi funktsiyasi – o'lchash funktsiyasi. Ne'matlarning qiymatini o'lchaydi. Ikkinchisi, hisobga olish funktsiyasidir. Bu funktsiya yordamida mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar hisobga olinadi. Uchinchisi, tartibga olish funktsiyasi. To'rtinchisi, rag'batlantirish funktsiyasidir. Narx orqali u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish, tadbirkorlik rag'batlantiriladi. Taqsimlash va qayta taqsimlash – narxning beshinchi funktsiyasidir.

Hozirda qishloq xo'jaligida turli narxlar ishlatiladi. Ularni birgalikda yig'indisini narxlar tizimi, deb yuritiladi.

Tayanch iboralar

Narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funktsiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, tejamkorlik, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara,

ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini fond, fonda qaytimi, bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati, moddiy rag'batlantirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Narx" tushunchasi nimani anglatadi?
2. Narxning mohiyati va ahamiyati.
3. Talab va taklif muvozanati.
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
5. Narxning funktsiyalari va vazifalari nimalardan iborat?
6. Iqtisodiy asoslangan narxlar deganda nima tushuniladi?
7. Qishloq xo'jaligidagi narxlar tizimi nimalarni ko'zda tutadi?
8. Narxlar pariteti.
9. Narxning rag'batlantirish funktsiyasi.
10. Narxning taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi.
11. Narx tizimi, esastiklik.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obhie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
2. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
3. Hakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.

4. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
5. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
6. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

13-BOB. AGROSANOAT MAJMUASIDA FAN, TEXNIKA TARAQQIYOTI VA INTENSIVLASHTIRISH

13.1. Intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati

Iqtisodiy fan ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikki yo'lini bir-biridan farq qiladi. Birinchi yo'l ekstensiv rivojlanish yo'li bo'lib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko'payishi ishlab chiqarish jarayoniga yangi va yangi resurslar (er, chorva mollarining soni va h.k.) jalb qilish hisobiga ta'minlanadi. Bunda mahsulot hajmining ko'payishi asosan ishlab chiqarish omillarining ko'payishi hisobiga yuz beradi. Masalan, o'tgan yili xo'jalik 500 gektar yerga don ekib, har gektaridan 40 sentnerdan, jami 2000 tonna yalpi hosil olgan edi. Joriy yilda esa donli ekinlardan 3000 tonna yalpi hosil olindi. SHu 3000 tonna hosilni olish uchun jami o'tgan yildagidan 100 gektar ko'p yoki 600 gektarga don ekildi. Hosildorlik esa joriy yilda ham 40 sentnerni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarishni bu usul bilan ko'paytirish ekstensiv yo'l hisoblanadi. Albatta, 600 gektar yerga 500 gektar yerga nisbatan ko'p urug'lik, ko'p mehnat resurslari va boshqa xarajatlar sarflangan. Lekin bu xarajatlar bir gektar yerga oldingi yil darajasida qolgan.

Iqtisodiyotni ko'proq ishlab chiqarish resurslarini (ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi va moddiy mablag'larini) iqtisodiyotga jalb etish natijasida rivojlantirishga ekstensiv rivojlanish yo'li deb baho berish qabul qilingan. Bu yo'lning imkoniyatlari cheklangan. CHunki barcha ishlab chiqarish resurslari – yer, suv, mehnat resurslari, texnika, xomashyolar, barcha-barchasi cheklangan.

Ekstensiv rivojlanishda birgina ijobiy tomonni ko'rish mumkin. Iqtisodiyot ekstensiv yo'l bilan rivojlantirilganda mehnat resurslaridan foydalanish darajasi ortadi. Mavjud mehnat resurslarini ish bilan band etish muammosi yaxshiroq xal etiladi. Lekin bu holat qisqa muddatli iqtisodiyot uchungina xos. Ekstensiv rivojlanish yo'li qator kamchiliklarga ham ega. Ekstensiv rivojlanish yo'li ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal borishiga salbiy ta'sir etadi. Mehnat unumdorligini pasayishiga olib keladi. CHunki mehnatning fond bilan qurollanish darajasi eski

holda qoladi. 1929-1982 yillarda AQSH real milliy daromadini o'sishining 19 foizi mehnatni qurollanish darajasini oshirish hisobiga olingan. Denisonning aniqlashicha AQSHda real milliy daromadning o'sishining 14 foizi mehnat resurslarining sifatining (bilimi, malakasi va ko'nikmasini) oshirish evaziga ta'minlanmoqda. Iqtisodiyotning umumiy samaradorligi pasayadi. Asosiy fondlarni yangilashning imkoniyatlari kamayadi. Ilmiy texnika taraqqiyoti mamlakatlar rivojining asoslaridan biri hisoblanadi. 1929-1982 yillarda AQSH milliy daromadining real o'sishining 28 foizi fan-texnika taraqqiyoti hisobiga ta'minlangan. Fan- texnika taraqqiyoti faqatgina yangi sifqatli va unumdor texnika, texnologiyani o'z ichiga olmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishining yangi takomillashgan, progressiv shakllari hamdir. Ekstensiv rivojlanish tabiiy resurslarni tez o'zlashtirilishiga olib keladi. Resurslarni tejash mexanizmi bu rivojlanish yo'liga xos emas.

Darhaqiqat, har bir davlatning hududi, yer resurslari cheklangan bo'lib, uni xohlagancha ko'paytirish mumkin emas. Resurslar cheklangan holda insonlarning, ishlab chiqarish talab va ehtiyojlari o'sib boradi. Bunday holda ishlab chiqarishni rivojlantirishning boshqa yo'lini topish zarurati tug'iladi. Bu yo'l – intensiv rivojlanish yo'lidir.

Qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi – bir gektar yer yoki bir bosh chorva moliga sarflanayotgan mehnat va moddiy sarflarni oshirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishdir. Bunda yer birligi yoki bir bosh chorva moliga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlarning samarasiz o'sishi mumkin emas degan qoida amal qilishi zarur. Intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyati shundaki, sarflanayotgan mehnat va moddiy xarajatlarning o'sishiga nisbatan olinayotgan mahsulot miqdori tezroq o'sishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bir birligi tannarxi nisbatan kamayib borishi lozim. Masalan, o'tgan yili yetishtirilayotgan 2000 tonna donning hosildorligi 40 sentnerni har bir sentneri tannarxi 500 so'mni tashkil etadi, deb faraz qilaylik. Joriy yilda don ekilgan har gektar maydonga mehnat va moddiy sarflarni 10 foizga ko'p qildik.

Agarda hosildorlik ham 10 foizga yoki undan kamga oshsa, intensiv rivojlanishning samarasi 0 ga teng yoki salbiy bo'lar edi. Bu holda intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyatini ko'rsatish imkoni yo'q. Agarda sarflangan mehnat va moddiy xarajatlar o'sishiga nisbatan hosildorlik tezroq o'sgan bo'lsa, intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati ochilgan bo'lar edi. Masalan, xarajatlar 10 foizga oshgan holda hosildorlik 12 foizga oshsa, demak, mahsulot birligining tannarxi nisbatan pasaygan bo'ladi. Ana shu tarzda rivojlanish yo'li intensiv rivojlanish yo'li deb yuritiladi. Intensiv rivojlanish yo'lining imkoniyatlari cheklanmagan bo'lib, resurslar tanqisligi yoki cheklanganligi sharoitida juda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi.

13.2. Fan, texnika taraqqiyoti va intensivlashtirish

Intensivlashtirish o'z mohiyatiga ko'ra, qishloq xo'jaligida ma'lum chegaralarga ega. Masalan, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda har bir texnologik jarayon uchun optimal agrotexnika muddatlari mavjud. yer haydash uchun yer haydovchi traktor, ekish uchun ma'lum miqdordagi ekish agregati, hosilni o'rish uchun (donchilikda) kombaynlar bo'lishi kerak.

Har bir ekin turi uchun zarur ma'danli o'g'it miqdori belgilangan. Agarda me'yordan ortiq ma'danli o'g'it solinadigan bo'lsa, ekinning hosildorligiga salbiy ta'sir etib, uning kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, intensivlashtirishning ma'lum darajada cheklanganligidan dalolat beradi. Bu masalaning yechimi fan-texnika taraqqiyotidadir. Fan-texnika taraqqiyoti deganda fanning, texnikaning va texnologiyaning barqaror rivojlanib borishi tushiniladi. Boshqacha qilib aytganda, fan-texnika taraqqiyoti – mavjud bilimlar natijasida ularning boyitilishi va boyitilgan bilim asosida yangi unumli texnikalar, progressiv texnologiyalarning yaratilishidir. Oldingisiga qaraganda unumli texnika va

texnologiyalar yaratilishi natijasidagina intensivlashtirish cheksiz rivojlantirilishi mumkin.

Fanning rivojlanishi natijasida o'simlik va chorva hayvonlarining yangidan – yangi xususiyatlari ochilmoqda. Natijada, ushbu yangi xususiyatlar talabidan kelib chiqqan holda texnologiyalar o'zgaradi va mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi. Bu borada fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarishni intensivlashtirishga ta'siri cheklanmagan. Ishlab chiqarishga qishloq xo'jaligi ekinlari yangi navlarining joriy etilishi bilan intensivlashtirish yanada kuchayadi. Masalan, hozirda paxta va bug'doyning serhosil navlari yaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini yangi bosqichga ko'taradi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish ishlab chiqarish kontsentratsiyasini (quyuqlashuvini) oshiradi, korxonalarda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni kuchaytiradi. Ixtisoslashuvning kuchayishi ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashish jarayonini oshiradi, mahsulotlar birligi tannarxining nisbatan oshib ketmasligini ta'minlaydi. Bu esa, ishlab chiqarishning iqtisodiy samarasi oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida og'irligi 8-14 tonna keladigan yuqori quvvatli g'ildirakli traktorlardan foydalanish ildiz tarqaladigan tuproq qatlamini nihoyatda zichlashtirishga olib keladi va shamol erroziyasi jarayonlarini kuchaytiradi, ximiyalashtirishning barcha vositalari samaradorligini keskin pasaytiradi.

Mamlakatimizning ayrim sug'oriladigan hududlarida namlanish darajasi yetarli va me'yordan ortiq bo'lgan hududlarda tuproqning ortiqcha zichlashib ketganligi ekin hosildorligiga salbiy ta'sir qilib kelayotganligi asosiy muaammolardan biri sanaladi.

O'zbekistonda 30 smdan past chuqurlikdagi tuproqlar zichligi optimal darajadan, ya'ni 1,35 gram sm³ dan ortiq bo'lgan yerlarning 80-85 % ini tashkil qiladi. Binobarin, bunday yerlarni 50-60 sm va undan ham ortiq chuqurlikda yumshatish ehtiyoji tug'ilmoqda. Bu esa ortiqcha moddiy va mehnat, vaqt sarfi degan so'z. O'zbekistonda "Massery Ferguson" firmasining MF -4800, MF-4880 va MF-4900 modelidagi zamonoviy firmalar ishlab turibdi. Ularga AQSHning Cummins Diesel firmasining issiqqa chidamli dizel dvigatellari o'rnatilgan.

O'tkazilgan tajribalar va ishlab chiqarish natijalaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib qaralsa, yangi zamonaviy texnikalarni qishloq xo'jaligida qo'llash yem-xashak yetishtirishni 30-40 foiz, paxta hosildorligini 15-20 foizga oshiradi.*

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida innovatsion faollikni oshirish maqsadga muvofiq. Innovatsion faollikni bugungi kun iqtisodiyoti talab qiladi. Innovatsion faollik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumotlarga qaraganda respublika korxonalarining 5 foizi innovatsion faol hisoblanadi. yevropa davlatlarida esa bu ko'rsatkich 80-87% ni tashkil etadi.

13.3. Qishloq xo'jaligining intensivlashtirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Intensivlashtirishning darajasi va uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkichlarni to'g'ri aniqlay bilish va ularning natijalariga qarab iqtisodiy qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Intensivlashtirishning ko'rsatkichlari ko'p bo'lganligi sababli ularni guruhlash zarurati tug'iladi.

Iqtisodiy fan intensivlashtirish ko'rsatkichlarini ikki guruhga bo'lib o'rganadi. Birinchi guruhga intensivlashtirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar intensivlashtirishning bir tomonini ifoda etadi. Ya'ni, intensivlashtirish darajasi ma'lum ekin turi, chorva hayvonlari uchun tanlangan texnologiya bo'yicha mehnat va moddiy xarajatlar sarfi oshirilishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlarda bir gektar ekin maydoniga, bir bosh chorva hayvoniga sarflanayotgan (xarajatlaning) resurslarning miqdori ifoda etiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Ekin maydoni birligiga to'g'ri keladigan asosiy aktivlar va aylanma mablag'larning miqdori. Bu xo'jalikda mavjud asosiy aktivlar va aylanma

* Norov S.S. "Mintaqaviy agrosanoat majmui xizmat bozorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. BuxDU, 18-19 aprel 2005 yil. 48 bet.

mablag'larning o'rtacha yillik qiymatini yer (ekin maydoni, haydalanadigan yerlar yoki qishloq xo'jaligi yerlari) maydoniga bo'lish bilan aniqlanadi.

2. Bir birlik yer maydoniga to'g'ri keladigan joriy xarajatlar miqdori.
3. Bir birlik yer maydoniga to'g'ri keladigan jonli va buyumlashgan mehnatning umumiy miqdori.

4. Bir birlik yerga to'g'ri keladigan energetik quvvatlar miqdori.

5. Har 100 gektar yerga to'g'ri keladigan chorva mollarining bosh soni.

Ana shu ko'rsatkichlar tizimi intensivlashtirishning darajasini ifoda etadi.

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi

ko'rsatkichlar uning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir qancha ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Ularga quydagilar kiradi.

1. Hosildorlik, s/ga.
2. Mahsuldorlik, kg, bosh, dona.
3. Er maydoni birligidan olinayotgan yalpi mahsulot.
4. Bir birlik yer maydonidan olinadigan foyda miqdori.
5. Mehnat unumdorligining oshishi.
6. Mahsulot birligi tannarxining nisbatan pasayishi.
7. Rentabellikning o'sishi.
8. Fond qiymatining oshishi.

Ana shu ko'satkichlar tizimi yordamida intensivlashtirishning samaradorligi aniqlanadi.

13.4. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy

yo'nalishlari

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishni doimiy rivojlantirish talab etiladi. Qishloq xo'jaligida intensivlashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi: kimyolashtirish – qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Samarali ma'danli o'g'itlarni ishlab chiqarish, urug'larga kimyoviy ishlov

berish, turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish va shu kabilar haqida gap borganda kimyolashtirishning juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Kimyolashtirishsiz qishloq xo'jaligida sezilarli muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Bu boradagi ishlarning rivojiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 1 fevralidagi "Qishloq xo'jaligida agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 63-sonli qarori katta hissa qo'shdi. Respublikada qishloq xo'jaligini kimyolashtirish ishlariga mas'ullik "O'zqishloqxo'jalikkimyo" aksionarlik jamiyati tizimiga topshirildi. Qishloq xo'jaligini kimyoviy vositalar bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, ushbu vazifa bilan shug'ullanadigan tizimni takomillashtirish maqsadida 2004 yilning 23 yanvarida "Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yanada rivojlanishiga olib keldi.

Zamonaviy dehqonchilik sharoitida yetishtirilayotgan hosilning 50-60 foizi ma'danli o'g'itlardan samarali va o'z vaqtida foydalanish hisobiga olinishi aniqlangan.

Ma'danli o'g'itlar yerga me'yor darajasida solinganda hamda ularga qo'shib gektariga 20 tonnadan kompast (mahalliy o'g'it) berilganda (faqat ma'danli o'g'it solingan yerlarga nisbatan) paxta hosildorligi 15 foizgacha, boshqoli don hosildorligi 22 foizgacha o'sishi aniqlangan. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki qishloq xo'jaligini kimyolashtirish kompleks holda amalga oshirilganda yuqori samara beradi. Birgina o'simliklarni o'g'itlashda ma'danli o'g'itlar bilan organik o'g'itlarni berish hosildorlikni va samaradorlikni oshiradi. Masalan, O'zpITI ning Buxoro filialida 3 ta variantda tajriba o'tkazilgan. 1-variantda paxtaga faqat 200 kg/ga azotli, 140 kg/ga fosforli va 100 kg/ga kaliyli o'g'it berilgan. 2-variantda ushbu miqdorda faqatgina ma'danli o'g'itlar berilgan. 3 - variant nazorat varianti bo'lib, paxtaga umuman o'g'it berilmagan. Mavsum oxirida 1 variantda gektaridan 30,6 sentner, 2- variantda 39,2 sentner va 3-variantda 15,6 sentner hosil olingan. 1-

variantda 1 gektarga jami qilingan xarajat 469048 so'mni tashkil etgan. Tajriba o'tkazilgan davrda 1 ga yerdan olingan hosilni sotishdan 613059 so'm daromad olingan va 1 ga yerdan olingan foyda 144011 so'mni, rentabellik 30,7 foizni tashkil etgan. 2-variantda 1 ga yerga sarflangan xarajatlar 650761 so'mni, olingan daromad 878739 so'mni foyda esa 227978 so'mni tashkil etib rentabellik darajasi 35,0 foizga teng bo'lgan. 3-variantda 1 ga yerga sarflangan xarajatlar 363877 so'mni, olingan daromad 349301 so'mni tashkil etib, 1 ga paxta maydonidan 14576 so'm zarar ko'rilgan.* Bu borada shuni ta'kidlash lozimki qishloq xo'jaligi ekinlarini mo'tadil darajada o'g'itlash mahsulotlar sifatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Sifatli mahsulot esa bozor sharoitida juda muhim ko'rsatkichlardan sanaladi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo'nalishi – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko'rsatishi ish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga bog'liq. Og'ir ish jarayonlarini mashinalar yordamida bajarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki og'ir ishlardan kishilarni ozod qilish, ijtimoiy masalani ham ma'lum darajada ijobiy hal etishga olib keladi.

Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishda eng avvalo katta mehnat sarflarini talab qiluvchi va ko'p takrorlanuvchi ishlarni texnikalar zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining o'simlikchilik tarmog'i paxta va g'alla ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Demak, eng avvalo paxtachilik va g'allachilikda ish turlarini mexanizatsiyalashtirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. paxtachilikda eng katta mehnat sarflari yer haydash, yerni tekislash va egat olish, ekish, g'o'zani kultvatsiya qilish, sug'orish, chekanka qilish, hosilni yig'ib olish va g'o'zapoyalarni yig'ishtirib olish hisoblanadi. Mexanizatsiyalashtirishni amalga

* Il'osov A.A., Ioldashov M., Xamidov M. G'o'za o'simligini mazdanli va organik o'g'itlar bilan oziqlantirishning hosildorlik va samaradorlikka ta'siri. "Mintaqaviy agrosanoat majmui xizmat bozorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. BuxDU, 18-19 aprel 2005 yil. 28 bet.

oshirishda ayrim ishlarning bir mavsumda qayta-qayta takrorlanishiga e'tibor qaratish kerak. Ta'kidlanganidek, ish turi qancha miqdori jihatidan katta mehnatni talab qilsa va ko'p marta takrorlansa ushbu ishlarni birinchi galda mexanizatsiyalashtirish maqsadga muvofiq. Shunday ishlardan biri paxta hosilini yig'ib-terib olishdir. paxta hosilini mashinalarda terish qo'l kuchi yordamida terishga nisbatan qator ustunliklarga ega. Birinchidan, mashinalarda paxta hosilini terish mehnat unumdorligini keskin oshiradi. Ishchi kuchlardan boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyati tug'iladi. Ikkinchidan, hosilni kechiktirmasdan (qor-yomg'irli kunlarga qoldirmasdan) o'z agrotexnika muddatlarida terish imkonini beradi. Hosil qor yoki yomg'irda qolmaganligi sababli uning sifatida ushbu omillar natijasida pasayishga yo'l qo'yilmaydi. Uchinchidan, yerni kelgusi yil hosili uchun tayyorlashga imkoniyat kengayadi. SHu bilan birgalikda mashinalar yordamida paxtani terish ayrim kamchiliklarga ham ega. Bu eng avvalo mashinada terilgan paxtaning turli navlari (sortlari) aralashib ketadi. paxta terish mashinalari paxta tolasini qisman uzadi va nisbatan sifatini yomonlashishiga sababchi bo'ladi. Ammo bugungi kun talabidan kelib paxtani mashinalarda terishni rivojlantirish katta iqtisodiy samara keltirishini unutmaslik kerak. paxtani gorizantal shpindelli KEYS-2022 rusumli paxta terish mashinasida terishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi misolda ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi paxtachilik tarmog'ining 2004 yilga ko'rsatkichlari bo'yicha ushbu mashina yordamida bir mavsumda 280 tonna hosilni terib olish mumkin. Shu miqdordagi paxtani 30 kunda terish uchun eng kami 160-180 nafar kishi talab qilinadi. Xo'jalikning 1400 gektar paxta maydonidan paxtani terib olish uchun 10 ta KEYS-2022 rusumli paxta terish mashinasi mavjud. Xo'jalikda mashina bilan teriladigan jami paxta miqdori 2800 tonnani tashkil etadi. 2800 tonna paxtani mashinada terish uchun jami xarajatlar 92 mln. so'm. 2800 tonna paxtani qo'lda terib olish xarajatlari 155,6 mln. so'mni tashkil etgan. 2800 tonna paxtani mashinada terib olish natijasida iqtisod qilingan summa 63,6 mln. co'mni tashkil etgan.*

* Edgorov A.I., Xamidov X.S., Ioldashev M.X., Gulomova S.T. Paxtani mashinada terib olishning iqtisodiy samaradorligi "Mintaqaviy agrosanoat majmui xizmat bozorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. BuxDU, 18-19 aprel 2005 yil. 30 bet.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo'nalishi ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir. Elektr imkoniyatlaridan foydalanmasdan ishlab chiqarishning bugungi rivojini ko'rish mumkin emas.

Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini, bilimini oshirish ham intensivlashtirish yo'nalishlaridan biridir. Kadrlarning malakasini, bilimini oshirish iqtisodiyotni jadal va barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Respublikada qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri paxtachilik bo'lib uni rivojlanishi umuman tarmoqdagi holatni qanday bo'lishini belgilaydi. SHu sababli paxtachilikni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa paxta selektsiyasi va urug'chilikni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlar natijasida keyingi yillarda paxtaning kasalliklarga chidamli, serhosil "Buxoro 8", "Denov", "S-6541", "Surxon-14", "Namangan-34", "Qashqadaryo-5", "Andijon-36" kabi navlari yaratildi va ishlab chiqarishga joriy etildi. Bu navlarning hosildorlik indeksi 55 foizni tashkil etadi. SHu paytgacha mavjud paxta navlarining hosildorlik indeksi 40-45 foizni tashkil etar edi. Bu navlarning yana bir e'tiborli tomoni shundaki ular suvsizlikka chidamliroq. SHu paytgacha rayonlashtirilgan paxta navlarining tola berish indeksi 33-35 foiz bo'lgan bo'lsa yangidan yaratilgan yuqoridagi paxta navlarining tola berish indeksi 38-40 foizni ayrim istiqbolli navlarda 42 foizni tashkil etmoqda. Ingichka tola beruvchi paxta navlarining tola berish indeksi 32-34 foizdan 37-38 foizga yetkazildi. Hozirda respublika dalalarida 22 ta paxta navi yetishtirish rayonlashtirilgan.

Respublikada paxta tolasining sifatini oshirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Respublika paxtachiligida sifat bo'yicha "O'z DSt 604:2001" yangi standart qabul qilindi. Respublikada paxta sifatini aniqlaydigan va uning monitoringini olib boradigan "Sifat" markazi tashkil etildi. Hozirda uning 13 ta hududiy bo'limlari mavjud. Olib borilgan ishlar natijasida 1999, 2000 va 2001 yilda paxta tolasi sifat klassi O'rta (3) ga yaqin bo'lgan bo'lsa 2002-2005 yillarda yaxshi (2) ni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifatini oshirishga, mehnat unumdorligi oshishiga ta'sir etuvchi barcha Fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish omillar e'tibordan qolmasligi va o'z o'rnida ishlatilishi lozim.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarishni rivojlantirish har qanday davlatning bosh iqtisodiy vazifalaridan biridir. Ishlab chiqarishning rivojlanishi eng avvalo, fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Fan va texnikaning rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyot, deganidir.

Fan-texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishini ta'minlaydi. Rivojlanish ekstensiv va intensiv yo'llar bilan amalga oshadi. Ekstensiv rivojlanish yo'lida ishlab chiqarishning o'sishi qo'shimcha resurslarni ishlab chiqarishga jalb etish evaziga olib boriladi. Bunda yer maydonlari, mehnat resurslari, chorva mollarining bosh soni ko'paytirilishi evaziga mahsulot yetishtirish hajmi o'stiriladi. Bu yo'lning imkoniyatlari cheklangan. Chunki yer, mehnat va boshqa resurslar cheklangan. Shu sababli iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish eng asosiy yo'l hisoblanadi. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish deganda bir birlik yer maydoniga va bir bosh chorva moliga sarflanadigan moddiy va mehnat resurslarini ko'proq sarflash evaziga olinadigan mahsulotni ko'paytirish tushiniladi. Bu yo'l bilan rivojlanishning imkoniyatlari juda katta. Ishlab chiqarishga ekin turlarining yangi navlari joriy etilishi ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqadi.

Intensivlashtirishning darajasi va iqtisodiy samaradorligi aniqlanib boriladi. Intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kimyolashtirish, mexanizatsiya darajasini oshirish va avtomatlashtirish, elektrlashtirish va fan yutuqlarini ishlab chiqarishga yanada keng joriy etishdir.

Tayanch iboralar

Intensiv va ekstensiv rivojlanish, fan-texnika taraqqiyoti, cheklanganlik, narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funktsiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, tejamkorlik, fond qaytimi, fond sig'imi, fond bilan ta'minlanish va qurollanish, aylanma fondlar, aylanma mablag'lar, samaradorlik koeffitsienti, asosiy fondlarninig eskirishi, jismoniy eskirish, amortizatsiya, ma'naviy eskirish, mehnat resurslari, mehnatni qurollanish darajasi, migratsiya, mehnat unumdorligi, ishbilarmonlik, yer va suv fondi, mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish, avtomatlashtirish, baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, yalpi ichki mahsulot, xususiy tadbirkorlik, import, eksport, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Fan-texnika taraqqiyoti" tushunchasi nimani anglatadi?
2. "Fan-texnika taraqqiyoti" mohiyati.
3. Fan-texnika taraqqiyoti iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday o'rin tutadi?
4. Fan-texnika revolyutsiyasi.
5. Qishloq xo'jaligining intensivlashtirishning mohiyati.
6. Qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlantirishning mohiyati
7. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
8. Intensivlashtirishning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar
9. Intensivlashtirishning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
10. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.

2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obshchie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
5. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
7. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
8. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

14-BOB. AGROSANOAT MAJMUASI MARKETINGI VA UNI SAMARADORLIGI

14.1. “Marketing” tushunchasi, uning mohiyati va samaradorligi

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ma'lum bir iste'molchilarning talablarini aniqlash va qondirishga qaratilgan marketingga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Marketing (inglizcha market-bozor) – tadbirkor muhitini, bozorni, iste'molchining aniq talabini va ular uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni ko'zda tutishni o'rganishga asoslangan, qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bozor kontseptsiyasidir. Qishloq xo'jaligi marketingining maqsadi - talabni shakllantirish va rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi ishning rejalari va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining asoslilikini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining savdo ko'lami, bozor hissasi va foydasini ko'paytirishdan iborat. Sotiladigan, ya'ni bozori chaqqon qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish – qishloq xo'jaligi fermeri faoliyatiga marketing nuqtai nazaridan yondashishining asosiy nishonidir.

Boshqacha qilib aytganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan oldin, qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'liq ishlab chiqarish va mukammallashtirish va shundan keyingina shu tovar bilan bozorga chiqish, qishloq xo'jaligi fermeri aniq (konkret) iste'molchilari talablarini puxta o'rganishni tartibga solish kerak. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib, keyin uni sotish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarga duch kelmaslik lozim.

Marketing – iste'molchi talabi tahlili va nazarda tutilishining ilmiy ishlab chiqilgan kontseptsiyasi. Bu rag'batlantirish, reklama andozalarini o'z ichiga olgan sotishni tashkil qilish tizimidir. Marketing – peshtaxtaning boshqa tomonida turib biznesga iste'molchi ko'zi bilan qaray olishdir. Bu xaridor topish va uni ushlab turish, unga raqobatchiga ko'ra yaxshiroq va tezroq xizmat ko'rsatish va uning talablarini qondirish qobiliyatidir. Agar moliyaviy faoliyat sohasida fermerlar

tomonidan asosiy e'tibor marketing yondashuvining qabul qilinishigacha narxga emas tannarxga qaratilgan bo'lsa, marketing ishlab chiqaruvchilarni xaridor to'lashga tayyor bo'lgan narxga yo'naltiradi. Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligi fermeri byudjeti ham sotish sohasidagi talablarga muvofiq ravishda qurilishi kerak. Agar oldin korxona birinchi navbatda ishlab chiqarishga tegishli tadqiqotlarni bajargan bo'lsa, unda marketing tizimi asosiy e'tiborni bozordagi ahvolning tahliliga qaratadi. Agar qishloq xo'jaligi mahsulotlari assortimentini rejalashtirish oldin faqat uning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa, unda marketing tizimi, asosan, iste'molchi talablarini hisobga oladi.

Ishlab chiqarishga qarab ish tutishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish va tarqatish masalalari bilan shug'ullanayotgan mutaxassis qishloq xo'jaligi fermeri uchun buyurtma oluvchi sifatida ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Marketingni nazarda tutib ish yuritishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha menejer tashkiliy tizimdagi boshliqlardan biri bo'lib, uning vazifasi bozorning tovar va xizmatlar bilan to'lgan qiyin sharoitlarda korxonaning uzluksiz va samrali ishlashini ta'minlashdan iborat. Aynan to'la bozor, ya'ni sotuvchilar taklifi xaridorlar talabidan oshganda, "xaridor bozori" marketing kontseptsiyasini qo'llash va uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun asosiy shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Umuman, sotishni tashkil qilish va ishlab chiqarish tizimining tarixiy taraqqiyoti bozor munosabatlarining xususiyati va bozorda talab va taklifning o'zaro munosabatlari bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan.

Birinchi bosqichda tovar sotilishini tashkil qilishning ishlab chiqarish tizimi o'z aksini topgan "tovar - xaridor" (xaridor talabi taklifni qamrab oladi) tizimidir. Bunda sotuvchi bozorning tavarga bo'lgan talablaridan holi holda uni ishlab chiqaradi va hech qanday qo'shimcha xarajat va qiyinchiliksiz sotadi. Bu usul "sotuvchi bozori" sharoitida o'z samarasini beradi. Bunday holatda ishlab chiqaruvchining asosiy vazifasi – ishlab chiqarish quvvatini oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chiqarishni ko'paytirish hamda xarajatlarni va narx raqobatini kamaytirishdir. Tovarni sotishni tashkil qilishning ishlab chiqarish tizimi aniq ko'rinishi – tovar tizimi bo'lib,

uni ishlab chiqaruvchining asosiy e'tibori chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning xossa va sifatini mukammallashtirishga qaratiladi. Ishlab chiqaruvchi yuqori sifatli tovar reklamaga muhtoj emas va u har doim o'z xaridorini topadi, degan kontsentsiyadan kelib chiqadi.

Ikkinchi bosqichda yanada murakkabroq tip vujudga keladi – sotishni tashkil etish tizimi: “tovar - sotishni rag'batlantirish - iste'molchi”. Boshqacha qilib aytganda, noma'lum xaridor uchun chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga kiritish tizimi. U ko'proq talab va taklif nisbatan muvozanatda bo'lgan yoki taklif talabdan ozroq oshgan vaziyatga mos tushadi. Bozorda shunday holat yaratiladiki, unda xaridorlarga kerak bo'lgan tovarlar taklif ko'rinishida mavjud bo'ladi va sotuvchining vazifasiga axborat berish, xaridorni qiziqtirish va uni raqobatchilarning emas, balki o'zining tovarini sotib olishga undash kiradi. Bu holatda sotuvchi o'z qishloq xo'jaligi mahsulotlari reklamasiga, uning sotilishini rag'bantlantirishga, texnik xizmat ko'rsatishga va boshqa shunga o'xshash narsalarga qo'shimcha xarajatlar qiladi.

Undan tashqari, sotuvchi uchun savdo – sotiqning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilashdir.

Uchinchi bosqich – bozor talablari va xaridorlarning aniq ehtiyojlari bilan ishlab chiqarish vazifalarining bog'liqligiga asoslangan ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish tizimining vujudga kelishi. Bunday tizim quydagilarni o'z ichiga oladi: “bozorni o'rganish - fan yangiliklarini joriy etish - qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilishi - talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish - istemolchi”. Bu tizim “xaridor bozori” sharoitida qo'llanadi va ancha keng tarqalgan marketing kontseptsiyasi hisoblanadi.

Bunday holatda tovar aynan bozor uchun emas, balki talablari bir xil iste'molchilar gurihi uchun ishlab chiqariladi. Tavarlar individuallashtirilada va o'ziga xos ustunliklarga ega bo'ladi, buning ustiga, har bir fermer o'z qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorning aniq bir segmentida ma'lum va ustun bo'lishiga intiladi. Bundan oldin ahamiyatli bir tadqiqot ishi mavjud: bozor, uning muhiti

iste'molchilarning motivlari o'rganiladi, bozor segmentatsiyasi o'tkaziladi, qishloq xo'jaligi fermerining raqobat ustunligi va eng maqbul bozor segmenti aniqlanadi. Butun bir bu segment uchun bozor maqsadlari, marketing strategiyasi va dasturlari ishlab chiqiladi va bozorga qishloq xo'jaligi mahsulotlaring, narx, sotish va rag'batlantirish siyosati hisobiga qishloq xo'jaligi fermerining raqobatdoshligini mustahkamlash va ko'tarish maqsadida marketingga ta'sir o'tkazish tizimining me'yorlari tashkil qilinadi va amalga oshiriladi.

Marketing tizimi yopiq emas, uning asosiy elementlari takrorlanishi va ketma – ketligi sharoitida ularning yangi, zamonaviy darajasi kuzatiladi. Bunday paytda marketing xizmati bir vaqtning o'zida turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha har xil marketing tadbirlarini amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi fermerining ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish va ilmiy – texnikaviy faoliyati bilan boshqarish kontsepsiyasi sifatida marketing o'tgan asrning 60-70-yillarida vujudga kelgan (marketing tadqiqotlarining ilk kurtaklari 30-yillarning oxirida va bevosita ikkinchi jahon urishidan so'ng kuzatilgan). Uning paydo bo'lishi, birinchi navbatda, ilmiy – texnikaviy taraqqiyotning informatsion infratuzilma sohasidagi rivoji va qishloq xo'jaligi ichki boshqaruvining takomillashtirilishi hamda ko'pchilik tovar bozorlarida sotishni tashkil etish borasida bir qancha jiddiy qiyinchiliklarning vujudga kelishiga bog'liqdir. Ma'lum bir darajada marketing kontsepsiyasi maqsadli bozorni aniqlash yo'li bilan raqobat kurashining ko'rinishini o'zgartirishga va uni silliqlashga yo'naltirilgan.

Marketing qishloq xo'jaligi faoliyatining barcha jixatlari bilan to'liq boshqaruv tizimining muhim sohalaridan birini o'zida aks ettirgan holda moliyaviy, ta'minot tizimi, xizmatlarning tashkiliy tuzilganligi, kadrlar siyosati bilan boshqarishni o'z ichiga olib, unga faol ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi marketingi uchun quyidagi asosiy holatlar yoki tamoyillar mosdir:

1. qishloq xo'jaligi biznesining iste'molchilar talablarigi qarab ish tutishi;
2. segmentatsiya va maqsadli bozorni aniqlash;

3. ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishning aktiv va potentsial iste'molchilarning talablariga va bozor sharoitlarining o'zgarishiga moslashishi yoki egiluvchan ta'siri;

4. yangiliklar kiritish;

5. strategik rejalashtirish va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi fermerining iste'molchilar talablariga yo'naltirishi ko'p tajriba talab qiladigan ilmiy – amaliy, tadqiqot va analitik ishni, bozor ehtiyojini chuqur va har tomonlama o'rganishni, bozor muhiti va iste'molchining motivatsiyasini o'rganishni nazarda tutadi. Analiz uchun bozor hajmi, narxni tashkil etish tizimi, narx sur'ati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'mol xususiyati, hamkor qishloq xo'jaligi fermerlari ishining qurilishi va uslublari spetsifikasi, sotishni tashkil etish kanallari, sotishni rag'batlantirish usullari, savdo ishining o'ziga mosligi va boshqalar kerak bo'ladi.

SHu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turlari assortimenti taftishi, ishlab chiqarish quvatini, moddiy – texnikaviy ta'minot tizimini o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish imkoniyatlari o'rganiladi; kadrlar tarkibining strukturasi va malakasi darajasi, moliyaviy imkoniyatlar, sotishni tashkil etish va savdo xizmatini shakillantirish va faoliyati xarakterining shart – sharoitlari tahlil qilinadi.

Bu tatqiqotlarning maqsadi qishloq xo'jaligi fermerining bozorda olib borayotgan faoliyat strategiyasi taktitasini aniqlash va raqobatchilarga nisbatan ko'proq omadga va afzallikka erishishini ta'minlashdir.

Bozor, marketing muhiti va iste'molchilar xohishini o'rganishning asosiy uslubi so'rov, kuzatish, test va taqlid hisoblanadi. Keng miqyosli va sermashaqqat marketing tatqiqotining asosiy sharti – kompyuter texnikasi, bank ma'lumotlaridan foydalangan holda yaxshi jihozlangan va to'liq ishlab chiqilgan informatsion tizimdir.

Segmentatsiya va maqsadli bozorni aniqlash qishloq xo'jaligi korxonalarning bir turdagi iste'mol xohishlari xarakteri va marketining ta'sir choralarga bir tipli

reaktsiyasi bilan ajralib turuvchi iste'molchilar guruhini aniqlashda namoyon bo'ladi. Asosiy maqsad – raqobatchi qishloq xo'jaligi fermerlari bilan taqqoslangan paytda ustunliklarga erishish, o'z harakatlarining samaradorligini oshirish, ixtiloflarni va bozorda to'g'ridan – to'g'ri raqobat kurashi kuchayishining oldini olish. Undan tashqari, qishloq xo'jaligi fermeri imkoniyatlariga mos keladigan maqsadli bozor segmentining tanlovi ham ko'zda tutiladi. Bu tanlov qishloq xo'jaligi mahsulotlarining harakatiga qarab intensiv marketing faoliyati amalga oshiradigan iste'molchilarning aniq guruhiga nisbatan bo'ladi. Segmentatsiya va maqsadli bozorni tanlash sotuv bozorlarining o'zlashtirilishi va kengaytirilishi sharoitida qishloq xo'jaligi fermerining xarajatlarini optimallashtirish va raqobatdoshlikni kuchaytirish vazifalari bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishning aktiv va potentsial talab holatlarida bozor va iste'molchilarning aniq talablari, narx yoki boshqa shartlar bo'yicha hamda talab va laklifning egiluvchanligiga bog'liq holda qishloq xo'jaligi fermerining ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish faoliyatni boshqarishning harakatchanligi nazarda tutiladi. Bozor bilan doimiy aloqa, bozor segmentining o'zgarishini puxta o'rganish va iste'molchilar talablarining o'ziga xosligini tahlil qilish qishloq xo'jaligi fermerining barcha faoliyatida islohat o'tkazish va uni mukammallashtirishda asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda, ishlab chiqarishda va sotishda innovatsion jarayon faoliyatining shakl va usullari tashkiliy tuzilishi ham aniqlanadi.

Moslashuv printsipi qishloq xo'jaligi fermeri tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini individuallashtirishga bo'lgan yondashuvni talab qiladi. Bu tamoyil foydalanilayotgan asbob – uskunani faol mukammallashtirish va moslashuvchan ishlab chiqarish chiziqlari va qayta ishlash markazlarini ishlatishni nazarda tutadigan faoliyatning ishlab chiqarish va texnik sohasiga urg'u beradi.

Innovatsiya boshqaruvning marketing kontseptsiyasi printsipi tarkibi sifatida ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish faoliyatini qamrab oladi. Birinchi navbatda u ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini doimiy mukammallashtirish,

tashqi ko'rinishini o'zgartirish va ularni yangilab borish, yanada mukammalroq texnologiya ishlarining yangi yo'llarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Innovatsion siyosatga yangi bozorlarga chiqishning yangi shakl va uslublarini joriy qilish, sotishni rag'batlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun reklanma faoliyatiga yangiliklar kiritish, qishloq xo'jaligi fermeri, shirkat xo'jaligi boshqaruvida yangi xizmatlarni shakllantirish, tovar harakati va sotishni tashkil etish tarmog'ida yangi kanallarni aniqlash kabilar kiradi.

Marketing faoliyatining printsipli sifatida strategik rejalashtirish moslashuv printsipli bilan chambarchas bog'liq hamda uning davomi va to'ldiruvchisi hisoblanadi. Strategik rejalashtirish printsipli bozor bashoratlari va ilmiy – texnikaviy taraqqiyot rivojining bashoratlari asoslangan ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish marketing dasturlarini tuzishni nazarda tutadi.

Marketing dasturlari qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaligining oldiga maqsadlarni amalga oshirishiga qaratilganini, strategiyalar va me'yorlarni o'zida mujassam etadi. Ular muhim darajada tadbirkorlarni noqulay bozor munosabatlari sharoitida ishdagi risk darajasini kamaytiradigan, qishloq xo'jaligi fermerining rivojlanishiga qulaylik yaratadigan va ishlab chiqariladigan qishloqxo'jaligi mahsulotlarining sotilish ko'lami kafolati o'sishini ta'minlaydigan rejali boshqaruvning yangi usullarini shakllantirish nuqtai nazaridan o'ziga jalb qiladi.

Qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaliklari ichidagi rejalashtirish marketing dasturlariga tayangan holda o'zining asosliligi va realligi bilan ajralib turadi va ma'lum darajada bozor raqobatining keskinligini yumshatishga xizmat qiladi.

14.2. Qishloq xo'jaligi marketingi funktsiyalari

Marketing funktsiyasi ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish faoliyati bilan boshqaruv kontseptsiyasi sifatida boshqaruvning barcha turlariga xos umumiy funktsiyalarga ega. Aynan rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, hisobga olish va nazorat marketing strategiyasi va dasturini ishlab chiqishni, marketing xizmatining strukturasini shakllantirishni, ular faoliyatini boshqa bo'limlar bilan

muvofiglashtirishni, marketing faoliyatini nazorat qilishni va uning faoliyatiga baho berishni ko'zda tutadi.

Ayni vaqtda, barcha boshqaruv jarayonlariga xos bo'lgan bu asosiy funktsiyalar marketing faoliyati uchun maxsus bo'lgan funktsiyalar bilan konkretlashtirilgan va to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Unga analitik, tovar ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish va aynan:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, bozor muhiti va iste'molchilar talablarini kompleks tarzda tadqiq qilish;
- bozorni segmentlash;
- qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaligining ishlab chiqarish – sotishni tashkil etish imkoniyatlari tahlili;
- maqsadli bozor tanlovi;
- tovar siyosati;
- narx siyosati;
- sotish (tarqatish) siyosati;
- kommunikatsion siyosat (qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish)lar kiradi.

Bozor, bozor muhiti iste'molchilar talablarini kompleks tarzda tadqiq qilish yoki analitik funktsiya – ko'p vaqt, moliyaviy va infarmatsion resurslarni hamda marketing bo'yicha mutaxasislarni yuqori tayorgarligini talab etadigan muhim ishdir. Bu tadqiqot quyidagi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi:

- marketing muhitini o'rganish: tadbirkorlik faoliyati geografik va demografik shartlarini, iqtisodiy va ilmiy – texnikaviy, siyosiy – huquqiy, ijtimoiy – madaniy xususiyatlarini, shu bilan birga, raqobatchi, vositachi, yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat faoliyatining maxsus xususiyatlari va ularning munosabatlari xarakterini bilish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining jami xususiyatlari tahlili: talab, taklif, sig'im, talab elastikligi, narx elastligi, raqobat darajasi;

- muayyan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'mol xususiyatlari va bozordagi harakati, shu bilan birga istemolchilar xohishi va ularning tovar haqidagi tasavvurlari tahlili;

- bozorning qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaligi tarkibi tahlili: sotib oluvchi qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatlar, raqobatchi qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatlar, betaraf qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatlarni ko'rib chiqish;

- savdo shakllari va uslublari tahlili;

iste'molchilarni (individual va kollektiv) va ularning sotib olishdagi hatti – harakatlarini o'rganish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori segmentatsiyasi marketing ishining tarkibiy qismi bo'lib, bozorni segmentlarga, yani bir xil talab xarakteriga ega bo'lgan iste'molchilar guruhi va qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaliklarining marketing tasiriga bo'lgan bir turdagi ta'siridir.

Bozor segmentatsiyasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining individuallashtirish siyosati bilan bog'langan. Marketing yondashishi barcha iste'molchilarga hisoblangan standart, universal tovar tayorlash zaruratidan voz kechadi va biznesning optimalligini va raqobat afzalligi taklifini individuallashtirish va rang – barang qilishda ko'radi.

Maqsadli bozorni tanlash – marketing tadqiqotlarining muhim urinishidir, chunki karxona faqat bozor ehtiyojini va o'z imkoniyatlarini aniqlabgina bozor talablarini o'z potentsiali va istiqbol rivojlanishi bilan moslashtira oladi va jamlangan marketing ishi uchun muayyan bir segmentni samarali ravishda tanlay oladi.

Maqsadli bozorni tanlash bir tamondan, bozor segmentlari talablari baholanishi asosida, ikkinchi tamondan, qishloq xo'jaligi o'z imkoniyatlari asosida, ular o'rtasidagi muvozanat va balansni o'rnatish maqsadida quriladi.

Maqsadli bozor shunday bozor segmentini, unda nafaqat raqobat afzalliklari, balki bir necha raqobat kamchiliklari ham shu qishloq xo'jaligi fermeri, shirkat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun raqobatda yaxshi pozitsiyalarni yaratishi va ular uchun eng samarali bozor talabini vujudga keltirishi mumkin.

14.3. Qishloq xo'jaligi marketingi strategiyasini tuzish

Tadqiqotlarni olib borish natijasida marketologlar maqsadli bozor rivojlanishi prognozlarini, qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatning unda harakat qilish maqsadi, strategiyasi va taktikasini, uning tovar, narx, sotish siyosati hamda sotishni rag'batlantirish va reklama tadbirlari o'tkazish siyosatisotishni o'z ichiga olgan qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatlarining ishlab chiqarish – sotish faoliyatining strategik, taktik va operativ rejalarini tuzib chiqishadi.

Muqobil strategiyani ishlab chiqish qishloqda tadbirkorlikning samarali bo'lishini belgilab beradi. Marketing bozor strategiyalarining turli xil variantlarini taklif etadi: global va umumiy – talab holati va darajasi, bozorni qamrash me'yori, bozor ulishi, tovar va bozorning yangiligiga ko'ra. Marketing dasturlari marketing faoliyatida juda ham muhim o'rinni egallaydi, qishloq xo'jaligi fermerining bozordagi o'rnini qandaydir ma'noda ana shu dasturlarning sifatli ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishiga bog'liq.

Tovar siyosati qishloq xo'jaligi fermerining raqobatdagi pozitsiyasini oshirishga qaratilgan “marketing mix” kompleksining tarkibiy qismi bo'lgan maxsus marketing dasturini ifodalaydi. Bunda bu siyosat chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'mol xususiyatlarini, ularning yangi turlarini ishlab chiqish va raqobatdoshligini oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hayotiy siklini uzaytirish va ularning assortimentini optimallashtirishga qaratiladi. Bu choralar tanlangan bozor segmentidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat tasniflari va xususiyatlarini iste'molchilarning aniq talablari darajasiga yetkazish va uning samarali sotilishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Narx siyosati qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatining bozorda uzoq muddatli harakatidagi narx strategiyasini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining har bir guruh va turiga hamda bozorning aniq bir segmentiga nisbatan qisqa muddatli narx taktikasini aniqlashni bildiradi.

Narx siyosati tovar narxini o'zgartirib, raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratadi (bozor munosabatlari sharoitida savdo faoliyatini olib borish talab

qilinganidek) va bozor talablaridan va boshqa omillar asosida narx belgilashni taminlaydi.

Odatda, narx siyosati bir necha bozor strategiyalarini o'z ichiga oladi: “bozorga yorib kirish” siyosati (penetration policy), “qaymog'ini olish” siyosati (skimming policy), differentsiyalangan, diskriminatsiyalovchi, raqobatbordosh, obro'li narxlar va boshqa turdagi narxlar, chegirma va narxli imtiyozlar siyosati va b. Narx siyosati, shuningdek, taqribiy miqdorda ifodalangan, belgilanadigan narx darajasini aniqlash metodologiyasi va shartnoma narxini hisoblash va qayd qilish metodikasini o'z ichiga oladi.

Sotish siyosati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ridan – to'g'ri va bilvosita usullar orqali sotish kanallarini vujudga keltirishni nazarda tutadi. To'g'ridan – to'g'ri usul sotish filiallari, omborlar, stantsiya va texnik xizmat ko'rsatish markazlarning bevosita ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaligi tomonidan tashkil qilinishini ko'rsatadi, ya'ni o'zining sotish tizimi orqali. Bilvosita usul savdoning mustaqil vositachilar orqali amalga oshirilishini bildiradi. Qishloq xo'jaligi fermeri intensiv, selektiv va “esklyuziv” sotish sistemalaridan foydalanish, nolinni yoki ko'p darajali sotish tarmoqlarini yaratish, sotishning vertikal va gorizantal strukturalarini aniqlashi mumkin. Chakana, ulgirji va tashqi savdo sotish sistemalarini ishlab chiqish ham qishloq xo'jaligi fermerining sotish siyosatiga kiradi.

Kommunikatsion siyosat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorga olib kirilishiga qaratilgan tadbirlar kompleksini rejalashtirish va amalga oshirishni anglatadi. Bu sohada turli xil reklama ko'rinishlaridan foydalaniladi, jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatiladi, sotishni rag'batlantirish, sotishdan oldingi va keyingi xizmat ko'rsatish hamda zamonaviy savdo markasi, ya'ni “brend”lardan foydalanadi.

Marketing – qishloq xo'jaligi fermeri va shirkat xo'jaligi boshqaruv faoliyatining yaxlit kontseptsiyasi bo'lib, umumiy printsiplar va funktsiyalar bilan xarakterlanadi va qishloq xo'jaligi fermerining ishlab chiqarishi va sotishni tashkil qilishi iste'molchilarning talablarini qondirishga yo'naltirilgan. Ammo, qishloq

xo'jaligi fermerini boshqarishning marketing kontseptsiyasini qo'llash sohasi va ob'yektiga qarab marketingning turli xil ko'rinishlari ko'rsatiladi.

Rivojlanish xususiyati va yondashuvlaridan kelib chiqib, uning "menejeristik", "bixevioristik", "integrallangan", "innovatsion", marketingni kontseptsiyasi to'g'ridan-to'g'ri, strategik, ekologik va ijtimoiy marketing turlari mavjud.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning xususiyatlariga qarab quyidagi marketing turlari mavjud:

- konversion – negativ, manfiy talabni ijobiyga aylantiradi;
- kreativ –bozorda ma'lum vaqtda muayyan tovarga talab yo'q bo'lsa, talabni yaratadi;
- rag'batlantiruvchi – past darajadagi talabni oshiradi;
- remarketing – susayayotgan talabni jonlantiradi;
- sinxromarketing – o'zgarib tiruvchi talabni barqarorlashtiradi;
- qo'llab – quvvatlovchi – optimal talab saqlanishini ta'minlaydi;
- demarketing – ochiqcha yuqori talabni pasaytiradi.

Marketing taklif qilinayotgan tovar va xizmatlarning ko'rinishlariga qarab bir qancha turlarga bo'linadi. Xususan, marketing o'zining shaxsiy xususiyatlariga ega bo'lgan iste'mol tovarlari marketingi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingi, bank va moliya marketingi, savdo – sotiq marketingi, turistik biznes marketingi, ilmiy – texnikaviy marketing, g'oyalar marketingi va boshqa turlarga bo'linadi.

Tashkilot va qishloq xo'jaligi fermeri va shirkatining turiga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan sub'yektga qarab quyidagi qishloq xo'jaligi marketing turlari mavjud: notijorat va tijorat tashkilotlar marketingi, qishloq xo'jaligi kichik biznes marketingi, saylov oldi kompaniyalar, alohida shaxslar marketingi va boshqalar.

Qisqacha xulosalar

Marketing (ingl. Market – bozor) – tadbirkor muhitini, bozorni, iste'molchining aniq talabini va ular uchun ishlab chiqarilgan, qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bozor kontseptsiyasidir. Qishloq

xo'jaligi marketingi maqsadi – talabni shakllantirish va rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi ishining rejalari va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining asosligini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining savdo ko'lami, bozor hissasi va foydasini ko'paytirishdan iborat. Sotiladigan, ya'ni bozori chaqqon qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish – qishloq xo'jaligi fermeri faoliyati marketing nuqtai nazaridan yondashishining asosiy nishonidir.

Qishloq xo'jaligi marketingi uchun quydagi asosiy holatlar yoki tamoyillar xosdir:

1. Qishloq xo'jaligi biznesining iste'molchilar talablariga qarab ish tutishi;
2. Segmentatsiya va maqsadli bozorni aniqlash;
3. ishlab chiqarishni tashkil etishning aktiv va potentsial iste'molchilarning talablariga va bozor sharoitlarining o'zgarishiga moslashishi yoki egiluvchan ta'siri;
4. yangiliklar kiritish;
5. strategik rejalashtirish va boshqalar.

Tadqiqotlar olib borish natijasida marketologlar maqsadli bozor rivojlanishi prognozlarini, qishloq xo'jaligi fermeri, dehqon xo'jaliklarini va shirkatining unda harakat qilish maqsadi, strategiyasi va taktikasini, uning tovar, narx, sotish siyosatini hamda sotishni rag'batlantirish va reklama tadbirlari o'tkazish siyosatini o'z ichiga olgan qishloq xo'jaligi fermeri va shirkati ishlab chiqarish – sotish faoliyatining strategik, taktik va operativ rejalarini tuzib chiqishadi.

Muqobil strategiyani ishlab chiqish qishloqda tadbirkorlikning samarali bo'lishini belgilab beradi. Marketing bozor strategiyalarining turli xil variantlarini taklif etadi: global va umumiy – talab holati va darajasi, bozorni qamrash me'yori, bozor ulishi, tovar va bozorning yangiligiga ko'ra. Marketing dasturlari marketing faoliyatida juda ham muhim o'rinni egallaydi, qishloq xo'jaligi fermerining bozordagi o'rne qandaydir ma'noda ana shu dasturlar sifatli ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishiga bog'liq

Tayanch iboralar

Marketing, sigment, elastiklik, strategik rejalashtirish, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, agrosanoat majmuasi, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi tarkibi, agrosanoat majmuasining sohalari, infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini fond, fonda qaytimi, bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, xususiy tadbirkorlik, import, eksport.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Marketing" tushinchasi nimani anglatadi?
2. Marketingning mohiyati nimada?
3. Bozor sigmentlari sifatni boshqarish tizimi.
4. Standartlar va standartlashtirish tartibi.
5. Mahsulotni sotish kanallari.
6. Fyuchers va opsiyon hamda birja bitimlari.
7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori.
8. Qishloq xo'jaligi marketingi samaradorligi nimalarga bog'liq?
9. Qishloq xo'jaligi marketingi funktsiyalari nimalardan iborat?
10. Qishloq xo'jaligi marketingi strategiyasi qanday tuziladi?

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.
2. Serova ye. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.
3. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.

4. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
5. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
6. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremontsova. – T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediya», 2001.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

15-BOB. AGROSANOAT MAJMUASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB – QUUVVATLASH

15.1. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlashning mohiyati va zaruriyati

Qishloq xo'jaligi davlat tomonidan doimiy ravishda tartibga solib turishga muhtoj tarmoq hisoblanadi. Bunga qator sabablar ta'sir ko'rsatadi. Avalambor qishloq xo'jaligi iqlab chiqarishi tabiiy sharoitlar bilan bog'liq. Ishlab chiqarishning natijasi hamisha ham xo'jalikning faoliyatigi bog'liq emas. Bir me'yorda qilingan mehnatning natijalari qishloq xo'jaligida tabiiy ta'sirlar natijasida turlicha bo'ladi. Uning mahsulotlarini uzoq vaqt saqlash imkoniyatlari cheklangan. Natijada, qishloq xo'jaligi o'z mahsulotlarini tezlikda sotishga majbur bo'ladilar. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan juda ko'plab tadbirkorlar shug'ullanganliklari uchun ularga narx erkin, talab va taklif asosida shakllanadi. Bu narxlar ko'pincha qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun foydali bo'lmaydi. SHu sabablarga ko'ra qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlash zarurati mavjud. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligini markazlashgan rejalar asosida davlat tomonidan ma'muriy usullar orqali boshqarish tamoyillaridan voz kechib, bu sohaga erkin bozor munosabatlari kirib kelayotgan bir paytda davlatning agrar ishlab chiqarish munosabatlariga aralashuvi hayotiy zaruratga aylanadi.

Erkin bozor tarafdorlari agrar sohaga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarga (qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, agrar ishlab chiqarishga xos bo'lgan tabiiy – biotexnologik omillar dehqonlardan mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etishi va boshq.) tayanib, bu tarmoqda erkin bozor munosabatlari amal qilishi uchun qulay shart – sharoitlar mavjud, degan g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, bozorning o'z – o'zini tartibga sola olish

xususiyati, agrar iqtisodiyotga davlat aralashuvini talab etmaydi va bunga zaruriyat ham yo'q. Mustaqil xo'jalik yuritish va tadbirkorlik erkinligi esa bozor sharoitida fermerlarning yuksak sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Ammo, respublikamiz bozor munosabatlariga o'ta boshlaganidan beri o'tgan davr saboqlari hamda ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo'jaligini davlatning faol aralashuvisiz rivojlantirib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Chunki, bozor sharoitida agrar soha davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanmasdan turib, sohalararo raqobatga bardosh berolmaydi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash zaruratini dastavval qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi murakkab biotexnik texnologik hamda ijtimoiy – iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi. Unda tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan birgalikda yer, suv, o'simlik va chorva mollari organizm, yorug'lik, issiqlik, havo, tabiiy iqlim va jug'rofiy joylashuv kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonida turli tavsifdagi ushbu omillar uyg'unlashib ketadi. Ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi qishloq xo'jaligi karxonalariningsamarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob – havo, tabiiy – iqlim sharoiti va h.k.) boshqarish dehqonlarning imkoniyatlar doirasidan tashqari bo'lib, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo'lmaydi. Ammo, bu omillarning qulay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga (jonli organizmlar, jug'rofiy muhit, ob – havo va boshq.) bog'liqligi dehqonlar faoliyati rag'batlantirish va sug'irtalash kabi bir qator himoya vositalarni yaratishni talab qiladi.

Dehqon manfaati tomonidan yondashsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg'oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda uning ko'rgan zararini qisman bo'lsada qoplamaslik

kelgusi yil hosiliga ham taxdid soladi. Ob – havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida, balki butin mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Oziq – ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zahirolari bo'lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo'l bo'lgan yillarda davlat oziq – ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralaridan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg'or davlatlarida (AQSH, yevropa Hamjamiyati davlatlarida, Kanada) qo'llab kelinadi va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiy sharoitlarga bog'liqligi bu tarmoqda baholar va daromadlarning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qulay ob – havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko'proq g'alla, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba'zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida dehqonlar katta zarar ko'radi. Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo'lsa, ular xonavayron bo'lishi turgan gap. YOki ikkinchi bir yili ob–havoning noqulay kelishi (qurg'oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari qimmatlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda dehqonlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko'rsalar, iste'molchilar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko'rinib turibdiki, har ikkala holda ham dehqon ko'proq zarar ko'radi va bu holat qishloq xo'jaligini davlat tamonidan tartibga solish va qo'llab –quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog'liqligi tufayli tez buziluvchan bo'ladi. Ularni uzoq muddat saqlash yoki olis masofalarga teshish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan farqli ravishda sanoat, savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalari o'z mahsulotlariga baho belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, iste'molchi so'rayotgan narx

qoniqtirmasa, ularni toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turishlari mumkin. Qishloq xo'jaligi karxonalari esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishini kutib, uzoq vaqt ushlab tura olmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o'tgandan so'ng o'zining iste'mol qiymatini yo'qatishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo'ladilar.

Ikkinchi tamondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi karxonalar respublikamizda ko'pchilini tashkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o'zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida nisbatan ideal raqobat hukm suradi. Odatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgarishi unchalik katta bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, unga bo'lgan talab elastiklikka ega emas (yoki juda past elastiklikka ega).

Aksincha, qishloq xo'jaligiga moddiy – texnika resurslari yetkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatuvchi karxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba'zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o'g'it, yoqilgi va h . k.) narxi ko'p hollarda tez sur'atlar bilan o'sadi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari bilan bu tarmoq uchun zarur bo'lgan sanoat tovarlari yoki xizmatlar baholari o'rtasida yirik nomunosiblik (baholar dispariteti) vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaliklari mahsulotlari ishlab chiqaruvchi karxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman, zararli qilib qo'yadi. Bunday holat hech bir mamlakat manfaatiga mos tushmaydi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun noqulay bo'lgan texnika ta'minoti hamda xizmat ko'rsatuvchi karxonalarning monopol mavqeini cheklash choralarini ko'rishga majbur bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash zaruriyati bu tarmoqda kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi.

Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo'jaligidagiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko'p foyda keltirishi tufayli qishloq xo'jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi.

Ammo, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan – texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag'lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg'iz qishloq xo'jaligi korxonalarining mablag'lari hisobdan amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun davlat byudjeti hisobidan maxsus mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Va nihoyat, fermer xo'jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya'ni ular uchun yo'llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy – madaniy ob'yektlar qurish kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo'lmaydi.

15.2. Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab – quvvatlashdagi asosiy vazifalari, ularni amalga oshirish shakllari va usullari

Milliy agrar iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- Huquqiy tartibga solish vazifasi – davlat agrar iqtisodiyot barqaror rivojlanishini va har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi me'yorlar hamda qonunlarni qabul qilish orqali, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning huquqiy asoslarini yaratishni nazarda tutadi.
- Barqarorlashtirish vazifasi – agrar iqtisodiyotda inqirozli holatlarni bartarab etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning pasayishiga yo'l qo'ymaslik va agrosanoat majmui tarkibining mutanosibligini ta'minlash bilan bog'liq.

- Tartibga solish vazifasi – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlash maqsadida bozor tuzilmalari bilan davlat boshqaruvining o'zaro manfaatligi hamda uyg'unligini shakllantirishdan iborat.
- Rag'batlantirish vazifasi – milliy iqtisodiyot doirasida qishloq xo'jaligida fan – texnika taraqqiyotini, xususiy tadbirkorlikni, adolatli raqobat kurashini yoki boshqa ustivor yo'nalishlarni rag'batlantirish va qo'llab – quvvatlash choralarini ifodalaydi.
- Taqsimlash vazifasi – ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromatlarni qayta taqsimlash, shuningdek, ichki mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.
- Ijtimoiy kafolatlash vazifasi – qishloq xo'jaligida ta'minot va aholi nachor qatlamlarini himoyalashning samarali tizimsini yaratish, ishlab chiqarish va taqsimotning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan extiyojni qondirish bilan bog'liq chora – tadbirlarni o'z ichiga oladi.
- Muhofaza qilish vazifasi agrar ishlab chiqarishni salbiy xarakterdagi tashqa ta'sirlardan (masalan, atrof – muhit va boshq.) saqlash, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni tashqi eksportyorlardan yoki jahon bozoridagi kuchli raqobatdan himoyalash kabi vazifalardan iborat.
- Nazorat etish vazifasi – qishloq xo'jaligida qonuniy – me'yoriy hujjatlar, hukumat qarorlari va davlat andozalarining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish bilan bog'liq.
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi – xalqaro bozorlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportyorlarining manfaatlarini himoyalash, bojxona ta'riflari va soliqlar orqali eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar yaratishni rag'bantlantirish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.

- Istiqbolni belgilash vazifasi – qishloq xo'jaligini istiqbolda rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini belgilash, barqaror agrar taraqqiyotining samarali variantlarini izchil amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlatning qishloq xo'jaligini qo'llab – quvvatlashdagi eng muhim vazifalaridan biri – tadbirkorlik tashabbusi va tanlov erkinligiga, mustaqil xo'jalik yuritish huquqi va o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan bozor xo'jaligining sub'yekti tadbirkorlarni shakllantirish hamda ularning sog'lom raqobat va teng xo'jalik yuritish sharoitlarida faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi huquqiy – me'yoriy asoslarini yaratishdir. Davlat tadbirkorlarning butun ijobiy va mehnat qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi hamda ular xo'jalikni boshqarish jarayonlarini to'siqsiz amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan barcha shart – sharoitlarni, ya'ni tadbirkorlik va tanlov erkinligini qonunan mustahkamlab qo'yishi kerak. SHu bilan birga davlat tegishli qonuniy hujjatlar orqali bozor sharoitida xo'jalik yuritish qoidalarini belgilaydi.

Davlatning yana bir muhim vazifasi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talab va taklifning shakllanishini qo'llab – quvvatlashdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talabni shakllantirish uchun aholining daromatlarini o'stirish va qayta taqsimlash, iste'mol uchun zarur bo'lgan ba'zi mahsulotlarning baholarini tartibga solish kabi tadbirlar qo'llaniladi. Davlat iste'mol uchun zarur bo'lgan hamda strategik ahamiyatga ega bir qator mahsulotlarga davlat buyurtmalarini shakllantirish orqali ham qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talabni yuzaga keltirishga hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror taklif hajmini qo'llab – quvvatlash bevosita xo'jaliklarda ishlab chiqarishni optimallashtirish, ularning moddiy – texnik salohiyatini oshirish, sohaga energiya va resurslarni tejash imkonini beruvchi ilg'or texnologiya hamda fan-texnika yutuqlarini joriy etish (baholar paritetini saqlash, soliq, moliya-kredit va sug'urta tizimi) orqali ishlab chiqarish – moliyaviy faoliyatda qulaylik hamda imtiyozlar yaratish orqali ta'minlanadi.

Davlatning uchinchi muhim vazifasi – qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishga yetaklovchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Buning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining ochiqqligini hamda adolatli raqobat muhitini yaratish, nosog'lom raqobat va monopoliyaga qarshi kurashning samarali vositalarini qo'llash choralari amalga oshiriladi.

Davlat qishloq xo'jaligi korxonalarining jahon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bozorlarida teng huquqli sub'yekt sifatida qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermog'i lozim. Buning uchun davlat:

- Qishloq xo'jaligi korxonalarining eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlari yetishtirishga rag'batini oshirish;
- Mahaliy bozorlarda ularni tashqi eksportyorlar raqobatidan yetarli darajada himoyalash (protentsionizm) vositalarini ishga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga ko'maklashishdir. Bu vazifani amalga oshirish dehqonlarga moddiy – texnik resurslar yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va yaramarkalar, axborot – maslahat markazlari hamda dehqonlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari ma'lum bir tamoyillarga tayanib amalga oshiriladi. Bu tamoyillarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Qishloq xo'jaligining iqtisodiy mohiyatini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda uning tutgan o'rnini va ahamiyatini ilmiy tushunish;
- Zaruriyat va yetarlilik darajasidagi proteksionizm siyosati;
- Qishloq xo'jaligini maqsadli – dasturiy tartibga solish;
- Davlat homiyligining doimiy kafolatlanishi;

- Qo'llab-quvvatlash tadbirlarining tabaqalangan holda qo'llanilishi;
- Davlat aralashuvining rag'batlantirivchi yo'nalishga egaligi;
- Davlat aralashuvining ijtimoiy yo'naltirilganligi.

Davlat o'zining qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab – quvvatlashga oid vazifalarini turli shakl va usullarda amalga oshiradi. Tanlangan mezonning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Davlatning agrar soha iqtisodiy jarayonlariga ta'siri darajasiga ko'ra, tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Davlatning qishloq xo'jaligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarini o'z tanlov erkinligidan kelib chiqib emas, balki davlat tomonida belgilangan qonuniy – me'yoriy qoidalar asosida boshqaruv qarorlari qbul qilishga majbur etadi. Bunga soliq qonunchiligi, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqalar misol bo'ladi.

Bilvosita usullar yordamida davlatning qishloq xo'jaligiga ta'siri takror ishlab chiqarishning makroiqtisodiy nisbatlarini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatini iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solishni ko'zda tutadi. Bunda davlat iqtisodiy sub'yektlar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoniga to'g'ridan – to'g'ri aralashmaydi, balki bu qarorlarni davlatning iqtisodiy siyosatiga mos bo'lishini rag'batlantiradi.

2. Tashkiliy – institututsional mezonga ko'ra davlatni qishloq xo'jaligini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari farq qiladi. Ma'muriy usullar xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun qonuniy va me'yoriy shart – sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog'liq huquqiy infratizimni shakllantirishga oid chora – tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Uning vazifasi tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror huquqiy sharoitlar yaratish, raqobat muhitini muhofaza qilish kabi tadbirlardan iborat.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish ma'muriy usullarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ular davlat hokimiyatining qudrati va salohiyatiga tayanadi;

- ularni amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha moddiy rag'batlantiruvchi choralar yaratishni shart qilib qo'ymaydi;

- taqiqlash, ruxsat berish va majburlash tadbirlarini (kvotlash, litsenziya berish, me'yoriy normalarni belgilash va h. k.) o'z ichiga oladi.

Ma'muriy boshqaruv o'z tabiatiga ko'ra, bozorga xos tartibga solish harakatiga to'siqlik qiladi. Biroq rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma'muriy usullari o'z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo'lganda ulardan foydalaniladi. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda ma'muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo'nalishga solish uchun ta'sir etish choralarini qo'llaydi. Iqtisodiy jarayonlarni davlat tamonidan tartibga solishning ma'muriy usullari bozor xo'jaligining o'z –o'zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi.

Iqtisodiyotni tartibga solish va qo'llab-quvatlashning iqtisodiy usullari quyidagilar kiradi.

- byudjet – soliq siyosati;

- pul –kredit siyosati;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;

- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash.

Byudjet - soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini davlat tamonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Davlat byudjetining xarajatlar qismi orqali daromadlarni qayta taqsimlash, qishloq xo'jaligi sohasida fan – texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish, agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga davlat investitsiyalarini yo'naltirish hamda qishloqda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish mumkin bo'adi.

Soliq tizimi orqali qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini rag'batlantirish (soliq imtiyozlar va boshq.) amalga oshiriladi. Chunki, progressiv soliq tizimidan noto'g'ri foydalanish, ya'ni uning me'yorini haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy

taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo'lgan manfaatni, investitsiyalarga bo'lgan rag'batni yo'qqa chiqishi bilan izohlanadi.

pul – kredit tizimi davlatning qishloq xo'jaligiga bilvosita ta'sir ko'rsatish usullaridan biridir. pul – kredit tizimi orqali:

- maqsadli kreditlar berish;
- kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash;
- bank foizlarining darajasi ustidan bevosita nazorat o'rnatish;
- kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini tartibga solish;
- tijorat banklarini qayta moliyalash me'yorlarini tartibga solish kabi iqtisodiy rag'batlantirish choralari qo'llaniladi.

Iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash (prognozlash) orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi va ular xususiy tarmoq sub'yektlari uchun tavsiya mazmuniga egadir. Davlat istiqbolni bashorat qilish orqali kelgusida ko'zda tutilgan vazifalar samarali amalga oshirilishning optimal variantlarini izlasa, iqtisodiy dasturlar orqali ma'lum bir tarmoq, hudud yoki ustuvor vazifalarni rivojlantirish masalalarini hal etadi.

Hozirgi kunda non mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, quritilgan sut, choy va antikvar mahsulotlar eksportiga cheklov qo'yilgan. Mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarini himoyalash siyosati ham olib borilmoqda. SHu maqsadda qishloq xo'jalik mahsulotlari importiga bojxona tariflari belgilangan. Jumladan, meva-sabzavotlar uchun 30%, don va g'alla mahsulotlari uchun 20%, Yog'och mahsulotlari uchun 10%, paxta tolasi uchun 30%, chorva molari ozuqasi uchun 30 foiz, qayta ishlangan mahsulotlar, masalan, sharbatlar, ekstraktlar, konserva mahsulotlari uchun 20% import ustamolari belgilangan.

Davlat o'zining real hokimiyati kuchidan foydalangan holda qishloq xo'jaligini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi. Erkin bozor

munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning ma'muriy usullar yordamida tartibga solish darajasi kamayib boradi. Ammo, uning ahamiyati saqlanib qoladi. Negaki, xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash monopoliyani cheklash, qonun ustuvorligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish kabi muhim tadbirlarni faqatgina kuchli davlat hokimiyati va ma'muriy usullar orqaligini ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiy va institutsional usullar orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab – quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi.

Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab – quvvatlash tadbirlari ilmiy–amaliy jihatdan asoslangan hamda ijobiy natijalarni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsagina o'z samarasini beradi.

15.3. O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat agrar siyosati birinchi navbatda mamlakatda mustahkam oziq – ovqat bazasini, yer va suvdan oqilona foydalanish shart–sharoitlarini yaratish, mulkchilikda davlat monopoliyasini keskin cheklash va xususiy mulk egaligi hamda mulkchilikning boshqa shakllariga keng yo'l ochish, turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo'jaligi korxonalariga teng rivojlanishiga erishish va ularni har tomonlama qo'llab – quvvatlash masalalariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini, sanoatni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash;
- Qishloq aholisining turmush darajasini oshirish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirish evaziga chet el valyutalari tushumini ko'paytirish;
- Qishloq xo'jaligiga tushayotgan tushumlarni boshqa tarmoqlar o'rtasida taqsimlashni mo'tadillashtirish;

- Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- Qishloq xo'jaligida raqobat muhitini kuchaytirish;
- Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish;
- Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- Qishloq xo'jaligida tadbirkorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish;
- Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi oshirish va tarmoqning iqtisodiy samaradorligini ko'tarish.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini isloh qilish juda murakkab sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Bu sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy mablag'larning talab darajasidan kam bo'lishi, yetishmasligi;
- qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasining eskirib qolganligi;
- qishloqda mehnat motivatsiyasining, manfaatdorligining nisbatan pastligi;
- qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlariga shakllanayotgan narxlar paritetining qishloq xo'jaligi uchun qulay holda rivojlanmaganligi;
- qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasining yetarli darajada yaxshi rivojlanmaganligi;
- qishloq aholisining xarid qilish qobiliyatining nisbatan pastligi;
- qishloq xo'jaligiga nisbatan arzon va sifatli mashina va texnikalarni olib kelish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- qishloq xo'jaligi uchun kimyoviy vositalar, ma'danli o'g'itlar, yoqilg'i moylash materiallarini yetkazib berish (ayrimlarini ishlab chiqarishning) kamayishi;
- mustaqillikning dastlabki yillarida inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori bo'lishi;
- er va suv resurslarining sifatining pasayishi.

Shu kabi qiyinchiliklarga qaramasdan mamlakat prezidenti va hukumati tomonidan iqtisodiy islohotlar puxta o'ylangan holda olib borildi va u o'zining ijobiy samarasini bera boshladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining me'yoriy – huquqiy negizini takomillashtirish;
- qonunda ko'rsatilgan huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik;
- ularning ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;
- qishloq xo'jaligida maqbul baho siyosatini yuritish, doimiy ravishda qishloq xo'jaligi va sanoat tovarlar orasidagi baholar paritetini saqlab borish;
- daromadlar pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- ilg'or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;
- fqoralar tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatlari va sharoitlarini ta'minlash, ularning ishbilarmonlik faolligini oshirish hamda qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;
- moliya – kredit tizimini takomillashtirish hamda korxonalarining kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni kengaytirish va rivojlantirish;
- ulgurji va mayda ulgurji savdoni rivojlantirish, korxonalarining xomashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va o'rta biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligi hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
- pul – kredit tizimining barqaror faoliyatini ta'minlash uchun sug'urta tizimi ahamiyatini oshirish;

- Erga mulkchilik, yer va suvdan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirish.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini tartibga solish, muvofiqlashtirish va qo'llab – quvvatlash ishlari bilan tegishli davlat boshqaruvi organlari, Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda boshqa tuzilmalar shug'ullanadilar. Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab –quvvatlash jamg'armasi, Biznes – fond, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, tijorat banklari, “Madad”, “Birjasavdosug'urta”, “Agrosug'urta” sug'urta agentliklari va boshqa institutsional tuzilmalar korxonalarga biznes-reja tuzish, imtiyozli kreditlar olish va ularni amalga oshirishga ko'maklashadilar. Bunda tijorat banklari, turli jamg'armalar imtiyozli kredit ajratish bilan yordam bersa, sug'urta agentliklari kredit xatari va boshqa favqulodda holatlardan sug'urtalaydi.

Qishloq xo'jaligida islohatlarning huquqiy – me'yoriy bazasini yaratish karxonalarning iqtisodiy erkinligini taminlash hamda ularning qonuniy biznes bilan shug'ullanishlariga imkon beruvchi huquqlari va imtiyozlarini kafolatlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi karxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish borasida mustahkam huquqiy–me'yoriy asos yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Fuqoralik Kodeksi”, “Er kodeksi”, “Soliq Kodeksi”, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi, “SHirkat xo'jaligi to'g'risida”gi, “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi, “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar respublikamizda qishloq ho'jaligi karxonalari faoliyatining turli jihatlarini tartibga solib turadi va ularning xo'jalik faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlarning hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarning aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Davlat tadbirkorlarning erkinligi, huquqlarini himoya qiladi va ularning faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklab turadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish maqsadida fermer xo'jaliklarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining 29- moddasi: "Davlat qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi", - deb e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avgustdagi 347-sonli "Tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tadbirkorlik sub'yektlarini, jumladan, fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning yengillashtirilgan tadbiri joriy etildi. Unga ko'ra, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatiga olish "bir yo'la" tamoyili asosida, ularni avtomatik tarzda hisobga qo'yish bilan amalga oshiriladi. Qarorga muvofiq tuman hokimiyatlari tarkibida davlat ro'yxatiga olish bo'yicha maxsus xizmat tashkil etilgan bo'lib, uning xodimlari tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlarni tayorlash, ularni yo'l fondi, mehnat, bandlik va ijtimoiy ta'minot bo'limi, soliq hamda statistika organlarida hisobga qo'yish ishlarini o'zlari amalga oshiradilar.

Fermer xo'jaligini yer ijrosi bilan bog'liq barcha hujjatlar tayyor bo'lgan taqdirda davlat ro'yxatiga olishning umumiy muddati (ichki ishlar bo'limidan muhr hamda burchak shtampini tayorlashga ruxsat olishni ham qo'shib hisoblanganda) 12 kundan oshmasligi lozim.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olishning bu yengillashtirilgan tartibi joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, qaror qabul qilingunga qadar fermer xo'jaligi tashkil etish istagida bo'lgan fuqoralarni ro'yxatga olish ishlari asossiz ravishda, turli ma'muriyatchilik va sansolarlik tufayli cho'zib yuborilar edi.

Fermer xo'jaliklari qonunda belgilab berilgan tartibda hisob va hisobot ishlarini yuritadilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 febraldagi

“Kichik va o’rta biznes korxonalar uchun hisobotlar yuritilishini qisqartirish hamda soddalashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi 65 – sonli qaroriga muvofiq 2000 yilning 1- choragidan fermer xo’jaliklari uchun maksimal qisqartirilgan va soddalashtirilgan hisob shakli hamda uni taqdim etish belgilab berilgan.

Respublikamizda fermer xo’jaliklarini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bir qatorda ularni iqtisodiy dastaklar orqali har tomonlama rag’batlantirish choralari ham amalga oshirilmoqda. Davlatning iqtisodiy rag’batlantirish choralari quydagi mexanizmlardan tashkil topadi :

- moliya – kiridit tizimi orqali qo’llab- quvvatlash;
- tabaqalangan va imtiyozli soliq tizimidan foydalanish;
- baholar paritetini saqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rag’batlantirish va boshqalar.

Davlatning fermer xo’jaliklari faoliyatini iqtisodiy dastaklar orqali qo’llab – quvvatlash choralari fermer xo’jaliklarining rivojlanishiga qulay shart – sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan beriladigan iqtisodiy rag’batlantirish choralaridan tashkil topadi. Bunday chora-tadbirlar sarasiga soliqlar to’lashda yengilliklar berish, imtiyozli shartlar va foizlarda kreditlar berish, davlat buyurtmasi bo’yicha xarid qilinadigan mahsulotlarga kafillangan baholar belgilash, eksport-inport operatsiyalarida qulay tariflar va to’lovlar o’rnatish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Fermer xo’jaliklariga soliq to’lashda sezilarli yengilliklar joriy etilgan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq ular dastlab tashkil etilganidan boshlab 2 yil mobaynida yagona yer solig’i to’lashdan ozod etilgan. Keyingi yillarda esa ular boshqa qishloq xo’jaligi korxonalari bilan teng sharoitlarda yer maydonining joylashgan o’rni va tuproqning unumdorligi darajasidan kelib chiqib belgilanadigan ball-bonitetlar asosida yagona yer solig’i to’laydilar.

Fermer xo’jaliklarini moliya-kredit tizimi orqali qo’llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo’llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda “Kichik va o’rta biznesni qo’llab-

quvvatlash davlat dasturi” doirasida dehqon va fermer xo’jaliklariga davlat mablag’lari, tijorat banklarining imtiyozli jamg’armasi hamda aynan shu maqsadlar uchun tashkil etilgan byudjetdan tashqari jamg’armalar mablag’lari hisobidan imtiyozli kreditlar berish amalda qo’llanmoqda. Bunday imtiyozli kreditlar uchun foiz to’lovlari Markaziy bank (MB) tomonidan qat’iy belgilanib, MB qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan yuqori bo’lmaydi. Shuningdek, dehqon va fermer xo’jaliklari uchun kreditning garov ta’minotini yaratishda davlat yoki byudjetdan tashqari jamg’armalarning kafolat tizimini yaratishga ham e’tibor berilmoqda.

Davlatning fermer xo’jaliklari rivojlanishiga ko’maklashuvchi institutsional va infratuzilmalarni qo’llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo’jaliklariga moddiy – texnik resurslarini etkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko’maklashuvchi xizmat ko’rsatuvchi korxonalar tarmog’ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog’ozlar bozori, fond birjalari va yarmarkalar, axborot-maslahat markazlari hamda fermerlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Davlat bu yo’l bilan fermerlikni rivojini bilvosita qo’llab-quvvatlaydi. Keyingi yillarda bu yo’nalishda bir qator muhim qarorlar qabul qilindi va amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qaroriga muvofiq fermer xo’jaliklariga aylantirilayotgan xo’jaliklar xududida barpo etilayotgan bozor infratuzilmasi ob’yektlarining ishlab chiqarish, moliyaviy va moddiy – texnika bazasini rivojlantirishni rag’batlantirish maqsadida fermer xo’jaliklarini mineral o’g’itlar va yonilg’i – moylash materiallari bilan ta’minlash bo’yicha bo’linmalar mulk solig’i va yer solig’i to’lashdan, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari xizmatlari qo’shilgan qiymat solig’i, foyda va mulk solig’i hisoblanishi va to’lanishidan 2 yildan muddatga ozod qilindi.

Fermer xo’jaliklari sifatida qayta tashkil etilayotgan qishloq xo’jaligi korxonalari xududida tuzilayotgan muqobil mashina – traktor parklari soliq solish

shartlari va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar (er haydash, ekish, ishlov berish, hosilni yig'ishtirish va boshqalar) uchun hisob-kitoblar bo'yicha "O'zagromashservis" uyushmasi viloyat birlashmalarining mashina – traktor parklariga tenglashtirildi. Shuningdek, fermerlar va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing xizmati ko'rsatuvchi korxonalarga ham bir qator imtiyozlar berilgan xususan, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 2 noyabrdagi "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 424-sonli qarori bilan "O'zqishloqxo'jalikmash-xolding" kompaniyasi korxonalari tomonidan zamonaviy qishloq xo'jalik texnikasini fermerlarga va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga kamida 7 yillik muddat bilan lizingga berish va kompaniyasi daromadi (marjasi) ning imtiyozli stavkasi Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan yuqori bo'lmasligi belgilab qo'yildi. Bunda traktorlar va o'rim-yig'im texnikasi qiymatining 15 foizi avans sifatida fermer xo'jaliklari tomonidan o'z mablag'lari hisobiga va qolgan 85 foizi "Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash jamg'armasi" qarz asosida beradigan mablag'lar hisobiga mablag' bilan moliyaviy ta'minlanadi. Kichik va o'rta biznesni zamonaviy texnologiya, uskunalar bilan jihozlashda, shuningdek, mamlakatimizning ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayorlab chiqarilgan asbob-uskuna va texnikalarini sotishda lizing faoliyati rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi "Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2002 yilning 1 sentyabiridan boshlab lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan, lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib keladigan texnologiya uskunolari vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan tag'dirda bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi. SHu bilan birga, lizing oladigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadigan va lizing beruvchini soliqqa tortishda u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami

daromadidan chegirib tashlanadigan bo'ldi. Buning ijobiy tomoni shundaki, endilikda fermerlar bir tomondan, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini ancha yengil shartlarda va arzon to'lovlar evaziga lizingga olish imkoniyatiga ega bo'lsalar, ikkinchi tomondan, lizing beradigan korxonalar ham lizing xizmati sifati va samaradorligini muayyan darajada oshirishga muvaffaq bo'ladilar.

Qisqacha xulosa

Ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlash mamlakat iqtisodiy siyosatning ustivor yo'nalishidir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning davlat tomonidan tartibga olinib turilishini talab qiladi. Bozor sharoitida ishlab chiqarish davlat tomonidan iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solinib turiladi.

Qishloq xo'jaligi o'z xususiyatlariga ko'ra davlat tomonidan tartibga solinib turishga ayniqsa muhtoj. Gap shundaki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan juda ko'plab korxonalar shug'ullanadi. Natijada ma'lum ma'noda ideal raqobat muhiti vujudga keladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy muhitga bog'liqligi ham davlat tomonidan aralashuvni talab qiladi. Aks holda juda ko'plab korxonalar ishlab chiqarish natijalariga ko'ra, zarar ko'rishi mumkin.

Qishloq xo'jaligiga davlat juda ko'p dastaklar orqali ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan ishlab chiqarishni tartibga solish jarayoni yildan-yilga takomillashtirilib borilmoqda.

Tayanch iboralar

Dotatsiya, lizing, sug'urta, soliq imtiyoz, avans, yer solig'i, mulk solig'i, fan-texnika taraqqiyoti, cheklanganlik, narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funktsiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, asosiy mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, moddiy rag'batlantirish, kasbiy malaka, hosildorlik, mahsuldorlik, natural ko'rsatkichlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning mohiyati.
2. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning zarurati nimada?
3. Davlatning iqtisodiy funktsiyalari.
4. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy dastag va instrumentlari.
5. Dotatsiya nima?
6. Subsidiya nima?
7. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalari nimalardan iborat?
8. Agrar siyosat nima?
9. O'zbekistonda agrar siyosatni takomillashtirish yo'llari nimalarga asoslanadi?
10. Subventsia nima?

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinke: Obhie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
5. Hakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) – T., TDIU, 2004.-160 b.
6. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).

7. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremntsova. –T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2001.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

16-BOB. AGROSANOAT MAJMUASIDA MOLIYA – KREDIT TIZIMINING AMAL QILISH MEXANIZMI

16.1. Agrosanoat majmuasi moliya-kredit tizimining mohiyati va xususiyatlari

Moliya – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash hamda davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi tizim. Markazlashtirilgan moliya deganda davlat byudjeti tizimi va hukumatning byudjetdan tashqari jamg'armalarida jamlanadigan pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tushinilsa, markazlashtirilmagan moliya korxonalar pul jamg'armalarining doiraviy aylanishi bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi va shu tufayli uning iqtisodiy tizimdagi roli va ahamiyati pul munosabatlarining shakllanish darajasiga bog'liq bo'ladi. O'zining moddiy mazmuniga ko'ra, moliya mamlakatning moliyaviy resurslarni tashkil etuvchi maqsadli pul mablag'lari jamg'armasini ifoda etadi.

Moliya:

- tovar moddiy qiymatliklarni xarid etish, mahsulot, ish va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonidagi korxonalar o'rtasida;
- markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish yuzasidan korxonalar bilan yuqori tashkilotlar o'rtasida;
- byudjet tizimiga soliqlar to'lash va xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida korxonalar bilan davlat o'rtasida;
- to'lovlarni amalda oshirish va resurslar xarid etishda korxonalar, uy xo'jaligi va byudjetdan tashqari jamg'armalar o'rtasida;
- byudjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasida;

- sug'urta xolatlari vujudga kelganda zararlarni qoplash va sug'urta to'lovlarini amalga oshirishda korxonalar, uy xo'jaligi va sug'urta organlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini aks ettiradi;

pul mablag'lari hosil bo'lishining asosiy moddiy manbai bo'lib mamlakatning milliy daromadi – yangitdan yaratilgan qiymat yoki yalpi ichki mahsulotdan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollarining chegirib tashlangan qismi xizmat qildi va aynan u milliy daromadning yaratilishi va undan foydalanish orasida bog'lovchi bo'g'in xizmatini o'taydi.

Moliya va kredit o'zaro bog'langan kategoriyalar bo'lib, ular yordamida korxonalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida pul jamg'armalari doiraviy aylanishi ta'minlanadi.

Kredit bank tizimi va ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari orqali ssuda jamg'armasining harakatini ifodalaydi. Moliya-kredit tizimining taqsimlovchi, nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi funktsiyalari mavjud.

Qishloq xo'jaligi korxonalari moliyasining mohiyati birinchi navbatda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligida yer, chorva mollari va boshqa tabiiy boyliklardan ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan bo'lib, bu uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqlanishiga sabab bo'ladi. Xususan, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer boshqa asosiy vositalar singari eskirmaydi (amortizatsiya qilinmaydi) va shu tufayli mahsulot tannarxini shakllantirishda ishtirok etmaydi. SHu bilan bir vaqtda yer uchastkalarining tabiiy unumdorlik darajasi va joylashgan o'rni qishloq xo'jaligi korxonalari differentsial daromad (renta) hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish fondlarining ahamiyatli qismini mahsulotlar va ishchi hayvonlar tashkil etadi. Ammo, ularni takror ishlab chiqarish jarayoni bevosita qishloq xo'jaligining o'zida amalga oshiriladi. yer singari mahsuldor chorva mollariga nisbatan ham amortizatsiya hisoblanmaydi va u mahsulot tannarxi shakllanishida ishtirok etmaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ko'pgina xomashyo va materiallar bevosita korxonaning o'zida yaratiladi. Yaratilgan mahsulotning ma'lum bir qismi (podani to'ldirish uchun yosh mollar, urug'lik, chorva mollari uchun ozuqa, mahalliy o'g'it sifatida go'ng va boshqa.) realizatsiya qilinmay, korxonaning o'zida takror ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun olib qolinadi.

Chorva mollarini boqish va o'simliklarni parvarishlash ishlab chiqarish jarayoniga avanslangan aylanma mablag'larning uzoq vaqt davomida aylanishini talab etadi. O'simlikchilikda u bir yilgacha, chorvachilikda esa 9 oygacha davom etadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi yil oxirida (asosan, chorakda) realizatsiya qilinadi va pul tushumining bir maromda aylanishiga imkon bermaydi. Bu esa xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalarini faqatgina yil yakuniga ko'ra aniqlashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiy shart – sharoitlarga bog'liqligi hosilsizlik, suv toshqini, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar ta'siriga qarshi korxonalarning moddiy va pul zahira fondlarini yaratishni taqazo qiladi.

16.2. Qishloq xo'jaligini kreditlash usullari, shakllari va ularning manbalari

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini moliyalashtirishda o'z mablag'lari yetarli bo'lmagan holatlarda chetdan qarzga mablag'lari yetarli bo'lmagan holatlarda chetdan qarzga mablag' jalb etishga to'g'ri keladi. CHetdan jalb etiladigan qarz mablag'lari quyidagi manbalar evaziga bo'lishi mumkin:

1. Tijorat banklarining kreditlari;
2. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kreditlari;
3. Halqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari (tijorat banklari loyihalari orqali);
4. Davlat byudjetining mablag'lari hisobidan kreditlar;
5. Kredit ittifoqlari va boshqa kredit beruvchi sub'yektlar kreditlari.

Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash ular faoliyatini moliyalashtirishning eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. U qishloq xo'jaligi korxonasi va kredit tashkiloti o'rtasida tegishli shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish orqali o'rnatiladigan moliyaviy munosabatdir. Bu munosabatlarning markaziy bo'g'ini kredit shartnomasi bo'lib, u ssudaning ta'minlanganligi, kreditlar o'z vaqtida foizi bilan qaytarilishining huquqiy asoslarini ta'minlaydi.

Tijorat banklari tomonidan kredit berish muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlilik va ta'minlanganlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Muddatlilik tamoyili shuni bildiradiki, kreditlar taqdim etish muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq muddatiga ajratiladi.

Qisqa muddatli kreditlar, odatda, joriy ishlab chiqarishni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida, nisbatan yuqori foizlarda va bir yilgacha muddatda qaytarish sharti bilan beriladi.

O'rta muddatli kreditlar bir yildan besh yilgacha muddatga, ishlab chiqarishning xususiyati sariflangan investitsiyalarni shu muddat ichida to'la qoplash imkonini beradigan sohalarga beriladi.

Uzoq muddatli kreditlar besh yildan ko'p muddatga, investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun, odatda, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, qayta qurish va kapital ta'mirlash maqsadlariga beriladi.

Qaytarishlik tamoyili qarzdorning kreditni to'liq xajmda kreditorga qaytarishi bo'yicha javobgarligini anglatadi.

To'lovlilik tamoyiliga ko'ra, kreditlar qarzdorga ma'lum bir foiz to'lovlarini to'lash sharti bilan beriladi. Qarzdorning kreditdan foydalanganlik uchun to'laydigan foiz to'lovlari kredit muassasasining daromadini tashkil etadi.

Ta'minlanganlik tamoyili kreditlash shartlariga ko'ra, qarzdor kreditorga kreditni qaytarish kafolatini ta'minlashi lozimligidan kelib chiqadi. Chunki, qarzdor kreditni qaytarishdan bosh tortganda, kreditor qarzdorning (yoki unga kafolat, kafillik bergan yuridik shaxsning) mol – mulkidan tegishli miqdordagi mablag'larni o'z tasarrufiga olish imkoniyatiga ega bo'lish kerak. Banklar o'zlari bilan doimiy

aloqaga ega bo'lgan, bank hisob raqamida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro' va kredit tarixiga ega qarz oluvchilarga, bu ta'minot turlarini talab qilmay, blankali (ishonchli) kredit berishlari mumkin.

Bank kreditlari loyihaaning xususiyatiga ko'ra, imtiyozli yoki imtiyozsiz shartlarda berilishi mumkin. Imtiyozli kreditlar ustivor yo'nalishlar uchun, odatda, davlat dasturlari doirasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ayrim hollarda davlat qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, agrar sohada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirishga imkoniyat yaratadi. Xususan, barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladigan qisqa muddatli kreditlar, odatda, 1 yilgacha muddatga berilsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan bunday kreditlar, odatda, 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Ammo, fermer va dehqon xo'jaliklarining o'z aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida, qishloq xo'jaligi bog'liq bo'lmagan faoliyati uchun olingan kreditdan foydalanish muddati, uni qaytarish muddati uzaytirilishini hisobga olgan holda, 12 oydan oshmasligi kerak.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra, kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Kreditlarni olish uchun qarz oluvchilar bankka quyidagi hujjatlar (kredit paketi) ni taqdim etadilar:

- kredit buyurtmasi;
- qarz oluvchining bank hisob varag'idagi pul tushumlari taxmini (pul oqimi) ko'rsatilgan biznes – rejasi;
- oxirgi hisobot sanasiga davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi;

- debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek, 90 kundan ortiq, muddatdagi qarzдорlikning solishtirma dalolatnomalari;
- moliyaviy natijalar haqida hisobot;
- ta'minot shakllaridan birini.

Olingan kreditni qaytarmaslik xatarining oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarining birini taqdim etish huquqiga ega:

- mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;
- bank yoki sug'urta tashkiloti kafolati;
- uchunchi shaxsning kafilligi;
- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi kreditni qaytara olmaslik xatarini sug'urta qilgani to'g'risidagi sug'urta polisi;
- fuqarolar yig'inlarining mahalla, qishloq, ovul Kengashlari kafilligi.

Kreditlarning qaytarilish ta'minoti shakllaridan biri sifatida mol – mulk garovi xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, muomaladan chiqarilgan buyumlardan tashqari, har qanday mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatbaho buyumlar, zargarlik buyumlari, erkin ayirboshlanadigan valyuta va boshqalar garov predmeti bo'lishi mumkin.

Kredit hisobiga sotib olingan mulk, uning qiymatining 80 foizi miqdorida, mazkur kredit bo'yicha garov predmeti bo'lib xizmat qilish mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliya – kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi "Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 195-sonli qarori bilan tijorat banklarining kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga faol qatnashishlarini ta'minlash maqsadida imtiyozli

kredit berish maxsus jamg'armasi tashkil etiladi. Jamg'arma mablag'lari banklar foydasining 25 foizgacha miqdorini ajratish hisobiga shakllantiriladi.

Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi resurslarini ko'paytirishiga yo'naltiriladigan va jamg'armaning berilgan kreditlari hisobiga olingan daromadlari daromad (foyda) solig'idan 5 yil muddatga ozod qilinadi. Tijorat banklarining daromad (foyda) solig'ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari (denozitlari) ning ko'paygan summasiga kamayadi, bunda bo'shaydigan mablag'larda ko'rsatilgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirilishi shart.

Imtiyozli kredit berish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligiga kreditlar berish faqatgina yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo'jaligi va fermer xo'jaliklariga, muddatlari kredit berilayotgan tadbirlarning o'zini qoplashga muddatiga bog'liq holda beriladi. Chunonchi:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga kreditlar fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklariga, qoidaga ko'ra, kamida 2 yil muddatga beriladi;

- investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga to'lov muddatini kechiktirish huquqsiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Kredit shakllaridan biri mikrocreditdir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Markaziy bank yo'riqnomalariga ko'ra, tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklariga beriladigan mikrocreditlar deganda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kredit beriladigan kundagi kursi bo'yicha 5000 (besh ming) AQSH dollariga

ekvivalent miqdoridan oshmaydigan hajmda milliy yoki chet el valyutasida beriladigan kreditlar tushuniladi.

Yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklariga beriladigan mikrocreditlar deganda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha 10000 (o'n ming) AQSH dollariga ekvivalent miqdoridan oshmaydigan hajmda milliy yoki chet el valyutasida beriladigan kreditlar tushuniladi.

Tijorat banklari mikrocreditlarni qarz oluvchilarga shartnoma asosida 3 yilgacha bo'lgan muddatga beradilar. Mikrocreditlarning 50 foizigacha miqdori 1,5 yil (18 oy) gacha bo'lgan muddatda qaytarish sharti bilan naqd pulda berilishi mumkin.

Mikrocreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra, kredit shartnomasi asosida, ammo Markaziy bank tamonidan rasman o'rnatilgan, qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi hisobidan beriladigan mikrocreditlar bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bankning mikrocredit berilgan kundagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi korxonalarini kredit bilan ta'minlash manbalari kengayib, byudjetdan tashqari jamg'armalar (fondlar) vujudga kelmoqda. Bunday jamg'armalar o'z oldiga kredit berish orqali yuqori daromad olishni maqsad qilib qo'ymaydi, aksincha, ular iqtisodiyotning ustivor yo'nalishlarini imtiyozli shartlarda kreditlash maqsadida shakllantiradi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar ishlab chiqarishni aylanma mablag'lar bilan ta'minlashga yo'naltiriladigan qisqa muddatli kreditlar berishni amalga oshirmaydi. Ular asosan, o'rta va uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etadilar. Byudjetdan tashqari jamg'armalar, shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalarini boshlang'ich sarmoya va mikrocreditlar bilan ta'minlashda ham ishtirok etmoqdalar.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirishga beriladigan kreditlar mikrocredit shakllaridan biri bo'lib uning miqdori dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs

maqomiga ega bo'lgan) uchun eng kam ish haqining 300 baravari miqdorigachani tashkil etadi;

“Biznes Fond”ning davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga shakllantiriladigan kredit resurslarining kamida 50 foizi, shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit resurslarining kamida 50 foizi har yili mikrofirmalar va kichik korxonalar, dehqon (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) va fermer xo'jaliklarining dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirish uchun tijorat banklarida maqsadli kredit liziyalarini ochishga yo'naltiriladi.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga kreditlar faqat yangidan ochilgan, davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin 6 oydan kun bo'lmagan davrda kredit olish uchun tegishli buyurtmalar bergan dehqon xo'jaliklariga (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) va fermer xo'jaliklariga beriladi va u imtiyozli foiz stavkasi asosida amalga oshiriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liziyalari hisobidan beriladigan kreditlar uchun imtiyozli foiz stavkasi kreditlanayotgan investitsion loyihalarning yo'nalishidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida;

- dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish uchun – Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasini 1/3 qismi miqdorida;

Mehnat bilan bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hamda Dehqon va fermerlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit liziyalari hisobidan berilayotgan kreditlar bo'yicha bank marjasi imtiyozli foiz stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi.

“Biznes-Fond”ning kredit liziyalari hisobidan dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga berilgan kreditlari bo'yicha bank marjasi belgilangan imtiyozli foiz stavkasining 50 foizi miqdorida, boshqa kreditlar bo'yicha esa,

belgilangan imtiyozli foiz stavkasining 45 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda bank marjasi o'rnatilgan imtiyozli foiz stavkalari miqdorining oshishiga olib kelmaydi.

“Biznes Fond” kredit liniyalari hisobidan kichik biznes sub'yektlariga kreditlar loyixaning qoplangan muddatidan kelib chiqqan holda 2 yildan 5 yilgacha bo'lgan imtiyozli davrni ko'zda tutgan holda 10 yilgacha bo'lgan muddatga, Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit liniyalari hisobidan 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan beriladigan mikrokreditlar, shu jumladan, dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga kreditlar ham, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga beriladigan kreditlar, shu jumladan, mikrokreditlar, qoida tariqasida, 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalaridan foydalanish amaliyotga keng kirib kelmoqda. Xorijiy moliya tashkilotlari (ETTB, KfV, OTB, XMK va boshq.) asosan kichik va o'rta biznesda investitsion loyihalarni moliyalashtirishni amalga oshiradi. Buning uchun respublikada har yili investitsion dastur qabul qilinadi. Dasturning asosiy xususiyati ayrim tarmoqlarda va mintaqalarda xorijiy investorlar uchun real amal qiluvchi imtiyozlar tizimini yaratishdir.

Respublikada qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishning eng muhim manbalaridan biri – davlat byudjetidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga ajratiladigan mablag'lardir. Bu moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning bir qismini jalb etish orqali amalga oshiriladi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasining maxsus jamg'arma hisob raqamiga to'planadigan bu mablag'larning bir qismi har yili kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash “Biznes fond”ga yo'naltiriladi. SHunisi diqqatga sazovorki, “Biznes fond” fond orqali kichik biznesga

yo'naltiriladigan davlat byudjeti mablag'lari imtiyozli shartlarda, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan yuqori bo'lmagan tartibda o'rnatiladi. SHuningdek, avvallari davlat tasarrufida bo'lgan va davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirilgan kichik korxonalar, to'g'ridan-to'g'ri. Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob varag'ida jamlanadigan mablag'lardan imtiyozli shartlarda kredit olish huquqiga egadirlar.

16.3. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni moliyalashtirishning boshqa manbalari va ulardan samarali foydalanish

Qishloq xo'jaligi korxonalari tashkil topishining dastlabki bosqichida korxonani tashkil etayotgan mulkdor yoki agar ular bittadan ortiq bo'lsa, muassislarning sarmoyalariga tayaniladi. Odatda, korxona mulkdorlari uning tashkil topishi jarayonida to'lanishi lozim bo'lgan turli to'lovlarni o'z sarmoyalari hisobidan amalga oshiradilar.

Korxonalar ishlab chiqarishni tashkil etishga mablag'lar jalb etishda, birinchi navbatda, o'zlarida mavjud mol-mulk va jamg'armalarga murojaat etishga harakat qiladilar. CHunki, bu korxona mustaqilligini ta'minlashning eng maqbul yo'lidi.

Korxona faoliyatining so'nggi yillarida ishlab chiqarishni moliyalashtirishda korxonaning o'z mablag'laridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, buning uchun korxona joriy ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashdan tashqari ma'lum miqdorda foyda olishga ham erishmog'i lozim. Dastlabki yillarda korxona z quvvatlarini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida foydaning aksariyat qismini ishlab chiqarishga qayta moliyalashtirishga harakat qiladi.

“Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'risidaga Nizom”ga muvofiq korxonalarda moliyaviy mablag'lar (pul mablag'lari) ning hosil bo'lish manbalari quyidagilardan iborat:

- mahsulot sotish, ish va xizmatlar ko'rsatishdan pul tushumi;

- asosiy faoliyatdan kelgan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- favqulodda daromadlar.

Ammo, moliyaviy mablag'larning ushbu hosil bo'lish manbalari hali korxona ixtiyorida qoladigan real daromad (foyda) ni aks ettirmaydi. Chunki, kelgusi yilda ishlab chiqarishga jalb etish mumkin bo'lgan mablag' faqatgina yilning sof foydasi hamda amortizatsiya ajratmalari hisobiga ta'minlanishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy natijalarni shakllantirish manbalarini kengaytirish maqsadida asosiy ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lmish, mahsulot sotishdan tashqari boshqa faoliyat tularini ham olib borishga intiladilar. Xususan, yordamchi xizmat turlaridan, ortiqcha mol-mulkni sotishdan, davlat subsidiyalaridan, homiylarning xolisona yordami va boshqa operatsion daromadlar asosiy faoliyatdan kelgan boshqa daromadlar deb yuritiladi.

Hozirgi kunda korxonalar bozor iqtisodiyotining muhim elementi hisoblanadigan qimmatli qog'ozlar bozorida ham faol ishtirok etib, daromad olishlari mumkin.

Moliyaviy faoliyatdan oladigan daromadlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- boshqa korxonalar sarmoyasiga ulush qo'yish natijasida keladigan daromadlar;
- aktsiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan daromadlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);
- valyuta hisob raqamidagi kursning ijobiy farqlanishi va sarflangan mablag'larning qayta baholanishidan olingan daromadlar.

Ayrim holatlarda favqulodda holatlar (sel, jala, yong'in, yer silkinishi va h.k.) natijasida ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan ham daromad olish mumkin va uni favqulodda daromadlar deb ataladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishda korxonaning ichki zahirolari, ya'ni o'z moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonaning ichki moliyaviy resurslaridan unumli foydalanish birinchi navbatda

korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va mavjud resurslardan tejamkorlik bilan, oqilona foydalanishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish salohiyatlaridan unumli foydalanish uchun arzon ishlab chiqarish vositalari, yuqori unumli texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish lozim. Bu esa foyda miqdorini ko'paytirishga, umuman, moliyaviy ahvol barqaror bo'lishga olib keladi.

Korxonaning o'z moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish quyidagi yo'nalishlarda bo'lmog'i lozim:

- xomashyo va moddiy resurslardan tejab-tergab, oqilona foydalanish;
- arzon va yuqori unimli texnologiyalardan foydalanish;
- mahsulot tannarxining arzonlashuviga erishish va narx raqobati orqali yuqori foydaga erishish;
- asosiy faoliyat bilan birga qo'shimcha tarmoqlarni rivojlantirish;
- moliyaviy fond bozorlarida qimmatbaho qog'ozlar bilan savdo qilish, serdaromad kompaniyalar aktsiyalarini sotib olish;
- amortizatsiya ajratmalarini ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga yo'naltirish va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti joriy etilishi bilan korxonalarni moliyalashtirish manbalari kengayib, moliyalashtirishning yangi, noan'anaviy turlari shakllanib kelmoqda. Bunga xususan, lizing, fyuchers, faktoring, overdraft va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda lizing xizmatidan foydalanish istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Lizing – mulkni xarid qilishning moliyalashdan iborat ijara munosabatlari turlaridan biri bo'lib, bunda lizing beruvchi lizing oluvchi sub'yektning topshirig'iga muvofiq uchinchi tomon, lizing ob'yektini ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan undan o'z mablag'i hisobiga lizing oluvchi uchun mulk sotib olish to'g'risida shartnoma tuzish majburiyatini oladi. Ayni paytda lizing oluvchi sub'yekt zimmasiga yuqoridagi

shartnomaga binoan lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyati yuklanadi.

“Lizing to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi qonuni hamda “Fuqoralik Kodeksi”ning 587-moddasida lizingga yuqoridagicha ta'rif beriladi. Lizingning asosan 2 turi mavjud:

1. operativ lizing;
2. moliyaviy lizing.

Operativ lizing – mulkni uning xizmat muddatida kam davrga ijaraga berishni nazarda tutadi. Ijara muddati tugagach, mulk egasiga qaytariladi yoki yangi lizing shartnomasi ob'yekti bo'lib qoladi.

Moliyaviy lizing –amalda uzoq muddatli kreditlashtirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Operativ lizingdan farqli o'laroq, moliyaviy lizing mulk uzoq muddatga, odatda, to'liq amortizatsiya muddatiga yoki uning katta qismiga ijara shartnomasi tuziladi. Moliyaviy lizingda ijara shartnomasi tugagach, lizing ob'yekti lizing oluvchi tomonidan sotib olinishi yoki yangi lizing shartnomasi ob'yekti bo'lishi mumkin.

Lizing endigina ish boshlayotgan yoki moliyaviy holati nochor bo'lgan korxonalar uchun ishlab chiqarishni texnik qurollantirishni moliyalashtirishning eng qulay vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki, bunda bank kreditlaridan farqli o'laroq, talab etiladigan kredit qiymatining 120 foizi miqdoridagi garov kafolati talab etilmaydi. Garov kafolati sifatida lizingga beriladigan mulkning o'zi chiqadi.

Lizing ishlab chiqarishni texnik qurollantirish va ilg'or texnologiyalarni jalb etishga o'z mablag'i yetishmaydigan korxonalar uchun o'zlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, bank kreditlaridan foydalanish shartlari og'ir bo'lgan, banklar uzoq muddatli investitsion loyihalar uchun kreditlar ajratishni keskin pasaytirgan, kredit olish holatlari lizing eng samarali moliyalashtirish vositalaridan biri bo'lishi mumkin.

Lizingning qishloq xo'jaligi korxonalari uchun afzalligi quydagilardan ko'rinadi:
-lizingga olinadigan ob'yekt qiymati birdaniga emas, bo'lib – bo'lib to'lanadi;

-ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish hamda ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkoni tug'iladi;

-lizing ob'yekti uchun to'lov shu ob'yektni ishlatishdan olinadigan daromad hisobidan to'lanadi.

-lizingga beriladigan mulk qo'shilgan qiymat solig'idan va lizingga olinadigan mulk mol-mulk solig'idan ozod etilganligi lizing ob'yektining bahosini arzonlashtiradi.

Bugungi kunda lizingni samarali joriy etishdagi mavjud muammolar uning rivojlanish imkoniyatlarini chegaralab qo'ymoqda. Ushbu muammolar bevosita lizing faoliyati sohasida band bo'lgan tashkilotlar faoliyatini o'rganish jarayonida kuzatilmoqda. Mavjud muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, ulardan aksariyati lizing sohasida yaratilgan kamchiliklarning mavjudligi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasida mavjud imkoniyatlarning yetishmasligi bilan bog'liq.

Hozirgi paytda lizingga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaxshi shakllanmagan. Bu esa korxonalarni boshlang'ich sarmoya bilan ta'minlashning biri hisoblanuvchi ushbu tarmoqning rivojlanishiga yaxshi imkon bermaydi.

Respublikamizda lizing xizmati ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar sonining kamligi ular orasida sog'lom raqobat muhiti shakllanishiga va oxir-oqibat ko'rsatilayotgan lizing xizmatlari turi va sifatining oshishiga, foiz stavkalarining pasayishiga olib kelmayapti. Lizing kompaniyalari tashkil etishni rag'batlantirish, ularga soliq, bojxona imtiyozlari berishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash uning rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lar edi.

Hozirgi paytda lizing oluvchi korxonalarda kerakli uskunani lizingga olish uchun axborot yetishmaydi. Lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga lizing to'lovlarini tayyor mahsulot ko'rinishida to'lash tartibini yo'lga qo'yish ham bu soha rivojiga hissa qo'shgan bo'lur edi.

Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari ta'sirida doimiy ravshda moliyaviy mablag'larga ehtiyoj

sezadilar. Chunki, ekinlarni ekish va parvarishlash davri uzoq davom etib, hosilni yig'ib olgunga qadar pul tushumi bo'lmaydi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga mablag' izlashni talab etadi. Bunday holatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida qo'llaniladigan fyuchers operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Fyuchers operatsiyalarida mahsulotni sotib oluvchi xaridor yil boshidan kelgusi hosil uchun bo'nak (hosil qiymatining bir qismini oldindan to'lab qo'yish) sifatida mablag' berib turadi. Fermer xo'jaligi bo'nakdan foydalanib, joriy ishlab chiqarishni moliyalashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Respublikamizda paxta va don ekinlariga davlat buyurtmasi o'rnatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1998 yil 31 dekabrda qabul qilingan pF-2165-sonli farmoniga muvofiq fermer xo'jaliklari davlat buyurtmasi hajmidagi yetishtirayotgan mahsulot qiymatining 50 foizi miqdorida Moliya Vazirligining "Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan avans puli (transh) olish imkoniyatiga ega. Buning ijobiy tomoni shundaki, fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni yuqori foiz stavkalarida tijorat banklaridan qarzga olishga majbur bo'lmaydi.

Ayrim holatlarda qishloq xo'jaligi korxonalarida mol yuboruvchilar tomonidan jo'natilgan tovar-moddiy qiymatliklarni to'lash uchun vaqtincha mablag' yetishmovchiligi holatlari uchraydi. Bunday holatlarda korxonalar tovar-moddiy qiymatliklarni yuboruvchi korxonalar (kreditorlar) bilan mahsulot qiymatini ma'lum muddatdan so'ng to'lash shartlashilgan holda shartnoma tuzilishlari mumkin. Ma'lum bir muddatgacha bunday kreditorlik qarzi to'lanishi lozim bo'lgan hisob-kitoblar schetida aks etib turadi. Agar shu muddatda ham kreditorlik qarzini to'lash imkoni bo'lmagan taqdirda bu qarz veksel ko'rinishida (ya'ni qarzni ma'lum bir muddatdan so'ng foizi bilan qaytarish) rasmiylashtiriladi.

Korxonalar o'rtasida debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi paydo bo'lganda, ya'ni tovar-moddiy qiymatliklarni yuborgan korxona xaridor bilan

mahsulot qiymati bo'yicha o'z muddatda o'zaro hisob-kitob qila olmasa yoki bunday qarzlarni shubhali, undirish ehtimoli kam bo'lsa, ularni faktoring vositasida undirish amaliyoti qo'llaniladi.

Faktoring – korxonalar o'rtasida qarzlarni undirishda vositachilik faoliyatidir. Faktoringda o'rtada turuvchi kompaniya (odatda, bank)qarz bergan korxonadan ma'lum bir komission to'lov evaziga qarzdordan mablag'ni undirish huquqini qo'lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan korxona undirolmay turgan qarzning aksariyat qismini faktoring kompaniyasi (yoki bank) dan qo'lga kiritadi. So'ngra faktoring kompaniyasi debitor korxonaga qarzni undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atadi. Faktoringning afzalligi shundaki, u noto'lovlar muammosini qisman bo'lsada yechishga imkon beradi.

So'nggi paytlarda moliyalashtirishning yangi shakllaridan biri sifatida Overdraft kirib kelmoqda. Overdraft – qisqa muddatli kreditlash shakli bo'lib, banklar amaliyotida ishlatiladi. Uning mazmuni shundaki, bank o'z mijozining hisob raqamida vaqtincha mablag' bo'lmagan holatda uning faoliyatini moliyalashtirish uchun Overdraft shartnomasini tuzadi. Mijoz o'z hisob raqamida mablag' paydo bo'lishi bilan overdraft shartida olgan qarzlarni bankka ma'lum bir foizlar evaziga qaytaradi. Overdraft, odatda, bankning eng ishochli mijozlariga nisbatan qo'llaniladi.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat majmuasining samarali faoliyati ko'p jihatdan moliya va kredit tizimining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yil davomida xarajatlarning sarflanishi va faqat yilning ma'lum bir paytida daromadlarning olinishidir. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi korxonalarining yil davomida moliyaviy resurslarga muhtojligini oshiradi. Bu masalaning hal etilishi qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati natijalarining qanday bo'lishini belgilaydi.

Qishloq xo'jaligi boshqa tarmoqlarga nisbatan moliya va kredit tizimining holatiga ko'proq bog'langan. Hozirda qishloq xo'jaligida murakkab, turli shaklga ega

bo'lgan moliya va kredit tizimi ishlab turibdi. Ularni takomillashtirish ustida katta ishlar qilinmoqda.

Tayanch iboralar

Dotatsiya, lizing, sug'urta, soliq imtiyoz, avans, yer solig'i, mulk solig'i, faktoring, overdraft, moliya, kredit, veksel, kliring operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar, bank, mikrobank, mikrokredit, intensiv va ekstensiv rivojlanish, fan-texnika taraqqiyoti, cheklanganlik, narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funktsiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, baholar pariteti, agrasanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish, mahsulot sifati, agrosanoat integratsiyasi, agrar siyosat, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy muhit, hudud iqtisodiyoti, tarmoqlarning mutanosib rivojlanishi, ijtimoiy masalalar, aholi turmush darajasi, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlarini fond bilan ta'minlanish darajasi, fond qaytimi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, xususiy tadbirkorlik, import, eksport.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agrosanoat majmuasi moliya-kredit tizimining mohiyati.
2. Agrosanoat majmuasi moliya-kredit tizimining xususiyatlari.
3. Kredit tushunchasi va uning mohiyati.
4. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tartibi.
5. Qishloq xo'jaligini kreditlashning qanday shakllari, usullari mavjud?
6. Kreditlash qaysi manbalardan amalga oshiriladi?
7. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va kreditlashni qaysi yo'llar orqali takomillashtiriladi?
8. Qishloq xo'jaligida soliq siyosati.
9. Mikrokreditlashning mohiyati va tartibi.
10. Lizing va uning qishloq xo'jaligida qo'llanilishi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I. A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T.: O'zbekiston, 1998.
4. Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k rinku: Obhie i regionalnie problemi. – M.: IpO «poligran», 1992.
5. Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
6. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
7. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
5. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

17 –BOB. YEVROPA HAMJAMIYATINING YAGONA AGRAR SIYOSATI

17.1. Yevropa hamjamiyati yagona agrar siyosatining zarurati, ahamiyati va rivojlanishi

Evropa Ittifoqi dunyo siyosati, iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida muhim o'ringa ean mintaqasi hisoblanib, aholisi 370 million kishini tashkil etadi. Dunyo yalpi ichki mahsulotining 20 foizidan ko'prog'ini ishlab chiqaradi. Dunyo xalqaro savdosining 40 foizini, eksportining 50 foizi yevropa Ittifoqiga to'g'ri keladi. yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik oltin-valyuta zahirasi ega. yevropa Ittifoqi yalpi ichki mahsulotining 0,4-0,5 foizi miqdorida rivojlanayotgan va bozor munosabatlariga o'tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlarga yordam ko'rsatishga ajratmoqda. yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston Respublikasi mustahkam siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar o'rnatgan. O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi savdo aylanmasining 65 foizi yevropa Ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlarga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi yevropa Ittifoqi bilan TASHIS va TRASEKA dasturlari, qurilish, energetika, ta'lim va ekoloigiya munosabatlari bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi sohasida ham aloqalar o'rnatgan.

Evropa Ittifoqi hozirgi holatga yetguncha juda murakkab va og'ir davrlarni boshdan o'tkazgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin yevropa davlatlari uchun integratsiyalashuv jarayoniga havfsizlikni ta'minlaydigan eng asosiy omil sifatida qarala boshlandi. Shu maqsadda 1948 yilda yevropa Iqtisodiy Kooperatsiyasi Tashkiloti (EITS) tuzildi. Natijada Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg yagona bojxona ittifoqini vujudga keltirdilar. yevropa davlatlarining iqtisodiy integratsiyalashuvida Marshal rejasida katta ahamiyat kasb etdi. Uning natijasida 1948-1952 yillarda AQSH va Kanada davlatlaridan yevropaga 25 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. 1951 yilda yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyati vujudga keldi. Uning natijasida ko'mir va po'lat uchun bojxona to'lovlari, kvotalar va subsidiyalar bekor qilindi.

Urushdan keyingi yillarda yevropa qishloq xo'jaligi juda yomon ahvolda edi. yevropa davlatlaridagi qishloq xo'jaliklari mahsulotlarining narxi AQSH va Kanadadagidan bir necha marta qimmat edi. Bu, o'z navbatida, yevropa davlatlari uchun juda katta muammolarni tug'dira boshladi. Bu muammolarni yechish zarurati qishloq xo'jaligi imkoniyatlarini kengaytirish, uning mahsulotlari yevropa davlatlari o'rtasida erkin harakatlanishini ta'minlash fikri kuchaya bordi. yevropa davlatlari arzon import mahsulotlaridan himoyalanih va o'zlarining qishloq xo'jaligini mustahkam asosga qo'yishga kirishdilar. Bunday fikrlar natijasida 1957 yilda yevropa davlatlaridan 6 tasi Rim shahrida Rim shartnomasini imzoladilar. Bu shartnoma yevropa hamjamiyati tashkil etilishiga asos soldi. Rim shartnomasining 38- 47- moddalari yevropa yagona agrar siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu hujjat bo'yicha yevropa yagona agrar siyosatining maqsadlari quyidagicha belgilandi:

- ishlab chiqarish omillaridan optimal foydalanish, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga texnikaviy yordam ko'rsatish orqali qishloq xo'jaligshi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish;
- qishloq joylarda yashaydiganlarga yaxshi turmush darajasida yaratish, ayniqsa, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlar daromadini oshirish evaziga ularning turmush darajasini keskin oshirish;
- bozorni barqarorlashtirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kafolatli ta'minotini vujudga keltirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'molchilar uchun maqbul baholarini vujudga keltirish;

Evropa ittifoqi Vazirlar kengashi 1962 yilda don mahsulotlari uchun yagona yevropa bozorini shakllantirish bo'yicha qator hujjatlar qabul qildi. Ushbu hujjatlarda yagona don bozorini tartibga solib turish mexanizmlari ishlab chiqarildi. Ular hozirgi kunda ham yevropa agrar siyosatining asosini tashkil etadi. Bu mexanizimlar: maqsadli narxlar, interventsion narxlar, ostona narxlari, o'zgaruvchan import tariflari va eksport subsidiyalaridan iborat. Bundan tashqari yagona don bozorini

moliyalashtirish tartibini ham joriy qildi. yevropa yagona agrar bozorini o'rnatish bo'yicha qilingan katta ishlarga qaramasdan bu jarayon oson kechgan emas. Faqatgina yagona don bozori o'rnatish bo'yicha amalda kelishish 1967 yilda amalga oshdi. 1962 yilda markazlashgan moliyalashtirishni amalga oshirish uchun tuzilgan yevropa qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan va kafolat fondi (FEOGA)ga pul ajratish 1969 yildagina amalga oshiriladi. Natijada 1970 yilga kelib yevropa yagona agrar siyosati unga a'zo davlatlar manfaatlari uchun xizmat qiladigan juda katta amaliy kuchga aylandi.

1972 yilda "Qishloq xo'jaligi -80" nomli Mansxold rejasi qabul qilindi. Ushbu rejaga binoan 1980 yilga kelib qishloq xo'jaligada band bo'lganlar sonini 5 mln. kishiga kamaytirish va fermerlarning o'rtacha xajmini oshirish vazifasini qo'yiladi. Albatta, bu ixtiyoriy ravishda yuz berishi kerak edi. Bu reja quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydi:

- 55-65 yoshdan oshgan fermerlar o'z faoliyatini to'xtatgan holda ularga yiliga ma'lum miqdorda pul mablag'lari berilishini tashkil etish;
- Istiqbolli deb topilgan fermerlarga imtiyozli kreditlar va kredit kafolatlari berish;
- Fermerlar uchun axborot va maslahat xizmatlarini tashkil etish va ularni rivojlantirish;
- Marketing xizmatlarini rivojlantirish yuzasidan tashkil etilayotgan uyushmalarni va birlashmalarni qo'llab-quvvatlash;
- Qishloq xo'jaligiga yangi yerlarni jalb etishni cheklash.

1992 yilda yevropa yagona agrar siyosatini rivojlantirish yuzasida yangi reja-Mak-SHerri rejasi qabul qilindi. Uning asosiy mazmuni quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

- Dehqonchilik va qoramolchilik mahsulotlariga bo'lgan narx dunyo darajasiga yaqinlashtirilishi kerak (hatto, 90-yillarda ham yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish narxi AQSH va Kanadadagi darajadan ancha baland edi.);

- Fermerlarga narxlarni tushirganlari uchun zararni qoplaydigan to'lovlar to'lashni tashkil etish;
- Zararni qoplash to'lovlari ishlab chiqarishdan yerlarni ozod qilgan va 1 ga yerga chorva mollarining maksimal biriktirilishini ta'minlagan fermerlarga berish;
- Fermerlarning ekologik masalalarini to'g'ri hal etishda qatnashishlari, erta pensiyaga chiqishlarini qo'llab-quvvatlash.

1997 yilda yevropa Hamjamiyati Komissiyasi "2000 yil kun tartibi: qishloq xo'jaligi" hujjatini e'lon qildi.

17.2. yevropa yagona agrar siyosatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi

Evropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar o'rtasida olib borilayotgan yagona agrar siyosat o'ziga xos mexanizmlar bilan tartibga solinib turiladi. Ularning asosini qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlarini yagona bozorda qo'llab-quvvatlab turish tashkil etiladi.

Uning asoslaridan biri maqsadli narxlardir. Maqsadli narxlar bozori mahsulot eng kam ta'minlangan joylarda xohish asosida o'rnatilishi mumkin bo'lgan narxdir. Donchilikda shunday narx o'rnatilgan joy Germaniyaning Disburg shahri deb qabul qilingan.

Disburg shahri don bilan nisbatan yaxshi ta'minlanmagan zona hisoblanar ekan. Asosiy don ishlab chiqaruvchi zona deb Frantsiyaning shimoliy qismida joylashgan Orme shahri qabul qilingan. Maqsadli narxlar har yili yevropa Hamjamiyatining Vazirlar kengashi tomonidan o'rnatiladi va u barcha hisoblanganing asosida yotadi. Interventsion narxlar maqsadli narhlardan past o'rnatiladi. Uning asosiy maqsadi ichkinarxlarning ma'lum miqdordan pasayib ketmasligini ta'minlashdir. Maqsadli narxlar bilan interventsion narhlar bilan interventsion narxlar o'rtasidagi farq donni Orme shahridan Disburg shahriga olib kellish bilan bog'liq xarajatlar miqdorida bo'ladi. Agarda bozorda narx interventsion narxlardan past bo'lsa, interventsion idoralar o'z ishini boshlaydi. Ya'ni ular donni fermerlardan interventsion narxlarda

sotib ola boshlaydilar. Bozor narxi interventsion narxdan yuqori bo'lgan taqdirda fermerlar o'z mahsulotlarini bozorda erkin sotadilar. Interventsion idoralar sotib olgan mahsulotlarini zaraga bo'lsada, chetga eksport qiladilar. Shunday qilib, interventsion narxlar yevropa bozorida shakllanadigan narxlarning pastgi chegarasini belgilaydi. Interventsion narxlar dunyo narxlaridan past bo'lishi katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. U holda chetdan mahsulotlar kirib kelishi kuchayadi. Shu sababli ikkinchi darajadagi himoya tartibi o'rnatiladi. Bu himoya tartibi ostona narxlari orqali amalga oshiriladi. Uni ba'zida minimal import narxlari deb ham yuritiladi. Ostona narxlari mahsulotni asosiy iste'mol qiluvchi zonaga uni jo'natadigan asosiy portdan olib kelish xarajatlarini maqsadli narxlardan ajratish natijasida aniqlanadi. Donchilikda asosiy don iste'mol qiladigan zona Disburg shahri, donni jo'natadigan asosiy port esa Rotterdam deb qabul qilingan. Ostona narxlari o'zgaruvchan import tarifini aniqlashning asosi hisoblanadi. O'zgaruvchan import tariflari ostona narxlari bilan dunyo narxlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Evropa Hamjamiyati davlatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi bilan bir qatorda ularning eksporti bilan ham shug'ullanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dunyo narxlari, odatda, yevropa davlatlaridagidan ancha past. Bunday holda eksportni amalga oshirish ma'lum zararlar bilan bog'liq. Ushbu zararlarini qoplash uchun eksport bilan shug'ullanganlarga eksport subsidiyalari beriladi. Eksport subsidiyasi dunyo narxlari bilan interventsion narxlar o'rtasidagi farq sifatida yuzaga chiqadi. Fermerlar eksport bilan shug'ullanishlari uchun maxsus tenderda ishtirok etadilar va uni yutib chiqqanlarga eksport bilan shug'ullanish huquqi beriladi. Faqat tenderda yutib chiqqanlarga eksport subsidiyalari beriladi.

Qisqacha xulosalar

Bugungi kunda oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish alohida olingan bir davlatda ma'lum chegaralanishlarga ega. Alohida olingan davlatlarning imkoniyatlari cheklangan. Bir nechta davlatlarning o'zaro kelishgan holda ishlab chiqarishni tashkil etishlari albatta katta imkoniyatlarni ochadi. Birgalashib yagona bir siyosat orqali

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritishning samaradorligini yevropa hamjamiyati misolida ko'rish mumkin.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining agrar sohadagi imkoniyatlarini kelishilgan holda amaliyotga qo'llash juda katta samara berishi mumkin. Keyingi yillarda bu borada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Eng avvalo suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish masalalari hal etilmoqda.

Tayanch iboralar

Yagona agrar siyosat, ostona narxlari, interventsia narxlari, eksport subsidiyasi, o'zgaruvchan import ta'rifi, maqsadli narxlar, tender, davlat dasturlari, dotatsiya, kvota, lizing, sug'urta, soliq imtiyozi, avans, yer solig'i, mulk solig'i, faktoring, overdraft, moliya, kredit, veksel, kliring operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar, bank, mikrobank, mikrokredit, intensiv va ekstensiv rivojlanish, fan-texnika taraqqiyoti, cheklanganlik, narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funktsiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalari, kimyo sanoati, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik, omuhta yem sanoati, moddiy rag'batlantirish, kasbiy malaka, hosildorlik, mahsuldorlik, natural ko'rsatkichlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Evropa Hamjamiyatining shakllanishi.
2. Evropa Hamjamiyatining yagona agrar siyosatiga qanday erishildi?
3. Evropa Hamjamiyatining yagona agrar siyosatini olib boruvchi tashkilotlar.
4. Ostona narxlari.
5. Interventsion narx va tashkilotlar.
6. Eksport subsidiyalari.
7. Import boji.
8. Maqsadli narxlar.

9. Yashil pullar.
10. Evropa Hamjamiyatining yagona agrar siyosatini rivojlantirish yo'nalishlari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: O'qituvchi, 1998.
2. Serova ye. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.
3. Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vo'ssh. uchun. zavedeniy).
4. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Kremntsova. T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediya», 2001.
5. Raskin I.I, Raskin L. I. ApK: proizvodstvo i pervichnaya pererabotka xlopka. –T.: Mexnat, 1986
6. papov N. A. Ekonomika selskogo xozyaystva: uchebnik. M.: Delo i Sersis, 2000.
7. Cramer, Gail L. Agricultural yeconomics and agribusintss / Gail L. Cramtr, Clarence W. Jenstn? Djuglas D.Sjuthgate, Jr. - 8th yed/ printed in United States of America, 2001 – 519 r.

Internet saytlari:

1. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
2. petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
3. N.A. popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», – M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
4. N.A.popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>

5. N.YA.Kovalenko, *Ekonomika selskogo xozyaystva*, M.: «YURKNIGA», 2004,
<http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
6. www.bearingpoint.uz – *Ekonomika R. UZ*.

Glossariy (asosiy iboralar mazmuni)

Agrar (lotincha agrarius) - 1) yerga, yerdan foydalanishga, unga egalik qilishga oid (masalan agar tanglik, agrar islohot); 2) sanoatga nisbatan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosiy o'rinda turishini ifodalovchi so'z (masalan agrar mamlakat va h.k.).

Agrar islohotlar – qishloq xo'jaligidagi islohotlar. Davlatning yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlari va yerda xo'jalik yuritish usullarini o'zlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Dastlab agrar islohotlar kontseptsiyasi maqsad va vazifalari, yo'nalishi, uni o'tkazish bosqichlari aniqlab olinadi. SHunga asoslanib agrar islohotlarni o'tkazishning aniq chora-tadbirlari belgilanadi va ularni davlat amalga oshiradi.

Agrar siyosat – agrar munosabatlar masalasida davlatning faoliyati. Uning yordamida yer, asosiy vositalarga bo'lgan mulkchilik, qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalarining asosiy yo'nalishlari belgilanadi. Qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirishga qaratilgan faolit olib boriladi. Qishloq aholisining masalalarini hal etishninig bosh yo'nalishlari belgilanadi. Har bir davlat o'z manfaatlaridan kelib chiqib, mamlakat imkoniyatlarini hisobga olib agrra siyosatini olib boradi. Agrar siyosat ma'lum davrlarda o'sha darvning sharoitlarini hisobga olib o'zgarib, o'z zamonasiga moslashtirilib boriladi.

Agrar masala – qishloq xo'jaligida yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, xo'jalik yuritish usullari yuzasidan paydo bo'lgan va har bir davrda o'z yechimini talab qiluvchi masala.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va iste'molchilarga yetkazib berish maqsadida, o'zaro texnologik va xo'jalik aloqalar bilan bog'langan iqtisodiyotning tarmoqlari va xizmatlari yig'indisidan iborat, yagona maqsad yo'lida ishlaydigan majmuadir. Agrosanoat majmuasi murakkab tarkibga ega. Unga agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlaga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxinalari (qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoati, omuxta yem ishlab chiqarish sanoati,

meneral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi zavodlar, kimyoviy vositalar va qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun dori-darmonlar ishlab chiqaruvchi korxonalar), qishloq xo'jaligining o'zi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlaydigan korxona va tashkilotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarin qayta ishlovchi korxonalar, ularni saqlaydigan, tashiydigan va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beradigan ulgurji va chakani savdo tashkilotlari kiradi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasi mo''tadil ishlashini ta'minlaydigan ko'p tarkibli xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga ham egadir. Agrosanoat majmuasi agrosanoat integratsiyasining mahsuli sifatida shakllanadi.

Agrosanoat integratsiyasi – sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashishi asosida bir butun tizimga aylanishi. Uning asosini iqtisodiy, fan va texnika, texnologiya va boshqa xo'jalik imkoniyatlarini birlashtirish orqali ishlab chiqarish va mehnatning umumlashtirilishi tashkil etadi. Agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi qishloq xo'jaligiga sanoatning kirib kelishini, qishloqning iqtisodiy va ijtimoiy masalalarini optimal yetish imkoniyatini kuchaytiradi.

Agrotexnologiya – dehqonchilik texnologiyasi, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish usullari tizimi. Agrotexnologiyaning nazariy asosi agronomiya hisoblanadi. Agrotexnologiya quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: tuproqqa ishlov berish; almashlab ekish; o'g'itlar solish; urug'likni ekishga tayyorlash; ekish; ekinlarni parvarishlash; begona o'tlar, kasalliklar va hasharotlarga qarshi kurash; hosilni yig'ib olish. Bu tadbirlarning har biri o'z navbatida agrotexnologiya usullari yig'indisidan iborat. Masalan, yerni haydash, tekislash, boronalash va ekishga tayyorlash usullari tuproqqa ishlov berish texnologiyasining asosini tashkil etadi.

Agrosanoat majmuasi – bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, ularni saqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga etkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar va majmua tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi sohalar yig'indisidir. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va xizmat ko'rsatuvchi

infratuzilma ham kiradi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari 4 ta sohaga bo'linadi. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasiga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, ikkinchi sohasiga qishloq xo'jaligi, uchinchi sohasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, to'rtinchi sohasiga infratuzilma kiradi. Infratuzilma o'zi ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga, ishlab chiqarish infratuzilmasi ikkinchi guruhga esa ijtimoiy infratuzilma kiradi.

Aylanma vositalar (mablag'lar) - korxona (xo'jalikning) xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan pul mablag'lari; aylanma vositalar aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlaridan tashkil topadi.

Aylanma kapital – kapital (ishlab chiqarish fondlari) ning har bir ishlab chiqarish siklida sarf etiladigan va qiymati ishlab chiqarilgan tovarga to'liq o'tadigan qismi.

Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotni sotish maqsadida zarur aylanma fondlarni va muomala fondini tashkil etish uchun avanslashtirilgan pul mablag'lari yig'indisidir.

Aktiv (lotincha **aktivus**- faol, ta'sirchan, ishchan) – 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul mablag'lari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va b.) aks etadi; 2) korxona yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, naqd pul, qimmatbaho qog'ozlar va b.). pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo'lgan, bozori chaqqon aktiv (veksellar, qimmatbaho qog'ozlar, oltin, naqd pul, va b.) likvid aktivlar deyiladi.

Assotsiatsiya (lotincha **associo** – birlashish, qo'shish, uyushish) – umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma, ittifoq, guruh.

Assortiment (frantsuzcha **assoriment** – tanlab olingan, saralangan) – muayyan belgilariga ko'ra guruhlangan tovarlar turlari, xillari to'plami.

Asosiy vositalar – ishlab chiqarishning moddiy sharoitlarini ta'minlaydigan vositalar (mehnat qurollari, bino, inshoot, qurilma va b.). Buxgalteriya hisobi va

rejalashtirishda asosiy vositalar tarkibiga bir yildan ortiq va qiymati eng kam ish haqining 15 barobaridan arzon bo'lmagan vositalar kiritiladi.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari (mashina, asbob-uskuna ishlab chiqarish binolari va uskunalarini) o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o'z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o'tkazib boruvchi qismi.

Asosiy faoliyatdan olingan foyda - bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus, asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

Almashlab ekish - ekinlarning yillar davomida ma'lum dalalarda rejali tartibda navbati bilan almashib turilishi.

Auktsion – tovar va mahsulotlarni kim oshdi savdosida erkin sotish joyi.

Bevosita xarajatlar - bitta mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq, miqdori ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga nisbatan o'zgaruvchan xarajatlar.

Bilvosita xarajatlar - yordamchi ishchilarga vaqtbay ish haqi to'lash, ishlab chiqarish asosiy vositalarining amortizatsiyasi, ishlab chiqarish asosiy vositalarini saqlash, joriy va kapital remont qilish va mahsulot hajmining o'zgarishidan qat'i nazar nisbatan doimiy bo'lib qoladigan boshqa xarajatlar singari ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlab chiqarish ahamiyatidagi xarajatlar.

Biznes – sohibkorlik – tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan shug'ullanish.

Bo'linmas fond - qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) ustav fondi qiymatining bir qismi bo'lib, u shirkat xo'jaligi tasarrufida qoladi va paychi a'zolar o'rtasida taqsimlanmaydi.

Bazis davr – iqtisodiyotda joriy (hisobot) davri ma'lumotlari (ko'rsatkichlari) ni qiyoslash uchun qabul qilingan biror vaqt (oy, kvartal, yil va h.k.) yoki sana.

Bazis narx - 1) rejali iqtisodiyotda doimiy deb qabul qilingan va xalq xo'jaligi ko'rsatkichlari (masalan, milliy daromad hajmi, sanoat, qishloq xo'jaligi, yalpi

mahsuloti va b.) dagi o'zgarishlarni indekslarni hisoblashda asos qilib olingan narx.

2) sifat ko'rsatkichlari aniq bo'lgan tovarning kontrakt yoki preyskurant narxi.

Balans (lotincha **balanx**) – biron-bir faoliyatning bir-birini muvozanatlashi lozim bo'lgan tomonlari (masalan, daromadlar va xarajatlar) o'rtasidagi nisbatlarning miqdoriy ifodasi. Iqtisodiyotda buxgalteriya balansi, ijtimoiy mahsulot balansi, savdo balansi, mehnat resurslari balansi, daromad va xarajatlar balansi, to'lov balansi va boshqa balanslar mavjud.

Bandlik – aholini ish bilan ta'minlash, mehnatga layoqotli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarni shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Bank krediti – banklarning mijozlarga vaqtinchalik foydalanish uchun kapital berishi. Banklar qaytarishlik, bank foizi to'lovi va muddatlilik shartlarida o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan kreditlari beradi. Turli ssudalar (savdo-sotiq, ko'chmas mulkni garovga oilsh, asosiy kapitalni kengaytirish va boshqalar), veksellar hisobi kabi shakllari bor.

Bank foiz stavkasi - banki ssudasidan foydalanganlik uchun belgilangan haq miqdori; qarz summasiga nisbatan foiz hisobida undiriladi. Uning miqdori kredit turi, muddati va qarzning vaqtida qaytarilishiga bog'liq. Tijorat va davlat banklari Markaziy (milliy) Bank boshchiligida kreditlar uchun belgilaydigan bank foiz stavkasi qarzning qaysi tarzda va qanday berilishiga ham bog'liq. Uzoq muddatli qarzning bank foiz stavkasi past, qisqa muddatlisiniki yuqori bo'ladi.

Bozor - sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi tovar ayriboshlash munosabatlari; ishlab chiqarish bilan iste'molni o'zaro bog'lovchi mexanizm. Bozor ob'yeti nafliligi bor tovar va xizmatlar. Bozor ishtirokchilari (sotuvchi va xaridorlar) bo'lib ular firmalar, uy xo'jaliklari, davlatning tashkilot, idoralari va boshqalardan iborat.

Bozor infratuzilmasi – bozorda tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlaydigan muassasalar, tashkilotlar majmui. Bozor infrastrukturasining asosiy

unsurlar quyidagilar: birjalar (tovar, xom ashyo, fond, valyuta) va ularning tashkiliy rasmiylashtirilgan vositachiligi; kimoshdi savdolari, yarmarkalar va birjadan tashqari tashkiliy vositachilik shakllari; kredit tizimi va tijorat banklari, emissiya tizimi va emissiya banklari; aholi bandligini boshqarish tizimi; davlat va nodavlat bandlikka yordam ko'rsatish markazlari (mehnat birjalari); axborot texnologiyalari va ishbilarmonlik aloqalari vositalari; soliq tizimi va soliq inspeksiylalari; tijorat-xo'jalik xatari sug'urtasi tizimi va sug'urta kompaniyalari; maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklari; savdo palatalari, bojxona tizimi; o'rta va oliy iqtisodiy ta'lim tizimi; auditorlik va konsalting kompaniyalari; va h.k.

Bozor kon'yukturasi – muayyan davrdagi bozor holati; bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi. SHunga ko'ra bozor kon'yukturasi ijobiy va salbiy, qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin.

Birja – mahsulotlarni sotish tizimlaridan biri. Talab va taklifga qarab mahsulotlar narxi birjada muvozanatlashib turadi.

Veksel (nemischa **Wechsel** - ayirboshlash) – ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati qayd etilgan qarzдорlik haqidagi rasmiy hujjat; qimmatli qog'oz.

Daromadlar - hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi.

Davlat buyurtmalari – davlat tomonidan muayyan mahsulot turini (hozirgi kunda paxta va g'allani) yetkazib berish bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalari bilan tuzilgan shartnoma-topshiriq.

Dividend — sof foydaning soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanidan keyin shirkat xo'jaligi (aktsiyadorlar jamiyati) ixtiyorida qoladigan va a'zolar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan qismi.

Dehqon xo'jaligi - oilaviy mayda tovar xo'jaligi, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila

boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqonchilik tizimi - dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish uchun yerdan to'la foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tashkiliy-agrotexnik tadbirlar yig'indisi.

Davlat buyurtmasi - davlat talabi bilan (shartnoma yoki kelishuv asosida) korxona, tashkilot, xo'jaliklarga muayyan mahsulot turini belgilangan muddatlarda ishlab chiqarish va yetkazib berish, davlat ehtiyojlari uchun tegishli xizmatlar ko'rsatish, shuningdek ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy ishlarini bajarish va boshqalar.

Davlat byudjeti – davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui.

Daromad – keng ma'noda kirim bo'lgan har qanday pul mablag'lari yoki pul qiymatiga ega bo'lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy sub'yekt o'z faoliyati natijasiga ko'ra oladigan pul va tovar – moddiy tushum.

Dehqonchilik – o'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o'simliklar (qishloq xo'jalik ekinlari)ni yetishtirish; qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri.

Dehqonchilik tizimi – yerdan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, ekinlardan yuqori hosil olishga qaratilgan, o'zaro bir-biriga bog'liq texnologik (agrotexnik), meliorativ va tashkiliy iqtisodiy tadbirlar majmui.

Dotatsiya (lotincha **dotaio** – tuhfa) – 1) ma'lum xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir sub'yekti tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag'lari berilishi. Dotatsiya odatda davlat byudjeti tomonidan beriladi. 2) muayyan fuqaro va tashkilotlarga ko'rilgan zararni qoplash yoki belgilangan maqsadlar uchun davlat tomonidan pul mablag'laning ajratilishi (berilishi).

Yer monitoringi – bu yerning holatini doimiy nazorat qilib turish tizimidir.

Yer transformatsiyasi – qishloq xo'jaligida yerlarning bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tishi. Odatda yer transformatsiyasining ikki turi mavjud. Birinchisi

ijobiy yer transformatsiyasi – nisbatan yomon yerlarning yaxshi yerlar safiga o'tishi. Ikkinchisi salbiy yer transformatsiyasi – yaxshi yerlarning yomon yerlar safiga o'tishi.

Yilning sof foydasi - u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi sub'yekt ixtiyorida qoladigan qismi.

Ixtisoslashtirish – mavjud tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar va boshqa omillar ta'sirida u yoki bu mahsulot turlarini ishlab chiqarishga moslashuv.

Investitsiya – bu foyda olish maqsadida moliyaviy resurslarni (kapitalni) iqtisodiyotning tarmoqlariga uzoq muddatga qo'yishdir.

Kichik biznes – manfaat (foyda) olish maqsadida ishlab chiqarishni, asosan xususiy tadbirkorlikni kichik miqdorda va shakllarda, tashkil etish. U ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdoning ma'lum shakl va turlarida rivojlanadi. Xususiy tadbirkor o'z faoliyatini ma'lum xatar (raqobat tavakkalchiligi) asosida yuritadi.

Motivatsiya (sababni asoslash) – real mehnat hulqini tushuntirish, asoslab berish uchun sabablar (mulohazalar) tanlashga qaratilgan og'zaki xati-harakatdir.

Mehnat bozori – ishchi kuchlarining mehnatga bo'lgan qobiliyatini sotish va sotib olish tizimi. Mehnat bozorining uchta sub'yekti mavjud. Bularga: o'z ishchi kuchini sotuvchilar, ish beruvchilar va davlat kiradi.

Mehnat resurslari – aholining mehnat qilish qobiliyatiga (jismoniy va aqliy faoliyatga) ega bo'lgan qismi.

Mehnat unumdorligi – Konkret sarflangan mehnatning samaradorligi, natijaviyligidir. Mehnat unumdorligi vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan o'lchanadi.

Moliyaviy natijalar - xo'jalik yurituvchi sub'yektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakuni.

Moliyaviy lizing –amalda uzoq muddatli kreditlashtirishning o'ziga xos shakli hisoblanib, mulk uzoq muddatga, odatda, to'liq amortizatsiya muddatiga yoki uning

katta qismiga ijara shartnomasi tuziladi. Moliyaviy lizingda ijara shartnomasi tugagach, lizing ob'yekti lizing oluvchi tomonidan sotib olinishi yoki yangi lizing shartnomasi ob'yekti bo'lishi mumkin.

Mahsulot tannarxi - mahsulot birligini ishlab chiqarish, sotish uchun qilingan xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda. Bu sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini olish bilan aniqlanadi;

Moddiy-texnika bazasi - tarmoqlarda ishlab chiqarishni amalga oshirish jarayonida ishlatilayotgan asosiy vositalar, aylanma mablag'lar birgalikda ularning moddiy-texnika bazasi deb yuritiladi.

Operativ lizing – mulkni uning xizmat muddatida kam davrga ijaraga berishni nazarda tutadi. Ijara muddati tugagach, mulk egasiga qaytariladi yoki yangi lizing shartnomasi ob'yekti bo'lib qoladi.

Paychilik munosabatlari – sherikchilik asosida biznes yuritishga hissa qo'shish va shu hissaga qarab daromad ko'rish sohasidagi iqtisodiy munosabatlar.

Pay fondi - shirkat xo'jaligi ustaviga muvofiq shirkat xo'jaligi a'zolarining qiymatda ifodalangan mulkiy paylari, har bir a'zoning shirkat xo'jaligi pay fondidagi ulushi.

Rentabellik – tarmoq yoki korxonaning foyda olib ishlashi, aktivlar, sotilgan mahsulot yoki ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan foydalilik darajasini ko'rsatadi.

Soliq to'lagungacha olingan foyda - u umum xo'jalik faoliyatidan olingan foyda, plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi.

Tarmoq - qo'llanilayotgan vositalar, ishlab chiqarish texnologiyasi, tashkil qilish xususiyati hamda mahsulotlardan foydalanish tartibiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ishlab chiqarishning bir qismi.

Ta'rif ish haqi fondi - ishlab chiqarish texnologiyasiga ko'ra bajariladigan ishning hajmi, me'yori va razryadi stavkasiga ko'ra aniqlanadigan ish haqi fondi.

Ta'rif jadvali – mehnatga haq to'lash razryadlari, ta'rif koeffitsientlari va stavkalarini ichiga olgan jadval.

Tuproq unumdorligi – tuproqning mahsulot berish qobiliyati. Unumdorlikning tabiiy, sun'iy va iqtisodiy turlari mavjud. Tuproqning tabiiy unumdorligi – inson aralashmasdan hosil berish qobiliyati. Bu unumdorlik insonning mehnati bilan vujudga kelmagan. Uni tabiat yaratgan. Sun'iy unumdorlik – inson mehnatining mahsuli. Iqtisodiy unumdorlik tuproqning tabiiy va sun'iy unumdorligining yig'indisidir.

Ustav fondi - korxonalar faoliyatini ta'minlash uchun ta'sischilar tomonidan dastlab kiritiladigan va keyinchalik ko'paytirib borish mumkin bo'lgan, hajmi korxonaning ustavida belgilab qo'yiladigan mablag'. SHirkat xo'jaliklarida pay fondi va bo'linmas fondan iborat bo'ladi.

Xarajatlar - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishi.

Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) – tovar qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish uchun pay usulga va asosan oila (jamo) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga, boshqarishning umumiylikiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga asoslangan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt.

Qo'shimcha ish haqi – qo'shimcha mehnat sarf qilish, ish jarayonlarini takomillashtirish orqali qo'shimcha yetishtirilgan mahsulot yoki yuqori sifatli mahsulot hamda shu mahsulotlarni yetishtirish uchun xarajatlarni tejash evaziga to'lanadigan ish haqi.

Chorvachilik tizimi - chorva mollari sonini o'stirish va sifatini yaxshilash, maxsuldorligini muntazam oshirib borish hamda mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarni kamaytirish, umuman, chorva mollari va chorvachilik vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish orqali uni eng samarali tarmoqqa aylantirishni ta'minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy, texnologik va texnikaviy tadbirlar yig'indisi.

Favqulodda daromad (zarar) - xo'jalik yurituvchi sub'yektning odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlar.

Fermer xo'jaligi - o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yuritish sub'yekti.

Fyuchers shartnomasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirmasdan oldin sotish bilan bog'liq shartnoma.

Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) - bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi, plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida aniqlanadi;

Sho''ba korxona - o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot.

Hosildorlik – bir birlik ekin maydoni (gektar, sotix va boshqa) hisobiga yetishtirilgan hosilning fizik miqdori.

Yalpi foyda – ishlab chiqaruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) ixtiyorida qoladigan qo'shimcha qiymatning bir qismi (ish haqi va soliqlar to'lanishidan qolgan qismi).

Yalpi mahsulot – bir yil ichida biror tarmoqda jami ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan ish va xizmatlarning pulda ifodalanishi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va I.A.Karimov asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: «O'zbekiston», 1999. - 32b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik Kodeksi», “Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami”, – T.: “Sharq”, 2002.
3. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», T.: «Adolat», 1996
4. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi», – T.: «Adolat», 1995
5. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2004 yil 26 avgustdagi «Fermar xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni, «Xalq so'zi» gazetasi, 2004 yil 15 oktyabr
6. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: «O'zbekiston», 2003 y.
7. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasining yer Kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari», – T.: «Adolat», 1999 y.
8. O'zbekiston Respublikasining «Aktsiyadorlar jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni, «Xalq so'zi», 1996 yil 26 aprel
9. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 28 avgustdagi «Davlat yer kadastri to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», Toshkent, Adolat, 1999 y.
10. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda “Xususiy korxona to'g'risida”gi qonuni, "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2004 yil, 3-son, 28-modda.

- 11.O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 28 avgustdagi «Davlat yer Kadastri to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasining yer Kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari», – T.: «Adolat», 1999 y.
- 12.O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: «O'zbekiston», 2002 y.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada ekinlashtirish sohasidagi ustivor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, “Xalq so'zi” gazetasi, 15 iyun 2005 yil.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, “Xalq so'zi” gazetasi, 24 mart 2006 yil.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002 yil 28 avgustdagi Farmoni, Xalq so'zi, 2002 yil 30 avgust
- 16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoni. «Xalq so'zi», 2003 yil 25 mart.
- 17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 2003 yil 28 oktyabr.
- 18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 4 noyabrdagi «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 2004 yil 5 noyabr.
- 19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 11 martdagi pF-3406-sonli «qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini

- ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asoslari», «Konsauditinform-nashr», 2005
- 20.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Bozor islohotlaridan chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Xalq so'zi» 2005 yil 18 iyun №117/360-sonli.
- 21.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Tadbirkorlik sub'yektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Xalq so'zi», 2005 yil 16 iyun.
- 22.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etilayotgan hisobot tizimini takomillashtirish va uni haqqoniy talab etganligi uchun javobgarligini kuchaytirish to'g'risida» Qarori, «Xalq so'zi», 2005 yil 15 iyun.
- 23.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, Farmoni «Xalq so'zi», 2005 yil 20 iyun.
- 24.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uchun fermer xo'jaliklarini zamonaviy uskunalar va mini-texnologiyalar bilan ta'minlash borasidaga takliflarni tayyorlash bo'yicha Ishchi guruhini tuzish to'g'risida»gi Farmoyishi, Xalq so'zi// 11 iyul 2006 y.
- 25.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarni xamda kichik va o'rta biznes boshqa sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi 2000 yil 4 martdagi 75-sonli qarori, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: «O'zbekiston», 2003 y.
- 26.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmat-lar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2001 yil 10 sentyabrdagi 366-

sonli qarori, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: «O'zbekiston», 2002 y.

- 27.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi 357 - sonli qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida NIZOM”.
- 28.Mahsulot (ish va xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori. Xalq so'zi// 1999y. 6 fevral.
- 29.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4-sentyabrdagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori.
- 30.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476-sonli qarori.
- 31.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi «qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 486-sonli qarori.
- 32.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrda «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 607-sonli qarori.
- 33.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 12 avgustdagi 387-sonli «Mahsulotlar, xom-ashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to'g'risida»gi qarori

- 34.I.A.Karimov, «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», – T.: «O'zbekiston», 1996 y.
- 35.I.A. Karimov. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti to'kis hayot manbai - T.: 1998.
- 36.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: 1999.
- 37.Karimov I.A. Iqtisodni erkinlashtirish–farovonlik manbai, Saylanma asarlar. – T.: O'zbekiston, I Tom 2001.
- 38.Karimov I.A. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi tadbirlari. Saylanma asarlar, 9-tom. – T.: 2001.
- 39.Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – taraqqiyot garovi. Saylanma asarlar. 9-tom. – T.: 2001.
- 40.O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: «O'zbekistonqituvchi», 1998. - 231 b.
- 41.Karimov I.A., Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti. – T.: «O'zbekiston», 1998. - 27 b.
- 42.Karimov I.A., Asosiy maqsad - iqtisodiy yuksalishga erishishdir. - T.: «O'zbekiston», 1998. - 27 b.
- 43.Karimov I.A., O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «O'zbekiston», 1999. - 686 b.
- 44.Karimov I.A., Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: «O'zbekiston», 1999. - 410 b.
- 45.Karimov I.A., Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayotushunchasi pirovard maqsadimiz. - T.: «O'zbekiston», 2000. - 528 b.
- 46.Karimov I.A., Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: «O'zbekiston», 2001. - 432 b.

II. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Respublika Markaziy Bankining nizom va yo'riqnomalari

47. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning namunaviy ustavi. -T.: "O'qituvchi", 1998.-110-114.
48. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) ning Ustav jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida namunaviy nizomi. -T.: "O'qituvchi", 1998.-114-131.
49. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) ning bo'linmas jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida namunaviy nizomi. -T.: "O'qituvchi", 1998.-131-135
50. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) ning pay jamg'armasini shakllantirish, mulkiy paylarni taqsimlash va ular bo'yicha dividendlar to'lash tartibi to'g'risida namunaviy nizomi. -T.: "O'qituvchi", 1998.-136-138.
51. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida oila (damoa) pudrati to'g'risida namunaviy nizom.
52. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va xizmatlar ko'rsatish uchun oila (jamo) pudrati to'g'risida namunaviy shartnoma. – T.: "O'qituvchi", 1998.-147-156.
53. Yer uchuastkasi berish dalolatnomasining namunaviy shakli. – T.: "O'qituvchi", 1998. - 157-158.
54. «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni utkazish to'g'risidagi 1999 yil 20 iyuldagi 776-sonli Nizom», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: O'zbekiston, 2002.
55. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash to'g'risidagi 2000 yil 29 fevraldagi 902-sonli Tartib», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni

qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: O'zbekiston, 2002.

- 56.46. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs makomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xujaliklari va kichik biznesning boshka sub'yektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokreiditlash to'g'risidagi 903-sonli Tartib», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: O'zbekiston, 2002.
- 57.«Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini kichik va o'rta biznes sub'yektlarini milliy valyutada kreditlash to'g'risidagi 907-sonli Tartib», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: O'zbekiston, 2002.
- 58.Aktsiyadorlik-tijorat Tadbirkorbankning kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'yektlariga dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom.
- 59.«Tijorat banklari tomonida yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'yektlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash to'g'risida yangi taxrirdagi 1074-sonli Tartib», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami», – T.: O'zbekiston, 2002.
- 60.«Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitobni amalga oshiruvchi Jamg'arma to'g'risidagi Nizom», № 612-1, 25 fevral 2000.
- 61.O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2004 yil 6 yanvar 1295-son bilan ro'yxatga olingan «Fermer xujaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom».
- 62.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004 yil 16 apreldagi 1337-sonli «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni

garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

63.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004 yil 30 apreldagi 1345-sonli «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

64.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom (qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan birga).

65.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini lizingga olish tartibi.

66.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

67.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi 486-sonli qarori bilan tasdiqlangan «qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning Namunaviy Ustavi».

68.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi».

69.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligining Namunaviy Ustavi».

70.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligi xodimlarini yollash to'g'risida namunaviy shartnoma».

- 71.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi».
- 72.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnoma».
- 73.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xizmat ko'rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma».
- 74.O'zbekiston Respublikasi «O'zagrosug'urta» DASKning 2003 yil 31 yanvardagi 03/89-sonli «qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklarning ekinlardan kam hosil olish natijasida ko'rilgan moliyaviy zararni ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalari».
- 75.O'zbekiston Respublikasi «O'zagrosug'urta» DASKning 2003 yil 28 fevraldagi 03/97-sonli «qishloq xo'jaligi hayvonlarini tabiiy ofatlar, kasalliklar va boshqa voqealar natijasida nobud bo'lishidan yoki majburiy so'yilishidan ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalari».

III. Darsliklar, o'quv qo'lanmalar va ma'ruzalar matnlari

- 76.Kovalenko N.YA., Ekonomika selskogo xozyaystva: Kurs lektsiy. -M.: Tandem, 1999. - 458 s.
- 77.Serova ye.V., Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. -M.: GU VSHE, 1999. - 480s.
- 78.Lichko K.p., prognozirovanie i planirovanie agropromishlennogo kompleksa: Uchebnik. M.: Gardariki, 1999. - 264s.
- 79.Materialno - texnicheskoe obespechenie agropromishlennogo kompleksa/ pod red. V.YA.Limareva. M.:Izvestiya, 2002.

- 80.Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki. Koll. Avt.: R.A.Alimov, A.K.Bedrintsev, A.F.Rasulev i dr. pod red. A.X.Xikmatova. -T.: «O'zbekiston», 2001. - 352s.
- 81.Nosirov U., Usmonov O., Mirhamidov M. "Fermer bo'laman". –T.: Mehnat nashriyoti, 2002.-96b.
- 82.Ekonomika sela. pod red. S.V.Kiseleva. M., 2004.
- 83.Cramer, Gail L. Agricultural yeconomics and agribusintss / Gail L. Cramtr, Clarence W. Jenstn? Djuglas D.Sjuthgate, Jr. - 8th yed/ printed in United States of America, 2001 - 519p.
- 84.Marketing v ApK:Uchebnik.pod red.G.p.Abramovoy-M.: Kolos,1997-342 s.
- 85.Tsipkin YU.A., Lyukshinov A.N., Eriashvili N.D. Agromarketing i konsalting: Ucheb. posobie dlya vuzov. - M.: YUNITI-DANA, 200. - 637 s.
- 86.Xarit D.M., Kuzmina V.I i dr. Kak stat fermerom. - Sankt-piterburg: 1992. -846 s.
- 87.Lishanskiy M.L., Maslova I.B. Kratkosrochnoe kreditovanie selskoxozyaystvennix predpriyatiy: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M.: YUNITI-DANA, 2000. -287 s.
- 88.Qayumov F. Q. Effektivnost ApK v usloviyax perexoda k ro'nku: Obhie i regionalno'ye problemo'. – M.: IpO «poligran», 1992.
- 89.Serova E. V. Agrarnaya ekonomika: Uchebnik dlya studentov ekonomicheskix vuzov, fakultetov i spetsialnostey. – M.: GU VSHE, 1999.
- 90.Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrintsev, A. F. Rasulov i dr.// pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
- 91.Xakimov R., Otaqulov M., YUsupov E., YUsupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) – T., TDIU, 2004.-160 b.
- 92.Xakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. Ma'ruzalar matni. –T.: TDIU, 2005.-264b.

- 93.Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., YUsupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
- 94.Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
- 95.Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b.
- 96.Zokirov O., Pardaev A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). –T.: «O'AJBNT» Markazi, 2003, 455 b.
- 97.Ekonomika otrasley ApK / I.A.Minakov, N.I.Kulikov, O.V.Sokolov i dr.; pod red. I.A.Minakova. – M.: KolosS, 2004. – 464s.- (Uchebniki i ucheb. posobiya dlya studentov vissh. uchun. zavedeniy).
- 98.Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. N . Tuxliev, A. Krementsova. – T., Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediya», 2001.
- 99.Raskin I.I, Raskin L. I. ApK: proizvodstvo i pervichnaya pererabotka xlopka. –T.: Mexnat, 1986
100. Popov N. A. Ekonomika selskogo xozyaystva: uchebnik. – M.: Delo i Sersis,2000.
101. Ryabushkin.T.V., Dadashev.A.Z. Trudovie resursi i effektivnost proizvodstva. – M.: Znanie, 1981.
102. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. Avt. Sost.: N.Tuxliev, A.Krementsova. – T.: Gos. Nauch. Izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2001. - 448 s.
103. Uzbekistan za godi nezavisimosti. Ekonomicheskii obzor za 1991-1996gg. -T.: O'zbekiston, 1996. - 107 s.
104. Uzbekistan - delovoy partner (potentsial preobrazovaniy, investitsionniy klimat). -T.: O'zbekiston, 1996. -175 s.

105. Ivatov I., Razvitie dexkanskiego rinka v Uzbekistane. -T.: Fan, 1994. - 111 s.
106. Kasl E., Beker M., Nelson A., Effektivnoe fermerskoe xozyaystvovanie. -M.: Agropromizdat, 1991. -496 s.
107. Frolov V.I., Ekonomicheskii mexanizm mejxozyaystvennix svyazey v ApK. - M.: Agropromizdat, 1989. -144 s.
108. O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvatlash. -T.: «Bosqon», 1998. -92 b.
109. Mikroiqtisodiyot : Oliy O'zbekiston o'quv yurtlari uchun darslik. S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. – T.: «SHarq», 2001. -320 b.

IV. Ilmiy maqolalar

110. Shermatov O. Yangi texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №8. 9-10 bet.
111. Aslanova D. Marketing v ovohevodstve i proizvodstve fruktov. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №8. 18-22 bet.
112. Shamsiev A. G'o'zani navbatlab qator almashtirib sug'orish. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №9. 12-13 bet.
113. Shaymardonov SH va boshqalar. Suv samaradorligi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №12. 33 bet.
114. D-r Jon Bakster. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №7. 18-20 bet.
115. Muradov A. Mehnat bozori. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2004 №2. 31 bet.
116. Isoqova T. Aholi migratsiyasi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2004 №2. 35 bet.
117. Voxobjonov H. Ishsizlar soni o'saveradimi? Iqtisod va hayot jurnali. 2005 №4. 47- 49 bet.

V. Bitiruv malakaviy ishlar

118. Xojimurodov Ilhom. Chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'nalishlari. Bitiruv malakaviy ishi. TDIU, 2006.
119. Ergashev Nuriddin. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Bitiruv malakaviy ishi. TDIU, 2006.
120. Minavarov J. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish yo'llari. Bitiruv malakaviy ishi. TDIU, 2006.
121. Xudoyqulov J.U. Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish usullarining iqtisodiy samaradorligi. Bitiruv malakaviy ishi. TDIU, 2006.

VI. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plami

122. Semnadtsatie mejdunorodnie plexanovskie chteniya. Tezisdokladov. –M.: 2004.
123. Vosemnadtsatie mejdunorodnie plexanovskie chteniya. Tezisi dokladov. –M.: 2005.
124. Devyatnadtsatie mejdunorodnie plexanovskie chteniya. Tezisi dokladov. –M.: 2006.
125. Milliy iqtisodiyot sohalarida xalqaro tajribani o'rganish va uni kichik biznes, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishda tatbiq etish" ilmiy-amaliy anjuman. Ma'ruzalari to'plami. –T.: TDIU, 2005.
126. Mintaqaviy agrosanoat majmui xizmat bozorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. –Buxoro: BuxDU, 18-19 aprel, 2005 y.

VII. pedagogik va axborot texnologiyalar bo'yicha o'quv adabiyotlar, uslubiy qo'rsatmalar

127. Abduraxmanov Q.X. va boshqalar. "Iqtisodiy ta'limning o'qitish texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma –T.: TDIU, 2006.
128. Xayitov A.B., Hakimov R. va boshqalar. "Iqtisodiy ta'limning o'qitish texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma –T.: TDIU, 2005.

129. Nazarova F.M. “Obrazovatel'naya texnologiya po uchuenomu predmetu “Lizingovie operatsii». Texnologiya obucheniya v ekonomicheskom obrozovanii. Kniga 1. Met. posob. –T.: TGEU, 2005.
130. Golish L.V. «Vvedenie v texnologizatsiyu obucheniya v ekonomicheskom vuze». Texnologiya obucheniya v ekonomicheskom obrozovanii. Kniga 2. Met. posob. –T.: TGEU, 2005.

VIII. Gazeta va jurnallar

131. “O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi” jurnali. 2004-2006 yillar
132. “Bozor, pul, kredit” jurnali. 2004-2006 yillar
133. “Jamyat va boshqaruv” jurnali. 2004-2006 yillar
134. “Iqtisod va hisobot” jurnali. 2004-2006 yillar
135. “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnali. 2004-2006 yillar
136. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali. 2004-2006 yillar
137. “ApK: ekonomika, upravlenie” jurnali. 2004-2006 yillar.
138. “Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal” jurnali. 2004-2006 yillar
139. “Ekonomika selskogo xozyaystvo Rossii” jurnali. 2004-2006 yillar
140. “Ekonomicheskie strategii” jurnali. 2004-2006 yillar
141. “Ekonomicheskij jurnal” jurnali. 2004-2006 yillar
142. Xalq so‘zi gazetasi. 2004-2006 yillar
143. Qishloq hayoti gazetasi. 2004-2006 yillar.
144. Ekonomicheskie i filosofskie voprosi gezetasi. 2005 yil

IX. Statistik ma’lumotlar to’plami

145. Selkoe xozyaystvo Uzbekistana 2004: Statisticheskij sbornik. – T.: Gos komitet RUz po statistike, 2005.
146. O‘zbeiston iqtisodiy axborotnomasi. 2004.
147. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Axborot va tahliliy sharq. (ITTM) 2005 yil yanvar-iyun.

X. Internat saydlari

148. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
149. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, Akademiya, 2003, <http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm>
150. N.A. Popov «Osnovi rinochnoy agroekonomiki i selskogo predprinimatelstva», M: Tandem /EKMOS, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
151. N.A.Popov. Ekonomika otrasley ApK. Kurs lektsiy, 2002, <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
152. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
153. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. www.tsue.uz
154. University of Hawaii at Hilo – Agroecology and yenvironmental Qulaity program www.uhh.hawaii.edu
155. Moskovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya www.ecfak.timacad.ru
156. Priamurskiy Institut Agroekonomiki i Biznesa www.admin.ru
157. Saratovskaya selskoxozyaystvennaya akademiya. www.tstu.ru
158. Petraneva G.A., Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve. Uchebnik. 2004, <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
159. N.YA.Kovalenko, Ekonomika selskogo xozyaystva, M.: «YURKNIGA», 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>
160. Korolev YU.B. i dr., Menedjment v ApK, 2002 Uchebnik, <http://psbatishev.narod.ru/library/03762.htm>
161. Ekonomika i upravlenie v selskom xozyaystve, 2003, <http://www.bookler.ru/bookisbn/5-7695-1158-3.shtmlv>
164. www.bearingpoint.uz – Ekonomika R. Uz.

MUNDARIJA

Kirish		7
1-BOB.	“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmeti, vazifalari va o’rganish usullari.....	15
1.1.	“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmeti, boshqa fanlar bilan bog’liqligi va o’rni.....	15
1.2.	“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmetini o’rganish usullari.....	19
1.3.	“Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining vazifalari.....	20
	Qisqacha xulosalar.....	23
	Tayanch iboralar.....	24
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	24
	Asosiy adabiyotlar ro’yxati.....	25
	Internet saytlar.....	25
2-BOB.	Agrosanoat majmuasining mohiyati va tarkibi.....	27
2.1.	Agrosanoat integratsiyasi. “Agrosanoat majmuasi” tushunchasi, uning mohiyati.....	27
2.2.	Agrosanoat majmuasining tarkibi (tuzilmasi).....	29
2.3.	Agrosanoat majmuasining mamlakat iqtisodiyotidagi o’rni.....	33
2.4.	Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari.....	37
	Qisqacha xulosalar.....	44
	Tayanch iboralar.....	45
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	45
	Asosiy adabiyotlar ro’yxati.....	46
	Internet saytlar.....	47

3-BOB.	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha.....	48
3.1.	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning tarkibi.....	48
3.2.	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'рни.....	50
3.3.	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning hozirgi holati va rivojlanish yo'nalishlari.....	51
	Qisqacha xulosalar.....	55
	Tayanch iboralar.....	56
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	56
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	57
	Internet saytlar.....	58
4-BOB.	Agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi soha.....	59
4.1.	Agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohasi tarkibi.....	59
4.2.	Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohasining ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'рни.....	61
4.3.	Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohasining hozirgi holati va rivojlantirish	

	yo'nalishlari.....	63
	Qisqacha hulosalar.....	69
	Tayanch iboralar.....	70
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	71
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	71
	Internet saytlar.....	72
5-BOB.	Agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi .	73
5.1.	Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, tarkibi.....	73
5.2.	Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasining ahamiyati, iqtisodiyotdagi o'rni va hozirgi holati.....	77
5.3.	Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari.....	80
	Qisqacha xulosalar.....	83
	Tayanch iboralar.....	84
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	84
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	85
	Internet saytlar.....	86
6-BOB.	Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasi.....	87
6.1.	Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining mohiyati, tarkibi va asosiy funktsiyalari.....	87
6.2.	Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasining ahamiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni.....	89
6.3.	Agrosanoat majmuasi ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari.....	92
	Qisqacha xulosalar.....	93
	Tayanch iboralar.....	94

	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	94
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	95
	Internet saytlar.....	96
7-BOB.	Qishloq xo'jaligi - agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini.....	97
7.1.	Qishloq xo'jaligi – agrosanoat majmuasining asosiy bo'g'ini, uning o'ziga xos xususiyatlari.....	97
7.2.	Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.....	101
7.3.	Shirkat xo'jaliklari va ularning tashkiliy – iqtisodiy asoslari.....	131
7.4.	Fermer xo'jaliklari va ularning tashkiliy – iqtisodiy asoslari.....	135
7.5.	Dehqon xo'jaliklari va ularning tashkiliy – iqtisodiy asoslari.....	142
	Qisqacha xulosalar.....	147
	Tayanch iboralar.....	148
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	148
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	149
	Internet saytlar.....	150
8-BOB.	Qishloq xo'jaligi yer fondi va undan foydalanish.....	151
8.1.	Qishloq xo'jaligi yer tfondining tarkibi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	151
8.2.	Qishloq xo'jaligida yer fondlaridan foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar...	155
8.3.	Erdan foydalanish darajasi va samaradorligini oshirish yo'llari.....	159
	Qisqacha xulosalar.....	162

	Tayanch iboralar	163
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	163
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	164
	Internet saytlar.....	165
9- BOB.	Agrosanoat majmuasining mehnat resurslari va ulardan foydalanish.....	166
9.1.	Mehnat, mehnat resurslari tushunchasi, uning mohiyati, tarkibi.....	166
9.2.	Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari.....	167
9.3.	Mehnat unumdorligi va uni hisoblash usullari.....	170
9.4.	Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish yo'nalishlari.....	172
	Qisqacha xulosalar.....	174
	Tayanch iboralar.....	175
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	176
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	176
	Internet saytlar.....	177
10-BOB.	Agrosanoat majmuasining moddiy-texnika resurs- lari va ulardan foydalanish.....	178
10.1.	“Agrosanoat majmuasi moddiy – texnika resurslari” tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati.....	178
10.2.	Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari.....	180
10.3.	Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	185
10.4.	Aylanma mablag'lar va ulardan foydalanish.....	186
	Qisqacha xulosalar.....	189
	Tayanch iboralar.....	190

	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	190
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	191
	Internet saytlar.....	192
11-BOB.	Agrosanoat majmuasi tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxi.....	193
11.1.	“Tannarx” tushunchasi, uning mohiyati.....	193
11.2.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi.....	195
11.3.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish yo'llari.....	237
	Qisqacha xulosalar.....	239
	Tayanch iboralar.....	239
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	240
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	240
	Internet saytlar.....	241
12-BOB.	Agrosanoat majmuasi tarmoqlari mahsulotlari narxlari.....	242
12.1.	“Narx” tushunchasi, uning mohiyati va funktsiyalari.....	242
12.2.	Qishloq xo'jaligida narxlar tizimi.....	245
	Qisqacha xulosalar.....	249
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	249
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	250
	Internet saytlar.....	251
13-BOB.	Agrosanoat majmuasida fan, texnika taraqqiyoti va intensivlashtirish.....	252
13.1.	Intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati.....	252
13.2.	Fan, texnik taraqqiyoti va intensivlashtirish.....	254

13.3.	Qishloq xo'jaligining intensivlashtirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatgichlar....	256
13.4.	Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	257
	Qisqacha xulosalar.....	262
	Tayanch iboralar.....	263
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	263
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	263
	Internet saytlar.....	264
14-BOB.	Agrosanoat majmuasi marketingi va uni samaradorligi.....	265
14.1.	“Marketing” tushunchasi, uning mohiyati va samaradorligi.....	265
14.2.	Qishloq xo'jaligi marketingi funktsiyalari.....	271
14.3.	Qishloq xo'jaligi marketingi strategiyasini tuzish.....	274
	Qisqacha xulosalar.....	276
	Tayanch iboralar.....	278
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	278
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	278
	Internet saytlar.....	279
15-BOB.	Agrosanoat majmuasini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash.....	280
15.1.	Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning mohiyati va zaruriyati.....	280
15.2.	Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari, ularni amalga oshirish shakllari va usullari.....	284

15.3.	O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari.....	291
	Qisqacha xulosalar.....	299
	Tayanch iboralar.....	299
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	300
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	300
	Internet saytlar.....	301
16-BOB.	Agrosanoat majmuasida moliya-kredit tizimining amal qilish mexanizmi.....	302
16.1.	Agrosanoat majmuasi moliya-kredit tizimining mohiyati va xususiyatlari.....	302
16.2.	Qishloq xo'jaligini kreditlash usullari, shakllari va ularning manbalari.....	304
16.3.	Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni moliyalash- tirishning boshqa manbalari va ulardan samarali foydalanish.....	312
	Qisqacha xulosalar.....	318
	Tayanch iboralar.....	319
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	319
	Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	320
	Internet saytlar.....	320
17-BOB.	Evropa hamjamiyatining yagona agrar siyosati.....	321
17.1.	Evropa hamjamiyati yagona agrar siyosatining zarurati, ahamiyati va rivojlanishi.....	321
17.2.	Evropa yagona agrar siyosatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi.....	324
	Qisqacha xulosalar.....	325
	Tayanch iboralar.....	326

Nazorat va muhokama uchun savollar.....	326
Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	327
Internet saytlar.....	327
Glossariy	329
Adabiyotlar ro'yxati	340

CONTENT

	Introduction	7
Chapter 1.	Subjekt, tasks and methods of studiing of “Agroindustrial complex economy”	15
1.1.	Subjekt of “Agroindustrial complex yeconomy”, its relations wich other sciences.....	15
1.2.	Methods of studiing of “Agroindustrial complex yeconomy” ...	19
1.3.	Tasks of “Agroindustrial complex economy”.....	20
	Brief summary.....	23
	Key phrasez.....	24
	Questions for controlling and discussion.....	24
	Recommended literature.....	25
	Internet siyts.....	25
Chapter 2.	Sighificance of agroindustrial complex and its structure...	27
2.1.	Agroindustrial integration. Conception of “agroindustrial complex”, its significance	27
2.2.	Structure of agroindustrial complex.....	29
2.3.	Importance of agroindustrial complex in countries economy.....	33
2.4.	Main directions of agroindustrial complex developmntnt.....	37
	Brief summary.....	44
	Key phrasez.....	45
	Questions for controlling and discussion.....	45
	Recommended literature.....	46
	Internet siyts.....	47
Chapter 3.	The field producing means of production for agroindustrial complex sections	48
3.1.	The structure of the field producing means of production for	

	agroindustrial complex sections.....	48
3.2.	Importance of the field means of production for agroindustrial complex section and its role in economy.....	50
3.3.	Modern state of the field means of production for agroindustrial complex section and ways of its developmnt.....	51
	Brief summary.....	55
	Key phrasez.....	56
	Questions for controlling and discussion.....	56
	Recommended literature.....	57
	Internet siyts.....	58
Chapter 4.	The field of agroindustrial complex producing proccessing and delivering agroindustrial production	59
4.1.	Structure of the field of agroindustrial complex producing, proccessing and delivering agroindustrial production.....	59
4.2.	Significance of the field of agroindustrial complex producing, proccessing and delivering agroindustrial production and its role in economy.....	61
4.3.	Modern state of the field of agroindustrial complex producing, proccessing and delivering agroindustrial production ways of its development.....	63
	Brief summary.....	69
	Key phrasez.....	70
	Questions for controlling and discussion.....	71
	Recommended literature.....	71
	Internet siyts.....	72
Chapter 5.	Agroindustrial complex infrastructure.....	73
5.1.	Significance and structure agroindustrial complex productional infrastructure.....	73

5.2.	Economic importance of agroindustrial complex productional infrastructure, its role in economy and its modern state.....	77
5.3.	Ways of development of agroindustrial complex productional infrastructure.....	80
	Brief summary.....	83
	Key phrasez.....	84
	Questions for controlling and discussion.....	84
	Recommended literature.....	85
	Internet siyts.....	86
Chapter 6.	Social infrastructure of agroindustrial complex.....	87
6.1.	Significance of agroindustrial complex social infrastructure, its structure and main functions.....	87
6.2.	Economic importance of agroindustrial complex social infrastructure and its role in development of economy	89
6.3.	Ways of development of agroindustrial complex social infrastructure.....	92
	Brief summary.....	93
	Key phrasez.....	94
	Questions for controlling and discussion.....	94
	Recommended literature.....	95
	Internet siyts.....	96
Chapter 7.	Agriculture is the main chain in agroindustrial complex...	97
7.1.	Agriculture is the main chain in agroindustrial complex. Its particular features	97
7.2.	The role of agriculture in countries economy and its importance.....	101
7.3.	Agricultural farming cooperatives and their organizational	

	economic basis.....	131
7.4.	Farms and their organizational economic basis.....	135
7.5.	Individual households and their organizational economic basis.....	142
	Brief summary.....	147
	Key phrasez.....	148
	Questions for controlling and discussion.....	148
	Recommended literature.....	149
	Internet siyts.....	150
Chapter 8.	Agricultural land funds and their exploitation	151
8.1.	Structure of agricultural land funds, their importance and characteristics	151
8.2.	Agricultural land funds exploitation yextents and indices of their effectivity.....	155
8.3.	Ways of improving the yextent of land funds exploitotion and effectivity	159
	Brief summary.....	162
	Key phrasez.....	163
	Questions for controlling and discussion.....	163
	Recommended literature.....	164
	Internet siyts.....	165
Chapter 9.	Agroindustrial complex labour resources and their exploitation.....	166
9.1.	Concept of agroindustrial complex labour resources, its significance and structure.....	166
9.2.	Indices of labour resources exploitation.....	167
9.3.	Labour effectivity and its accounting methods.....	170
9.4.	Direction on impoving labour resources exploitation and	

	labour effectivity in agriculture.....	172
	Brief summary.....	174
	Key phrasez.....	175
	Questions for controlling and discussion.....	176
	Recommended literature.....	176
	Internet siyts.....	177
Chapter 10.	Material and technical resources of agroindustrial complex and their exploitation	178
10.1.	Concept of “Agroindustrial complex material and technical resources” its significance and importance.....	178
10.2.	Main agricultural funds and their yexploitation indices.....	180
10.3.	Impreving ways of main agricultural funds exploitation effectivity	185
10.4.	Turnover funds and their realization.....	186
	Brief summary.....	189
	Key phrasez.....	190
	Questions for controlling and discussion.....	190
	Recommended literature.....	191
	Internet siyts.....	192
Chapter 11.	production expenses and prime cost of output in agroindustrial complex branches.....	193
11.1.	Concept of prime cost, its significance	193
11.2.	Agricultural productions prime cost estimating orders.....	195
11.3.	Ways of decreasing agricultural productions prime costs.....	237
	Brief summary.....	239
	Key phrasez.....	239
	Questions for controlling and discussion.....	240
	Recommended literature.....	240

	Internet siyts.....	241
Chapter 12.	Agroindustrial complex output prices.....	
12.1.	Concept of “price”, its significance and functioning	242
12.2.	Price structure in agriculture.....	242
	Brief summary.....	245
	Key phrasez.....	249
	Questions for controlling and discussion.....	249
	Recommended literature.....	250
	Internet siyts.....	251
Chapter 13.	Science, technical development and intensification in agroindustrial complex	252
13.1.	Economic significance of intensification of agriculture.....	252
13.2.	Science, technical development and intensification.....	254
13.3.	Agricultural intensification yextents and its economic effectivity	256
13.4.	Main directions of agricultural intensification.....	257
	Brief summary.....	262
	Key phrasez.....	263
	Questions for controlling and discussion.....	263
	Recommended literature.....	263
	Internet siyts.....	264
Chapter 14.	Agroindustrial complex marketing and its effectivity.....	265
14.1.	Concept of “marketing”, its significance and effectivity.....	265
14.2.	Functions of agricultural marketing	271
14.3.	Formation of agricultural marketing strategy.....	274
	Brief summary.....	276
	Key phrasez.....	276
	Questions for controlling and discussion.....	278

	Recommended literature.....	278
	Internet siyts.....	278
Chapter 15.	Governmental regulation and promotion of agroindustrial complex	279
15.1.	Significance and nessesary of governmental regulation and promotion of agroindustrial complex	280
15.2.	Main tasts of governmental regulation and promotion of agriculturure, forms and methods of their realization.....	280
15.3.	Agrarian policy of the Republic of Uzbekistan and way of its perfecting.....	284
	Brief summary.....	291
	Key phrasez.....	299
	Questions for controlling and discussion.....	299
	Recommended literature.....	300
	Internet siyts.....	300
Chapter 16.	Mechanizm of finance-credit system operations in agroindustrial complex	301
16.1.	Significance and characteristics of agroindustrial complex finance-credit system	302
16.2.	Methods, form and sources of agricultural credits.....	302
16.3.	Other financial sources of agricultural production and their yeffective realization.....	304
	Brief summary.....	312
	Key phrasez.....	318
	Questions for controlling and discussion.....	319
	Recommended literature.....	319
	Internet siyts.....	320
Chapter 17.	Single agrarian policy of european Commonwealth.....	321

17.1.	Ntssesity, inportance and development of single agrarian policy of europian Commonwelth.....	321
17.2.	Mechanizm of agricultural output prices promotion in Singlt agrarian policy of europian Commonwelth.....	324
	Brief summary.....	325
	Key phrasez.....	326
	Questions for controlling and discussion.....	326
	Recommended literature.....	327
	Internet siyts.....	327
	Glossary	329
	Recommended literature.....	340